KORXONA IQTISODIYOTI



TOSHKENT – 2013

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

KORXONA IQTISODIYOTI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2013

UO'K: 334.722(075)
KBK65.9(2)29
K-48 701

K-48 Korxona iqtisodiyoti. Darslik. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 368 bet.

ISBN 978–9943–10–986–5

Ushbu darslikda bozor iqtisodiyotining shakllanishi sharoitida korxonalar iqtisodiyoti va faoliyatining tashkil etilishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Darslik kirish va o'n ikkita bobdan iborat bo'lib, ularda kursning mazmuni va vazifalari, korxonalarning xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida tashkil etilishi va faoliyat yuritishi bilan bog'liq tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy masalalar bayon etilgan.

Kitobda korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari holatini baholash usullarini o'rganishga katta e'tibor berilgan. Bozor sharoitida korxona biznes-rejasini ishlab chiqish, korxonalar faoliyatini rejalashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Korxona resurslaridan foydalanish, investitsiyalash, korxona xavfsizligi va uning tijorat siri masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Darslik oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan magistrantlar, rahbar xodimlar va mutaxassislar hamda malaka oshirish institutlari, markazlari va fakultetlarida ham foydalanishlari mumkin.

UO'K: 334.722(075)
KBK65.9

Mualliflar:
B.A.Abdukarimov, A.B.Bektemirov, M.Q.Pardayev, SH.S.Salimov, E.SH.Shavqiyev, F.B.Abdukarimov.

Mas'ul muharrir:
A.S.Soliyev – iqtisod fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Yo.Abdullayev – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, i.f.d., prof.; **X.Xo'jaqulov** – i.f.n., dotsent; **T.Sharipov** – i.f.n., dotsent;

ISBN 978–9943–10–986–5

© B.A.Abdukarimov va boshq, 2013.
© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

«Ta'lim darslikdan boshlanadi. Biz darslik yaratishga eng ilg'or va eng sharafli vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko'tarishimiz lozim».

I.A.Karimov

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat uchta bir-biriga bog'liq bo'lgan muammolarga duch keladi. Iqtisodiyot nazariyasi bu muammolarni quyidagicha tariflaydi:

Birinchidan, nima ishlab chiqarish va qancha miqdorda?

Ikkinchidan, qanday ishlab chiqarish va qancha xarajatlar zarur bo'ladi?

Uchinchidan, kim uchun ishlab chiqariladi va ular qanday taqsimlanadi?

Jahon amaliyotidan ma'lumki, rivojlangan davlatlar ham, yuqoridagi masalalarni hal qilishda bir talay negativ hodisalarga duch kelmoqda. Bular jumlasiga krizislar, monopolizm, inflyatsiya, ishsizlik, iste'mol bozoridagi nomutanosiblik, resurslarni, tovar va xizmatlarni difitsitligi, pul muomalasidagi nuqson va kamchiliklar kabilar.

Yuqorida keltirilgan uchta fundamental muammoni hal qilish, keltirilgan kamchiliklarni, nuqsonlarni yechimini topish o'z-o'zidan hal bo'lmaydi. Buning uchun ular hal qilish usullari va mexanizmini to'g'ri topish, iste'molchilar talabini to'la qondirish yo'llarini izlash, yuqori samarali ishlab chiqarishni tashkil qilish, uni boshqarish, tarmoqlararo va xo'jalik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni boglash, sotuvchi bilan iste'molchilar orasidagi munosabatlarni takomillashtirish kabi iqtisodiy hodisalarni uygunlashtirish kabi masalalarni hal qilish zarurati to'giladi.

Bularni hal qilish nazariy va amaliy bilimlarni mustahkam egallagan, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etishda ijodiy

qo‘llayoladigan, masalani to‘g‘ri o‘rgana oladigan, uni nihoyasiga yetkazish bo‘yicha optimal qaror qiladigan mutaxassislarga ko‘pdan bog‘liqdir.

Bunday mahoratlarga ega bo‘lish sifatli iqtisodiy, nafaqat abstrakt iqtisodiy nazariya, balki ko‘proq amaliy iqtisodiy bilim beradigan adabiyotlarni, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratilishi va chop etilishiga ham bog‘liqdir.

Jamiyatning rivojlanib borishi davomida ko‘pgina yangi fanlar paydo bo‘la boshlaydi, mavjud fanlar esa yanada takomillashadi. «Korxona iqtisodiyoti» fani ikkinchisiga taalluqli.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi «Korxona iqtisodiyoti» fanining mazmunini o‘zgartirdi va uni o‘rganishga bo‘lgan talab yanada ortdi. Bu fanni bilmasdan turib, har qanday korxonani rivojlantirib bo‘lmaydi. Natijada jamiyatning rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi.

«Korxona iqtisodiyoti» fani ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy qonunlarning amal qilishidagi o‘ziga xos xususiyatlarini va bu qonunlarning harakat qilish mexanizmini va ulardan foydalangan holda korxonalarni maqsadga muvofiq tashkil etish va yuritish yo‘llarini hamda usullarini o‘rgatadi.

«Korxona iqtisodiyoti» fani iqtisodiyotning birlamchi bo‘g‘ini muammolari, ishlab chiqarish omillari bilan bog‘liq muammolar haqidagi ilmdir. Ishlab chiqarish omillariga moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar hamda tadbirkorlik qobiliyati kiradi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi, qolaversa uning taqdiri, aksariyat hollarda, nafaqat korxonalardagi resurslar miqdoriga, ayni paytda ularda faoliyat yuritayotgan xodimlarning ishbilarmonligi bilan ham bog‘liqdir. Korxonalar rahbarlari va mutaxassislarining udda-buronlik, ishbilarmonlik hislatlari hozirgi iqtisodiy tanglik, moddiy va moliyaviy resurslarning tanqisligi davrida judayam seziladi.

«Korxona iqtisodiyoti» fani bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish asosida korxonalarning foydalilik darajasini oshirish masalalarini o‘rganadi. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti esa, aynan, ishlab chiqarish korxonalarining samarali ishlashlari bilan bog‘liqdir.

«Korxona iqtisodiyoti» fani o‘z o‘quvchilariga quyidagilarni o‘rganishga ko‘maklashishni asosiy vazifa etib belgilaydi:

- nazariyada va amaliyotda qo'llaniladigan iqtisodiy kategoriyalarni;

- korxonaning boshqaruv tuzilishini va ishlab chiqarishni tashkil etish usullarini;

- korxona faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish va prognozlash usullarini;

- korxona faoliyatini tartibga solish tamoyillari va usullarini;

- ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini;

- turli mulk shakllariga asoslangan korxonalarni tashkil etish va ularni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash yo'llarini;

- ishlab chiqarish jarayonlarida sodir bo'ladigan qonuniyatlarni aniqlash va shu orqali ishlab chiqarish jarayonlariga iqtisodiy baho berish yo'llarini, usullarini ishlab chiqishni va ularni amaliyotga joriy qilishni;

- mehnatni tashkil etish va uni rag'batlantirishning eng mukammal tizimini ishlab chiqishni va joriy etish yo'llarini;

- korxona faoliyatini yuritishda sodir bo'ladigan turli vaziyatlarni tahlil etish, to'g'ri xulosalar qilishni, tavsiya va takliflar kiritishni.

Fan va texnikaning shiddatli rivojlanayotgan hozirgi sharoitida olingan bilim doimo to'ldirilib borilishi kerak. Faqat shundagina bilim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi va jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylanadi.

«Korxona iqtisodiyoti» fani bakalavrlarni tayyorlash uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalari asosida «Iqtisodiyot», «Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish» hamda «Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)» yo'nalishlarida o'qitiladi.

Ushbu kursni o'qish jarayonida bakalavrlar quyidagilarni bilishi shart. Korxona bozor iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini ekanligi, korxonaning turlari va shakllari, uning moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini, ishlab chiqarish va boshqaruv tarkibini, moddiy-texnik ta'minotini, xo'jalik faoliyatini tahlili va rejalashtirishni, mehnatni tashkil qilish va ish haqi to'lash, investitsiya faoliyati kabilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik faoliyatini yuritish, chegaralangan moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish mutaxassislardan chuqur iqtisodiy bilimga ega bo'lishlikni talab

qiladi. Xo'jalik yuritish bu asosan optimal va ratsional qarorlar qabul qilish bilan bog'liqdir. Bu ishlar mulk shaklidan, turlaridan qat'iy nazar barcha xo'jalik obyektlari uchun bir xil qarashlarni talab qiladi.

Bunday vazifalarni bajarish uchun «Korxona iqtisodiyoti» fanida o'rgangan bilim mutaxassislar uchun nazariy va amaliy omil bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ushbu darslikda korxona faoliyatini yuritishga bog'liq tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy masalalar, nazariy xulosalar amaliy ma'lumotlar bilan isbotlangan holda yoritilishiga harakat qilingan.

O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tishi, uning bilan bog'liq ko'p ukladli xo'jalik yuritishga o'tish, bozor infrastrukturasini hamda yangi xo'jalik mexanizmini shakllanishi korxonalarda xo'jalik yuritishni iqtisodiy, huquqiy, informatsion muhitini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu holat korxonani mazmunini, statusini, uning jamiyatdagi mohiyatini, bozor subyektlari ichidagi rolini tubdan o'zgartirdi. Ularni ayrimlarini keltiramiz: birinchidan, korxonaning maq-sad va vazifalari oldingi «ma'muriy» boshqaruv iqtisodiyot tizimidagidan tubdan o'zgaradi;

Ikkinchidan, o'zgarishlar korxona faoliyatini harakteriga ta'sir qilib, ularni oddiy tovar (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchidan tadbirkorlik biznesiga yo'naltirdi;

Uchinchidan, korxonalarning yangi tashkiliy-huquqiy shakllari va ko'p turlari vujudga keldi;

To'rtinchidan, korxonalarni tashqi muhiti, ularning o'zaro aloqalari hamda iqtisodiyotdagi boshqa subyektlar bilan bog'liqligi, mezo aloqalari tubdan o'zgardi;

Beshinchidan, korxona faoliyatini boshqarishda asosiy o'rinni buyruqlar, farmoyishlar, direktiv ko'rsatmalar o'rniga iqtisodiy usullar, iqtisodiy manfaatdorlik kirib keldi;

Oltinchidan, korxonalar xo'jalik subyekti sifatida xo'jalikni boshqarish, yuritish, resurslarni ishlatish, o'z qarorlarini bajarilishi uchun javobgarlik sohalarida mustaqillikga erishdi. Korxonalar faoliyatini natijasi, yutuqlari to'la tekis ularni samarali ish yuritishga bog'liq bo'lib qoldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiy bilimlarni, shu jumladan, korxona iqtisodi fanini ahamiyati ortib bormoqda, bu hol

avtorlarni ko'p yillik oliy o'quv yurtidagi tajribasiga asoslangan holda ushbu darslikni yaratishga erishildi va uning ikkinchi qayta ishlangan va to'ldirilgan nashrini tayyorlashga undadi.

Darslikning quyidagi boblari, paragraflari:

Kirish, 1,5,9-boblar hamda glossariy va adabiyotlar ro'yxati – prof. B.A.Abdukarimov;

2,10-boblar – dots. A.B.Bektemirov;

3-bob – dots. Sh.S.Salimov;

4,6,11-boblar – dots. v.b. F.B.Abdukarimov;

7,8-boblar – dots. E.Sh.Shavqiyeva;

12-bob – prof. M.Q.Pardayevlar tomonidan tayyorlangan.

Mualliflar jamoasi taqrizchilar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, i.f.d., professor Yo.Abdullayev, i.f.n., dotsent X.Xo'jaqulov va i.f.n., dotsent v.b. T.S.Sharipovlarning qimmatli maslahatlari uchun va darslikni tayyorlashda ma'lumotlar bilan ta'minlashdagi ishtiroki hamda kompyuterda matnlarni terganligi uchun SamISI «Iqtisodiyot» kafedrasi o'qituvchilari E.Suyunov, U.Normurodov va Z.Artikovlarga o'z minnatdorchiligini izhor qiladi.

Ushbu darslik bo'yicha Siz o'quvchilarning xolisona taklif va tavsiyalaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Mualliflar

Manzil: 703000, Samarqand sh., Amir Temur, 9.

I BOB. KURSNING MAZMUNI VA VAZIFASI

Reja:

1.1. Iqtisodiyot jamiyat va hayotning asosi.

1.2. Iqtisodiy tuzumning turli modellari.

1.3. «Korxona iqtisodiyoti» kursining iqtisodiyotdagi ahamiyati va iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni.

1.4. Kursning obyekti, predmeti va vazifalari.

1.5. Korxona iqtisodiyoti fanining usullari.

1.1. Iqtisodiyot–jamiyat hayotining asosi

Iqtisodiyot – alohida dunyo. U o'z qonunlari va qonuniyatlari, tamoyillari, muammolari va qarama-qarshiliklari bilan ajralib turadi. U murakkab, qiziqarli va topishmoqqa o'xshaydi va bosh xususiyati – hamma uchun ochiq.

Iqtisodiyotdan tashqarida bo'lish mumkin emas, xuddi ko'zga tashlanmaydigan nurday, unda sodir bo'layotgan iqtisodiy munosabatlar barchani hayotiga tegishli.

Jamiyatni iqtisodiy uyushtirilishidan insonlarning hayoti bog'liq. Agar u oqilona tashkil qilinsa insonlar erkin va boy, ular samarali mehnat qiladi, agar iqtisodiy tuzum ratsional bo'lmasa, unda insonlar tobo (erksiz) va kambag'al, chunki tobelik unumsiz mehnatning otasi. Shunday qilib, insonning farovon hayoti ishlab chiqarish kuchlarini rivoji darajasi va iqtisodiy munosabatlar harakatiga bog'liq. Ushbu holatlar ko'pincha insonlarning bilimdonligiga, yer hayoti muammolari to'g'ri, ratsional va optimal hal qilishiga bog'liq. Chunki iqtisodiy bilim ijtimoiy xurofotdan, nodoniy haroblik, hayotda sodir bo'lgan xatolardan saqlanish vositasidir. Chunki iqtisodiyotni bilimsiz boshqarish jamiyatni ijtimoiy fojiyaga olib keladi. Insoniyatning barcha ijtimoiy va siyosiy muammolari iqtisodiy ildizga ega.

Insoniyat farovon hayotini ta'minlash jamiyatda ishlab chiqarishni rivojlanganlik darajasiga ko'pdan bog'liq. O'zekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov 2012-yil mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqti-

sodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining (18-yanvar 2013-yil) majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarni bejiz takidlamadi: «O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi»[1]...

«2013-yil va yaqin kelajakka mo'jallangan dasturimizni amalga oshirishda iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'rin tutishi darkor»[2].

Ishlab chiqarishning manbaasi bu – jamiyatda mavjud resurslar hisoblanadi. Resurslar quyidagicha tasniflanadi:

1. Tabiiy resurslar – ishlab chiqarishga yaroqli tabiiy boyliklar.
2. Moddiy resurslar – inson mehnati bilan tayyorlangan ishlab chiqarish vositalari (mehnat predmetlari va mehnat qurollari majmuasi). Bular o'z o'rnida ishlab chiqarishning natijasidir.
3. Mehnat resurslari – ishga yaroqli yoshdagi aholi.
4. Moliyaviy resurslar – ishlab chiqarishga jalb qilingan pul mablag'lari.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida alohida resurslarning ahamiyati o'zgarib kelgan. Masalan: noindustrial jamiyatda (ibtidoiy va feodal jamiyatlarda) ustuvor bo'lib tabiiy va mehnat resurslari o'rin olgan; industrial jamiyatda moddiy resurslar va hozirgi jamiyatda intellektual va axborot resurslari.

Ushbu resurslar ishlab chiqarish omillari (yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik va axborotlar) bilan birlashganda iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar ya'ni moddiy va ma'naviy boyliklar vujudga keladi.

---

[1] Xalq so'zi. 2013-yil 19-yanvar, 13-son. (5687), 1-bet.
[2] O'sha yerda, 3-bet.

Tovarlar va xizmatlarning miqdori va sifati inson farovonligini yuksaltirishdagi ahamiyati hammaga ayon, shu sababli biz ularni jamiyat va inson hayotidagi o'rnini yoritib o'tirmaymiz.

1.2. Iqtisodiy tuzumning turli modellari

Ushbu masalani yoritishni «Tuzum» atamasini mazmunini yoritishdan boshlashni maqul topdik.

Tuzum atamasi grekcha «systema» (butunlik) so'zidan kelib chiqib, biz ko'rayotgan masalada «shakl», «tashkil qilish, uyushtirish tartibi»ni anglatadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum nuqtai nazardan «Tuzum» – bu jamiyat taraqqiyotida uzluksiz bog'liqlar (aloqalar) va alohida narsalar, xodimlar va jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar natijasida va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot asosida vujudga keladigan tashkiliy tuzilmalar, birlashmalar, davlat tuzilmalari va rahbar organlarini tashkillanish shakllarini anglatadi.

Iqtisodiy tuzumning faoliyat yuritishi quyidagi asosiy vazifalarni bajarilishini talab qiladi:

- Iqtisodiyotni ishlash qobiliyatini shakllantirish va ta'minlash;
- Butun turdagi iqtisodiy faoliyatni koordinatsiya qilish;
- Ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish.

Iqtisodiy tuzum ko'p omilli bo'lib, unga asosan quyidagilar ta'sir ko'rsatadi:

- davlat tomonidan qabul qilinayotgan xo'jalik yuritish bo'yicha chora-tadbirlar;
- mulk turlari (tarkibi);
- bozor mexanizmini koordinatsiya qilish va axborotlar bilan ta'minlash;
- aholini mehnatga motivatsiyasini yuksaltirish hamda maqsadni belgilash mexanizmi.

Insoniyat taraqqiyoti har xil iqtisodiy tuzumlarni o'z boshidan o'tkazgan. Ularning har biri uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar to'g'risida fikr yuritganda insoniyat taraqqiyotida kuzatilgan formatsiyalar misolidan boshlash asosli bo'ladi. Chunki insoniyat jamiyati o'z-o'zicha rivojlanuvchi tuzum

bo‘lib, o‘z taraqqiyoti davrida har-xil bosqichlarni bosib o‘tgan. Ular iqtisodiyot nazariyasida ijtimoiy-iqtisodiy farmatsiyalar deb yuritiladi.

Formatsiya – lotincha «farmatio» so‘zidan kelib chiqib, birlashma, ko‘rinish ma’nosini anglatadi. Iqtisodiyotda biron bir narsani, iqtisodiy reallikni tashkiliy tuzilishi, shaklini tasvirlash uchun ishlatiladi.

Biz ko‘rayotgan masalada insoniyat taraqqiyotida bosqichma-bosqich vujudga keluvchi, bir-biridan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishi darajasi, o‘z davriga mos tavsif bilan farqlanuvchi jamiyat qurilishini ifodasidir.

Insoniyat jamiyat taraqqiyotining birlamchi bosqichi – ibtidoiy ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya hisoblanadi. Fanda umumiy qabul qilingan nazariya bo‘yicha ibtidoiy, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani boshlanishi «paleolit» davriga (40–35 ming yil oldin) to‘g‘ri keladi, adabiyotlarda bu davrni «ibtidoiy kommunizm» degan fikrlar ham uchraydi. Chunki bu davrda sinflar bo‘lmagan, ishlab chiqarish vositalariga bir xil munosabat, moddiy boyliklarni teng taqsimoti amal qilgan, xususiy mulk va iqtisodiy teng degan munosabatlar yo‘q bo‘lgan.

Ikkinchi formatsiya quldorchilik jamiyati. Bu jamiyat insoniyat taraqqiyotida birinchi sinfdorlarning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasi bo‘lib, u xususiy (qadimiy-antik) mulk shakliga va insonni inson tomonidan ekspluatatsiya (ishchini ixtiyorisiz mehnatga majbur qilish) qilishga asoslangan. U ibtidoiy formatsiyani parchalanishi natijasida Osiyo va Afrikada vujudga kelib o‘zining yuqori cho‘qqisiga Qadimgi Gresiya va Qadimgi Rimda yetgan (miloddan oldingi V asr) va boshqa davlatlarga tarqalgan (Italiya (miloddan oldingi III asr), Yegipet (miloddan oldingi II–I asr), Xitoy (miloddan oldingi II–I asr). Ayrim davlatlar quldorchilik davrini boshdan kechirmagan va ibtidoiy jamiyatdan to‘g‘ri feodalizmga o‘tib ketgan (o‘rta, shimoliy va sharqiy Yevropa davlatlari, nemislar, slovyanlar va boshqalar). Hamda o‘rta asrda Tropik Afrika davlatlari (Nubiya, Sennar, Efiopiya va boshqalar). Quldorchilik davrining bozordagi asosiy tovari bo‘lib, «Qul» hisoblangan. U quldorning mulki hisoblangan. Ushbu davrda bejiz «Qul savdosi» vujudga kelmagan va shunday atama ishlatilgan. Quldorchilik jamiyatida ishlab chiqarish natural shaklda harakterga

ega bo'lgan. Qullar boylik topish manbaasi bo'lib, asosan urushlar va dengiz qaroqchilari hisoblangan.

Quldorchilik davrida, asosan natural xo'jaligi bo'lishiga qaramasdan tovar ishlab chiqarish va tovar ayriboshlash tegishlicha rivoj topgan. Tovar-pul munosabatlari vujudga kelgan.

Quldorlik jamiyatini yemirilishi eramizning IV–VI asrlariga to'g'ri keladi. Lekin qul savdosi, qullarni ishlatish feodalizm davrida ham davom etgan. (Konstantinopol – VI–XI asrlar; Rim, Lion, Venetsiya – XVI asrgacha; AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Portugaliya, Gollandiya kabi davlatlarda XVIII asrni oxiri va XIX asrning birinchi o'n yillik davrigacha). 1807-yilda qul savdosi taqiqlangan.

Uchinchi davr feodalizm formatsiyasi. Feodalizm atamasi fransuzcha «Feodalite» so'zidan olingan. Feodalizm formatsiyasining xususiyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Natural xo'jalikni ustunligi.
2. Yirik yer egalari va mayda dehqon xo'jaliklarini mavjudligi.
3. Dexqonlarni feodalga shaxsiy bo'ysinishi.
4. Siyosiy hokimiyat yer egalari qo'lidaligi.
5. Diniy dunyoqarashni xukumligi.

Feodalizm davrida ijtimoiy mehnat taqsimoti kengaya boshlandi, xunarmandchilik va savdo rivoj topdi. Tovar-pul munosabatlarini rivojlanishi, natural xo'jalikni tovar ishlab chiqarishga, natural rentani pul rentasiga aylanishi kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini vujudga kelishiga olib keldi. Bu to'rtinchi formatsiya, ya'ni ishlab chiqarish kapitalistik usulini shakllanishiga olib keldi.

Kapitalizm elementlari Italiya va Gollandiya shaharlarida XIV–XV asrlarda paydo bo'la boshlagan. Lekin feodalistik ishlab chiqarish usuli parchalanishi va kapitalistik davr XVI asrga to'g'ri keladi. Sharqiy Yevropada XVI va XIX asrning birinchi yarmida, Niderlandiyada XVII asrda to'la kapitalistik uklad shakllangan edi, Angliya, AQSH va Germaniyada XVIII asr oxirida, Rossiyada XVIII asrning ikkinchi yarmida. Hozirgi Markaziy Osiyo hududlari kapitalistik bosqichni o'tmagan, ular feodalistik ukladdan sotsializm tuzumiga o'tib ketgan.

Kapitalistik tuzum ijtimoiy mehnat unumdorligini yuqoriligi, ilmiy-texnik taraqqiyotni tez rivojlanishi va ishlab chiqarishda

revolyutsion o‘zgarishlarni sodir bo‘lishi, tovar-pul munosabatlarini to‘la shakllanishi erkin raqobatni mavjudligi kabi xususiyatlari bilan feodalizm tubdan farq qiladi.

Yuqorida qayd etilgan formatsiyalar insoniyat jamiyatini rivojlanishining obyektiv shart-sharoitlari, taraqqiyotning qonuniyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga ta’siri natijasida vujudga kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kapitalizmdan so‘ng sotsializm beshinchi formatsiya sifatida Rossiyada vujudga kelgan. Keyinchalik bosqinchilik orqali O‘rta Osiyoga, Kavkaz va Pribaltika respublikalarida shakllantirilgan.

Ikkinchi jahon urushi natijasida Yevropaning ko‘p davlatlariga majburan joriy etilgan.

Mongoliya va Xitoy ham shular jumlasiga kiradi. Sobiq Sovet ittifoqini ta’siri orqali ushbu tuzum Amerika qit’asidagi Kuba davlatiga ham joriy qilindi.

Bizlar sotsialistik tuzum insoniyat taraqqiyotiga majburan revolyutsion to‘ntarish orqali olib kirilgan deb hisoblaymiz. Ushbu tuzum ma’muriy-buyruqbozlik tuzumi sifatida namoyon bo‘ldi. Sotsializmda bosh ekspulatator rolini davlat va kommunistik partiya o‘ynagan. Ushbu formatsiyada davlat yer, mulk va barcha ishlab chiqarish vositalariga egalik qilgan, tasarruf etgan hamda taqsimlash funksiyasini bajargan. Yuqoridagilar sababli sotsialistik tuzum 73 yil faoliyat ko‘rsatib, parokandalikka uchradi.

Endi kapitalistik tuzumni xususiyatlarini kengroq yoritib, bu tuzumda «bozor iqtisodiyoti» qoidalarini joriy etilishi masalalarini va uning modellarini ko‘rib chiqamiz. Biz yuqorida keltirganimizdek kapitalistik tuzum dunyo davlatlarida har xil davrda shakllana boshlagan (XVI asrdan to XIX asrgacha).

XIX asrga kelib ko‘p davlatlarda kapitalistik tuzum to‘la shakllangan bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

Ijobiy tomonlari:

- ishlab chiqarish vositalariga, jumladan, uning moddiy omillariga (yer, kapital, tabiiy boyliklar) xususiy mulkni joriy qilinganligi;
- xo‘jalik yuritishni iqtisodiy erkinligi;
- demokratiya tamoyillarini joriy qilinganligi.

Salbiy tomonlari:

- erkin, daxshatli raqobatni mavjudligi;
- ishchi kuchini tovarga aylanganligi;
- kapitalistlarning asosiy maqsadi foyda olishga yo'naltirilganligi;
- insonlarni ijtimoiy himoyasiga ikkinchi darajada qarashlik;
- krizislar, ishsizlik, infilyatsiya kabi illatlarni mavjudligi;
- ishlab chiqaruvchi ham, sotuvchi ham iste'molchining manfaatini ko'zlab faoliyat yuritmaslik;
- tovarlarga bahoni to'la bozorda shakllanishi;

Davlatni iqtisodiyotga aralashuvi umuman sezilarli bo'lmagan.

Kapitalistik jamiyatini taraqqiyoti natijalari, tadqiqoti iqtisodchi olimlarni va mulk egalarini uning salbiy oqibatlarini, mavjud ziddiyatlarni bartaraf qilish usullarini topish uchun bosh qotirishga majbur qilgan.

Ular bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy qilish orqali yuqorida aytilgan salbiy holatlar ta'sirini yumshatish, iqtisodiyotni to'laqonli harakatini ta'minlash, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va iste'molchilar manfaatlarini moslashtirish va yuqori darajadagi taraqqiyotni ta'minlash mumkinligini aniqlab olishdi va amaliyotga joriy qilishni boshlashgan. Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bugun kapitalistik dunyo bozor iqtisodiyoti tamoyillarini qabul qilishi boshladilar. Lekin har bir davlat yoki bir nechta davlatlar o'z xususiyatlaridan (aholining mentaliteti, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, geografik va boshqa holatlaridan) kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyotining o'zlariga xos va mos modellarini qabul qilishgan. Ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda iqtisodiy tuzumlar xo'jalik faoliyatini yurgizish usullariga qarab, an'anaviy, rejali, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy yo'naltirilgan aralash iqtisodiyoti tuzumlariga tasniflanadi.

Oxirgi yillarda (bu fikr sotsializm tuzumini parchalanishi va bu davlatlarda bozor iqtisodiyoti usullarini shakllantirilishi bilan bog'liq) «O'tish davri iqtisodiyoti» atamasi ishlatilayapti va bu holat sobiq sotsialistik davlatlar amaliyotida kuzatilayapti (bu jarayon 20–30 yillarni o'z ichiga oladi).

Bizning fikrimizcha, bu jarayonni alohida tuzum deb yuritish asosli emas. Umuman iqtisodiy farmatsiyalar va iqtisodiy tuzumlarni

ushbu tasnifi «Iqtisodiyot nazariyasi» fanida chuqur o'rganiladi va ushbu darslikning maqsadiga kirmaydi. Ushbu masalalar to'g'risida talabalarda umumiy tushuncha bo'lishi uchun ma'lumot sifatida keltirmoqdamiz.

«Korxona iqtisodiyoti» fanining o'quv dasturida iqtisodiy tuzumning modellari to'g'risida savol kiritilgan. Ushbu masalani batafsil yoritishga harakat qilamiz.

«Ijtimoiy yo'naltirilgan aralash iqtisodiyot» yoki «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» deb ataluvchi iqtisodiyot «Rejali iqtisodiyot» va «Bozor iqtisodiyoti (xo'jaligi)» tuzumlarning xususiyatlarini birlashmasi hisoblanadi.

«Ijtimoiy bozor xo'jaligi» nazariyasi XX asrning 30–40-yillarida «Tartib nazariyasi» asoschilari orqali shakllangan. Ushbu nazariyani asoschilaridan biri Valter Oyken (1891–1950) ilmiy tushunchaga «Xo'jalik tartibi» atamasini kiritib, u «Markazlashgan boshqariluvchi xo'jalik» va «Bozor iqtisodiyotini» aralashtirish masalasiga iqtisodiyotni rivojlantirish faqat bozor mexanizmi orqali amalga oshirilmasligi, uning uchun davlatni iqtisodiyotni boshqarishga aralashuvi zarurligini asoslagan.

Kapitalizmni boshlang'ich davri (klassik kapitalizm) – bu bozor iqtisodiyoti degani emas, lekin uni alohida formatsiya yoki alohida tuzum deb atamaslik kerak, aksincha ijtimoiy tuzumlarning uchinchi bosqichi kapitalizmni boshlang'ich davri (klassik kapitalizm) va uni rivojlangan, taraqqiylashgan davri – bozor iqtisodiyoti usullariga asosan kapitalizm deb qarash nazariy va amaliy nuqtai nazardan to'g'riroq bo'ladi (Muallif fikri).

Uning nazariyasi bo'yicha birinchidan, davlat monopoliyalar faoliyatini chegaralash va shu bilan bir qatorda raqobatni qo'llab quvvatlashi kerak; ikkinchidan, xususiy mulkni saqlab qolish, lekin davlat alohida ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi daromadlar farqini yuqorilashishiga yo'l qo'ymaslik kerak, buning uchun davlat byudjetdan moliyalashtirish orqali milliy daromadni qayta taqsimlashda kam ta'minlangan aholini qo'llab quvvatlashi zarur; uchinchidan, davlat pul siyosatini to'g'ri olib borishi kerak. Ushbu shartlarga rioya qilgan holda davlat jamiyatda «xo'jalik tartibi»ni o'rnatish mumkinligini asoslagan.

Ushbu nazariyani amaliyotga joriy qilishga turtki bo'lgan holat ikkinchi jahon urushidan keyingi Germaniyadagi iqtisodiy ahvol hisoblanadi. XX asrning 50-yillarida Germaniyada «xo'jalikni markazdan boshqarish» tuzumi barham topib, o'rniga «bozor xo'jaligi» amal qilib, u iqtisodiyotda «anarxiya» va «xufiyona iqtisodiyotni» xukumronlik qilishi natijasida «Giperinfiliyatsiya» vujudga kelgan edi. Ushbu davrda GFR kansleri Lyudvig Erhardning «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» nazariyasi asosida yer yuzida birlamchi bo'lib Germaniyada «ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti» tuzumi joriy etilgan edi.[3]

Ushbu davrdan boshlab jahon davlatlarida «Aralash iqtisodiyot» modellari yaratila boshlandi. Ularni umumiy va maxsus xususiyatlari mavjud. Ushbu modellarning umumiyligi birinchidan, ular tadbirkorlik tamoyillariga asoslanganligi (ko'pmulkchilik, raqobat, erkin baholashtirish); ikkinchidan, ularda yangi ishlab chiqarishni rivojlanish bosqichi – «postindustrial» bosqichi boshlanganligi; uchinchidan, ko'pmulkchilik, mulklar yiriklashtirila boshlanishi (xususiy mulk qatorida, aksioner, korporativ, ijtimoiy, davlat va boshqa shakllardagi mulklar); to'rtinchidan, inson omilini roli oshirilishi; beshinchidan, bozor iqtisodiyoti davlat tomonidan tartibga solinishi; oltinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash tamoyilini joriy qilinishi; yettinchidan, xo'jalik aloqalarini tijoratlashuvi va shartnoma asosida amalga oshirilishi; sakkizinchidan, xo'jalik yuritishda yuridik va jismoniy shaxslarni teng huquqlari ta'minlanganligi.

Jahon davlatlarida «Aralash iqtisodiyotni» maxsus xususiyatlari ular tanlagan model tamoyillarida o'z aksini topgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari modeli. Ularda davlat mulkining hissasi kam. Iqtisodiyotda bosh o'rinni xususiy mulk egallagan. Ularni faoliyati davlatning institutsional tarkibiy tuzilmalari, huquqiy normalar va soliq tizimi orqali tartibga solinadi. Lekin, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi allaqancha yuqori. U quyidagilar:

- davlat buyurtmalari tizimi orqali. Davlat xususiy biznesni o'z dasturlarini bajarilishiga jalb qilish orqali davlat bozorini shakllantiradi. Bu tizim orqali byudjet mablag'lari qayta taqsimlanadi;

[3] Ushbu nazariya Djon Meynard Keyns (1983–1946) ingliz iqtisodchi olimining nazariyasiga yaqin. Uningcha, «inflyatsiya» va «ishsizlik» bartaraf qilish uchun davlat tomonidan bozor mexanizmi tartibga solinishi kerak.

- ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar, ilmiy va axborotlar bazasini yaratib beradi, chunki xususiy korxonalar (gigant korxonalar, korporatsiyalar va boshqa yirik tarkibiy tuzilmalardan tashqari) ularni tashkillashtirish va to'plash imkoniyatiga ega emas;

- davlat iqtisodiyotiga bosh ta'sirini bilvosita usullar – davlat byudjeti, pul-kredit tizimi, xo'jalik-huquqiy qonuniyatlari orqali amalga oshiradi.

AQSH da ijtimoiy himoya quyidagilardan iborat:

- nafaqalar;
- posobiyalar;
- sug'urtaga jalb etilgan kishilarni tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash;
- ishsizlik bo'yicha sug'urta posobiyasi;
- kam ta'minlangan aholiga yordam. Ushbu to'lovlar byudjet hisobidan to'lanadi.

Britaniya modeli. Buyuk Britaniyada aralash iqtisodiyoti iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish rolini faolligi natijasida shakllangan. Ikkinchi jahon urushidan keyin Buyuk Britaniyada qator tarmoqlarni qisman davlat mulkiga aylantirish (natsionalizatsiyalashtirish), sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minotda yagona davlat tizimi tashkillashtirilgan. Natijada keng davlat sektori va davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish tizimi tashkil qilingan bo'lib, ularning xususiyati quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- xususiy sektorni davlat buyurtmalari bilan ta'minlash;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarni moliyalashtirish;
- ijtimoiy sohani moliyalashtirish va hokazolar.

1980-yilga kelib Buyuk Britaniyada xo'jalikni samaradorligini pasayishi kuzatila boshlandi. Bu esa davlatni iqtisodiyotga aralashuvini chegaralashga va bozor kuchlariga erkinlik berishni talab qildi. 1980–1990-yillarda ko'plab davlat korxonalari xususiylashtirildi, jumladan, tabiiy monopoliyalar – telefon aloqasi, gaz va elektr ta'minoti, suv ta'minoti kabilar. Baholar, ish haqi, dividentlar ustidan nazorat yo'qotildi. Adresli to'lovsiz meditsina yordami kuchaytirildi.

Fransiya modeli. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish tartibi Fransiyada G'arbiy Yevropa davlatlari ichida eng yuqori darajada. Fransiyada sobiq ittifoq tajribasidan olingan indikativ

rejalashtirish asosida iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi Yevropa davlatlari ichida birlamchi bo'lib tadbiq etilgan. Besh yillik rejalar Fransiyada 1947-yildan tuzila boshlangan.

Italiya modeli. Italiyada aralash iqtisodiyotni xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- keng davlat sektorini mavjudligi;
- yuqori rivojlangan katta xususiy biznesni rivojlanishi;
- klassik kapitalizm davridan qolgan ukladlarni mavjudligi;
- iqtisodiyotda kichik biznesni o'rni yuqoriligi;
- rivojlanayotgan kooperativ sektorni ahamiyati ortib borishi kabilar.

Davlat sektori iqtisodiyotda yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'p davlat korxonalari aksioner jamiyatlardan tashkil topgan. Ushbu davlatda aralash iqtisodiyotni harakterli tomoni ularda ijtimoiy infra tarkib va yuqori darajadagi ijtimoiy himoya rivoj topgan.

Skandinaviya (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlandiya) davlatlari modeli. Harakterli tomoni bu davlatlarda xususiy sektor keng rivojlangan va davlat mulkini hissasini pastligi bilan bir qatorda ijtimoiy sektorni (ayniqsa, Shvetsiyada) roli yuqoriligi bilan belgilanadi. Ularning iqtisodiyotida kooperativ sektor muhim ahamiyatga ega (ayniqsa, Daniyada). Kooperativ sektor qishloq xo'jaligida, sanoatda, savdoda, uy-joy qurilishida, bank va sug'urta xizmatlarida rivojlangan.

Skandinaviya mamlakatlarida iqtisodiyotni sotsiallashtirish harakterli hisoblanadi. Ushbu hol YAIM ni ko'p qismini ijtimoiy soha hisobiga qayta taqsimlash bilan belgilanadi.

Yaponiya modeli. Yaponiyaning aralash iqtisodiyotining maxsus tomoni bu borada jahon mamlakatlarida ro'y berayotgan jarayonlarga milliy xususiyatlarni qo'shish bo'lib hisoblanadi. Yaponiyada iqtisodiyotni isloh qilish ikkinchi jahon urushi tugashi bilan, Yaponiya burjuaziyasi va Amerika monopolistik kapitalini hamkorligi natijasida Yaponiyani «Osiyo ta'mirxonasiga» aylantirish maqsadida boshlangan. Uning boshlanishi Yaponiyada mavjud bo'lgan, iqtisodiyotning tog'i hisoblangan «dzaybatsu»larni (yopiq aksiyalarni ushlab turgan kansernlarni birlashmasi xoldinglarni) tarqatib yuborish bo'ldi. Shunday qilib, xolding tarkibidan ko'plab firmalar vujudga keldi. Qishloq xo'jaligida o'tkazilgan agrar islohotlar

natijasida katta yer egalarini (krestyanlarga) dehqonlarga sotish orqali qishloqlarda yangi iqtisodiy munosabatlar o'rnatildi. Asosiy urinish yangi texnologiyalarni joriy qilish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratish edi. Yaponiya iqtisodiyotining ixcham kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari tez rivojlana boshladi. Yaponiya uchun yuqori darajadagi davlat hokimiyati nazorati o'rnatilgan. Yaponiyaning yana bir xususiyatli tomoni iqtisodiyotni jamg'arish, ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirish bo'lib, shaxsiy iste'mol ikkinchi darajali hisoblangan (keyingi bosqichlarda ushbu ustunliklar shaxsiy iste'mol tomon o'zgardi).

Yaponiyada «bir umr yollanish», «katta yoshlarga katta ish haqi» kollektiv javobgarlik, tashabbuskorlik tamoyillari birlamchi hisoblanadi. Yaponiya modelining xususiyatlaridan biri boshqarish tizimida «inson omilini» ustuvorligining ta'minlanganligidir.

Janubiy Koreya modeli. Janubiy Koreya modeli Yaponiya modeli bilan ko'p umumiy tomonlarga ega. Bu asosan aholining mentaliteti, ularning ijtimoiy dunyoqarashi, mehnatga munosabati (mehnatsevarligi), ma'naviy normalari va burchiga javobgarlik kabi xususiyatlari bilan belgilanadi. Janubiy Koreya ham Yaponiyadagi kabi iqtisodiyotni boshqarishda davlatning hissasi yuqori. Ularda davlat iqtisodiyotni boshqarishda soliq, tariflar va valyuta siyosatidan keng foydalanadi. Iqtisodiyotni tayanch tashkiliy tuzilmasi sifatida «chobol» deb nomlanuvchi yirik korporatsiyalar faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari moliyaviy-sanoat guruhlari ham mavjud.

Janubiy Koreya modelining xususiyatlaridan biri kichik va o'rta biznesni yuqori darajada qo'llab quvvatlash hisoblanadi.

Germaniya modeli. Germaniya aralash iqtisodiyotning tomiri XX asrning 50-yillariga borib taqaladi. Lyudvig Erhard boshchiligidagi bir guruh iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlar, dasturlar o'z natijasini bera boshlagan va 1953-yil «iste'molchi yili», deb e'lon qilishi natijasida 1960-yilning boshida Germaniya jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga kirgan edi. 1960 va 1970-yillarga kelib rivojlanishning tayanchiga yirik korporatsiyalar, davlat aylandi. Ushbu davrda sotsial-sheriklik jamiyati qurish munosabatlari va aholini ijtimoiy himoyalash avj oldi.

Ijtimoiy yo'naltirish iqtisodiy siyosatni ijtimoiy siyosatdan ajratish saralash iqtisodiyot modelining xususiyatiga aylandi. Aholini

ijtimoiy himoyalash manbai korxonalar foydasi emas maxsus byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisoblangan.

Xitoy modeli. Xitoy jamiyati jahon davlatlari ichida sotsialistik tuzum yo'nalishidan kechmagan va kommunistik partiya rahbarligini saqlab qolgan davlat hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Xitoyda o'z vazifasi va usullari bilan farqlanadigan iqtisodiy islohotlar o'tkazilgan. Birlamchi bo'lib sotsialistik iqtisodiyotni qurish bo'lib, u 1949-yili boshlangan. Ushbu islohot natijasida Xitoy va chet el burjuaziyasining mulki natsionallashtirildi.

1956–1958-yillarda «katta sakrash» siyosatini o'tkazish natijasida ishlab chiqarish vositalari va mulk umumiylashtirildi.

1970-yillarga kelib Xitoy iqtisodiy tuzumining asosiy xususiyatlari oydinlasha boshladi. Ushbu jarayonda Xitoyda boshqarishni qattiq markazlashtirish boshlandi. Davlat korxonalarining barcha daromadlarini olib qo'ygan va xarajatlarini qoplagan.

1978-yilga kelib Xitoyda bozor islohotlari boshlangan. Uning birinchi bosqichi 1984-yilgacha davom etib, asosiy yo'nalish qishloq joylarga qaratildi. Unda oilaviy pudrat joriy qilingan va dehqon xo'jaligi asosiy xo'jalik birinchiga aylangan.

Ikkinchi bosqichi 1984-yili boshlangan. Unda shahar iqtisodiyoti va sanoat islohatlangan. Bunda korxonalar mustaqilligi kuchaytirildi, korxonalar rejani bajargandan keyin bozor uchun ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Yirik bo'lmagan xususiy va (kollektiv) jamoaviy korxonalar, kosibchilik ta'mirlash shoxobchalari, savdo va xizmat sohasida xususiy tadbirkorlikka ruxsat berilgan, xorijiy kapital jalb qilina boshlandi.

Direktiv-rejali iqtisodiyot isloh qilinib, ijtimoiy yo'naltirilgan aralash bozor iqtisodiyoti shakllandi. Xitoy natijada yuqori dinamik taraqqiyotni ta'minlab kelmoqda.

Rossiya modeli. Rossiyada 1990-yildan boshlab bozor islohotlari boshlandi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish doktrinasi davlat tomonidan rasmiy ravishda qabul qilindi, bozor iqtisodiyotiga o'tish loyihalarini amalga oshirish boshlandi. Iqtisodiyotning holati bozorga o'tish uchun real, obyektiv shart-sharoitni tug'dirdi. Inflyatsiya avj oldi, ishlab chiqarish darajasi susaydi, siyosiy norozilik kuchaydi. Natijada bozor iqtisodiyotiga o'tishni har xil dasturlari ishlab chiqildi («Soyuz hokimiyatini saqlab qolish» – L.I.Abalkin dasturi; «400 kun

ishonchi» – G.A.Yavlinisgiy guruhi dasturi; «500 kun mandatiga ishonchi-minum dastur» – M.A.Bozorov dasturi; «500 kun dasturi» – S.S.Shatalin loyihasi; «Bozorga o'tish dasturi» – M.S.Garbachev, B.N.Yelsin, S.S.Shatalin, G.A.Yavlinskiylar loyihasi kabilar). Natijada, bozor iqtisodiyotiga o'tishni ustuvor yo'nalishlari aniqlab olindi. Ular quyidagilarda o'z aksini topdi:

- bahoni liberallashtirish;
- iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish va davlat mulkini xususiylashtirish;
- boshqarishni demokratlashtirish, markazlashtirilgan-administrativ rejalashtirishdan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tamoyiliga o'tish;
- ikki darajali bank tizimiga o'tish;
- kredit tizimini qayta ko'rib chiqish;
- tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, uni iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar foydasiga hal qilish;
- harbiy ishlab chiqarishni «konversiya» qilish;
- tarmoqlar va korxonalarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston modeli. O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti modeli nazariyasini Respublika Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va Prezident rahbarligida bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida chuqur ilmiy-amaliy asoslangan siyosiy iqtisodiy, demokratik va ma'naviy-ma'rifiy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston 1991-yili mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, «o'zbek modeli» deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish, mamlakatimizda isloh etish va modernizatsiya qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston o'zining qariyb yigirma bir yillik mustaqil taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib

o‘rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma’nodagi ozod va suveren mamlakatga aylandi.

Islohotlarning o‘zbek modeli bundan oldin dunyoda yaratilgan va mavjud bo‘lgan modellarning birortasini takrorlamagan holda, o‘z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modeli bo‘ldi. Taraqqiyotning o‘zbek modeli quyidagi besh tamoyilga asoslanadi:

birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ya’ni iqtisodiyot siyosatdan ustun bo‘lishi kerak. Shuningdek, ichki, tashqi va iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi etishni ta’minlash zarur;

ikkinchidan, o‘tish davrida davlat asosiy islohotchi bo‘lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi, o‘zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi shart;

uchinchidan, qonun ustuvorligiga erishish, qonunlarga qat’iy rioya etish lozim. Buning ma’nosi shuki, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni barcha hech istisnosiz xurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim;

to‘rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish kerak. Aholining salkam 50 foizini 16 yoshga yetmagan bolalar tashkil etadigan O‘zbekistonda buning alohida ahamiyati bor;

beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish iqtisodiyotning obyektiv qonunlarini e’tiborga olib, o‘tmishdagi «inqilobiy sakrashlar»siz, ya’ni evolyutsion yo‘l bilan puxta o‘ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asosida chuqur tanazzuldan xolos bo‘lib, barqaror taraqqiyot va aholi turmush farovonligiga erishishga qaratilgan tub o‘zgartirishlar siyosatining strategik maqsadlari quyidagilardan iborat:

• ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;

• ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo‘lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo‘lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash;

• korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo‘jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma’muriy - buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag‘batlantirish vositalaridan keng foydalanish;

• iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydigan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilib borish;

• kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga uz mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish[4].

Mustaqillikning ilk yillarida, ya’ni ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichida quyidagi ikki vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo‘yildi:

• totalitar tizimning og‘ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

• Respublikaning o‘ziga xos sharoiti va xususiyatlarini hisobga olgan holda, bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.

Mazkur vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning quyidagi muhim yo‘nalishlari aniqlab olindi va amalga oshirildi;

• o‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy- huquqiy negizini mustahkamlash;

• mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq; xo‘jaligi va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

• ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta’minlash.

Respublikada bozor munosabatlariga o‘tishning birinchi bosqichida iqtisodiyot va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o‘zgarishlar

[4] Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T.: «O‘zbekiston», 1995, 18-bet.

uning o‘z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o‘ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga, isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va yo‘nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirish, investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, shuning negizida iqtisodiy o‘sishni ta’minlab, bozor munosabatlarini to‘liq joriy qilish maqsad qilib qo‘yildi. Shu maqsaddan kelib chiqib, mazkur bosqichda amalga oshirlishi lozim bo‘lgan vazifalar quyidagi tartibda belgilangan:

- davlat mulkini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;
- ishlab chiqarishning pasayishiga bardam berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash;
- milliy valyuta – so‘mni yanada mustahkamlash;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, xom-ashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish.

O‘tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko‘rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo‘l davom ettirildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, mazkur bosqichda «erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir»[5]. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutdi:

- iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o‘tkazish hamda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish;
- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo‘naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;

---

[3] Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –T.: «O‘zbekiston», 2000, 15-bet.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotida ustuvor o‘rin egallashiga erishish;

• mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko‘lamda integratsiyalashuvini ta’minlash;

• iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish.

Axborot uchun ma’lumotlar

O‘zbekistonda 2012-yilda YAIM 8,2 foizga, 2000–2011-yillari ushbu ko‘rsatkich 22 barobar oshdi.

2000-yilda mamlakatni YAIM ni shakllantirishda sanoat ulushi 14,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2011-yilda bu ko‘rsatkich 24,1 foizni tashkil qildi.

Sanoat mahsulotini umumiy o‘sishining qariyb 70,0 foizini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sohalar tashkil qiladi.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish 2012-yilda 2000-yilga nisbatan 4 barobardan ziyod oshdi.

2012-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o‘sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo‘jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

2012-yilda eksport mahsulotlari hajmi 2011-yilga nisbatan 11,6 foizga, 2000-yilga nisbatan esa 5,0 barobar ziyodni tashkil qildi.

2005-yildan boshlab Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilmoqda.

2011-yilda Davlat byudjetining xarajatlar qismi 2010-yilga nisbatan 25,4 foizga, 2000-yilga nisbatan esa 17,8 barobarga o‘sdi.

2012-yilda xizmat ko‘rsatish va servis sohasining YAIM dagi hissasi 52 foizdan ziyodni tashkil qildi, 2000-yilda ushbu ko‘rsatkich 37 foizni tashkil qilgan edi.

Soliq yuki 2011-yilda 1991-yil bilan solishtirganda YAIM ga nisbatan qariyb 2 barobar kamayib, 41,2 foizdan 22 foizga tushdi.

2012-yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga kamaytirildi. Ushbu ko‘rsatkich 2000-yilda 31 foizni, 1996-yilda 38 foizni tashkil qilgan edi.

Aholining eng past va eng yuqori daromadga ega bo‘lgan guruhlar o‘rtasidagi tafovut koeffitsiyenti oxirgi o‘n yilda 21,1 barobardan 8,3 barobarga qisqardi.

2012-yilda mamlakatimizning yuqori sur’atlar bilan barqaror o‘sishining sababi iqtisodiyotimizga yo‘naltirilgan kapital mablag‘lar, investitsiyalar tobora o‘sib borayotganidadir. Bu ko‘rsatkich YAIMga nisbatan 22,9 foizni tashkil etdi.

2012-yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki 14 foizga o‘sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig‘ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizidan ko‘prog‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. Jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirildi.

1.3. «Korxona iqtisodiyoti» kursining iqtisodiyotdagi ahamiyati va iqtisodiy fanlar tizimidagi o‘rni

Insoniyat faoliyati va hayoti moddiy borliqga bog‘liqdir. Inson yashash uchun nimaiki qilsa, doimo chegaralangan moddiy boyliklar muammosiga duch keladi. Insonning oliy maqsadi yaxshi yashash, lekin havodan tashqari hamma narsa chegaralangan. Ulardan ratsional foydalanish doimo inson ongi oldida ko‘plagan siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, texnologik, ekologik va hokazo muammolarni qo‘yadi. Bu muammolar yakka insondan tortib, korxona, firma, ularning birlashmalari, umuman region, davlat iqtisodiyoti miqiyosiga taalluqlidir. Shuning uchun ham inson paydo bo‘lgandan tortib, uning bilan moddiy borliq o‘rtasida doimo munosabat, kurash mavjuddir. Shuning asosida, xo‘jalik yuritish, uni boshqarish to‘g‘risida insoniyat doimo fikr yuritib u to‘g‘risida bilimlar tizimini yaratib kelgan. Shunday bilimlar tizimi fan deb yuritiladi.

Har qanday insonni oldida yosh bolaligidan savol tug‘iladi, osmon, yer, oy, yulduzlar qanday vujudga kelgan? Kim yaratgan?, qanday vujudga kelgan?. Bu savollarga javob allohning payg‘ambarlarga yuborgan kitoblarida aniq javob bor. Lekin insonning moddiy borliq bilan munosabatlari, iqtisodiy muammolarni

insoniyat o‘zi to‘plagan, yaratgan bilimlar tizimi orqali hal qilishi lozim. Umuman ibtidoiy jamiyat rivojlanib ibtidoiy jamoalar o‘rtasida tovar almashish munosabatlari shakllana boshlanishi bilan insonlar iqtisodiyot to‘g‘risida fikr yurita boshlagan. Chunki insonlar narsa (go‘sht, bugdoy, kamalak, bolta kabi) to‘g‘risidagina o‘ylab qolmay, ular narsalar, mahsulotlar orqali o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida, ya’ni iqtisodiy, moddiy munosabatlar to‘g‘risida fikr yurita boshlaganlar. Asta sekin insoniyat hayotidagi munosabatlar chuqurlashib, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida alohida tarmoqlar, shu jumladan, savdo (tijorat) sohasi vujudga kelgan. Shu sababli insoniyat jamiyati kabi iqtisodiyot ham o‘z tarixiga ega. Tijoriy fikr yuritishlar (tarixiy hujjatlardan ma’lumki) eramizdan 3000–2000 yillar oldin boshlangan bo‘lib, uni savdogarlar tomonidan qilingan hisobiy yozuvlar bizlargacha yetib kelgan arxeologik topildiqlar (loydan qilingan taxtachalardagi hisob-kitob yozuvlari) tasdiqlaydi.

Fan *- bu tabiat, jamiyat va tafakkur, ijtimoiy taraqqiyotni tahlil qilish va umumlashtirish to‘g‘risidag‘i insoniyat tomonidan jamlashtirilg‘an bilimlar yig‘indisig‘a tushuniladi. Bu bilimlar orqali insoniyat tabiat sirlarini chuqur o‘rg‘anish imkoniyatig‘a eg‘a bo‘ladi, texnika va texnolog‘iyani, tabiiy fanlarni rivojlantiradi hamda ijtimoiy taraqqiyotni muhim muammolarini hal qiladi.*

Qadimiy Sharqda eramizdan 3000 yillar oldin narsalarni kiraga berish, undan foiz olish kabi faoliyatlar ishlatilgan. Qadimiy yegipetliklar, greklar oldi-sotdi, pul, baho, savdo, foyda, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalarni ishlatganlar. O‘zbek tilidagi «Iqtisod» so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, «tejamkorlik» ma’nosini anglatadi va Grekcha «Oikonomika» (ekonomika), ya’ni «Oikos» – uy, xo‘jalik va «nomos»– qoida, tartib, qonun mazmunini bildiruvchi so‘zlar birlashmasidan olingan bo‘lib, uy xo‘jaligini yuritish Qonuni mazmunini bildirishligi bejiz emas. Shuning uchun iqtisodiy fanlar o‘rganadigan kategoriyalar

qadimgi sharq olimlari qalamiga mansub bo'lgan asarlarda uchraydi (Sokrat, Kesnofont, Platon, Aristotel, Epikur).

Qur'onning «Yusuf» surasida berilgan ma'lumotlar bo'yicha eramizdan 3000 yillar oldin Yusuf payg'ambar Misr shohiga: «Meni shu yerning xazinalari ustiga qo'ying. Chunki men (ularni) to'la to'kis saqlaydigan va to'g'ri tasarruf qilishni biladigan kishiman» deb aytganlar. Bundan kelib chiqadiki, qadimda xazinalarni saqlash, sarf qilishni iqtisodiy tayanchlarini bilgan, ya'ni shu narsani aytish joyizki, Qur'onda «Alloh barcha narsa uchun miqdor-o'lchov qilib qo'ygandir» deb «Taloq» surasida yozilgan. Qur'onda meros, sudxo'rlik, sadaqa, omonot, zakot, fitr kabi iqtisodiy kategoriyalar ham ishlatilgan.

Markaziy Osiyo allomalarining asarlarida iqtisodiyotga taalluqli g'oyalar, xo'jalik yuritish bo'yicha fikrlar ko'pdan ko'p uchraydi. Ularning qatoriga Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Ulugbek, Bobur kabi mutafakkirlarni ijodlari kiradi. Misol uchun, Amir Temur Tuzuklarini keltirish mumkin. «Temur Tuzuklari»da iqtisodiyotga, davlatni boshqarishga oid va hozirgi zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'l-yo'riqlari, qoidalarini topish mumkin. Unda davlatni tarkibiy tuzilishidan tortib, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini shakllantirish, mehnatni taqdirlash, maosh to'lash, soliq undirish, jarimalar, in'omu-ehsonlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Insoniyat tarixiga ko'z tashlasak, jamiyatni tashkil qilinishida siyosiy va iqtisodiy jihatlaridagi farqlari aniqlanadi.

Siyosiy hayotda tarixan ongli (fahm orqali) tartibga solish orqali jamiyatni boshqarish boshlangan. Davlat boshqaruvi g'oyasi o'sha davrlardanoq dohiy (qabila boshlig'i), qariyalar kengashi, xalq majlisi kabilarda o'z aksini topgan.

Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot rivojlanishi bilan davlat boshqaruv funksiyalari mustahkamlanib va turg'unlanib borgan. Iqtisodiy hayotda bunday emas. Ibtidoiy jamoa davridan to kapitalistik tuzimgacha bir biri bilan ongli ravishda birlashmagan yakka xo'jaliklarni kuzatamiz. Har bir xo'jalik subyektlari o'z tashabbusi, o'z ixtiyoricha, tavakkalchiligiga asosan ish yuritgan. Ularning birligi, jamiyatning va xalq xo'jaligining iqtisodiy jihatdan birligi yakka xo'jalik yurituvchilarning o'zaro iqtisodiy munosabatlari orqali amalga oshirilgan.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti chuqurlashi, bozor munosabatlari shakllanishi bilan xo'jalik yuritishni ongli ravishda tartibga solish g'oyasi tug'ila boshlaydi. Chunki uyushtirilmagan iqtisodiy faoliyatni (minglagan xo'jalik subyektlarini) ongli ravishda tartibga solmaslik ijtimoiy halokatlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi zamon korxonalari iqtisodiyotning (xalq xo'jaligining) uyushtirilgan, davlat tomonidan tartibga solinadigan xo'jalik subyekti bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik korxonasi iqtisodiy fanlar nuqtai nazaridan ishlab chiqarish elementlarini (mehnat, kapital, tabiiy resurslar, tadbirkorlik, axborotlar) o'z manfaatlari, xo'jalik yuritish va foyda olish maqsadi orqali birlashtirgan, o'z resurslarini o'z ixtiyori bilan ishlatish huquqiga ega bo'lgan subyektiga tushuniladi.

Shunday qilib, tarixdan iqtisodiyot nazariya shakllanib kelgan va iqtisod (ekonomika) termini ishlatib kelingan. Hozirgi kunda iqtisod bir necha xil mazmunda ishlatiladi.

Birinchidan, iqtisodiyot deganda xo'jalik (xalq xo'jaligi, tarmoq, hudud, birlashmalar, korxonalar va firmalar) tushuniladi;

Ikkinchidan, iqtisodiyot bu ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash va iste'mol fazalarida vujudga kelgan insonlar, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi moddiy xizmatlar va boshqa boyliklar bilan bog'liq munosabatlar tushuniladi;

Uchinchidan, iqtisod bu siyosat, ya'ni davlat siyosati, davlatlararo aloqalar va hokazolardan iboratdir;

Va nihoyat, to'rtinchidan, iqtisod bu – fan.

Fanlar tizimida iqtisodiy fanlar alohida o'rin tutadi.

Iqtisodiy fanlar bir qancha mustaqil fanlardan iboratdir va ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, murakkab tizimni tashkil qiladi. 1.3.1-chizmada iqtisodiy fanlar tizimi keltirilgan.[1]

1.3.1- chizmada keltirilgan fanlardan tashqari ayrim sohalar, iqtisodiy jarayonlarga oid boshqa iqtisodiy fanlar ham mavjuddir.

Barcha iqtisodiy fanlar bir birlari bilan tig'iz bog'liqlikda bo'lib, har birining jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirish va takomillashtirishda o'ziga xos ahamiyati bor.

---

[1] Fanlar tasnifi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 8-fevral 2002-yilgi VM-343-3401-02-sonli xati bilan tasdiqlangan bakalavriyat yo'nalishlari o'quv rejalari asosida qilingan.

Iqtisodni fanlar tizimi sifatida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak ularning qanchalik keng ekanligi bizga yana bir bor yaqqol ko‘rinadi.

1.3.1-chizma

Iqtisodiy fanlar tizimi



Korxona iqtisodiyoti fani o'rganadigan mavzulari, muammolari bo'yicha va o'z tarkibi bilan iqtisodiy fanlar ichida alohida o'rin tutadi. 1.3.1-chizmadan ko'rinib turibdiki, bu fan barcha iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liq. Umumiqtisodiy, tarmoqlar iqtisodi va maxsus iqtisodiy fanlar o'rganadigan muammolar korxona iqtisodiyoti fanida mujassamlashgan. Birinchidan, har bir tarmoq, soha korxonalardan iborat, ikkinchi tomondan, korxona faoliyatida umumiqtisodiy va maxsus fanlar o'rganadigan kategoriyalar korxonada mujassamlashgan. Bu masala korxonaning iqtisodiyotda tutgan o'rni va korxona iqtisodiyoti fanini tarkibi ko'rib chiqilsa yanada chuqurroq ayon bo'ladi. 1.3.2 va 1.3.3-chizmalarga qaralsin.

Korxona faoliyatida jamiyatning rivojlanish iqtisodiy qonunlarini ko'rinish shakllari o'z aksini topadi. Shunday ekan, korxonani boshqarish asosida iqtisodiy qonunlarni talablarini obyektiv holda ko'ra bilish va unga asosan qarorlar qabul qilish zarur bo'ladi. Masalan: iqtisodiy qonunlardan biri mehnat unumdorligini ish haqiga nisbatan tezroq o'sishidir. Bu qonunning talabi buzilsa pul muomalasini muvozanati buzilishiga olib kelishi, ortiqcha pul vujudga kelishi, tovarlar defitsiti paydo bo'lishi kabi noo'rin hodisalar vujudga kelishi muqarrardir.

1.3.2-chizma

Korxonaning jamiyatdagi tutgan o'rni



Iqtisodiyot fanlari va amaliyot xo'jalikni oqilona va samarali boshqarish uchun unga mos xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqqan. Unga mos iqtisodiy dastaklar (baho, soliq, foyda, kredit, ish haqi kabilar), kategoriyalar, ko'rsatkichlar, usullarni (iqtisodiy yoki

ma'muriy usullar, rejalar, normalashtirish kabilar) xo'jalik yurituvchilar o'z maqsadlariga muvofiq boshqaruv jarayonlarida ishlatadilar.

1.3.3-chizma

Korxona iqtisodiyoti fani o'rganadigan masalalar tarkibi



Korxona iqtisodiyoti fani yuqorida keltirilganlarning mazmuni va mohiyatini ochib beradi, ularni xo'jalikni boshqarish uchun ishlatish shakl va usullarini o'rgatadi.

Bozor iqtisodiyoti rahbarlariga va mutaxassislariga yangi iqtisodiy fikrlashni, yangicha ish yuritishni, minglarcha subyektlar va iste'molchilar bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, situatsiyalarni, jarayonlarni o'z manfaati va maqsadiga yo'naltirish, ularni chuqur tahlil qilish, kelajak uchun rejalashtirish kabi muammolarni hal qilish yo'llarini bilish talablarini qo'yadi. Bularsiz raqobatchilik sharoitida har qanday korxona, firma inqirozga uchrab qolishi ehtimoldan uzoq emas. Bu borada bo'lajak rahbarlar, mutaxassislar, tadbirkorlarga korxona iqtisodiyoti fanidan olgan bilimlari asqotadi degan umiddamiz.

1.4. Kursning obyekti, predmeti va vazifalari

Obyekt lotincha «objectum» so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha narsa, buyum mazmunini bildiradi. Falsafada esa obyekt so'zi bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq, voqelik, moddiy dunyo, mavjudot mazmunida hamda kishi faoliyati, diqqat-e'tibori qaratilgan hodisa, predmet yoki shaxs ma'nosida ham ishlatiladi.

Oddiy hayotda obyekt korxona, tashkilot, muassasa yoki biron bir faoliyat o'tkaziladigan joy ma'nosida tushuniladi.

Har qanday fanning o'rganadigan, uning maqsadi qaratilgan obyekti mavjud.

Korxona iqtisodiyoti fanining obyekti iqtisodchi olimlar tomonidan har xil ta'riflanadi va ular bir-biridan mazmunan farq qiladi. V.Ya.Xripach, G.Z.Susha, G.K.Onopriyenko va boshqalar korxona iqtisodiyoti fanini obyektini «korxona»[1] deb hisoblaydi. K.A.Raitskiy korxona iqtisodiyoti fanining obyektiga quyidagicha tarif beradi: «alohida xo'jalik subyektlarida ro'y berayotgan barcha jarayonlar va ulardan kelib chiqadiganlar»[2].

Nemis olimlari F.K.Bea, E.Dixtla, M.Shvaytseralar[3] madaniyat korxona iqtisodiyotining obyekti deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, doimiy o'zgarib turuvchi iqtisodiy reallik haqiqatda olganda boshqa hodisalar (diniy, huquqiy, badiiy, texnikaviy, tibbiy xarakterdagi) bilan tig'iz bog'liq bo'lib, ular majmuasi (yig'indisi) korxona iqtisodini tajribaviy asosini tashkil qiladi. Bu asosini ular milliy madaniyat deb hisoblash mumkin deydilar. Nemis olimlarining fikricha, iqtisodiy muammolar va iqtisodiy xatti-harakatlar madaniyat sohasi bilan to'la integratsiyalashadi. «Sanoat, korxonasi, hunarmandlik korxonasi, savdo korxonasi, bank, sug'urta tashkiloti, davlat organi, teatr, oliy maktab, muzey yoki machitmi farqi yo'q. Bularning hammasi korxona iqtisodining obyekti bo'lib hisoblanadi va ular bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy masalalar tadqiqot predmeti bo'lishi mumkin» deb ta'kidlaydilar.

---

[1] В.Я.Хрипач, Г.З.Суша, Г.К.Оноприенка и др. Экономика предприятия. - Мнок; Экаиомпресс. 2000.-8 с.

[2] Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник для ВУЗов. - М.: Информационно-внедренческий сет, «Маркетинг», 1999. -9 с.

[3] Экономика предприятия: Пер. с нем. - М.: ИНФРА-М, 1999. -9 с.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti olimlari E.X.Mahmudov, Sh.M.Yuldoshev, S.G.Kalandarevalar korxona iqtisodiyoti fanining obyekti deb barcha mulk shakllariga mansub «Korxona to'g'risida»gi qonun asosida faoliyat yuritayotgan kichik, o'rta va yirik korxonalar tushuniladi deb ta'kidlashadi.

Yuqorida keltirilgan korxona iqtisodiyoti fanining obyektiga berilgan ta'riflarga chuqur nazar solsak ularning har biri biz keltirgan «Obyekt» so'zini mazmuniga qandaydir yaqinligi bor. Lekin korxona iqtisodiyoti fanining obyektiga tarif berganda bir fikrga kelish uchun, korxona (kichik, o'rta, yirik) deganda biz ko'z oldimizga nimani keltiramiz, madaniyat degandachi, xo'jalik subyektidagi ro'y berayotgan jarayonlar va ulardan kelib chiqadiganlarga nimalar kiradi degan savollarni yechimini topish zarur.

Korxona, firma, muassasa, deganda qandaydir faoliyat bilan shugullanadigan joy, bino ko'z oldimizga keladi. Binoni joylashtirilishi, qurilishi, arxitekturasi va boshqa jihatlarini obyekt sifatida o'rganadigan fanlar mavjud. Korxona iqtisodiyoti fanining metodologiyasi, uning maqsadi, diqqat-e'tibori korxona ichida uning faoliyatida sodir bo'layotgan iqtisodiy reallikga qaratiladi.

Madaniyat – ijtimoiy-tarixiy amaliyotda inson tomonidan ijod etilgan yoki yaratilgan (yaratilayotgan) moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasi bo'lib, ularni har xil jihatlarini o'rganadigan, unga mos fanlar mavjud (falsafa, madaniyatshunoslik, estetika, arxitektura va hokazolar).

Nemis olimlari aytgan iqtisodiy muammolar, iqtisodiy hatti-harakatlar madaniyat sohasi bilan integratsiyalashganini inkor qilib bo'lmaydi. Lekin bu hol madaniyat – korxona iqtisodiyoti fanining obyekti deb ta'kidlashga ham asos bo'la olmaydi.

Korxona iqtisodiyoti fani sanoat korxonasida mahsulot ishlab chiqarishni texnologik jarayonini yoki teatrdagi pesani, kinoteatrdagi filmni jihatlarini o'rganmaydi, aksincha, u korxona faoliyatini iqtisodiy jihatlarini, ishlab chiqarish hajmi, tannarx, daromad, foyda, ishchilar soni, ish haqi, xarajatlari va hokazolarni o'rganadi va bular korxona iqtisodi fanining predmetidan joy oladi.

Bu xulosalar K.A.Raitskiy bergan ta'rifga ham taalluqli, chunki u bergan ta'rif («...alohida xo'jalik subyektlarida ro'y berayotgan barcha

jarayonlar...») bo'yicha korxona fani obyektiga barcha jarayonlar kiritilayapti.

Haqiqatdan olganda korxona iqtisodi tajribaga asoslangan amaliy fanlar tarkibiga kirib, u har kunlik korxona faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiyotga oid makoniy va zamoniy dalillarni, hodisalarni va muammolarni o'rganish, tahlil qilish, rejalashtirish va boshqarish masalalarini o'rganadi.

Korxona iqtisodi o'rganadigan iqtisodiy reallik inson va uning faoliyatiga bog'liq bo'lib, u inson tomonidan vujudga keltiriladi va takomillashtiriladi. Shu sababli iqtisodiy reallik o'z tabiati bo'yicha doimiy o'zgaruvchidir.

Shunday qilib, korxona iqtisodi fanining obyekti shundoq-shunaqa ko'rinishdagi korxona, korxonada ro'y berayotgan jarayon va madaniyat bilan chegaralanib, yoki o'z chegarasidan chiqib ketmasligi zarur. Bizning fikrimizcha uning obyekti – korxona faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiy reallikdir.

Bu yerda korxona mulk shaklidan, tarmoq va sohalaridan, katta kichikligidan qat'iy nazar ko'rilmoqda. Korxonada iqtisodiy reallikdan tashqari texnik-texnologik, ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va ma'rifiy jarayonlar, hodisalar ham ro'y beradi. Korxona iqtisodiyoti fani ularni korxonani iqtisodiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omil sifatida o'rganadi.

Lekin ular korxona iqtisodiyoti fanining to'g'ridan-to'g'ri predmetiga kirmaydi. Bu hodisalar va jarayonlar boshqa fanlarni predmetiga kiradi.

Korxona iqtisodiyoti fanining obyekti – korxona faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiy reallikdir.

Korxona iqtisodiyoti fani o'z obyektida ro'y berayotgan real iqtisodiy hodisalarni o'rganib, ularning ahamiyatini, holatini va kelajagini yoritib, ma'lumot berishni o'rgatishi zarur.

Shu sababli fanning obyekti doirasida, uning predmetini aniqlab olish, fanni o'qitishda, talabalar tomonidan uni o'zlashtirishda chuqur nazariy va amaliy ahamiyat egallaydi.

Chunki korxona iqtisodiyoti fanining obyekti bo'lmish iqtisodiy reallik qanday, qachon va nimada namoyon bo'ladi, hozirgi holati va

kelajakda qanaqa natija beradi degan savollarga javob berish, korxona iqtisodiyoti fanining predmetini, uni o'rganadigan usullarini, maqsad va vazifalarini nazariy jihatdan asosli aniqlab berishga bog'liqdir.

Korxona faoliyatida shakllanadigan iqtisodiy reallik (hodisalar, jarayonlar) qanday vositalar orqali vujudga keladi?

Birinchi vosita bu inson omili, uning mehnati.

Ikkinchidan – moddiy (ishlab chiqarish) vositalar, ya'ni kapital.

Uchinchi – tabiiy resurslar, yer.

To'rtinchi omil – tadbirkorlik.

Beshinchidan – axborotlar.

Keltirilgan beshta omil orqali jamiyatda inson ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar yaratiladi. Bu omillar korxonada birlashtirilib, tovar va xizmat ishlab chiqarilishiga yo'naltiriladi.

1.4.1-chizmada ishlab chiqarish omillarini korxonada birlashtirilishi ifoda etilgan.

Bu jarayonda **yer - mehnat - kapital** ***tadbirkorlik*** va ***axborotlar*** orqali birlashtiriladi...

Ishlab chiqarish omillarini birlashishi texnik-texnologik, ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va ma'rifiy jarayonlar qatori iqtisodiy jarayonlar va hodisalar ro'y beradi. Bu iqtisodiy jarayonlar va hodisalar korxonaning xo'jalik mexanizmida o'z aksini topadi.

1.4.1-chizma



Xo'jalik mexanizmi deganda takror ishlab chiqarish jarayonini (iqtisodiyotdagi barcha sohalarni) tartibga solish uchun ishlatadigan

tashkiliy, iqtisodiy shakl va usullar yigindisini (majmuasini) tushunamiz.

Xo'jalik mexanizmining mohiyatini tushunish uchun uning tarkibiy tuzilishi va elementlarini aniqlab olish zarur.

Xo'jalik mexanizmi iyeorarxik tarkibiy tuzilish bo'yicha jamiyat, hududiy tarmoqlar va sohalar, boshqarmalar va korxona xo'jalik mexanizmlaridan tarkib topadi. 1.4.2-chizmada xo'jalik mexanizmini iyeorarxik tarkibiy tuzilishi keltirilgan.

1.4.2-chizma



Xo'jalik mexanizmi iyeorarxik tuzilishidan qat'iy nazar uning elementlari shakl nuqtai nazardan bir xil ko'rinishda namoyon bo'lib, lekin mazmunan bir-biridan farq qiladi. Bizlarning maqsadimiz korxona xo'jalik mexanizmini mazmunini va elementlarini yoritib berish bo'lganligi uchun faqat xo'jalik mexanizmini korxona faoliyati doirasida ko'rib chiqamiz. Bizlarning fikrimizcha korxona xo'jalik mexanizmi quyidagi elementlardan tashkil topadi.

Birinchidan, ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, korxona va tadbirkorlikning shakl va turlari, ularni ixtisoslashi, kooperativlashishi, konsentratsiyalanishi va hokazolar.

Ikkinchidan, korxonani boshqarish tarkibi, usul va shakllari. Bu element iqtisodiy munosabatlarni boshqaruv aspektini tuzilishi, ishlab

chiqarishga ta'sir qilish uchun ishlatiladigan ma'muriy va iqtisodiy usullarni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, korxonaning davlat organlari va iqtisodiyotning boshqa subyektlari bilan moliyaviy-kredit munosabatlari, xo'jalik aloqalari.

To'rtinchidan, korxona faoliyatida ishlatiladigan iqtisodiy rag'bat-lantirish shakllari, usullari, iqtisodiy dastaklar (baho, ish haqi, foydalar kabi).

Beshinchidan, korxona faoliyatini ishlab chiqarishni tartibga solishni huquqiy shakl va usullari. Yuridik qonunlar, davlat organlarining normativ hujjatlari, ko'rsatmalari, korxonaning nizomi, ustavi va hokazolar.

Oltinchidan, ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi sotsial-psixologik omillar[1].

Yettinchidan, davlatning iqtisodiy siyosati. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston Respublikasi davlatining iqtisodiy siyosatining asosiy negizini Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan nazariy asoslangan beshta ustuvor yo'nalishlari tashkil qiladi. Ularning asosiy mazmuni quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Iqtisodiyotni siyosatdan ustunligi.
2. Davlat bosh islohotchi.
3. Qonun va Konstitutsiyaning ustuvorligi.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Bu tartib va qoidalar korxona iqtisodiyotida o'z ifodalarini topadi va korxonaning faoliyatini yo'naltiradi.

Sakkizinchidan, raqobat, jur'at, xavfsizlik, tijorat sirlarining shakl va usullari.

Korxonaning xo'jalik mexanizmi murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Xo'jalik mexnizmini o'rganish orqali korxona faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiy hodisalar va jarayonlarga baho berish, ularni rejalashtirish yo'llarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, korxona iqtisodiyoti fani korxonaning xo'jalik mexanizmini o'rganish orqali o'z maqsadiga erishadi. Chunki uning asosiy maqsadi:

---

[1] Bu omillarni o'rganish aslida sotsiologiya hamda psixologiya fanlarining predmeti bo'lsa ham, ularni iqtisodiy reallikka ta'sirini korxona iqtisodi o'z tajribasi doirasida o'rganadi.

Korxonada ro‘y berayotgan iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni holatiga baho berish, ularni takomillashtirish yo‘llarini aniqlash va kelajagini belgilash usullarini talabalarga o‘rgatishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxona iqtisodiyoti fanining predmetiga ta’rif berish mumkin.

Korxona iqtisodiyoti fanining predmeti – korxonada ro‘y berayotgan iqtisodiy reallikni shakllantiradigan, tartibga soladigan tashkiliy, iqtisodiy shakl va usullar yig‘indisi, ya’ni korxonaning xo‘jalik mexanizmidir.

Korxona iqtisodiyoti fanining predmeti – korxonaning xo‘jalik mexanizmidir, ya’ni korxona xo‘jalik faoliyatidagi iqtisodiy munosabatlardan iboratdir.

Korxona iqtisodiyoti fanini o‘rganish to‘g‘risida so‘z yuritilganda albatta uning asosiy vazifalarini aniqlab olish kerak. Uning vazifalari quyidagi asosiy omillardan kelib chiqadi.

1. Korxonaning iqtisodiyotda tutgan o‘rni. Buni namoyon qiladigan jihatlari: birinchidan, korxona jamiyatni asosiy bo‘g‘ini; ikkinchidan, korxonalarda jamiyatning barcha moddiy va ma’naviy boyliklari ishlab chiqariladi; uchinchidan, ularning samarali ishlashidan jamiyatning rivojlanishi, xalqning moddiy va ma’naviy farovonligi, davlatning jahon davlatlari orasida tutgan o‘rni.

2. Korxona faoliyatida ro‘y berayotgan iqtisodiy reallikni doimiy o‘zgaruvchanligi, unga ko‘pgina omillarni ta’sir qilishi bir tomondan, ikkinchi tomondan, korxonaning natijalari butun jamiyatni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi.

3. Iqtisodiy kadrlarga qo‘yiladigan talablardan (ularning kasbiy mahorati, bilimdonligi, tadbirkorligi, bashorat qila bilishligi va hokazolar) kelib chiqadigan omillar. Korxona faoliyatini yuritishda injenerlar, texnologlar, masterlar va boshqa xizmatchi va ishchilar qatorida iqtisodiy kadrlar (menejerlar, marketologlar, iqtisodchilar, buxgalterlar) faoliyat ko‘rsatadilar. Ularni amaliyotda bejiz iqtisodiyotning «shturman»lari deb atamaydilar.

Iqtisodiy kadrlarning kasbiy mahorati, bilimdonligi, tadbirkorligi bashorat qila bilishligi kabi fazilatlari korxona iqtisodiyoti fanini o'rganish jarayonida shakllanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxona iqtisodiyoti fanining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni, o'lchov birliklari, ko'rsatkichlari va mezonlarini aniqlash usullarini o'rganish;
- korxona xo'jalik mexanizmini holatini o'rganish, baholash, kelajakga bashorat qilish;
- bo'lajak iqtisodchilarni korxona faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish, kelajagini bashorat qilish usullari bilan qurollantirish;
- xo'jalik yuritishni yangi shakl va usullarini aniqlash;
- barcha turdagi korxonalarning rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash, takliflar berish;
- korxonada birlashtirilgan omillardan (yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik, axborotlar) samarali foydalanish yo'llarini belgilash. Chunki bu omillar jamiyat, tarmoq va sohalar bo'yicha, ayniqsa, alohida korxonalar bo'yicha olinganda, makon va zamon birligida, chegaralangan ekanligini hech kim inkor qilmaydi.

1.5. Korxona iqtisodiyoti fanining usullari

Har qanday ilmiy fan o'rganadigan predmetidan kelib chiqib o'z usullarini (metodlarini) yaratgan. Metod grek tilidan «methodos» so'zidan olinib, «biron narsaga yo'l topish» degan ma'noni bildiradi. O'zbek tilida metod so'zi usul ma'nosiga to'g'ri keladi.

Fan usuli (metodi) deganda tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalar va jarayonlarni bilish, o'rganish va tadqiq qilish uchun fanda qo'llaniladigan matematik va statistik uslublar majmuasiga tushuniladi.

Usul – bizning fikrimizcha, jamiyat sirlarini obyektiv fikrlash, nazariy mushohada qilish va amaliyotga joriy etish vositalari sifatida qaralishi mumkin.

Usul, falsafiy ma'noda qaralsa ilmiy fan o'rganadigan predmetni inson fikrida nusxalanishi yoki shakllanishini bildirib, ularni o'rganish quroli sifatida qaraladi.

Ongli ravishda, ilmiy asoslangan fan usullarini qo'llash, har bir fan uchun yangiliklar yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Qadimgi islom dunyosida olimlar tabiat va jamiyatni rivojlanishini, tafakkurni takomillashtirishni o'rganishda «Rivojlanish-shakllanish» nazaryasini ishlatishgan. Ushbu nazariya asosida fikr yuritishni «Alloh-inson-modda-vaqt-iqtisodiy ravnaq» usuli ishlatilgan. Shu bilan birga, bilish jarayonining rivojlanishi asosida ilmiy fikr yuritishning umumiy usullari ham yaratilgan. Ular qatoriga dialektika, induksiya, deduksiya, analiz va sintez kabilar kiradi.

Barcha iqtisodiy fanlarning usullarini falsafiy asosi va umumiy bilish quroli sifatida dialektika usuli ishlatiladi. Shu bilan birga bilish jarayonining rivojlanishi asosida ilmiy fikr yuritishning umumiy usullari ham topilgan. Ular qatoriga induksiya, deduksiya, analiz va sintez kabilar kiradi.

Keltirilgan usullarni qisqacha mazmunini yoritib o'tamiz.

Bobolarimiz ishlatgan «Rivojlanish - shakllanish» nazariyasi, Allohning yaratuvchanligi, uning birlamchiligini asoslab, keyin «inson – modda – vaqt – iqtisodiy ravnaq» qa qarab rivojlanishni amalga oshirishni asoslaydigan fikr yuritish usulidir.

Aslida, tarixda dialektika dialog va tortishuv mahorati, ya'ni savol-javob orqali tortishuv o'tkazish qobiliyati hamda narsalar, tushunchalarni shakllar va turlarga tasniflash mahorati deb tushunilgan.

Dialektika grekcha «dialektike» so'zidan kelib chiqib tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy qonunlarini o'rganish usuli sifatida vujudga kelgan.

Qadimiy falsafa tabiatda va jamiyatda butun borliq o'zgaruvchanligini asoslagan va hodisalar, jarayonlarni bir holatdan ikkinchi qarama-qarshi holatga o'tishini isbotlagan. Aristotel dialektikani ehtimol fikrlarini isbotlash to'g'risidagi fan deb qaragan.

Butun borliq, mavjudotni har biri ham bor ham yo'q; o'z o'ziga teng va teng emas; o'ziga o'xshaydi va o'zidan qarama-qarshi holatga o'tadi. Shuning uchun ham borliq to'la qarama-qarshilikdan iborat, yagona va ko'p, mangu va o'tuvchan; o'zgarmas va o'zgaruvchan; tinch holatda va harakatda. Bunday jarayonlarni o'rganish usuli sifatida dialektika vujudga kelgan.

Shunday qilib, falsafaning tabiat, jamiyat va tafakkurni o'rganish usuliga dialektika deb tushuniladi.

Iqtisodiy reallik ham butun jamiyatdagi borliqni bir qismidir. Shuning uchun iqtisodiy reallikda sodir bo'layotgan hodisalar va

jarayonlarni o‘rganishda barcha iqtisodiy fanlar, shu jumladan, korxona iqtisodiyoti dialektika usulidan keng foydalanadi.

Induksiya lotincha «inductio» so‘zidan olingan bo‘lib, xabar olish mazmunini bildiradi. U fikr yuritishning bir tipi va tadqiq qilish usulidir. Umuman induksiya tadqiqot qilishda, xulosalarni asoslashda xususiylikdan ayrim voqelikdan umumiylikka o‘tish usulidir. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda umumiy nazariy bilimga ega bo‘lish uchun uning alohida tomonlari, emperik asoslari o‘rganilib xulosa qilinadi.

Deduksiya lotincha «deductio» so‘zidan olinib, so‘zma-so‘z «chiqarish» ma’nosini bildiradi. Deduksiya ham induksiya kabi fikr yuritishni bir tipi va tadqiq qilish usuli bo‘lib, induksiya usulini teskarisini ishlatadi. Deduksiya usuli ishlatilganda umumiylikdan xususiylikka qarab fikr yuritiladi va tadqiqot olib boriladi.

Induksiya va deduksiya logik fikr yuritishga asoslangan. Iqtisodiy tadqiqotlar o‘tkazishida ayrim belgilarni tahlil qilib uning asosida umumiy jarayonga baho berish yoki uning teskari hollari yuz berishga ko‘p to‘qnashamiz.

Analiz va sintez grekcha «anajysis» va «synthesis» so‘zlaridan olingan bo‘lib, analiz – bo‘lish, ajratish va sintez – muvofiqlik, munosiblik ma’nosini bildiradi. Analiz va sintez tadqiqot usuli bo‘lib, umumiy mazmunni yaxlitlikni alohida tarkibiy bo‘limlarga (xususiylikga) ajratish va yaxlitlikni alohida tarkibiy bo‘limlardan yaratish jarayoniga tushuniladi. Bular ham tadqiqotni logik uslublaridandir. Iqtisodiy amaliyotda bu usullardan keng foydalaniladi.

Korxona iqtisodiyoti ilmiy fan sifatida yuqorida keltirilgan falsafaning usullaridan va boshqa fanlarda ishlatiladigan ko‘p arsinalli usul va uslublarni o‘z predmetini o‘rganishda ishlatadi. Ta’biiy yo‘naltirilishi bo‘yicha bu usul va uslublar iqtisodiy jarayon va hodisalarni tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o‘tkazish, prognozlash, rejalashtirish qurollari sifatida ishlatiladi. Bir qator alomatlari bo‘yicha bu usullar son va sifat tahlili, solishtirish, kuzatish, eksperiment o‘tkazish, sistemali tahlil, modellashtirish, estropolyatsiya, interpolyatsiya kabilarga bo‘linadi. Bular bilan bir qatorda statistik, matematik bashorat (gipoteza) usullari keng ishlatiladi.

Iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni boshqaruv tizimiga, ularni o‘rganish, tadqiqot qilish uchun iqtisodiy axborotlar majmuasi ishlatiladi. Ular fan obyektining xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida tasavvur beradi. Umuman axborotlarsiz qandaydir qaror qabul qilish qiyin.

Axborot qabul qiluvchiga uch xil tushunish filtri orqali yetkaziladi, ya'ni qabul qilish, tushunish va baholash. Shu nuqtai nazardan axborot, qaror qabul qilish yoki biron bir vazifani bajarish uchun foydali bo'lgan, qabul qilingan, tushunilgan va baholangan yangi bilimlar qatoriga kiradi.

Axborotlar doirasi juda kengdir va uning har xil turlari mavjud: Tabiat to'g'risida, tarix to'g'risida, ijtimoiy hayot to'g'risida, siyosat to'g'risida, texnikaviy, iqtisodiy va hokazolar.

Iqtisodiy axborotlarga tushuncha berib o'tamiz.

Qisqacha qilib aytganda, iqtisodiy axborotlarda iqtisodiy jarayon va hodisalarning son va sifat tomonlari o'z ifodasini topadi. Iqtisodiy axborotlarga keng ma'noda qaralsa, quyidagilardan tarkib topadi:

- boshqaruvchi va boshqariluvchi obyektlar o'rtasida aloqa vositasi sifatida ishlatiladi;
- barcha aloqador obyektlar, subyektlar orasida bir-biriga yuboriladigan xabarnoma sifatida ko'rinadi;
- boshqaruv qarorlarini asoslash va qabul qilish uchun zarur bo'lgan hodisalar, jarayonlar, munosabatlar va narsalarning xususiyati to'g'risidagi yangi bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi;
- hodisalar va jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlaridan tabiatidan darak beruvchi xabarnoma sifatida tasavvur qilinadi;
- iqtisodiy usul va uslublarni ishga solish, fan predmetini o'rganish va tadqiq qilish hamda xulosalarini namoyon qilish uchun dastak bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy ma'lumotlar iqtisodiyotda ahamiyati katta keng ma'noda ishlatiladi, ishlatilish doirasi ham keng.

Konkret qilib ta'rif berilsa, iqtisodiy axborotlarda jamiyatda sodir bo'layotgan barcha iqtisodiy ishlarning son va sifat jihatlari (hajmi, mazmuni) o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy axborotlarni tasnifi 1.5.1-chizmada ifodalangan.

Iqtisodiy axborotlar to'g'risida xabarlar ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Ko'rsatkichlar natural, qiymat, absolyut va nisbiy o'lchov birliklarda namoyon bo'ladi. Ko'rsatkichlar to'g'risida tegishli boblarda so'z yuritiladi.

Iqtisodiy axborotlarni namoyon bo'lishi belgilangan yoki qabul qilingan hujjatlar orqali amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish Respublikamizda iqtisodiyotni tarkibini tubdan o‘zgartirilishiga olib keldi. Mulk shakllari, iqtisodiyotni tarkibi tubdan o‘zgardi. Eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan «Xalq xo‘jaligi balansi» hisobot va statistika ko‘rsatkichlar tizimi talabga javob bermay qoldi. Shu sababli, 1993-yil 28-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasida «Davlat statistikasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Bu qonunda respublika statistika organlarini huquqlari, vazifalari, mas’uliyatlari belgilangan.

Ushbu qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasi jahonning 150-dan ortiq mamlakatlarida ishlatilayotgan «Milliy hisobot tizimi»ga o‘tdi. «Milliy hisobot tizimi» – yaxlit jamlama iqtisodiy-statistik ko‘rsatkichlar to‘plami bo‘lib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish, yalpi Milliy Daromadni yaratish, taqsimlash va iste’mol jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan hisobot va statistika tizimidir. Bunda ishlab chiqarish bilan bir xil uslubda xizmat ham Milliy daromad yaratishda hisobga olinadi va o‘lchanadi.

1.5.1-chizma

Iqtisodiy axborotlar tasnifi



1.5.1-chizmaning davomi



Eski «Xalq xo'jaligi balansi» tizimi asosan davlat boshqaruv organlari, tarmoq vazirliklarini va idoralarini boshqaruv vazifasini bajarishga, axborot bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, yangi «Milliy hisobot tizimi» tadbirkorlikni, har xil korxonalar, ularni birlashmalari assotsiatsiyalarni, konsernlar, korporatsiyalar, fondlarni, alohida ilmiy-tadqiqot muassasalarini, aholini, chet ellik investorlarni va nihoyat davlatni tegishli organlarini statistik axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida statistikani huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zaruriyatidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2002-yil 12-dekabrda «Davlat statistikasi to'g'risida»gi yangi qonunini qabul qildi.

Ushbu qabul qilingan «Davlat statistikasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida mamlakatning ijtimoiy-

iqtisodiy holati to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar yig‘ish, umumlashtirish, tarqatish va saqlash bilan bog‘liq barcha huquqiy munosabatlar tartibga solindi, davlat statistikasini tashkil etish tartibi belgilandi. Bu esa jahon andozalari asosida davlat statistikasini tashkil etishdagi yondashuvlar yaxlitligini ta’minlab berdi.

Ma’lumki, o‘tgan davr mobaynida iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ravnaqi uchun qulay shart - sharoit yaratishga yo‘naltirilgan huquqiy mexanizmlar mustahkamlandi, qator me’yoriy - huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Prezidentimizning «Davlat statistika organlari tizimining dasturiy - texnikaviy ta’minoti va kadrlarining professional malakasi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida» gi qarori davlat statistika organlari tizimi faoliyatiga ilg‘or axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va zamonaviy dasturiy - texnikaviy vositalar hamda kommunikatsiya texnologiyalarini hayotga tatbiq etgan holda, statistika ma’lumotlarini to‘plash tizimini takomillashtirishga olib keldi. Natijada yaqinda kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to‘g‘risida»gi Qonuniga o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonun bu borada nihoyatda ahamiyatlidir. Negaki mazkur qonun bilan davlat statistikasi organlarining vakolatlari yanada aniqlashtirilib, davlat statistikasi sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, yagona statistika uslubiyatini hamda davlat statistika kuzatuvlarining shakllarini ishlab chiqish va joriy qilishda hamda statistika ko‘rsatkichlarining tezkorligi, ishonchliligini, shuningdek, statistika axborotidan foydalanish erkinligi va ochiqligini ta’minlashda yanada samarali tizim shakllanishiga keng imkoniyat yaratildi.

Qonunga kiritilgan yana bir muhim o‘zgarish, bu – statistik kuzatuvlar doirasida statistika organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini qisqartirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu statistika tizimi faoliyati samaradorligining yanada oshishi, xo‘jalik yurutuvchi subyektlar, jumladan, kichik korxona va mikrofirmalarning moliya - xo‘jalik faoliyatiga nisbatan noqonuniy xatti - harakatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy xalqaro statistika amaliyotida ma’lumotlarni yig‘ishning ilg‘or usullarini joriy etish izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, hisobotni taqdim qiluvchi subyektlar

statistika organlariga tegishli hisobotni elektron raqamli imzodan foydalangan holda bajarishlari nazarda tutilgan. Chunonchi, ushbu tartibda yurtimizda 22 turdagi davlat statistika hisobotlari shakllarini elektron imzodan foydalangan holda qabul qilish yo'lga qo'yildi. Shu munosabat bilan Qonunga axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan normalar kiritildi. Natijada, qo'shimcha statistika ma'lumotlarini elektron shaklda yig'ishning ilg'or usullaridan foydalanish va statistika ma'lumotlarini tayyorlash tezkorligi hamda sifatini oshirishga erishildi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining statistika ma'lumotlari hamda hisobotlarini taqdim etish mexanizmi takomillashtirildi.

Tayanch iboralar: jamiyat, iqtisod, fan, moddiy borliq, obyekt, korxona, predmet, madaniyat, hodisa, jarayon, iqtisodiy reallik, xo'jalik mexanizmi, metod, usul, dialektika, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, kuzatish, eksperiment, sistemali tahlil, modellashtirish, ekstropolyatsiya, interpolyatsiya, axborot, ko'rsatkich.

Takrorlash uchun savollar

1. «Iqtisodiyot» atamasi nimalarni anglatadi?
2. Insoniyat jamiyatining rivojlanishida iqtisodiyotning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Jamiyat taraqqiyoti qanday formatsiyalardan iborat?
4. Formatsiyalar qanday sharoitlarda vujudga kelgan?
5. Formatsiyalarni bir-biridan farqi nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Sotsialistik formatsiya qanday vujudga kelgan?
7. Kapitalistik tuzimni birinchi bosqichi klassik kapitalizmni ijobiy va salbiy xususiyatlarini yoritirib bering.
8. Iqtisodiy tuzim nima?
9. Jamiyat taraqqiyotida qanday iqtisodiy tuzimlar mavjud bo'lgan?
10. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti qanday tuzim?
11. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti qanday modellarini bilasiz?
12. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modellarining umumiylik tamoyillari nimalar bilan belgilanadi?

13. Insoniyat o‘z hayotida qanday iqtisodiy muammolarga duch keladi?

14. Fan nima?

15. Iqtisod so‘zini mazmunini yoritib bering.

16. Iqtisodiy fanlar tizimiga qanday fanlar kiradi?

17. Korxona iqtisodiyoti fani iqtisodiy fanlar tizimida qanday o‘rin egallaydi?

18. Korxona iqtisodiyoti fanining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib bering.

19. Korxona iqtisodiyoti fanining obyekti deganda nimani tushunasiz? Unga olimlar qanaqa ta’riflar beradi? Ushbu kitobda keltirilgan ta’riflardan tashqari biz qanaqa ta’riflarni o‘qiganmiz?

20. Korxona iqtisodiyoti fani predmeti bo‘lib nimalar hisoblanadi?

21. Ishlab chiqarish omillarini ayting. U nima orqali qayerda birlashadi?

22. Xo‘jalik mexanizmiga ta’rif bering. Uning elementlarini tushuntiring.

23. O‘zbekiston Respublikasini bozor iqtisodiyotiga o‘tishdagi ustuvor yo‘nalishlarini mazmunini tushuntiring.

24. Korxona iqtisodiyoti fanining vazifalari nimalardan iborat?

25. Qanday omillardan fanning vazifasi kelib chiqadi?

26. Usul nima?

27. Korxona iqtisodiyoti fanining usullariga ta’rif bering. Ularni mazmunini yoriting.

28. Axborot nima?

29. Qanaqa axborot turlari mavjud?

30. Axborotlar qanday alomatlar bo‘yicha tasniflanadi?

31. Ko‘rsatkichlar deganda nimani tushunasiz?

32. Qanday ko‘rsatkichlarni siz bilasiz?

33. O‘zbekiston Respublikasida axborotlarni qanday tizimi ishlatiladi? Uni mazmunini yoritib bering.

34. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to‘g‘risida»gi Qonuni (1993-yil 28-sentyabrdagi) mazmuni va mohiyatini yoriting.

35. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to‘g’risida»gi Qonuni oldingi qonunga qanday o‘zgarishlar kiritdi?

II BOB. KORXONA–MUSTAQIL XO‘JALIK YURITUVCHI BOZOR SUBYEKTI

Reja:

2.1. Korxona – bozor iqtisodiyotining xo‘jalik subyekti, uning maqsadi va vazifalari.

2.2. Korxona tushunchasi, belgilari, shakllari, turlari va ularning birlashmalari.

2.3. Korxonalar faoliyatini litsenziyalash.

2.4. Davlat korxonalarini isloh qilish.

2.5. Korxona faoliyatini iste’molchilar talabiga yo‘naltirish.

2.1. Korxona – bozor iqtisodiyotining xo‘jalik subyekti, uning maqsadi va vazifalari

Insoniyat hayoti va faoliyatining muhim xususiyati uning moddiy borliq bilan bog‘liqligi. Inson nimaiki qilmasa, qanday ishga qo‘l o‘rmasa, o‘z maqsadiga erishish yo‘lida chegaralangan moddiy vositalarga duch keladi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar solsak, inson o‘zining birlamchi ehtiyojini (oziq-ovqat, uy, kiyim-kechak) qondirish maqsadida ular yerga ishlov berish, o‘rmonlarni kesish, bino qurish, chorvachilik bilan shug‘ullanish, kiyim-kechak tikish kabi ishlab chiqarish jarayonlari bilan shug‘ullangan. Ushbular bilan bir qatorda insonning ijtimoiy, ma’naviy, mehnat qilish kabi ehtiyojlari ham mavjud. Ularni qondirish uchun ham inson moddiy va ma’naviy resurslarga duch keladi. Inson ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z taraqqiyotining qandaydir tarixiy bosqichida ehtiyojni qondiruvchi resurslarni ishlab chiqaruvchi, yaratuvchi, o‘z faoliyati doirasida yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik, talant va boshqa vositalardan foydalanuvchi va ularni yaratuvchi korxonalarni tashkil qilgan.

Haqiqatda olganda korxona tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaradi, ularni tashish, saqlash, sotish kabi ish va xizmatlarni amalga oshiradi, hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Shunday qilib, korxona insoniyatni ehtiyojlarini qondirish uchun vujudga kelgan jamiyatning birlamchi va asosiy bo'g'inidir.

Korxonaning mohiyati ham yuqoridagilardan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish[1] ishlatiladigan resurslarni turlari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar jihatlariga qarab tarmoqlarga bo'linadi. Masalan: ogir sanoat, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, savdo, har xil xizmat ko'rsatish tarmoqlari kabilar. Tarmoqlar esa korxonalar va ularni birlashmalarini o'z ichiga oladi.

Milliy iqtisodiyotni ishlab chiqarish tarkibini quyidagi 2.1.1-chizmada ifoda qilish mumkin.

2.1.1. chizma



Tarmoqlar va sohalarni 4 xil katta guruhlarga bo'lish mumkin.

Birinchisi – o'z ichiga tabiiy boyliklarni, qishloq xo'jalik mahsulotlarini, daryolar, dengizlar, okeanlar, o'rmon resurslarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqarish sanoatlariga yetkazuvchi tarmoqlar.

Ikkinchisi – tabiiy boyliklarni, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini daryolar, dengizlar, okeanlar, o'rmon resurslarini qayta ishlab chiqaruvchi tarmoqlar.

[1] Ijtimoiy ishlab chiqarish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalari majmuasi mazmunida ishlatilayapti.

Uchinchisi – birinchi va ikkinchi guruhdagi tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar (transport, aloqa, kommunal xo'jalik, savdo-sotiq, tijorat, ta'minot kabilar).

To'rtinchisi – boshqaruv, yurispriditsiya, sogliqni saqlash, ta'lim va boshqa aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalardan iboratdir.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar majmuasidan iborat bo'lib, ular hududlarda tarixan shakllanib, bir-biri bilan maqsad va vazifalari, xo'jalik aloqalari orqali tigiz bog'liq, umumiy qonun qoidaga bo'ysinuvchi yagona tizimdir. Shu sababli uni iqtisodiyot nazariyasida ijtimoiy ishlab chiqarish sifatida qaraladi.

Milliy iqtisodiyotni asosini korxonalar tashkil qiladi. Barcha inson uchun zarur bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy borliqlar korxonalarda yaratiladi. Korxonalar, tarmoqlar va sohalarni tarkibini, mazmunini, masshtabini, rivojlanish darajasini belgilaydi. Ulardan tarmoq va hududiy birlashmalar tashkil topadi, shahar, tuman, viloyatlar tuziladi.

Aksariyat adabiyotlarda korxonaning maqsadi to'g'risida so'z yuritilganda, bu masalaga bir tomonlama qarashlarni kuzatamiz. Ya'ni korxonaning maqsadi o'z faoliyatidan foyda (daromad) olish deb ta'kidlanadi. Masalan: A.A.Sergeev «Korxona – foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat qilish uchun barpo etilgan mustaqil faoliyat yurituvchi subyekt» deb ta'riflaydi va «shakllari ko'pligiga qaramay korxonalar foyda olish maqsadi orqali bir xil tus oladi» deb takidlaydi[1]. Aslida korxona o'z mahsulotlariga bo'lgan talabni qanchalik to'la qondirsa uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Shu borada Amerika avtomobil qurilishini hamda «Amaliyot falsafasini» yaratgan «fordizm» nazariyasini asoschisi Genri Fordni aytganlarini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz. G.Ford o'zining tadbirkorlik faoliyatini maqsadini jamiyatga xizmat qilishda deb tushungan va «Faqat foyda olish uchun qilinadigan ish - eng yuqori darajadagi xavf-xatarli faoliyatdir.

...Korxonaning maqsadi foyda olish yoki chayqovchilik emas, aksincha, iste'mol uchun ishlab chiqarishdir. Bordiyu xalq ishlab chiqaruvchi unga xizmat qilinmayotganligini sezib qolsa, uning

[1] А.А.Сергеев Экономические основы бизнес-планирования. - М.: ООО «Издательство Юнити-ДАНА». 1999. 6 б.

kelajagi uzoqqa bormaydi»[2] deb ta'kidlagan (Tarjima darslik avtorlariniki).

Taniqli tadbirkor «Bin» firmasini boshligi L.P.Bin firmaning memorandumida, hamma ishchi va xizmatchilari bajarishi shart bo'lgan, quyidagi tezisni yozdirib, unga rioya qilishni qattiq nazorat qilgan: «Iste'molchi - bizni shoximiz: Biz iste'molchidan bog'liqmiz, iste'molchi bizdan emas. Hech kim, hech qachon o'z iste'molchisi bilan tortishib, hech narsa yutmagan. Iste'molchi - bu bizga o'z talabini keltiruvchilar. Bizni ishimiz ularni talabini o'zimiz uchun, hamda ular uchun ham foyda keltirish orqali qondirishdan iborat».

Nemis olimlari F.K.Bea, E.Dixtla, M.Shvaytasralar «Экономика предприятия» (Издательский дом «INFRA-M», 1999) darsligida korxona faoliyatining samarasi o'z taklifi orqali talabni to'la qondirishga bog'liq degan fikrni olga surishgan.

Bizning fikrimizcha, korxonaning asosiy maqsadini ikki yo'nalishdan iborat ekanligini ta'kidlash zarur. Birinchisi foyda yoki daromad olish uchun faoliyat yuritishligi bo'lsa, ikkinchisi talabni (ehtiyojni) qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chunki bu maqsadlarni har biriga erishish ikkinchisisiz amalga oshmaydi.



Ushbu maqsadlarga erishish korxonadan bir qator boshqa maqsadlarni amalga oshirishini talab qiladi. Ular qatoriga texnik, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni kiritish mumkin. Talabga va standartga javob beradigan mahsulot yaratish hamda ishlab chiqarish va texnik rivojlanish programmalarini amalga oshirish uchun texnik maqsadlar qo'yiladi. Ularga eng avvalo, tovar yoki mahsulotni yaratish va tayyorlash, ularning sifat ko'rsatkichlarini standartga moslash, ishlab chiqarish potensialini saqlash va rivojlantirish va hokazolar kiradi.

[2] Форд Г. Моя жизнь, мои достижения. - М.: «Финанси и статистика», 1989.-С.18.

Ishchi-xodimlar, ularning oilasi va jamiyat tamoyillaridan kelib chiqib, korxonaning oldiga ijtimoiy maqsadlar qo'yiladi.

Tabiat va jamiyatni muhofazasini ta'minlash har xil ko'rinishdagi ofatlarni (yonilg'i, suv toshqini, yer qimirlashi va h.k.) oldini olish uchun tegishli ekologik maqsadlar amalga oshiriladi.

Korxona yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish uchun bir qator vazifalarni bajarishi kerak. Bular qatorida quyidagi asosiylarini ko'rsatib o'tamiz. Boshqaruv vazifasi, texnik-texnologik, ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar, xo'jalik aloqalar, davlat bilan munosabatlar, informatsion ta'minot, moddiy-texnik ta'minot, ishchi kuchi ta'minoti, ijtimoiy, ekologik va hokazolar.

Bu vazifalarni ayrimlarining mazmuni, yechimlari ushbu darslikning keyingi boblarida yoritiladi, ayrimlariga javobni tegishli fanlar o'rganadi va boshqa adabiyotlardan topish mumkin.

Korxona faoliyatida ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va muomala jarayonlari ro'y beradi. Ishlab chiqarish doirasi ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko'rish va mahsulot ishlab chiqishdan iborat. Takror ishlab chiqarish esa ishchi kuchini jalb etish va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Muomala doirasida korxona uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari harid qilinadi va tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar sotiladi.

Korxona faoliyatiga ichki va tashqi muhitlar ta'sir ko'rsatadi. Ichki muhit bu odamlar, ishlab chiqarish vositalari, axborot va pul mablag'i. Ularning birgalikdagi harakati natijasida tayyor mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqariladi. Korxona tayyor mahsulot (ish, xizmat)larni sotishda, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini jalb etishda va hokazolarda tashqi muhit bilan aloqada bo'ladi va unga ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi muhit – bu tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar iste'molchilari, ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beruvchilar, banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat organlari va korxona atrofida yashovchi ishchi kuchi. Korxonaning tashqi muhit bilan aloqalari 2.1.3-chizmada keltirilgan.

Korxonada moddiy omillar birikib mehnat jarayoni yuz beradi, jamiyatning talab-ehtiyojini qondirishga qaratilgan moddiy mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqariladi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida korxona o‘z o‘rniga ega, ma’lum sohaga ixtisoslashgan bo‘ladi. Unda muayyan texnika-texnologiya jamlanadi va shunga muvofiq ish kuchi faoliyat yuritadi (ma’lum kasbiy malaka va mahoratga ega bo‘lgan kishilar mehnat qiladi).

Korxonalar ixtisoslashuviga qarab sanoat, transport, qurilish, aloqa, qishloq xo‘jaligi, savdo, maishiy-xizmat va boshqalarga bo‘linadi.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida sanoat korxonalari yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Yalpi ichki mahsulotning 20-25 foizi aynan sanoat tarmogida yaratiladi.

Sanoat korxonalari xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini ilgor, zamonaviy texnika bilan qurollantiradi. Qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa sohalarning texnik-iqtisodiy darajasi aynan sanoatning rivojlanish darajasiga bog‘liqdir. Sanoat tarmogining yanada rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining kuchayishida muhim omil hisoblanadi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish vositalari bilan bir qatorda xalq iste’moli buyumlarini ham ishlab chiqaradi va aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Sanoat, xususan ogir industriya xalq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U beto‘xtov o‘zi va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqaradi. Ogir industriya sanoatining barcha tarmoqlarini, qishloq xo‘jaligini, aloqani, qurilishni, savdoni ilgor texnikalar bilan qurollantiradi. Sanoatning barcha xalq xo‘jaligi tarmoqlarini texnik jihozlashi ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishga va ishlab chiqarish masshtabini kengaytirishga xizmat qiladi.

Sanoat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning asosi hisoblanadi. U qishloq xo‘jaligini yangi texnika vositalari bilan ta’minlash orqali sohadagi mehnatni sanoatlashtirilgan (industriyalashtirilgan) ko‘rinishga olib keladi.

Sanoat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydi va xalq iste’moli tovarlarining asosiy qismini ishlab chiqadi. Aholining iste’mol tovarlari bilan ta’minlanish darajasi ko‘pincha sanoatning rivojlanishiga bog‘liqdir.

Sanoatning rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarining oqilona joylashtirilishiga, mamlakat iqtisodiy hududlarining har tamonlama yuksalishiga, tabiiy boyliklardan maqsadli foydalanishga yordam beradi.

Sanoat, shuningdek, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashning asosi hisoblanadi, chunki u zamonaviy harbiy texnika turlarini va vositalarini ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi industriyasi tarkibida kuchli, ayrim hollarda esa noyob, ogir, yengil va oziq-ovqat sanoat korxonalari mavjud. Ular bir qancha avlodlar mehnati bilan yaratilgan ishlab chiqarish kuch-qudrati hisoblanadi va mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- bozorni har tomonlama o'rganish asosida mavjud mahsulot (ish, xizmat)larga bo'lgan va kelajakda paydo bo'ladigan talabni aniqlash va o'z istiqbolini belgilash;
- mahsulotlarni reklama qilish, o'rash, turli texnik xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish;
- mahsulot (ish, xizmat)larning yangi turlarini va modellarini yaratish nuqtai nazaridan ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish;
- iste'molchilar talabiga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqishni tashkil qilish;
- ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish, rejalashtirish, dasturlash va moliyalashtirish;
- mahsulotlarni sotish tizimini tashkil etish va takomillashtirish;
- korxona boshqaruvini takomillashtirish va boshqalar.

Qayd etilgan asosiy yo'nalishlar korxonalarda bir qancha masalalarning hal etilishini talab qiladi. Jumladan:

- korxona egalarining daromad olishini;
- iste'molchilar talabini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarilishini;
- xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;
- korxona atrofida yashovchi aholi uchun ish joylari bilan ta'minlanishini;
- atrof-muhitni himoya etilishini;
- ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlanishini;

- ishlab chiqarishni tashkil etish shakllarini takomillashtirilishini va h.k.

Bu masalalarni hal etish uchun korxonalar bir qancha vazifalarni bajarishi kerak bo'ladi:

- ishlab chiqarish va shaxsiy iste'moli uchun mahsulotlar tayyorlash;
- iste'molchilarga mahsulotlarni sotish va yetkazib berish;
- mahsulotlar sotilganidan keyingi davrlarda ularga texnik xizmatlar ko'rsatish;
- ishlab chiqarishni moddiy va texnik jihatdan ta'minlash;
- xodimlar mehnatini tashkil etish va boshqarish;
- moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish;
- amaldagi standartlar, me'yorlar va qonunchilikga rioya etish.

Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida, korxona nimani, qancha, qanday usullar bilan ishlab chiqarish, uni kimga, qayerda, qanchaga sotishni, olingan pul tushumlarini qaysi maqsad yo'lida ishlatishni o'zi hal qiladi. U bozorga qarab ish tutadi. Bozordagi raqobat korxonani iqtisodiy muhitga tez moslashib, doimo manevr qilishga - mahsulot turlarini yangilash, sifatini oshirish, faol reklama siyosatini olib borish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, investitsiya va innovatsiya bilan shug'ullanish kabilarga undaydi.

2.2. Korxona tushunchasi, belgilari, shakllari, turlari va ularning birlashmalari

Jamiyatda uchta asosiy iqtisodiy subyektlar tovar-pul munosabatlariga asosan aloqa qilib turadi. Bular davlat, korxona va uy (oila) xo'jaligidir.

Bularning munosabatlari ikki tomonlama harakterga ega bo'ladi. Davlat bilan bozor subyektlarining munosabatlari asosan qonunlar, qonuniy hujjatlar bilan tartibga solinadi, lekin xo'jalik aloqalari (oldi-sotdi) shartnomalar, kelishuvlar, davlat buyurtmalari, kontraktlar, davlat subsidiyalari orqali amalga oshiriladi.

Bozor subyektlari (korxona, uy xo'jaligi)ning aloqalari, munosabatlari shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Bozor tizimida iqtisodiy subyektlarning bir-biri bilan oldi-sotdi munosabatlarining predmetlarini keltiramiz (1.2.1-jadval).

1.2.1 - jadval

Bozor subyektlarining oldi-sotdi predmetlari

Bozor subyektlari	Sotish predmetlari	Sotib oladigan predmetlari
I. Davlat	Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo‘shligi, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, uy-joy, litsenziya, davlat tashkilotlari va muassasalarining xizmatlari.	Davlat va jamiyatga zarur bo‘lgan tovarlar (davlat boshqaruv organlari, mudofaga va hokazolar), ishchi kuchi, jihozlar, fantexnika yutuqlari, intellektual mulk, axborotlar va boshqalar.
II. Korxona	Tovarlar, xizmatlar, o‘ziga tegishli moddiy ne’matlar.	Yer, tabiiy boyliklar, moddiy resurslar, ishchi kuchi, tovarlar, xizmatlar, qimmatbaho qog‘ozlar, intellektual mulk, axborotlar va hokazolar.
III. Oila (uy) xo‘jaligi	Ishchi kuchi (mehnat), o‘ziga tegishli moddiy ne’matlar, tovarlar, xizmatlar, intellektual mulk.	Iste’mol tovarlari, xizmatlar, moddiy resurslar, fan texnika yutuqlari, axborotlar.

Xo‘jalik faoliyati bilan, xo‘jalik ishlari bilan har bir shaxs, fuqaro qadimdan shugullanib kelgan. Ular o‘z o‘zini ta’minlash masalasini hal qilish bilan shugullanishgan. Bunday xo‘jalik yuritish shakli oila (uy) xo‘jaligi deb yuritilgan va u jamiyatning birlamchi, boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib hisoblangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2012-yil mart oyida «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan ushbu xo‘jalik yuritish shaklining ayrimlarini, ya’ni yuridik shakl tashkil qilganlarini maqomi tubdan o‘zgardi. Unga quyidagilar kiradi:

1. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

2. Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

3. Oilaviy korxona qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin.

4. Oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to‘lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari) tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog‘a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona iishtirokchilari bo‘lishi mumkin.

Oila (uy) xo‘jaligining yuridik shaxs tashkil qilmaganlarini o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ularning xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Shaxsiy ehtiyojni qondirish, ular ishlab chiqargan narsasini o‘zi yoki oilasi iste’mol qiladi, ular ishlab chiqaruvchi va iste’molchi hisoblanadilar. Hozirgi zamonda uy (oila) xo‘jaliklari ortiqcha mahsulotlarini sotish uchun bozorga ham chiqaradi. Bunday hollarda oila xo‘jalik faoliyatidan qo‘shimcha daromad manbai sifatida foydalaniladi va ular qisman jamiyatni, boshqalarni ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan hisoblanadi. Bunday holda uy xo‘jaligining mahsuloti tovar shakliga aylanadi;

2. Ular faoliyatida shaxsiy mulkidan foydalanadi (ayrim hollarda kredit yoki ssudalardan foydalanishi ehtimoldan holi emas);

3. O‘z ish kuchini ishlatishadi, yollanma ishchi kuchidan foydalanilmaydi;

4. Faoliyatida ishlatiladigan barcha resurslardan samarali foydalanishga va ko‘proq mahsulot ishlab chiqishga intilishadi;

5. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmaydi, ularga hokimiyatdan ruxsatnoma olish shart emas;

6. Faoliyat yuritishda mustaqil qarorlar qabul qiladi; va nihoyat, ular o‘z tavakkalchiligi asosida ish yuritadi.

Jamiyatning asosiy bo‘g‘inini, ishlab chiqarish va xizmatni bozor va jamiyat uchun amalga oshiruvchi, o‘z xo‘jalik faoliyatini o‘z ehtiyoji (talabi) uchun emas, tashqi, boshqalar ehtiyojini (talabini) qondirishga yo‘naltiruvchi korxonalar tashkil qiladi.

Bunday hollarda iqtisodiy faoliyat ijtimoiy, ommaviy harakter olib, ular nafaqat o‘zi yoki oilasi uchun, balki boshqalar uchun ijtimoiy-iqtisodiy maqsadni ko‘zlab ishladilar. Shuning uchun ham korxona ta’rifini yoritish uchun, uning mazmuniga har tomonlama yondashish zarur. Korxona iqtisodiyotiga bagishlangan adabiyotlarda bu masalaga yaxlit yondashuv mavjud bo‘lib, uning mazmuniga tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy nuqtai nazardan hamda korxonaning jamiyatda tutgan o‘rni, mavqeiga qarab yondashish tavsiya qilinadi.

Tashkiliy iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda korxona - moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar majmuasidan iborat bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyati asosida tashkil qilinib, mahsulot ishlab chiqish, biron bir ish yoki xizmatni aholining, bozorning talablarini qondirish va foyda olish maqsadida yoki sotsial ahamiyatga ega bo‘lgan funksiyasini bajarishdir. Shunday qilib, korxona xo‘jalik subyekti bo‘lib, uning maqsad va vazifalari tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishdan kelib chiqadi.

Korxona tushunchasining muhim tomonlaridan biri, faoliyatidagi barcha masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish huquqiga egalik qiladi, o‘z harakatlariga javobgar hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan korxona jamiyatning mustaqil xo‘jalik subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Korxona tushunchasini uning jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyatisiz ko‘z oldingizga keltirib bo‘lmaydi. Bu masala 2,1 paragrifda yoritilgan. Bu nuqtai nazardan yondashish korxonaga jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida yondashishni taqozo qiladi.

Korxona huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lish uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak: faoliyat yuritish yoki boshqarish uchun birinchidan, mol-mulkiga ega bo‘lishi;

ikkinchidan, majburiyatlariga mol-mulki bilan javob berish;

uchinchidan, mulkni sotish, sotib olish;

to‘rtinchidan, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshirish;

beshinchidan, sudda javobgar va talabgar bo‘lishi mumkinligi;

oltinchidan, mustaqil xo‘jalik balansiga ega bo‘lish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxonaga quyidagicha ta’rif berish nazariy va amaliy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Korxona – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanuvchi, aholining talabini qondirish va foyda olish yoki boshqa ijtimoiy funksiyalarni bajarish maqsadida, xususiy resurslardan foydalanish asosida mahsulotlar ishlab chiqaradigan, ayriboshlaydigan hamda boshqa ishlarni va xizmatlarni bajaradigan, faoliyati bo‘yicha qarorlar qabul qiladigan va unga javobgar, huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lgan, har xil masshtabdagi xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

Ushbu ta’rif maqsadi, faoliyati, shakli, turlari va mulk shaklidan qat’iy nazar barcha korxonalarga taalluqlidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekti korxona maqomiga ega bo‘lishi uchun jahonda qabul qilingan quyidagi belgilarga javob berishi zarur. Bu belgilar uning ta’rifidan kelib chiqadi.

Korxona xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida ishchi kollektivini tashkil qilishni aniq tizimiga (sistemasiga), korxonaning tarkibiy tuzilish, boshqarish texnologiyasi va tartibiga ega bo‘lishi kerak. Shunday qilib, korxonaning birinchi belgisi uning tashkiliy tuzilishi va boshqarilishidadir.

Korxona tashkiliy yaxlitligi uning ikkinchi belgisidir.. Tashkiliy yaxlitlik tegishli tartibda korxonaning ta’sis etuvchi hujjatlarida o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak.

Uchinchi belgisi o‘zlik mulkiga ega bo‘lishi. Korxona mol-mulkini o‘z hohishi bo‘yicha ishlatishi mumkin.

To‘rtinchidan, korxona o‘z harakati va burchlari oldida moddiy javobgarligi.

Va nihoyat korxonaning oxirgi belgisi uning o‘z nomiga ega bo‘lishi. Bu belgi tashqi qarashda formal ko‘ringan bilan moddiy ahamiyatga egadir. Chunki u o‘z nomi bilan bitimlar tuzadi, tashqi aloqalarni amalga oshiradi, o‘z imidjini asraydi, uluglaydi, sud organlariga talabgor yoki javobgar sifatida chiqadi, faoliyatini reklama qiladi va boshqa funksiyalarini amalga oshiradi.

Korxonalarning shakllari va turlari masalasiga to‘xtalsak, aksariyat adabiyotlarda (chet el, o‘zimizda chop etilgan) alohida belgilariga qarab ularning turlari tasniflanadi. Shakli va turlariga alohida urgu berilmaydi[1]. Masalan: 1. «Современная экономика» o‘quv kursining[2] 22.2. paragrafi «Виды и формы предприятий» deb nomlangan, lekin turlari va shakllari ajratib tasniflanmagan.

2. V.A.Chjenning «Xususiylashtirish asoslari» asarida[3] ham «Korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari» bo‘limida korxonaning turlari va shakllari bir xil ma’noda ishlatiladi. Bu asarda mulk turlari keltirilib, «O‘zbekiston Respublikasida korxonalar to‘g‘risidagi Qonunga muvofiq mana shu mulk shakllari asosida korxonalarning har xil turlari barpo etilishi mumkin» deb ta’kidlangan va korxonaning quyidagi turlari keltirilgan: Ijara korxonasi; kichik korxonalar; xususiy korxonalar; hissadorlik jamiyatlari; qo‘shma korxonalar.

Bizning fikrimizcha, korxonalarni mulk shakllariga va sohalariga qarab shakllarga tasniflanishi mumkin. Korxonaning shakllariga to‘xtalib o‘tamiz.

Korxonalar mulk shakllariga asoslangan holda tashkiliy-huquqiy shakllarga turlanadi. O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risida»gi Qonuniga binoan (4-modda) mulk quyidagi shakllarda yuzaga chiqadi:

- fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulki;
- kollektiv (shirkat) mulki, shu jumladan, oilaviy mahalla, kooperativ mulk, ijaraga olingan korxona mulki, aksionerlar jamiyati, davlat korxonasi kollektivining, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar, konsern (konsarsium)larning mulki, yuridik shaxs hisoblangan boshqa jamoalar mulki;
- Respublika, Qoraqalpogiston Respublikasi, ma’muriy-territorial tuzilmalar (komunal) mulkdan iborat davlat mulki;
- aralash mulk;

---

[1] «Экономика»: Учебник,пид ред. А.С.Булатова. - М.: «Юрист», 2000, с.168–174.
«Экономика предприятии»: Учебник для вузов, пер. с нем. - М.: ИНФРА-М, 1999, с.19–23.
«Курс экономики»: Учебник, пед. ред. Б.А. райзберга. - М.: ИНФРА-М, 1997, с. 507–523.
«Экономика предприяти»: пер ред. В.Я.Хрщчаг. - Мн. Эконом пресс. 2000, с.10–13.
«Экономика предприятия»: Учебник, Дадабаев Ю.Т. и др. Т.: 1998, с. 7–9.
«Экономика предприяти»: тексти лекций, Махмудов Э.Х., Юлдашева Ш.М., Каландарёва С.Г. - Т.: ТГЕУ. 2000, с. 19–23.

[2] «Современная экономика»: Общедоступний учебний курс. Коллектив авторов. Ростав-на-Дону, Издательство «Феникс», 1996, с. 321–325.

[3] Chjen V.A. «Xususiylashtirish asoslari»: T.: «Iqtisod va huquq dunyosi», 1996, 59–102-betlar.

- qo‘shma korxonalar, ajnabiy fuqarolar, tashkilotlar va davlat, shuningdek, ajnabiy yuridik shaxslar mulki.

Mulk shakllariga munosib korxonalar quyidagicha shakllarga tasniflanishi mumkin:

- shaxsiy yoki xususiy mulkga asoslangan xususiy korxonalar;
- jamoat mulkiga asoslangan korxonalar;
- davlat mulkiga asoslangan korxonalar;
- aralash mulkga asoslangan qo‘shma korxonalar;
- ajnabiy davlatlar, ajnabiy fuqarolar mulkiga asoslangan korxonalar.

Sohalarga qarab korxonalarni quyidagi shakllarga ajratish mumkin: moddiy ishlab chiqarish sohasidagi; transport; qurilish; aloqa; muomala; xizmat; ta’lim; infratuzilma (infrastruktura); boshqaruv sohalaridagi hamda jamoat jamiyatlari va diniy tashkilotlar korxonalariga.

Korxonalar yuqorida keltirilgan shakllariga ya’ni mulk shakliga va sohalariga mos holda va alohida belgilariga qarab turlarga tasniflanadi.

Ishlab chiqarish masshtabi (hajmi)ga qarab O‘zbekistonda yirik, yakka tartibdagi, kichik, oilaviy korxonalar va mikrofirmalarga, chet ellarda kichik, o‘rta va yirik korxonalarga turlanadi.

Bu korxonalar asosan ishchilarning soniga qarab toifaga ajratiladi.

Korxonalarni ishchilar soniga qarab toifalash har xil davlatlarda iqtisodiyot tarmog‘iga qarab har xil bo‘lishi mumkin. Masalan: Amerika Qo‘shma Shtatlarida qayta ishlash sanoatidan tashqari barcha mikrofirmalarga tarmoqlar uchun – 20 kishigacha, kichik korxonalarda – 100 kishigacha, o‘rta – 500 kishigacha va yirik korxonalarda 500 kishidan ko‘p. Qayta ishlash sanoatida kichik korxonalarga 500 kishigacha ishlaydigan korxona kiritiladi.

Rossiyada kichik korxonalarga chakana savdo va maishiy xizmatda – 30 kishigacha, ulgurji savdoda – 50, ilmiy-texnik sohada va qishloq xo‘jaligida – 60, ishlab chiqarish qurilish va transportda – 100 kishigacha ishlaydigan korxonalar kiritiladi.

Ukrainada kichik korxonalarga chakana savdoda – 12 kishigacha, noishlab chiqarish sohasida – 25, fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish

sohasida – 100, sanoat va qurilishda – 200 va boshqa ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishigacha.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagi Farmoniga binoan 2004-yil 1-yanvardan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga quyidagilar kiradi:

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2. Ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;

3. Quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlar soni:

3.1. Yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, g'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati – 100 kishidan;

3.2. Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari – 50 kishidan;

3.3. Fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalardan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqadaor bo'lmagan sohalar – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Xo'jalik yuritish shakllariga qarab korxonalar aksioner (ochiq, yopiq) korxonalar, shirkat (kooperativ), ijara korxonalariga tasniflanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuviga qarab, ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalarga bo'linadi.

Korxonalar ishlab chiqarish mahsuloti yoki xizmat turlariga qarab juda keng tasnifga egadir. Masalan: aviatsiya zavodi, tekstil fabrikasi, konditer zavodi, avtokorxona, tijorat banki, mehmonxona, savdo uyi, shifoxona, universitet, maktab, machit va hokazolar. Ayni ushbu turlariga qarab aksariyat korxonalarga nomlar qo'yiladi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida vujudga kelgan korxonalarni mustaqilligini mustahkamlash, ya'ni iqtisodiy munosabatlarga moslashuvchanligini ta'minlash uchun maxsus tashkiliy tarkibga ega bo'lgan birlashmalar tashkil qilish ehtiyojini to'gdiradi. Bularga

konsern, korporatsiya, assotsiatsiya, xolding kompaniyasi, moliya-sanoat guruhi, agro-firma kabilar kiradi.

Bunday birlashmalar respublikada faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularga qisqacha tasnif berib o'tamiz.

Konsernlar

Konsern – yirik birlashmalar va korxonalarni to'la boshqarish huquqi bilan shartnoma asosida birlashtirgan tashkiliy-tarkibiy shakl.

Konsern yirik masshtabdagi ishlab chiqarish, kooperatsiyalash va kombinatsiyalash imkoniyatlariga egadir. Konsern korxonalarni xo'jalikni to'la boshqarish huquqlari asosida birlashtiradi. O'z tarkibiga kirgan korxonalarga yuqori idora vazifasini bajaradi.

Konsern yuridik shaxs hisoblanadi, uni vazifa va funksiyalarini bajaradi. Konsernlar asosan korxonalarni hududiy belgilari bo'yicha birlashtiradi. Tashkiliy-tarkib nuqtai nazardan hissadorlik jamiyatlariga yaqin bo'lib, u turli mulkchilik shakllaridagi hissadorlik kompaniyalarni va korxonalarni birlashmasidir.

Kapitalni, ishlab chiqarish quvvatini konsentratsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari bilan o'zgaruvchan bozor kon'yukturasiga turgunligini ta'minlaydi, investitsion resurslardan samarali foydalanishni tashkil qila oladi.

Korporatsiyalar (assotsiatsiyalar)

Korporatsiya – hissadorlik jamiyati yoki hissadorlar birlashmasi ko'rinishidagi tashkiliy-tarkibiy boshqaruv shakli.

Korporatsiya chiqarilgan aksiyalar qiymati bilan cheklangan majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatli bo'ladi, o'z nomidan tovarlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, shartnomalar tuzish, qarz olish yoki berish va boshqa huquqiy shaxs harakatlarini amalga oshiradi.

Korporatsiya faoliyatini ta'minlash uchun korporatsiya muassasalarining pul badallari hisobidan nizomiy jamg'arma tashkil etadi, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va sotish orqali nizomiy jamg'armani ko'paytirib borish huquqiga ega.

Korporatsiya respublika va xorijiy korxonalar, tashkilotlar hamda xususiy shaxslar bilan har turli bitishuvlar va boshqa huquqiy hatti-harakatlarni amalga oshiradi.

Assotsiatsiyalar ham konsernlarning vazifasiga o'xshash vazifalarni bajaradi. Lekin ular korporatsiyadan farqli ravishda

xo'jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyoriy birlashmalari bo'lishi mumkin. Bu subyektlar birlashib, o'z huquqlari va vazifalarining bir qismini ijroiya idoralariga topshiradilar hamda uni saqlash uchun zarur mablag'lar ajratadilar.

Assotsiatsiyalar foyda olishini o'ziga maqsad qilib qo'ymagan jamoat tashkilotlari tariqasida bo'lishi mumkin. Bu holda u, o'z a'zolarining manfaatlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish, davlat va qonunchilik idoralarida ularning manfaatlarini ifodalash, ularga maslahat xizmatlarini tashkil qilish, faoliyatiga yo'l-yo'riqlar ko'rsatish kabi vazifalarni bajaradi.

Xolding kompaniyasi

Xolding kompaniya – o'zaro kooperatsiyalanish faoliyatini rivojlantirish maqsadi, korxonalar mablag'larini ko'ngilli ravishda birlashtirish natijasida tuzilgan tashkiliy-tarkibiy boshqaruv shakli.

Xoldinglar huquqiy shaxs hisoblanadi.

Xolding kompaniyasi korxonalarning shartnoma majburiyatlarini bajarilishini, mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmi o'sishini, moddiy, moliya, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanishni, ularning rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanishni ta'minlaydi.

Xolding kompaniyalarining faoliyati «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida»gi qonun va «Xolding haqida Nizom», shuning monopoliyaga qarshi qonunchilik hujjatlariga asosan yuritiladi.

Xolding boshqa aksiyadorlik jamiyatlarni vujudga keltiruvchi yoki boshqa aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining paketiga egalik qiluvchi muassasalar shakliga kiradi.

Taraqqiy topgan chet el davlatlarida sarmoya bozori keng rivojlanganligi tufayli o'zga jamiyatlarning aksiyalarini tasarruf etish har qanday korxona uchun odatdagi hol. Shuning uchun aktivlari asosan boshqa jamiyatlarning aksiyalaridan iborat bo'lgan jamiyatlar xolding kompaniyalari deb yuritiladi. Xolding kompaniyalari faoliyati aksiyalar majmuasini boshqarish, birja operatsiyalaridan tushadigan dividentlar va daromadlarni to'plash, hamda aksiyador jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish, ularni boshqaruv organlariga o'z kadrlarini tayinlash kabi vakolatlarga egadir.

Xolding kompaniyalarini tashkil etish sarmoya va ilmiy-texnik resurslarni integratsiyalashga turli korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari hamda hududlarni yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Kapitalining 50 foizidan ko'progini boshqa emitentlarning qimmatbaho qogozlari va bo'lak moliyaviy aktivlar tashkil etuvchi xoldinglar moliyaviy xolding hisoblanadi. Uning aktivlari tarkibiga faqat qimmatbaho qogozlar va boshqa moliyaviy aktivlar, shuningdek, boshqaruv apparati yuritishni ta'minlash uchun bevosita kerakli mol-mulk kirishi mumkin.

Moliyaviy xolding sho'ba korxonalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatiga aralashish huquqiga ega emas.

Moliya-sanoat guruhlari

Moliya – sanoat guruhi - kredit-moliya va investitsiya muassasalari, korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarishni xalqaro ko'lamda ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashni chuqurlashtirish orqali maksimal foyda olish maqsadida mablag'larini birlashtirib tashkil qilingan tashkiliy-tarkibiy boshqaruv tuzilma.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, har qanday tashkiliy-huquqiy turdagi korxonalar, shuningdek, kredit-moliya, investitsiya va boshqa muassasalari, nodavlat pensiya jamg'armalari va boshqa jamg'armalar, sugurta tashkilotlari, shu jumladan, xorijiy tashkilotlar moliya-sanoat guruhining ishtirokchilari bo'la oladilar.

Moliya-sanoat guruhlari quyidagi masalalarni hal qilish vakolatiga ega:

- ishtirokchilar resurslarini birlashtirish, xo'jalik aloqalarini o'rnatish va shu asosda yangi umumiqtisodiy makonni yaratish;
- investitsiya resurslarini jalb etish, ishlab chiqarishni texnik-iqtisodiy darajasini, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- investitsiya resurslarini fan yechimlarini ko'p talab qiluvchi tarmoqlarga, transport, telekomunikatsiya va foydali qazilmalarni qazib olishga yo'naltirish;
- o'z tarkibida korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi huquqiy jihatdan mustaqil tuzilma bo'g'inlari vakolatli bank, savdo uyi, ta'minot-sotish tashkiloti, marketing bo'yicha bo'linmalar va hokazolarni tashkil etish;

- iqtisodiyotning tuzilmaviy qayta qurilishiga ko‘maklashish va boshqalar.

Ishtirokchilari orasida O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida bo‘lgan huquqiy shaxslarga ega bo‘lgan moliya-sanoat guruhlari trans-milliy kompaniya hisoblanadi. Davlatlararo moliya-sanoat guruhining tashkil etilishi, faoliyati va tugatilishi hukumatlararo tuzilgan bitimlar bilan belgilanadi.

Agrofirmalar

Tuman qishloq xo‘jalik majmuining rivojlanishini ta’minlash maqsadida, paxtakor va boshqa xo‘jaliklar, qayta ishlash korxonalari hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini muvofiqlash-tiruvchi, huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lgan tashkiliy-tarkibiy boshqaruv organ.

Agrofirmalar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- davlat tayyorlov korxonalariga paxta tolasi, boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetkazib berish;
- qishloq xo‘jaligini ilmiy-texnik darajasini oshirish, jahon standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlash;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish sohasida bozor munosabatlarini rivojlantirish, moddiy-texnik resurslarning raqobatchi bozorlarini yaratish;
- xo‘jaliklar va boshqa korxonalarga investitsiyalarni jalb qilishda ko‘maklashish;
- marketingni tashkil etish, bozor holatini (konyukturasini) o‘rganish va xo‘jaliklar, korxonalar va tashkilotlarga yetishtirilgan mahsulotlarini sotishda ko‘maklashish hamda o‘z Nizomiga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

2.3. Korxonalar faoliyatini litsenziyalash

Korxonalar faoliyatini ayrim turlari davlat tomonidan litsenziyalash (ruxsatnoma) orqali amalga oshiriladi.

Jahon tajribasida litsenziya ixtiro, texnologiya, texnologik bilim, ishlab chiqarish siri, tajribasi, savdo markasi kabilarga beriladi.

Chet ellar amaliyotida litsenziyalar huquqiy xarakteri va miqdoriga qarab har xil turlarda ishlatiladi. Ular maxsus, maxsus

bo‘lmagan (oddiy), to‘la kabilar. Bu litsenziyalar patentli yoki patentsiz bo‘ladi.

Jahon bozori amaliyotida litsenziyalar va nou-xau bilan oldi-sotdi savdosi keng tarqalgan. Bunday hollarda litsenziya, ixtiro, texnologiya, texnologik bilim, ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish siri, savdo markasi kabilarni (egasi) sotuvchini (litsenziar) ularni sotib oluvchiga (litsenziat) biron bir davrga ishlatish uchun berilgan ruxsatnoma sifatida tushuniladi. Litsenziyalarni sotish patentli va patentsiz bo‘lishi mumkin.

Patentli litsenziya - litsenziyani ishlatish huquqini nou-xausiz berishni («sof patent») bildiradi.

Patentli litsenziya olish uni ishlab chiqarishga joriy qilishga qo‘shimcha xarajatlar talab qiladi. Bu esa tijorat xavfini kuchaytiradi va iqtisodiy samarani kamaytirishi, texnologik nuqtai nazardan amalga oshirishi qiyinchiliklar to‘gdirish ehtimoli ko‘proq. Shu sababli amaliyotda patentsiz (Litsenziya nou-xausi bilan) litsenziyani sotib olishga ko‘proq intilinadi.

Litsenziyalar o‘z harakteri va ishlatish huquqining hajmiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

Oddiy – bunday litsenziyalar litsenziarga (litsenziya egasiga) ushbu hududda bitta litsenziyani bir necha sotib oluvchilarga sotilish huquqini beradi;

Maxsus – sotib oluvchiga litsenziyani ishlatishni monapol huquqini beradi.

To‘la – litsenziatga litsenziyani muddatiga (patent yoki nou-xouni) ishltishga maxsus huquq beradi. Litsenziyalar bilan savdo litsenziya kelishuvlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Kelishuvlar Shartnomalar)da faoliyat litsenziyalangan turi; Litsenziyani ishlatish harakteri va huquqi; ishlab chiqarish sohasi, doirasi, hududiy chegarasi; litsenziyani ishlatish muddati va boshqa majburiyatlar o‘z aksini topadi.

Litsenziya – iqtisodiyotning ayrim sohalari yoki tarmoqlarida jiddiy davlatshumul ahamiyatga ega bo‘lgan sohalar, tarmoqlar, korxonalarga ayrim mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish, sotish, tashish, saqlash va ta’mirlash kabi ishlarni amalga oshirish uchun ruxsatnoma berish to‘g‘risidagi hujjat.

Litsenziyalash yuqorida keltirilgan jarayonlarni amalga oshirishga ruxsatnoma berish uchun bajariladigan faoliyat.

O‘zbekiston Respublikasida litsenziyalash jarayoni O‘zbekiston Respublikasi «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-iyundagi 236-sonli faoliyatni ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi qonunni amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi qarori va hukumatning boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasida litsenziyaga quyidagicha ta’rif berilgan.

Litsenziya – litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatning litsenziyalanishi majbur bo‘lgan sohalari va turlarini, litsenziyalovchi organlarni aniqlaydi va belgilaydi.

Litsenziyalar namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi turlarga bo‘linadi.

Namunaviy (oddiy) litsenziyalar turiga cheklanmagan doiradagi huquqiy va jismoniy shaxslarga beriladigan litsenziyalar kiradi.

Yakka tartibdagi litsenziyalar jumlasiga huquqiy va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, litsenziya egalariga faoliyatning mazkur turini amalga oshirishda mutloq huquqlar beruvchi, miqdoriy cheklangan litsenziyalar kiradi. Ularning miqdoriy cheklanish me’yori, amal qilish hududi, faoliyat obyekti yoki hukumat tomonidan belgilanadigan boshqa asoslarga ko‘ra belgilanadi.

Yakka tartibdagi litsenziyalarni berish asosan tanlov (tender) asosida amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-iyundagi 236-son qaroriga binoan litsenziyalanishi shart bo‘lgan mahsulotlar, faoliyatlar turlari va faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalovchi organlar tasdiqlangan.

Qurol-yarog‘, o‘q-dorilarini, harbiy-texnikani, ularning ehtiyot qismlari, portlovchi va zaharli moddalarni, shifrlovchi texnikani yaratish, ishlab chiqarish, ta’mirlash va realizatsiya qilish; ko‘priklar

va tonellarni, mudofaa obyektlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash; noshirlik, nodavlat ta'lim muassasalari, diniy ta'lim muassasalari, turizm faoliyatlari; etil spirti hamda boshqa alkagolli mahsulotlarni ishlab chiqarish va hokazolar litsenziyalanishi shart.

Litsenziyalovchi organlarga Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat mulk qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Markaziy bank, Aloqa va axborotlashtirish agentligi, Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligi va boshqalar kiradi.

2.4. Davlat korxonalarini isloh qilish

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tishni o'ziga xos modeli yaratilgan bo'lib, uning beshta ustuvor yo'nalishi Respublika Prezidenti I.A.Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslangan va ishlab chiqilgan. Bu yo'nalishlar qisqa qilib aytganda: birinchidan, islohotlarni evolyutsion yo'l bilan, ya'ni bosqichma-bosqich amalga oshirish; ikkinchidan, davlat islohotlarni boshqaruvchi vazifasini bajarishi, uning bosh islohotchi ekanligi; uchinchidan, islohotlar inson uchun, uning hayoti farovon bo'lishi, manfaatlari va talablari ro'yobga chiqishiga shart-sharoit yaratish uchun amalga oshirilishi e'tiborga olib jamiyatda kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish; to'rtinchisi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligini ta'minlash, uni mafkuradan ozod qilish; beshinchisi, qonunning ustunligini ta'minlash, qonunlarga rioya qilishdir.

Ushbu yo'nalishlarga mos O'zbekiston Respublikasidagi xususiylashtirish modeli ishlab chiqilgan.

Xususiylashtirish modeli quyidagilardan iborat:

– xususiylashtirish Respublikada o'tkazilayotgan islohotlarning o'zagini tashkil qilib, uning ichki mantiqiga bo'ysindirilgan;

– xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;

– xususiylashtirishda qonunning ustuvorligiga birlamchi bo'lib, barcha jarayon, istisnosiz, ta'lluqli qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etishi shart;

– xususiylashtirish aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, aholini o'sishini hisobga olish, asta-sekin ijtimoiy kafolatlar tizimiga o'tishini e'tiborga olishga adresli yo'naltirilishi;

– xususiylashtirish jahon tajribasini hisobga olgan holda, inqilobiy sakrashlarsiz, bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan amalga oshirilishi.

Bozor iqtisodiyotini shakllanishining asosiy negizini mulk masalasini hal etilishi tashkil etadi. Shu sababli ham 1992-yili O'zbekiston Respublikasida Davlat mulk va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi tashkil qilinadi.

Bu organ respublikada bozor islohotlari jarayonlarini amalga oshiruvchi ijro organlardan biri bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda yagona siyosatni o'tkazish;
- davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jarayoniga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish;
- bozor infratuzilmasini yaratish;
- fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoya qilishni va xususiylashtirilgandan keyin tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir dasturlarni ishlab chiqish va hokazolar.

Ushbu organ mamlakat hukumati bilan birgalikda xususiylashtirishning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqdi. Ushbu dasturga muvofiq o'tish davri sharoitida mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish tartib va usullari aniqlandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos mulk munosabatlarini shakllantirishning asosiy yo'li mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdir. Shu sababli islohotlarning asosini mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish tashkil qiladi. Bu esa davlat korxonalarini isloh qilishni asosini tashkil qilgan.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish deb qanday jarayonni tushunamiz?

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonunining birinchi moddasida bu tushunchalarning umumiy tarifi berilgan, unda: «Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara

korxonalariga, aksiyali jamiyatlarga, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish – fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishdir», deb tariflangan. Shu bilan bir qatorda, bu tushuncha moddiy ishlab chiqarish va ularni taqsimlashni, xizmatni davlat nazoratidan chiqarish hamda boshqaruv huquqlarini yangi mulkdorlarga yoki yollanma boshqaruvchilarga berishni ham aks ettiradi. Chunki bu jarayonlar nafaqat mulkdorni o'zgarishini bildirib, u mulkka egalik va boshqarish huquqining xususiy shaxs ixtiyorida jamlanishini ham taqozo etadi. Bu jarayon jamiyatda konstitutsional o'zgarishlarga olib kelishi muqarrar, ya'ni amalda yangi xo'jalik-huquqiy tizimini yaratishni ham talab qiladi.

Xususiylashtirish monopoliyaga qarshi yo'nalishga ega bo'lib, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik tizimini rekonstrukturlashga asos bo'ladi, jamiyatni barqarorlashtirish va inflyatsiyaga qarshi kurash muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Respublikada xususiylashtirishni huquqiy-me'yoriy jihatdan ta'minlash uchun zaruriy qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Ularda mulk shakllari, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ularning qoidalari, amalga oshirish usullari, shakllari, bosqichlari, obyektlari va ularni sotib olish tartiblari va boshqa shart-sharoitlari belgilab qo'yilgan. Xususiylashtirish bosqichlari «oddiydan murakkab sari» qoidasi asosida o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Bu asosida Respublikada xususiylashtirishni uch bosqichi amalga oshiriladi.

Birinchi (1992–1993-yillar) bosqichni savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat sohasi va kichik sanoatni o'z ichiga olgan kichik xususiylashtirish tashkil etdi. Natijada 53902 inshoot yangi mulk shaklini egalladi. Shulardan: 10638 tasi savdo; 12561-maishiy xizmat ko'rsatish; 24316-matlubot kooperatsiyasi; 4753-tayyorlov sohasi inshoatlari tashkil etgan. Ularning 95 foizi yuridik shaxs maqomini olgan.

Bu davrda korxonalar va yashash joy fondlari xususiylashtirildi. Mulkdor sifatida mazkur korxonalarning xodimlari va uylarda

yashovchi kishilar ro'yobga chiqdi. Davlat mulki bo'lgan 53902 obyekt asosida 18000 oilaviy korxona va yopiq turdagi 1700 aksiyadorlik jamiyati tuzildi. 700 dan ortiq sovxoz jamoa xo'jaliklariga aylantirildi. Umumiy maydoni 170000 gektar bo'lgan 15000 fermer xo'jaligi tuzildi. 1993-yilda YAMMning 35% iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqildi.

Ikkinchi (1994–1995-yillar) bosqichda ommaviy xususiylashtirish amalga oshirildi, bu bosqich yengil, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoatini, tayyorlov shohobchalarini, qurilish, transport, aloqa korxonalarini va sanoatning ayrim inshootlarini o'z ichiga oldi.

Xususiylashtirishning ikkinchi bosqichida 180000 kichik, o'rta va yirik korxona mulk shaklini o'zgartirdi, ularning aksariyati ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Sanoat korxonalarini keng miqyosda xususiylashtirilishi natijasida 2 mln. aksiya, pay va ulushga ega bo'lgan xususiylashtirilgan korxona egalari, 85 ming xususiy va kichik korxona egalari, 14 ming ko'chmas mulk egalarini o'z ichiga olgan mulkdorlar sinfi tashkil topdi.

1996-yildan boshlab xususiylashtirishni uchinchi bosqichi amalga oshirilishi boshlandi. Ushbu bosqich islohotlarni chuqurlashtirish davriga mos bo'lib, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy-lashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, yirik davlat korxonalarini mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirildi. Xoldinglar, moliya-sanoat guruhlari, korporatsiyalar (assotsiatsiyalar), konsernlar, agrofirmalar tashkil qilish va boshqa masalalarni hal qilishga ko'paytirilgan.

1998- yildan boshlab industrial gigantlar hisoblanishi yonilg'i-energetik kompleksi, kimyo, metallurgiya va mashinasozlik sohalarining yordamchi korxonalarida, 1999-yildan boshlab esa, xorijiy sarmoyador xususiylashtirish jarayoniga keng jalb etish boshlandi.

O'rta va yirik korxonalarni xususiylashtirish jarayonining asosiy shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 18-noyabrdagi 477-sonli «Davlat mulkini xususiylashtirishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish choralari haqidagi» farmoyishida keltirilgan, xususiy tadbirkorlik va qimmatli qogozlar bozori, korxonalarni aksiyalashtirish va mulkdor sinfni shakllantirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28-avgustdagi «Kichik

biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi to'g'risida»gi 344-son Qarori asosida amalga oshirila boshlandi.

Kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik yetakchi rol o'ynaydigan ko'p ukladli iqtisodiyotning jadal shakllanayotgani tufayli 2002-yilda 38 mingga yaqin mikrofirma, kichik va o'rta korxona tuzilib, ularning umumiy soni 240 mingtaga yetdi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish Dasturiga binoan 2000-yilda 374, 2001-yilning 9 oyida 801 korxona, 2002-yilda 1260 korxona xususiylashtirildi. 2001-yilda nodavlat sektorning YAIMdagi salmogi 72,3% ni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligida - 99,1%, sanoat ishlab chiqarishining 68,2%, nodavlat sektorga to'g'ri kelgan.

Tarkibiy o'zgarishlar natijasida iqtisodiyotning nodavlat sektorida mavjud bo'lgan korxona va tashkilotlarning 86,5% (1.10.2001-y.) faoliyat ko'rsatgan. Quyidagi jadvalda 1995–2002-yillarda korxonalar mulkchilik shakllari bo'yicha o'zgarish soni keltirilgan[1].

2.4.1 - jadval

Yillar	Jami mulk shakli	Shu jumladan	
	O'zgartirilgan korxonalar soni	Xususiylashtirilgan	Aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan
1995	8537	7511	1026
1996	1915	658	1257
1997	1231	443	788
1998	451	103	110
1999	448	156	141
2000	374	103	152
2001	1085	678	177
2002	2000	1260	740

Yuqorida keltirilgan jarayonning boshlanishida korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarishning o'ziga xos yo'nalishlarini qayd qilish zarur. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijara korxonalarining tashkil etilishi;

[1] TASIS. Iqtisodiy yo'nalishlar, chorak nashr. O'zbekiston, iyul-sentyabr, 2001.

- mulkchilikning aralash shakllari, ya'ni davlat va shirkatchilik shakllariga ega bo'lgan korxonalarni tashkil etilishi;

- dastlabki xususiy korxonalar va aksiyadorlik kompaniyalarning tashkil etilishi;

- boshqaruvning oliy va o'rta bo'g'inining qayta tashkil etilishi. Bu yo'nalish vazirliklar va idoralar aksiyadorlik negizidagi korporatsiyalar va konsernlarga aylantirilishini taqozo qiladi.

1990–1992-yillari O'zbekiston Respublikasida yuqorida keltirilgan yo'nalishlar orqali mulkchilikning nodavlat shakllariga ega bo'lgan ishlab chiqarish tuzilmalarining barcha turlari tashkil etildi va sinovlar o'tkazildi. Ushbu jarayon davlat korxonalarini ommaviy tarzda davlat tasarrufidan chiqarishiga obyektiv imkoniyatlar yaratdi.

Davlat mulkini (korxonalarini) isloh qilish, ya'ni xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarishning, jahonning turli davlatlari tajribasidan kelib chiqib, quyidagi usullar asosida amalga oshirilishi mumkin:

1. Davlat korxonalari aksiyalarini ochiq sotish;

2. Davlat korxonalarini xususiy investrlash (mavjud obyektni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish yoki aksiyalar paketini to'la sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi);

3. Korxonalarning mulkini sotish va keyinchalik mavjud qarzlarni to'lash yo'li bilan davlat korxonasini tugatish;

4. Davlat korxonasini alohida bo'limlarga ajratish yoki bo'lish va qayta qurish yo'li bilan ularni qismlar bo'yicha sotish;

5. Aksiyalarni kim oshdi savdosi orqali sotish;

6. Korxonalarni mehnat jamoasi a'zolari va rahbarlari tomonidan sotib olish;

7. Davlat korxonasining xususiy shaxs tomonidan ijaraga olinishi yoki davlat va xususiy korxonalar o'rtasida korxonani boshqarish to'g'risida bitim tuzish. Bunday korxonaning mablag'lari davlat mulkchiligicha qoladi.

2.5. Korxona faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirish

Ushbu bobning 2.1-bo'limida keltirilgan korxonaning maqsadlaridan kelib chiqib, korxona faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirish masalasiga kelsak, bu masala korxonaning asosiy maqsadining

negizini tashkil qiladi. Korxona faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirishning huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi «Iste'-molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (18.12.1993-y.), «Metrologiya to'g'risida» (28.12.1993-y.), «Mahsulotlar va xizmat-larni sertifikatlashtirish to'g'risida» (28.12.1993-y.), «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi (30.08.1997-y.) Qonunlar va Vazirlar Mahkamasining ushbu masalalarga oid qarorlari tashkil qiladi.

Korxona o'z faoliyatini to'la-to'kis iste'molchilarning talabini qondirishga yo'naltirishi shart va zarurdir. Bu borada ularning mas'uliyati ham qonunlarda belgilab qo'yilgan. Masalan: «Iste'mol-chilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunning 27-moddasida Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzganlik uchun ishlab chiqaruvchi javobgar bo'ladi deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu qonunning 5-moddasida ishlab chiqaruvchi o'z korxo-nasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili haqida iste'molchini xabardor qilishi shartligi, 6-moddasida ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqidagi zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumotlarni o'z vaqtida berishi shart ekanligi belgilab qo'yilgan.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda ularni majburiy talablarga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi, tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, bahosi, sotib olish tartibi, ishlab chiqargan sanasi, ishlab chiqaruvchining kafillik majburiyatlari, ulardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari kabilar keltiriladi. Bularni mazmunidan shunday xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqaruvchi iste'molchi uchun xizmat qilishga majbur.

Mahsulotlarni standartlash, metrologiya va sertifikatsiyalash ham korxonalarni o'z faoliyatini iste'molchi talablariga moslashtirishga majburlashtiradigan omillardan biridir.

Standartlashning asosiy vazifasi mahsulotning atrof-muhit, aholining hayoti, sogligi, mol-mulkiga xavfsizlikni ta'minlash uchun, texnikaviy va axborot jihatidan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o'zaro almashuvchanligini, ularni nazorat qilish usullar birligi va tamgalash birligini ta'minlash kabilardir.

Respublikada xalqaro iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, savdo-sotiqning rivojlanishi, ichki va tashqi bozorga tovar chiqarishdagi raqobatning kuchayishi, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini yaxshilashning barcha imkoniyatlarini izlab topish va ulardan amalda foydalanish bo'yicha bir qator muhim vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Bunday sharoitda mahsulot sifatini boshqarish tizimidagi muhim vosita sifatida, uning hayotiy siklining barcha bosqichlarida standartlash, metrologiya va sertifikat-lashtirishning roli benihoya ortadi.

Jahon birjalarida konditsion, ya'ni standart talablariga muvofiq keladigan tovarlar uchun yuqori narx va har qanday nostandart tovar uchun yaroqsiz mol sifatida juda past narx belgilanadi.

Standartlashtirishning muhim vazifalaridan biri – sifat ustidan davlat nazoratini o'rnatish bo'lib, uning asosini haqiqiy olingan mahsulot bilan standart talablari ko'rsatkichlarini qiyoslashni tashkil etadi. Shunga ko'ra ishlab chiqarish bilan boshqaruv o'rtasida javob aloqasi o'rnatiladi. Standartlar xalq iste'mol tovarlari asosiy xususiyatlarini nafaqat ishonarli aniqlash, balki tezkorlik bilan aniqlash va uning iste'mol qiymati to'g'risida keng tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Natijada har bir muayyan holatda sifatning eng maqbul darajasi bilan ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin bo'ladi.

Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish iste'molchilarni himoya qilish asosiy me'yoriy hujjati hisoblanib, muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik belgisi vositasida mahsulotlar yoki xizmatning muayyan standart yoki boshqa me'yoriy texnik hujjatga javob berishini tasdiqlaydigan dalildir. Mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirish orqali yuksak sifatga erishish hamda ularni jahon bozorida raqobat qila olishi ta'minlanadi.

Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadlaridan yana biri shundaki, sertifikatlashtirish asosidagina mamlakat korxonalari, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqiyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratiladi.

Korxona faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirishning ijtimoiy asosi tovar (xizmat) ishlab chiqarishni azaldan ijtimoiy harakterga ega ekanligidan kelib chiqadi. Ishlab chiqaruvchilar o'z manfaatlariga jamiyatni, iste'molchilarni talabini qondirish orqali

erishadi. Buning uchun korxonani boshqaruvchilari jamiyat oldidagi sotsial javobgarlikning mohiyatini to'g'ri tushunishi va uni jiddiylashtirish zarur.

Yaponiyadagi «Matsusita Elektrik Industrial» kompaniyasining rahbarlaridan biri K.Matsusitaning fikricha, boshqarishning yangi falsafasi asosida sotsial javobgarlikni tan olish yotadi. U shunday deydi: «... har bir kompaniya, o'z masshtabidan qat'iy nazar, foyda olishdan o'zga, uning faoliyat ko'rsatishini oqlaydigan maqsadni ko'zlashi kerak...»[1] .

Korxonalar jamiyat manfaati uchun faoliyat yuritishi va aholining moddiy farovonligini oshirishga xizmat qilishi zarurligi butun jahonda tan olingan.

XX asrda sanoatni rivojlantirishda yuqorida keltirilgan boshqaruv falsafasini amaliyotda qo'llab, Yaponiya davlati korxonalari sifatsiz va arzon mahsulotlar ishlab chiqarishdan, iste'molchi talabiga yo'nal-tirilgan oliy sifatli tovarlar ishlab chiqish orqali o'zlarini ham, jamiyatni ham rivojlanish darajasini yuqori pogonaga olib chiqqan.

Tayanch iboralar: ijtimoiy ishlab chiqarish, Milliy iqtisodiyot, tarmoq, korxona, moddiy boylik, bozor subyektlari, davlat, korxona, uy xo'jaligi, konsern, korporatsiya, assotsiatsiya, xolding, moliya-sanoat guruhi, agrofirma, litsenziya, namunaviy va yakka tartibdagi litsenziyalar, xususiylashtirish, model, davlat tasarrufidan chiqarish, isloh qilish, korxonaning maqsadi, iste'molchi, tovar (ish, xizmat), standartlash, metrologiya, sertifikatlash.

Takrorlash uchun savollar

1. Milliy iqtisodiyotni mazmunini yoritib bering.
2. Korxona necha jamiyatning birlamchi va asosiy bo'g'ini?
3. Korxonaning maqsadi nima?
4. Korxona qanday vazifalar bajaradi?
5. Korxona ta'rifini asoslang.
6. Korxonalar qanday ko'rsatkichlarga asosan toifalanadi?
7. Korxonalarni shakllarini keltiring.

---

[1] «Как работает Японские предприятия»: - М.: «Экономика», 1989. с.39–40.

8. Korxonalarni qanday birlashmalari mavjud?

9. Assotsiatsiyalar konsernlardan nima bilan farq qiladi?

10. Xolding kompaniyasi qanday vazifalarni bajaradi?

11. Litsenziya nima?

12. Chet ellarda litsenziyani qanday turlari mavjud?

13. O'zbekiston Respublikasida qanday litsenziyalar ishlatiladi?

14. Namunaviy litsenziyalar qanday bo'ladi?

15. Yakka tartibdagi litsenziyalar kimlarga va qanday tartibda beriladi?

16. Qaysi organlar litsenziya berish huquqiga ega.

17. Davlat korxonalarini isloh qilish deganda qanday jarayonlar tushuniladi?

18. Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish nima bilan farq qiladi?

19. Xususiylashtirishni xususiyatlarini ayting.

20. Xususiylashtirish qanday etaplardan iborat?

21. Korxonaning asosiy maqsadini ayting.

22. Korxona uchun nega iste'molchining ehtiyoji birlamchi bo'lishi kerak?

23. Nega O'zbekistonda «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilingan?

III BOB. KORXONANI TASHKIL ETISH VA UNING FAOLIYATINI TO'XTATISH

Reja:

3.1. Korxonani tashkil etish qoidalari.

3.2. Korxonani barpo etish hujjatlari va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

3.3. Korxona mulki.

3.4. Korxonaning moliyaviy barqarorligi.

3.5. Korxonaning tashqi iqtisodiy shartnomalari.

3.1. Korxonani tashkil etish qoidalari

Yangi korxonani barpo etish va ishlayotganlarini kengaytirish quyidagi omillarga asoslanadi: 1) mahsulot va xizmatlarga qondirilmagan talabni mavjudligi; 2) mahsulotni ishlab chiqishni tashkil qilish uchun resurslarni mavjudligi; 3) tegishli tarmoqni rivojlangan holati.

Yangi korxonani barpo etish yoki mavjudini kengaytirish masalasini mulk egasi hal qiladi. Boshlanishda korxonaning ustav fondi (kapital) shakllantiriladi (shaxsan mulk egasi, aksiyadorlar, byudjetdan assignotsiya, kreditlar, ortiqcha moddiy resurslarni sotishdan tushgan mablag'lar).

Korxonaning maqsadini ham mulk egasi aniqlaydi (belgilaydi).

Korxonani barpo etilishi o'ziga xos tashkiliy bosqichlardan iborat bo'ladi.

Korxonani tuzilishi uni yaratish to'g'risida tugilgan goyani asoslashdan boshlanadi va quyidagi ketma-ketlikda keltirilgan ishlar bajariladi:

- korxonani ta'sis etuvchilari aniqlanadi, ularni shartnomasi tuziladi;
- ishlab chiqaradigan mahsulot yoki xizmat turini belgilash;
- korxonaning moliyaviy resurslari manbalarini aniqlash;
- korxonaning Ustav va Nizomini rasmiylashtirish;
- korxonani biznes-rejasini ishlab chiqish;
- korxona muhiri, shtampi va boshqa rekvizitlarini tayyorlash;

- korxonani soliq organidan ro'yxatdan o'tkazish;
- bankda hisob raqamini ochish, bank bilan shartnoma tuzish;
- korxonalar ajratmalar o'tkazishi majbur bo'lgan, Respublikada mavjud maqsadli jamg'armalarda hisobga qo'yilishi;
- korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatdan o'tganlik to'g'risida hujjat olish.

Korxona tuzilgandan keyin uni faoliyatini tashkil etish masalasi juda ham jiddiy ahamiyatga ega.

Biz II bobda korxonani belgilari, shakl va turlarini ko'rib chiqdik. Korxona faoliyatini tashkil qilish, uning shakl va turlaridan qat'iy nazar, barchasiga umumiy bo'lgan qoidalarga (prinsiplarga) rioya qilinishini talab qiladi.

Mavjud adabiyotlarda korxonalarni tashkil qilish qoidalarini izohlashda bir xil qarashlar mavjud emas. Ayrimlari korxonani tashkil qilish qoidalarini uning belgilari bilan, ayrimlari tashkiliy masalalarni hal qilish etaplari bilan, ayrimlari korxona faoliyatini samaradorligini ta'minlash qoidalari kabilar bilan aralashtirib yuboradilar.

Bizning fikrimizcha, korxona faoliyatini tashkil qilish qoidalari, barcha korxonalar uchun bir xil, shu jumladan, foyda olish yoki olinmasligidan qat'iy nazar, ular faoliyatini jamiyat ehtiyojlariga yo'naltirib turadigan faoliyat samarasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ifodalaydigan jihatlariga ega bo'lgan, makon va vaqt birligida o'zgarmaydigan tartiblar majmuasidan iborat bo'lishi kerak.

Korxona faoliyatini tashkil qilinishi, birinchidan, tegishli tashkiliy-tarkibiy boshqaruv tuzilmasini mavjud bo'lishini talab qiladi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalarini tegishli darajada texnologik birlashuvini, o'zaro harakatlarini moslashtirishni ta'minlash zarurati.

Uchinchidan, faoliyatni tashkil qilishda, boshqarishda qarorlar qabul qilishda va hokazo hollarda qonunning ustunligini ta'minlash.

To'rtinchidan, korxonalarni barchasi huquqiy nuqtai nazardan tengligini ta'minlash zarurati.

Beshinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy zarurat mavjudligidan kelib chiqish.

Oltinchidan, biznes shaklini tanlash erkinligi, albatta korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy zaruratidan kelib chiqqan holda.

Yettinchidan, korxona xo'jalik faoliyatiga davlatning aralashmasligi, uning faoliyat yuritishida erkinligi.

Va nihoyat korxonalar biron-bir mafkuraga bo'ysunmasligi, ularning mafkuradan ozodligi.

Bu umumiy qoidalar korxonalar faoliyatini jamiyat nuqtai nazaridan, ularning manfaatlaridan kelib chiqib samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Albatta korxonalar o'z faoliyatini yuritishda, samaradorligini ta'minlash maqsadida tejamkorlikni, moliyaviy barqarorlikni va resurslar bilan ta'minlashga intilishlari zarur.

3.2. Korxonani barpo etish hujjatlari va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi

Korxonalarni barpo etish hujjatlariga quyidagilar kiradi:

1. «Xususiy korxona to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (2003-yil 11-dekabr);

2. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (1996-yil 26-fevral);

3. O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi tomonidan 2012-yil 6-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2012-yil 26-aprelda O'RQ-327 tomonidan tasdiqlangan);

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 19-apreldagi 189-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xususiylashtirilgan korxonalarni korporativ boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Qarori;

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Davlat korxonalari to'g'risida»gi Nizom;

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Davlatga tegishli aksiyalar paketlarini (ulushlarini) ishonchli boshqaruvga berish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

Yuqoridagi Nizom hamda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib asosida korxona mulk egasi (ular vakili) qaroriga muvofiq yoki korxonani ta'sis etuvchilar guruhi yo bo'lmasa alohida

shaxslar qarori bilan barpo etilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, korxona ishlab turgan korxonalar, tashkilotlar tarkibidan bitta yoki bir nechta tarkibiy bo'linmalarga ajralib chiqish natijasida belgilangan tartib asosida ham tashkil etilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yangi shakl va turdagi korxonalarni tashkil qilish va ularni tez oyoqqa turib olishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Buning uchun zaruriy huquqiy asos ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat bozor iqtisodiyoti samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida korxonalarni huquqiy asoslarini, ayrim muhim xizmatlarini ado etish vazifalarini o'z zimmasiga oldi. Bular qatoriga xususiy korxonalarga qonuniy maqom berish, xususiy mulk huquqlarini belgilash, shartnomalarga rioya qilishni kafolatlashni ta'minlash bir tomondan bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlat qonuniy «o'yin qoidalari»ni belgilaydi. Bu qoidalar korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Qonunlar asosida davlat iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish sohasida hakamlik vazifasini o'z zimmasiga oladi, bu borada qonunbuzarlikka yo'l qo'ymaslikni oldini oladi yoki ularga nisbatan o'z vakolatlari chegarasida choralar ko'radi, erkin va to'g'ri raqobat uchun shart-sharoitlarni yaratadi, moddiy-ashyoviy, moliyaviy, axborot va boshqa resurslarga erishuvning teng imkoniyatlarini ta'minlaydi va bozorda monopol egalikka yo'l qo'ymaydi.

Korxonalarni tashkil etish, ularning faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishining umumiy huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan.

Yangi korxonalarni tashkil qilishning asosiy maqsadlari, birinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan kishilarning ish joylari bilan ta'minlash, ya'ni jamiyatning ijtimoiy muammosini hal qilish; ikkinchidan, siyosiy masalani hal qilish bu esa qishloq joylarda milliy ishchilar sinfi vujudga keltirishda o'z aksini topadi; va nihoyat uchinchidan, iqtisodiy masalalarni yechish, xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, ularni tanqisligini kamaytirish asosida aholining moddiy farovonligini oshirishdan iboratdir.

Korxonani barpo etish hujjatlaridan biri uni ta'sis etish shartnomasi hisoblanadi. Bu hujjat o'z mazmunidan kelib chiqib,

kelajakda korxonani tashkil etuvchilarning o‘zaro munosabatlarining qoidalarini belgilaydi. Ta’sis etish shartnomasida korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, turi, faoliyati turi, maqsad va vazifalari, joylashish va huquqiy adresi, ustav kapitali hajmi va unda ta’sischilar hissasi, qatnashuvchilarning o‘z hissasini boshqalarga berish sharti, uning boshqaruv va nazorat organlari, foydani taqsimlash usul va tartiblari, ta’sischilarning huquq va burchlari, ta’sischilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqa masalalarni hal qilish tartiblarini belgilaydi.

Ta’sischilar korxonani ustavini ishlab chiqadi. Korxonaning ustavi rasmiy hujjat hisoblanadi. Chunki ustavda korxona bilan davlat o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy munosabatlarni tartibga solinish qoidalari o‘z aksini topadi. Ustav qonunlar, qoidalar va Nizomlarga asoslangan holda tuziladi. Ustavni korxonani ta’sis etuvchilar tasdiqlaydi.

Xususiy korxona O‘zbekiston Respublikasi «Xususiy korxona to‘g‘risida»gi qonuniga binoan mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxona deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Xususiy korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Xususiy korxona mulkdori korxonaning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda xususiy korxonaning majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo‘ladi.

Xususiy korxona to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqli. Xususiy korxonaning to‘liq firma nomi uning to‘liq nomini va «xususiy korxona» degan so‘zlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Xususiy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va «xususiy korxona» degan so‘zlarni yoki «XK» abbreviaturasini o‘z ichiga olishi kerak.

Xususiy korxona O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bank hisobvaraqlari ochadi.

Xususiy korxona o‘zining to‘liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va xususiy korxonaning joylashgan yeri ko‘rsatilgan muhrga ega bo‘lishi kerak. Muhrda ayni paytning o‘zida uning firma nomi boshqa tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

Xususiy korxona o‘zining firma nomi yozilgan shtamplariga va blankalariga, o‘z emblemasiga, shuningdek, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda ko‘zga tashlanib turadigan boshqa identifikatsiya vositalariga ega bo‘lishga haqli.

Xususiy korxona mulkdor tomonidan tuziladi, mulkdor unga tegishli mol-mulk beradi va uning ustavini tasdiqlaydi.

Xususiy korxona, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Xususiy korxonaning ta’sis hujjati uning ustavidir.

Ustavda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- korxonaning firma nomi;
- uning joylashgan yeri va pochta manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- asosiy faoliyat turlarining ro‘yxati;
- mulkdorning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;
- ustav fondining miqdori.

Xususiy korxonaning ustavi qonun hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa qoidalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Xususiy korxona davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Xususiy korxonaning ustav fondi bo‘linmasdir va uni mulkdorning o‘zi belgilaydi.

Pul, qimmatli qog‘ozlar, pul bilan baholanadigan boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar yoxud boshqa shaxsga beriladigan o‘zga huquqlar xususiy korxonaning ustav fondiga qo‘shiladigan hissa bo‘lishi mumkin. Mulkdor xususiy korxonaning ustav fondiga o‘zi kiritadigan mol-mulkni mustaqil baholaydi.

Agar xususiy korxonaning ustav fondi shakllantirilayotganda mulkdor o‘z oila a’zolarining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi)

mulki hisoblangan mol-mulkni korxonaga berayotgan bo'lsa, ushbu mol-mulkning barcha mulkdorlaridan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi.

Xususiy korxona mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi, korxona nomidan ishonchnomasiz ish ko'radi, uning manfaatlarini ifodalaydi, xususiy korxonaning pul mablag'larini hamda boshqa mol-mulkini tasarruf etadi, shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalarini tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisobvaraqlar ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, korxonaning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

Xususiy korxona mulkdori quyidagi huquqlarga ega:

xususiy korxona ustaviga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;

xususiy korxonani qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;

xususiy korxonaning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan foydasidan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish;

xususiy korxonaga tegishli mol-mulkni boshqa shaxsga berish, ijaraga berish, garovga qo'yish, boshqa yuridik shaxslarning ustav fondiga hissa sifatida kiritish yoki ushbu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etish.

Xususiy korxona mulkdori qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Xususiy korxona mulkdori:

- ustav fondini shakllantirishi;
- o'ziga qarashli korxonani yakka boshqarishi shart.

Xususiy korxona mulkdori zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Xususiy korxona (ish beruvchi) va xususiy korxonaning xodimi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakt) bilan tartibga solinadi.

Xususiy korxona o'z xodimlariga mehnat haqi, mukofotlar va kompensatsiyalar to'lashning shakllari, tizimi hamda miqdorini qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil belgilaydi.

Xususiy korxonada mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash taraflarning kelishuviga ko'ra, biroq qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Aksiyadorlik jamiyati ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Ochiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari tarkibiga kiruvchilarning eng kam soni cheklanmaydi, yopiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari esa kamida uch shaxsdan iborat qilib belgilanadi. Jamiyatning har bir muassisi uning aksiyadori bo'lishi lozim.

(5-modda O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrdagi 549-I-sonli Qonuni tahririda. Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 3-son, 38-modda).

Qatnashchilari o'zlariga tegishli aksiyalarini o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati ochiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq *obuna o'tkazishga va qonun hujjatlarining* talablarini hisobga olgan holda ularni erkin sotishga haqlidir.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chiqarayotgan aksiyalarga yopiq obuna o'tkazishga haqli, jamiyat ustavida va qonun hujjatlarida yopiq obunani o'tkazish imkoniyati cheklab qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni chegaralanmaydi.

(6-modda O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrdagi 549-I-sonli Qonuni tahririda. Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 3-son, 38-modda).

Aksiyalari faqat o'z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

Bunday jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yohud ularni cheklanmagan doiradagi shaxslarga sotib olish uchun boshqacha tarzda taklif etishga haqli emas. Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni ellik nafardan ziyod bo'lishi mumkin emas. Belgilangan chegaradan ortib ketgan taqdirda u yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun miqdori aksiyadorlarning chegaralangan limitidan ortib ketgan shaxslar aksiyadorlar reestrida

ro'yxatga olingan kundan e'tiboran olti oy ichida ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tugagach sud tartibida tugatilishi lozim.

(7-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 681-I-sonli Qonuni tahririda. Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998 y., 9-son, 181-modda).

Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narxda va shartlarda, ularning har biriga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda imtiyozli olish huquqiga, agar jamiyat ustavida mazkur huquqni amalga oshirishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, ega bo'ladi. Agar aksiyadorlar aksiyalarni sotib olishda o'z imtiyozli huquqlaridan foydalanmasalar, jamiyat aksiyadorlar tomonidan sotiladigan aksiyalarni sotib olish uchun imtiyozli huquqqa ega bo'lishi uning ustavida ko'zda tutilishi mumkin.

(7-modda uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-sentyabrdagi O'RQ-183-sonli Qonuni tahririda. O'R QHT, 2008-y., 39-son, 392-modda).

Aksiyadorlar sotayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanish tartibi, muddati jamiyat ustavida belgilab qo'yiladi. Imtiyozli huquqdan foydalanish muddati aksiyalar savdoga qo'yilgan paytdan boshlab 30 kundan kam va 60 kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

(7-modda O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrdagi 549-I-sonli Qonuni tahririda. Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998-y., 3-son, 38-modda)

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

Jamiyat qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning har qanday turlarini amalga oshirish chog'ida huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga

oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlarini qo'lga kiritadi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

Jamiyat belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida bankda hisobvaraqlar ochishga haqlidir.

Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan manzili ko'rsatilgan yumaloq muhriga ega bo'lishi lozim. Muhrda ayni paytning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

Jamiyat o'z nomi yozilgan shtampi va blankalariga, o'z timsoliga, shuningdek, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar nishoniga hamda boshqa o'z belgi-alomatlariga ega bo'lishga haqlidir.

Jamiyat qonun hujjatlarida man etilmagan va ta'sis hujjatlarida ko'rsatilmagan istalgan faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanishi mumkin. Jamiyat muassislari ta'sis hujjatlarida faoliyatning asosiy turlarinigina sanab o'tishga haqlidir.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi 175-II-sonli Qonuniga muvofiq sakkizinchi qism bilan to'ldirilgan. Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 1–2-sonlar, 23-modda).

Ustavni korxonani ta'sis etish shartnomasidan farqi, unda davlat bilan korxona munosabatlarining tartibi belgilansa, ikkinchisida, korxonani ta'sis etuvchilarning munosabatlari aks topadi. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat korxonalari to'g'risida»gi Nizomda:

Davlat korxonasi – davlat mulkidagi, o'ziga tezkorlik bilan boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir, u o'ziga biriktirilgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o'z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (yoki uning topshirig'iga ko'ra u vakolat bergan davlat organi – muassisning) topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi;

Davlat korxonasining muassisi (keyingi o'rinlarda muassis deb ataladi) – davlat boshqaruv organi, ushbu organlar maqomini belgilaydigan hujjatlarga muvofiq belgilangan ularning vakolati doirasida davlat korxonasini ta'sis etishga vakil qilingan mahalliy davlat hokimiyati organlari, deb ko'rsatilgan.

Ushbu Nizom bo'yicha muassis tomonidan tasdiqlangan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli davlat organlarida ro'yxatga olingan ustav davlat korxonasining ta'sis hujjati hisoblanadi. Davlat korxonasi ustavida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- firma nomi, joylashgan joyi (pochta manzili);
- faoliyatning predmeti va maqsadi;
- davlat korxonasi faoliyatini boshqarish tartibi;
- ustav fondining miqdori, uni shakllantirish tartibi va manbalari;
- ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish tartibi;
- daromad (foyda)ni taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi;
- zahira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish tartibi;
- rahbarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;
- yillik hisobotlarni tuzish, tekshirish va tasdiqlash tartibi;
- davlat korxonasini qayta tashkil etish va tugatish tartibi.

Jamiyat ustavida qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa qoidalar bo'lishi mumkin. Davlat boshqaruv organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ta'sis etilgan davlat korxonalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan, tegishli kadastr hujjatlari rasmiylashtirilgandan keyin bir hafta muddatda tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasiga yoki uning hududiy boshqarmasiga:

- davlat korxonasi tashkil etish to'g'risidagi qarorning;
- korxonaning ro'yxatdan o'tkazilgan ustavi nusxasini taqdim etadilar.

Ko'rsatib o'tilgan korxonalar ustav fondini shakllantirish tugagandan keyin bir hafta muddatda tegishli ravishda Davlat mulki qo'mitasiga yoki uning hududiy birlashmalariga davlat mulkini topshirish - qabul qilib olish hujjatlari nusxalarini ham taqdim etadilar.

Davlat korxonasi ustaviga o'zgartirishlar muassisning qaroriga ko'ra kiritiladi va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Davlat korxonasi ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar

ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin bir hafta muddatda bu to‘g‘ri tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasini yoki uning hududiy boshqarmasini xabardor qilishi shart.

3.3. Korxona mulki

Mulk so‘zi biron bir jismoniy yoki huquqiy shaxs maqomidagi tashkilotga tegishli ne’matlar (narsa va moddiy boyliklar) majmuasini bildiradi.

Mulkdor narsa va moddiy borliqlarga egalik qilish va tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy va huquqiy shaxs hisoblanadi.

Mulkchilik mulkdorlar o‘rtasida, ular bilan davlat o‘rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o‘zlashtirish yuzasidan paydo bo‘lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo‘luvchi iqtisodiy munosabatlarni anglatadi.

Mulkchilik munosabatlari davlat tomonidan kafolatlanadi va qonunchilik asosida himoya qilinadi. Har qanday davlatda mulkchilik to‘g‘risida huquqiy qonunlar qabul qilinadi va unda mulkka egalik munosabati ifodalanadi. Natijada mulkchilik munosabatlari huquqiy munosabatlar shaklida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida (31-oktyabr 1990-y). O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun mulkchilik munosabatlarini tartibga soladi.

Mulk o‘z obyekti va subyektiga egadir. Yuqorida keltirilgan mulkchilik qonuniga binoan mulk obyektlariga quyidagilar kiradi:

- respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi;
- imoratlar va inshootlar, asbob-uskunalar;
- moddiy, ma’naviy va madaniyat buyumlari;
- pul va qimmatli qogozlar;
- ixtirolar, kashfiyotlar, ilmiy goyalar, texnik ishlanmalar, axborot;
- fan, adabiyot, san’at asarlari;
- tarix va madaniyat yodgorliklari;
- insonning unumli va ijodiy mehnat qilish qobiliyati (ish kuchi);
- mol-mulkdan xo‘jalikda foydalanish natijalari (mahsulot va daromadlar).

Mulk subyektiga davlat, respublika fuqarolari, kollektivlar, ularning uyushmalari, jamoat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va boshqa birlashmalari, chet davlatlar, ularning fuqarolari, huquqiy shaxslari, xalqaro tashkilotlar kabilar kiradi.

Jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lgan mulkchilik asosiy o'rinni egallaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik munosabatlari insonlar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va buyumlarga egalik qilish huquqini shaxsan va mazmunan kengaytirishga olib keladi. Mulk shakllari ko'payadi.

Jamiyat mulkining asosiy qismini korxonalar mulki tashkil qiladi.

Korxona mulkini asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, shuningdek, korxonaning mustaqil balansida qiymati ifodalangan boshqa boyliklar tashkil etadi.

Korxona mulkining manbalariga quyidagilar kiradi:

- ta'sis etuvchilarning pul va moddiy badallari;
- mahsulot, ishlar, xizmatlarni sotishdan, ilmiy-texnik, tijorat va xo'jalik faoliyatining boshqa turlaridan tushadigan daromadlar;
- aksiyalar, qimmatbaho qogozlarni sotishdan tushadigan mablag'lar;
- bank va boshqa qarz beruvchilarning kreditlari;
- kapital mablag' va byudjetdan dotatsiyalar;
- tashkilotlar, korxonalar va fuqarolarning tekinga va xayriya maqsadlarida bergan badallari, in'omlari, shuningdek, meros tariqasida, ayriboshlash va sovg'a qilish yo'li bilan oladigan daromadlari;
- O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Korxona haq evaziga yer va boshqa tabiat resurslariga egalik qilish va foydalanish huquqiga ham egadir.

Korxonaning mulkdori (mulkdorlari) o'ziga qarashli mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi, unga nisbatan qonunga zid bo'lmagan boshqa munosabatlarni amalga oshirishi mumkin.

3.4. Korxonaning moliyaviy barqarorligi

Korxonaning yashash faoliyati bir qancha sikllardan iborat bo'lib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: korxonani tashkil

qilish; reorganizatsiya; restruktrizatsiya; sanatsiya; bankrotlik va tugatish. Bu bosqichlar hamma korxonalarga tegishli degan xulosa chiqarish kerak emas. Chunki bular korxonaning faoliyati natijasiga qarab amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni vujudga kelishi aksariyat holda korxonaning moliyaviy barqarorligiga bog'liq. Shu sababli korxonani moliyaviy barqarorligini ta'minlash ahamiyatini yoritish uchun yuqorida keltirilgan korxonaning yashash sikllarini mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz.

Birinchi bosqich – korxonani tashkil qilish va faoliyatini tiklash. Korxonani tashkil etish qoidalari ushbu bobning birinchi paragrafida keltirilgan. Ushbu qoidada korxonani tashkil etilishining asosi bo'lib uni ta'sis etuvchilarning mol-mulki yotadi. Mulksiz korxona tashkil etilmaydi. Mulkdan foydalanish, uni oshirib borish, saqlash korxonani moliyaviy barqarorligini ta'minlash asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich – reorganizatsiya. Korxona faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy barqarorligini oshirish, bozorda tutgan o'rnini («Nisha»sini) saqlash yoki kengaytirish maqsadida o'z tarkibida yangi ishlab chiqarish yoki funksional bo'limlar ochish, ayrimlarini qo'shish, birlashtirish, samarasizlarini tugatish kabi qayta tashkil qilish ishlarini amalga oshirib boradi. Bu masala aksariyat holda korxonaning moliyaviy ahvolidan kelib chiqadi.

Uchinchi bosqich – restruktrizatsiya. Restruktrizatsiyaga reorganizatsiyaning bir shakli sifatida qarash mumkin. Restruktrizatsiya deganda korxonaning tarkibiy bo'limlarini (sexlari) huquqiy shaxs maqomisiz, mustaqil balans va hisob raqami bilan alohida ajratilishiga tushuniladi. Bundan asosiy maqsad ishlab chiqarishni samarasini oshirish bo'lib, korxona bo'limi (sexi) tijorat hisob-kitobiga o'tkaziladi. Ularga mulk ajratiladi, foyda va xarajatlari alohida hisob-kitob qilinadi.

Sanatsiya – iqtisodiy nochor korxonalarni bankrotligining oldini olish maqsadida qarzdor korxona - huquqiy shaxsning muassislari (qatnashchilari), qarzdorning kreditorlari va boshqa shaxslar, shu jumladan, davlat tomonidan qarzdor korxonaning to'lov qobiliyatini tiklash bo'yicha o'tkaziladigan chora-tadbirlarni tashkil qiladigan faoliyat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-iyuldagi 362-sonli qarori bilan «Iqtisodiy nochor korxonalarni sanatsiyalash to'g'risida» Nizom qabul qilingan. Ushbu Nizomga

binoan qarz-dor korxona - huquqiy shaxsning muassislari (qatnashchilari), korxona mulkining egasi, davlat organlari va boshqa shaxslar sanatsiyalash subyektlari bo'lishi mumkin.

Qarzdor korxona sanatsiyalash obyekti hisoblanadi. Faoliyatni davom ettirish uchun qarzdor korxonaning to'lov qobiliyatini tiklanishining aniq imkoniyatlari asoslansa bunday iqtisodiy nochor korxonalar sanatsiya qilinadigan obyektlar qatoriga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasida korxonalarni sanatsiyalash jamg'armasi tuzilgan[1]. Korxonalarni sanatsiyalash uchun mablag'lar qatoriga tuzilgan jamg'armalardan tashqari, korxonalar egalari, kreditorlar, birlashmalar (xo'jalik uyushmalari), boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning moliyaviy ajratmalari ham kiradi.

Sanatsiyalash korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun o'tkaziladigan chora-tadbirlardan biri hisoblanadi.

Keyingi bosqich bu korxonani bankrotligi.

Korxona bankrotligi uning iqtisodiy nochorligining oqibati.

Bankrotlik deganda sud tomonidan e'tirof etilgan yoki qarzdorni ixtiyoriy ravishda o'zini bankrot deb e'lon qilgan qarzdorning moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi, qisqa qilib aytganda moliyaviy qobilyatsizlikga tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonun (28 avgust 1998y, yangi tahririda) qabul qilingan. Huquqiy va jismoniy shaxslarning Bankrot bo'lishi jarayonida yuzaga keladigan munosa-batlar ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Korxona yashashining oxirgi bosqichi uni tugatilishi. Iqtisodiy nochorlik yoki bankrotlik asosida sud qarori bilan yoki mulkdorning o'z ixtiyori bilan korxona faoliyati to'xtalishi mumkin.

Korxona tugatilishi uning faoliyatini to'xtalishi va davlat reestriga qarzdor tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgan paytdan boshlanadi, korxona esa tugatilgan deb hisoblanadi.

Iqtisodiy nochor korxonalar boshqa subyektlar bilan kelishuv bitimi qilishi mumkin. Kelishuv bitimi (murosali kelishuv) - bu qarzdor bilan kreditor o'rtasida qarzlarni to'lash muddatini uzaytirish

[1] Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi huzuridagi «Korxonalarni sanatsiyalash jamg'armasi to'g'risida Nizom». O'.R.V.M. 1999- yil, 26-iyul, 362-son qarori.

yoki qarzlardan chegirma qilish to‘g‘risidagi bitimdir. Kelishuv bitimi yozma ravishda tuziladi va u xo‘jalik sudi tomonidan tasdiqlanadi.

Korxonaning yashash sikllaridan kelib chiqsak, u o‘z faoliyatini olib borish davrida moliyaviy barqarorligiga qanday e’tibor bilan qarashi lozimligi iborasiz ko‘zga tashlanadi, chunki iqtisodiy nochorlik bankrotlikka, bankrotlik korxonani tugatilishiga olib kelishi muqarrar.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash ko‘p qirrali muammo bo‘lib, ko‘p omillar unga ta’sir qiladi. Shu sababli uning yo‘nalishlari ham har xil. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davlat va hokimiyatlar tomonidan berilgan imkoniyatlardan qonunlar va qonun hujjatlari talablari doirasida samarali foydalanish;
- iste’molchilar talab va ehtiyojlarini marketing tadqiqotlari orqali chuqur o‘rganish;
- konkurentlarning ko‘rsatkichlari va imkoniyatlarini muntazam tahlil qilib borish;
- korxona ichki muhitini, faoliyat shart-sharoitlarini bozor ehtiyojlariga moslashtirib borish;
- o‘z mahsulotlarini, xizmatlarini raqobatbardoshligini ta’minlash, sifatini yaxshilash;
- korxonaning iqtisodiy parametrlarini, shu jumladan, moliyaviy parametrlarini doimiy tahlil qilish, shu asosida ularni yaxshilash bo‘yicha konkret chora-tadbirlarini amalga oshirib borish;
- xatarlarni oldini olish, korxonani iqtisodiy, moliyaviy xavfsizligini ta’minlash kabilar.

3.4.1 - chizma

Korxonani moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda ishlatiladigan ko‘rsatkichlar tizimi

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Aniqlash usullari	modul shakli
1	Joriy likvidlik koeffitsiyenti (Kjl) (to‘lov qobiliyati)	aylanma mablag‘lar (AM) / qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar (KMM)	$Kj_{l} = \frac{\sum AM}{\sum KMM}$

1.5.1-chizmaning davomi

2	Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti yoki qarzdorlik, mablag‘ bilan ta’minlanish koeffitsiyenti ($Km_{q.}$)	Qarzga olingan kapital (KK) / Xususiy kapital (XK)	$Km_{q.} = \frac{\sum KK}{\sum XK}$
3	Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti ($Km_{bar.}$)	xususiy kapital (XK)+Uzoq muddatli qarzlar (UMK) / aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati (AK)	$Km_{bar.} = \frac{\sum XK + \sum UMK}{\sum AK}$
4	Mulk mustaqilligi koeffitsiyenti ($Km_{m.}$)	Xususiy kapital (XK) / aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati (AK)	$Km_{m.} = \frac{\sum XK}{\sum \overline{AK}}$
5	Kapitalni manevr (harakatchanlik) koeffitsiyenti ($Kk_{m.}$)	harakatdagi (ishchi) kapital (IK) / Xususiy kapital (XK)	$Kk_{m.} = \frac{\sum IK}{\sum XK}$
6	To‘lov qobiliyati koeffitsiyenti (Ktk)	O‘z mablag‘i (O‘.M.) / Umumiy majburiyatlar (U.M.)	$Kt_{k.} = \frac{\sum O‘M}{\sum O‘M}$

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun korxonaning iqtisodiy, shu jumladan, moliyaviy parametrlarini (ko‘rsatkichlarini) aniqlash, ularni tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Buning uchun bir qator ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur.

Ko‘rsatkichlarni aniqlash usullari va ularning modul shakllari 3.4.1-chizmada keltirilgan.

3.5. Korxonaning tashqi iqtisodiy shartnomalari

Jahon iqtisodiyotida integratsion rivojlanish jarayoni ishlab chiqarishni internatsionalizatsiyalashtirish (baynaminanlashtirish) bilan tigiz bog‘liqdir. Ishlab chiqarishni internatsionalizatsiyalashuvi Xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishni dunyo miqyosida ijtimoiylashuvining natijasidir.

Ishlab chiqarishni ijtimoiylashuvi avvalombor, bir davlat ichida rivojlanib, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida bir davlat

chegrasidan chiqib xalqaro ahamiyat egallaydi. U ishlab chiqarish jarayoni bir davlat chegarasidan chiqib, qo'shimcha holda tashkil qilinishiga, bir biriga bog'liq ishlab chiqarish jarayonlarini davlatlararo boglanib ketishiga olib keladi. Bu jarayon ishlab chiqarishni internatsionallashuvi degan tushunchani bildiradi.

Ushbu jarayonlar mexanizmiga har xil huquqiy qoidalar, dastaklar kiradi va ular xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishlatiladi. Davlatlar iqti-sodiy integratsiyalanish asosida 50-chi yillardan boshlab sifat jihatidan yangi funksiyalar bajaradigan organlar tuza boshlagan. Natijada bir qancha integratsion guruhlar vujudga kelib ular tashqi savdo, tashqi iqtisodiy siyosat bilan bog'liq vazifalarni amalga oshira boshlagan.

Ular qatoriga xalqaro shartnomalar, kelishuvlar, kodekslar, hartiyalar va bitimlarni kiritish mumkin. Xalqaro iqtisodiy integratsiya har xil etaplardan o'tadi, ya'ni, erkin savdo hududi; bojxona ittifoqi; umumiy bozor; iqtisodiy ittifoq va siyosiy ittifoq kabilar. Bularning hammasini umumiyligi davlatlararo munosabatlar, aloqalarda iqtisodiy barerlar olib tashlanadi (chetlatiladi), yagona bozor hududini yaratishga imkoniyat to'gdiriladi, har bir qatnashuvchi davlat undan samara oladi, ishlab chiqarishni rivojlantiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va hokazolar.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri «Savdo va tariflar to'g'risida bosh kelishuv» deb ataluvchi (GATT)[1] 1947-yili 23-davlatlar kelishuvi asosida tuzilgan.

GATT – ko'pqirrali xalqaro kelishuv bo'lib, qatnashuvchi davlatlararo savdoni tartibga solish, qoidalari va huquqiy normalarini o'z ichiga oladi. GATT dunyoda eng katta xalqaro iqtisodiy tashkilot bo'lib hisoblanadi. 1996-yilda unga 130 davlat a'zo bo'lgan, jahon savdosi hajmini 94% tashkil etgan.

1996-yilning yanvaridan GATT nomini o'zgartirib Butundunyo savdo tashkiloti (VTO) deb yuritila boshladi. A'zolar soni kamaydi va uni ta'sis etuvchi a'zo davlatlar soni 81 davlat hisoblanadi.

Butun dunyo savdo tashkiloti (VTO) GATT qoidalaridan tashqari o'z tarkibda «Xizmatlar bilan savdo to'g'risida kelishuv» (GATS) va «Intellektual mulk bilan savdo qilish aspektlari to'g'risida kelishuv» (TRIPS) tashkilotlari mavjud.

[1] Bu yerda va keyinchalik qavs ichida tashkilotlarning rus tilida qisqartirilgan nomlari berilgan.

VTO – dan tashqari dunyoda zonalar bo'yicha tuzilgan xalqaro re-gional savdo bloklari mavjud. Ularni eng yirik bloklarini quyida keltirib o'tamiz.

Yevropa ittifoqi (YES) – uni ta'sischi davlatlariga quyidagilar kiradi: Avstriya, Germaniya, Velikobritaniya, Italiya, Irlandiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Finlandiya, Shvetsiya, Daniya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Gretsiya YES 1951-yilda tashkil qilina boshlagan, oldin Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi sifatida, 1957 - yilda Yevropa iqtisodiy sherikligi va Yevropa atom energiyasi bo'yicha sheriklik sifatida. Yevropa ittifoqi 1993-yili 1-noyabrda Maastrixt kelishuvi deb nomlana boshlagan. Jahonda Yevropa ittifoqi «Umumiy bozor» deb nom tarqatgan.

Yevropa ittifoqini boshqaruv organi bo'lib Yevropa kengashi hisoblanadi va uning tarkibida Yevropa davlat rahbarlari kengashi va Vazirlar Kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa parlamenti va Yevropa kengashi sudi, Yevropa auditorlar palatasi mavjud.

Yevropa ittifoqi bilan bir qatorda hajmi jihatdan ikkinchi o'rinda integratsiya guruhi – Yevropada erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST) faoliyat ko'rsatadi. Bu tashkilotni tuzish to'g'risidagi Konvensiya Stokgolmda 10 ta davlat tomonidan 1959-yili imzolangan. Ushbu davlatlarga quyidagilar kiradi: Velikobritaniya, Portugaliya, Daniya, Shvetsiya, Finlandiya, Avstriya, Laxtenshteyn, Shvetsariya, Islandiya, Norvegiya.

Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika Kengashi, (NAFTA) – ta'sis etuvchilar AQSH, Kanada va Meksika 1988-yilda AQSH va Kanada kelishuvi bilan tuzilgan, 1992-yili Meksika qo'shilgan.

Aziya va Tinch okeani iqtisodiy hamkorlgi (ATES) 1989-yili Avstraliya tashabbusi bilan tuzilgan. Bunga kiruvchilar: Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Gollandiya, Novaya Zelandiya, Papua-Novaya Gviniya, Indoneziya, Filippin, Tayvan, Gonkong, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Kanada, AQSH, Meksika, Chili.

«Markosur» – Braziliya, Argentina, Paragvay, Urugvay.

«And pakti» – Venesuel, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya.

G'arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi (YUEMOA) - Kot-d Ivuar, Burkino-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali.

Janubiy Afrika rivojlanish komiteti (SADK) – Angola, Botsvana, Lesoto, Malavi, Mozambik, Mavrikiy, Namibiya, JAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabee.

Janubiy Osiyo regional hamkorlik assotsiatsiyasi (SAARK) – Indiya, Pokiston, Shri-lanka, Bangladesh, Maldiva, Butan, Nepal.

Jahon amaliyotida korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir shartnomalar har xil nom bilan ataladi: Ular qatoriga kontrakt, bitim, shartnomalar kiradi. Xalqaro qoidalarda ko'pincha «kontrakt» atamasi ishlatiladi. Umuman olganda yuqoridagilar hammasi huquqiy nuqtai nazardan shartnoma hisoblanadi, faqat har xil atamalar bilan nomlangan.

Shartnoma (bitim) – huquqiy shakl bo'lib, unda tomonlarning huquq va majburiyatlari, o'zaro aloqalarini tartibga solish me'yorlari aks topadi.

Aksariyat holda, shu jumladan, tashqi iqtisodiy bitimlar yozma ravishda rasmiylashtirilishi qonunchilikda belgilab qo'yilgan chet ellarda og'zaki shartnomalar ham ishlatiladi. Shartnoma tomonlar imzo-lagan bitim, xatlar, teletayp, dasturlar, telegrammalar, telefonogrammalar tarzida ham tuzilishi mumkin.

Tomonlar bitimlarni kelish tartibi, tili mazmuni tarkibiy tuzilishi, muddati, kim imzo chekishi kabilarni o'zaro kelishadilar.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida korxonalar nima haqida shartnoma tuzishni tanlashda, majburiyatlarni, o'zaro xo'jalik munosabatlarining qonunlarga zid bo'lmagan boshqa har qanday shartlarni aniqlashda, shu jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda turli xalqaro tashkilotlar tomonidan shartnomalarni namunaviy shakllari tavsiya qilingan va ular qo'llanilib kelinmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda shartnomalarning quyidagi turlari keng tarqalgan: oldi-sotdi, pudrat, ruxsatnoma, vakillik, yuk tashish, barter (mavoza), kompensatsiya bitimlari, «qarz surishish negizi» bitimlari, kooperatsiya bitimlari, «qarz surishish negizi»dagi bitimlar kabilar.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda oldi-sotdi shartnomalari asosiy o'rin egallaydi. Bu shartnomalarda shartnoma mavzusi, baho, hisob-kitob shakli (hisob-kitob varagiga bankdan pul o'tkazish, inkassa, akkreditiv, naqd pul bilan hisob-kitob kabilar), tovar yetkazib

beruvchining bazis shartlari ko'rsatiladi. Bazis deganda, xalqaro iqtisodiy muomalada tarkib topgan tovar yetkazish shart-sharoitlari tushuniladi. Bularga tovar yetkazib beriladigan joy, muddati, tashish shartlari, nobudgarchilik ro'y bergan holda ularni qoplash masalalari kiradi.

Bu shart-sharoitlar xalqaro savdo palatasi tomonidan ishlab chiqilgan «Savdo termenlari» degan nom bilan mashhur bo'lib, bu atamalarni talqin qilishning xalqaro qoidalari (Inkoterms) qo'llaniladi. Hozirgi davrda amalda bo'lgan qoidalarning so'nggi tahriri (1990-y.) ishlatilmoqda.

Bu termenlarga misol sifatida FOB va SIF shartlarini keltirish mumkin.

FOB – yuk tushirish portining nomi.

SIF – tovar yetkaziladigan port.

FOB va SIF shartlarida sotuvchining va haridorning burchlari belgilab qo'yiladi.

Tayanch iboralar: tashkil etish, qoida, bosqichlar, ta'sis etuvchilar, Ustav, Nizom, ta'sis etuvchilar, ta'sis shartnomasi, Ustav, Nizom, davlat ro'yxati, huquqiy shaxs, korxona mulki, mulkdor, mulkchilik munosabatlari, mulk subyekti, mulk obyekti, reorganizatsiya, restruktrizatsiya, sanatsiya, bankrotlik, tugatish, ishlab chiqarishni internatsionallashtirish, ijtimoiy mehnat taqsimoti, shartnoma, bitim, kelishuv.

Takrorlash uchun savollar

1. Korxonani tashkil (barpo) etilishi deganda qanday jarayon tushuniladi?
2. Korxona faoliyatini tashkil qilish qanday qoidalarga asoslanadi?
3. Korxonani tashkil (barpo) qilish qanday etaplardan iborat bo'ladi?
4. Korxonani barpo etish hujjatlariga qanday rasmiy hujjatlar kiradi?
5. Korxonani faoliyatini tashkil etishni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari qanday qonun xujjatlarida aks topgan?

6. Yangi korxonalarni tashkil qilish qanday maqsadlarni nazarda tutadi?

7. Korxonani Ustavi ta'sis etish shartnomasidan nima bilan farq qiladi?

8. Korxona huquqiy shaxs maqomiga qanday ega bo'ladi?

9. Korxona mulki obyektiga nimalar kiradi?

10. Kimlar korxona mulki subyekti bo'lib hisoblanadi?

11. Korxona mulkini manbalari nimalardan iborat?

12. Mulkdor qanday huquqlarga ega?

13. Moliyaviy barqarorlik tushunchasini mazmunini ochib bering.

14. Moliyaviy barqarorlik qanday ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi?

15. Korxonani yashash faoliyati qanaqa sikllardan iborat?

16. Sanatsiya nima va qanday vujudga keladi?

17. Bankrotlikni tushuntirib bering.

18. Moliyaviy barqarorlikni qanday ta'minlash mumkin?

19. Xalqaro kelishuvlar (bitimlar) qanday sabablar asosida vujudga keladi?

20. Qanday xalqaro kelishuvlar (bitimlar)ni bilasiz?

21. Xalqaro kelishuvlar (bitimlar) korxonalarga nima beradi?

22. Shartnoma nima? Ularni qanday turlari mavjud?

IV BOB. KORXONA VA UNING TARKIBIY BO‘LINMALARINI BOSHQARISH

Reja:

4.1. Korxona faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning obyektiv zarurati.

4.2. Korxonani boshqarishning zamonaviy tamoyillari, shakllari va uslublari.

4.3. Ishlab chiqarishni va ishlab chiqarish bo‘g‘inlarini boshqarish.

4.4. Ishlab chiqarishni tashkil qilish va korxonani boshqarishda rahbarning o‘rni.

4.1. Korxona faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning obyektiv zarurati

O‘zbek tilidagi «boshqarish» atamasi chet tillarda «Menejment» atamasiga mos keladi.

Menejment ingliz tilidan «management» so‘zidan kelib chiqib, boshqarish, mudirlik, tashkil qilish ma’nosini anglatadi.

Menejment – bu ishlab chiqarishni boshqarish, ya’ni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan tamoyillar, usullar, iqtisodiy vositalar va boshqarish shakllari majmuasidir.

Menejment xo‘jalik yuritish nuqtai nazardagi bu joriy va kelajakni rejalashtirish, bashorat qilish (prognozlashtirish), ishlab chiqarishni boshqarish va unga taalluqli qarorlar qabul qilish, mahsulot va xizmatlarni sotib olish va sotishni tashkil qilish, resurslardan samarali foydalanish masalalarini hal qilish uchun boshqaruvchilar tomonidan yuritiladigan faoliyat deb hisoblash mumkin.

Boshqaruv san’ati ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni bosh vositasi. Chunki optimal qaror qabul qilish yoki muammoni yechimini topish ayrim texnik-texnologik jarayonlarni takomillashtirishdan yoki yangi ishlab chiqarish quvvatini joriy qilishdan yoki moliyaviy mablag‘larni jalb qilishdan keladigan samaradan yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Amir Temur iborasi bilan aytganda bitta

tadbir bilan yuzlab askarlar bajaraolmaydigan ishlarni ham qilish mumkin.

Zamonaviy menejment – bu minglab ehtimoliy variantlar va ko'zga ilinmaydigan hodisalar bo'yicha boshqaruv qarorini qabul qilish.

Korxonaning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, bu jarayon ko'plab ta'minotchilar, yuzlab ular mahsulotini sotib oluvchilar ishlab chiqarish (ulgurji savdo korxonalari, ayrim hollarda chakana savdo korxonalari, transport korxonalari); aloqa tarmog'i; davlat hokimiyati; moliya, kredit, soliq, bojxona muassasalari bilan mezoaloqada bo'ladi. Korxonaning ichki sharoitida texnik-texnologik jarayonlari loyihalash; mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish (moddiy, mehnat, moliyaviy resurslardan ratsional foydalangan holda); mahsulotlarni saqlash va sotish kabi ishlarni bajaradi.

Keltirilgan jarayonlar tabiat xodisalari bilan tig'is bog'liq. Bularni e'tiborga olish, sodir bo'lganda muammoni yechish zarur bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan barcha xodisa va jarayonlar ko'plab omillarga bog'liq, ularni hisobga olish zarur.

Korxona faoliyatida vujudga kelgan muammolarni hal qilish zarurati ham mavjud.

Ushbularning barchasi korxona faoliyatini boshqarish zaruratini vujudga keltiradi.

Hozirgi zamon ishlab chiqarish korxonalari murakkab majmua bo'lib, uning rivojlanishi va faoliyatini yo'lga qo'yilishi boshqaruv mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Korxonani boshqaruv mexanizmi – bu avvalambor, ma'muriy boshqaruv tizimi va boshqarish tarkibi, ular orqali asosiy vazifalar hal qilinadi va maqsadga erishiladi; ichki aloqalar o'rnatiladi, ijro tartibi o'rnatiladi va nazorat qilinadi; faoliyatga ta'sir qilish vositalari ishga solinadi; barcha funksional organlar ishchidan tortib direktorgacha muvofiqlashtirilgan holda faoliyat yuritishadi.

Boshqarish mexanizmining yuritilishi korxona ma'muriyati orqali amalga oshiriladi. Ma'muriyat tarkibiga direktor, uning muovinlari (o'rinbosarlari), yordamchilari, sex, bo'limlar va boshqa bo'limchalar boshliqlari, mutaxassislar kiradi.

Korxona ma'muriyatini tarkibiy tuzilishining umumiy ko'rinishi 4.1.1- chizmada keltirilgan.

4.1.1-chizma

Korxonani boshqarish organlarini tarkibiy tuzilishi



Hozirgi sharoitda korxonalar va tashkilotlarda boshqaruv rolining oshib borishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- bozor iqtisodiyotining shakllanishi va u bilan bog'liq bo'lgan turli mulk shakllarining vujudga kelishi (davlat, xususiy, aksioner jamiyatlar, qo'shma korxonalar, mahalla va hokazolar);
- xo'jalik yuritishning yangi shakllarini vujudga kelishi (aksioner jamiyatlar, konsern, konsorsium, xususiy korxonalar va hokazo);
- iqtisodiyotimiz hajmining o'sishi, undagi sifatli o'zgarishlar, sanoatimiz ilgari ishlab chiqarmagan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishi, fan-texnika yutuqlarini amaliyotda qo'llashning keng avj olishi;
- xo'jalik yuritishni noiqtisodiy yo'nalishlari rolining oshib borishi (sotsial me'yorlar, iste'mol mezonlari, atrofdagi muhit muammolari va hokazo);
- bilim hajmining oshishi va ularni tuzilishining o'zgarishi, yangi fan sohalarining paydo bo'lishi va bu bilan bog'liq bo'lgan faoliyat yo'nalishlarini tanlash imkoniyatini kuchaytirilishi;

- mustaqillik natijasida o'lkan darajada odamlarni mehnat faoliyatlari doirasini kengaytirilishi, ijtimoiy hayotning hamma sohalarini xilma-xilligini ko'paytirishi;

- bozor sharoitida boshqaruv tizimining o'zidagi o'zgarishlar, hamma sohalarda demokratik tamoyillarning kirib kelishi.

Ma'lumki, yuqorida qayd qilingan sotsial-iqtisody jarayonlar ixtiyoriy ravishda, o'z-o'zicha kechmaydi. Ularni tartibga solish, muvofiqlashtirish, yo'naltirish uchun boshqaruv zarurati to'giladi.

O'z-o'zidan ma'lumki iqtisodiyotni boshqaruv, jumladan, korxonalarni boshqarish tushunchalari kundalik hayotda bizning tanish hodisa va voqialardir. Kundalik hayotimizda insonlar uni ko'radi, his qiladi. Ba'zi bir jarayonlar insonlarning hohishiga bog'liq bo'lmagan holda harakat qiladi. Ayniqsa, bu hol tabiatda ko'proq sodir bo'lib turadi. Ushbu jarayonlar fizik va biologik qonunlar asosida amal qiladi. Shu bilan birga tabiat va jamiyatda inson ta'siri natijasida uni harakatini bir maqsadga qarab yo'naltirish mumkin bo'lgan jarayonlar ketadi. Masalan, odamlar daryo oqimini o'zgartiradi, bulutlarni tarqatadi, ishlab chiqarishni tashkil qiladi, yangi obyektlar barpo qiladi, o'zi hohlagan tomonga qarab transport vositalari harakatini yo'naltiradi, mehnat jamoalarini ishga undaydi, mablag'larni taqsimlaydi, insonlarning ma'naviy hayoti to'g'risida gamxo'rlik qiladi. Bunday holatlarda insonlarning voqealar jarayoniga ta'sir ko'rsatishi kuzatiladi. Boshqaruv tushunchasi aynan ana shu ma'nolardan kelib chiqadi.

Shunday qilib, boshqaruv biron bir maqsadga samarali erishish uchun insonlar harakatini tartibga solish va muvofiqlashtirishdan iborat. Shuni qayd qilish joizki, insonni har qanday obyektga ta'sir ko'rsatishi boshqarish bo'lavermaydi. Boshqarish fanini avtomobilini boshqarish emas, balki uni boshqaryotgan inson qiziqtiradi. Shuning uchun ham xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, Angliya va AQShda avtomobilni boshqarishni menejment deb atasangiz tushunmovchilik bo'ladi. Chunki menejment tushunchasi bevosita xo'jalik obyektlarini boshqaruv tushunchasi bilan hamohang.

Shunday qilib, boshqaruvni alohida bir faoliyatning turiga aylanishi iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga to'g'ri keladi. Ushbu bosqich mehnat taqsimoti va uni ixtisoslashishi, ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlarining murakkablashishi bilan

xarakterlanadi. Xuddi shu vaziyatda ularni tartibga solish va muvofiqlashtirish zarurati ko'ndalang bo'lib turadi. Bunday sharoitda ularni boshqarib turadigan rahbar xodimlarga talab kuchayadi.

Korxonalarni boshqaruv bir qator xususiyatlarga ega.

1 Qaysi mulk shakliga asolanganligiga qaramasdan korxonalarni boshqarish o'zining murakkabligi va alohida xususiyatlarga ega bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Korxonaning tarkibida mehnat taqsimoti asosida alohida guruhlar tashkil qilinib, har biri o'zining xususiyatlaridan kelib chiqqan vazifalarni bajaradi. Ushbu guruh maqsadlari korxona va jamiyat maqsadlari bilan zid kelmasligi kerak. Ularni nazorat va muvofiqlashtirib turish boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Korxona turli harakatlar va psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan inson guruhlaridan tashkil topadi. Har bir jamoa a'zosining istagi, ehtiyoji, ma'naviy talablari va manfaati mavjud. Shuning uchun ham har bir boshqaruv sohasida band bo'lgan xodimlarning vazifasi ishni aynan shu xususiyatlarga qarab tashkil qilish va ularga shaxsiy yondashishdan iborat bo'ladi. Bu esa boshqaruvchilardan psixologiya sohasida chuqur bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

3. Hozirgi turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar murakkab xo'jalik organizmi hisoblanadi. Korxona egasiga nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari bilan, balki marketing, investitsiya masalalari bilan ham shugullanish zarurati tugiladi. Ishlab chiqarish jarayonida korxona ichidagi turli bo'g'inlarni ishini tashkil qilish, ular o'rtasidagi boglanishni ta'minlash, harakatlarni muvofiqlashtirish lozim bo'ladi. Faqat shu holatda ularni harakatini bir maqsadga qarab yo'naltirish mumkin bo'ladi.

4. Korxonalarda juda ko'p miqdorda jihozlar o'rnatiladi. Hozirgi paytda ularning aksariyati xorijiy davlatlardan olib kelingan.

5. Boshqarish har xil operatsiyalarni bajaradigan odamlarning ishini tashkil qilish, turli ish joylardagi odamlarni harakatini muvofiqlashtirish, ishlarini bir maromda olib borish vazifalari bilan shug'ullanadi.

6. Ishlab chiqarish jarayonida korxona juda ko'p miqdorda turli xil materiallarni ishlatadi. Materiallarga korxonalarga ikki yo'l bilan olib kiriladi: mamlakatni ichkarisidan va xorijiy mamlakatlardan biron- bir materialni kechikib korxonaga kirishi ishlab chiqarish

jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, katta moddiy zarar yetkazishi mumkin. Demak, boshqarish bu kamchilikni o'z vaqtida sezib, uni bartaraf qilish uchun oldindan chora ko'rib qo'yishi lozim. Bundan tashqari korxonani bir maromda ishlashi uchun korxona ichidagi transport va yordamchi ishlab chiqarish obyektlarini faoliyatini tashkil qilish kerak. Bu joylarda ham odamlar ishlaydi. Ushbu faoliyat sohalarida ishlab chiqarishning samaradorligi aynan shularning harakatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham bunday odamlarning faoliyatini tashkil qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish boshqaruvning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Boshqaruv ikki tarkibiy qismning birligidan iborat: 1. Boshqaruv subyekti. 2. Boshqaruv obyekti.

Boshqaruv subyektlariga boshqarishni amalga oshiradigan tashkilotchilar, rahbarlar, turli soha boshliqlari kiradi. Boshqaruv obyektlariga korxonalar, turli mulk shaklidagi mehnat jamoalari, xodimlar, ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan mehnat qurollari va predmetlari, pul vositalarining harakat jarayoni, tabiat resurslari, ilmiy-texnik va axborot imkoniyatlari kiradi. Boshqaruv subyekti turli ma'muriy ko'rsatmalar, xodimlar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarni boshqaruv obyektiga uzatadi. Boshqaruv obyekti yuqoridagilarga asoslanib o'zini harakat yo'nalishini o'zgartirib turadi. Komandani qabul qilganligi va unga o'z munosabatini bildirganligi to'g'risidagi axborotni boshqaruv subyekti qayta aloqa orqali bilib oladi. Ana shu axborot orqali subyekt kelajakdagi harakatning yangi yo'nalishini belgilaydi. Ma'lum vaqtda bu obyektni keyingi rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Qayta aloqa kanallari doklad, xabarlar, yozma hisobotlar shaklida bo'lishi mumkin. Shunday qilib, qayta aloqa amaliyotda bu subyekt tomonidan o'rnatilgan bevosita tuzatishlar va nazorat qilish natijasidar. Bu o'z ifodasini statistik va kundalik hisobot va buxgalter hujjatlarida topadi.

4.2. Korxonani boshqarishning zamonaviy tamoyillari, shakllari va usullari

Boshqarish tizimi shakllangan va asoslangan tamoyillar va usullarga tayanadi.

Tamoyil qisqacha aytganda – bu asosiy qoida, talab, boshqarish g'oyasi.

Tamoyillar asosida korxonalarning maqsadi, ustuvor yo'nalishlari, siyosati va usullari aniqlanadi.

Korxonalarda iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni tashkil qilish obyektiv qonunlardan foydalanishning harakatdagi mexanizmini ishlab chiqishni talab qiladi. Bunday mexanizm menejment asoschilari tomonidan ilgari surilgan tamoyillarda (prinsiplarda) o'z aksini topadi.

Tamoyil bu xo'jalik yuritishning muhim qoidasidir. Ularning nazariy ahamiyati shundan iboratki, ular boshqarish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayonida qonuniyatlar aynan tamoyillar orqali o'z harakatini amalga oshiradi.

Boshqaruv tamoyillariga real amaliyotni belgilab, boshqarish aparatining to'g'ri va aniq harakat yo'lini ko'rsatib beradi. Tamoyillar hodisa-voqealar va vaziyatlar tizimida paydo bo'lib turadigan mantiqiy aloqalarni to'g'ri tushinishga, harakatlar maqsadini to'g'ri aniqlashga, boshqarish funksiyasini samarali tadbiq qilishga qaratilgan konkret qarorlar ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Har kuni korxonalarda turli xildagi nizoli vaziyatlar sodir bo'lib turadi. Ana shularni o'z vaqtida bartaraf qilish rahbarlardan aniq qarorlar qabul qilishni talab etadi. Lekin bu qarorlar faqat boshqarish tamoyillarini chuqur bilgandagina o'z samarasini berishi mumkin. Chunki bu tamoyillar hodisa va voqealarning ichki aloqalarini va ularning rivojlanishiini oldindan bilishga imkoniyat beradi. Boshqaruv tamoyillari korxonada boshqarish jarayonlarini tashkil qilishdagi dastlabki holatni aniqlaydi.

Asosiy tamoyillar korxona va uning bo'g'inlarini boshqarish falsafasi va strategiyasini belgilab beradi.

Boshqarish tamoyillarining nazariy asosini XX asrning boshlarida amerikalik sanoatchi-millioner, avtosanoatni asoschisi Genri Ford yaratgan. Uning ayrim fikrlari hozir ham dolzarb, jumladan:

- Kelajakdan qo'rqmaslik kerak. O'tgan davrga nisbatan o'ta hurmatda bo'lish shart emas.
- O'tgan davr bizga shuning uchun kerakki, u bizlarga kelajakda rivoj topish uchun yo'l va vosita ko'rsatadi.
- Kim xavf xatar va mufaqqiyatsizlikdan qo'rqsa, u o'z faoliyatini cheklaydi.

• Ish faoliyatida buyruqbozlikni kamaytirib, ko‘proq tadbirkorlik (ishbilarmonlik)ka e’tibor berish zarur.

• Mening maqsadim oddiylik (soddalik).

• Agar baholar iste’molchilar daromadlaridan yuqori bo‘lsa, uni daromadlarga moslashtirish kerak.

• Davlat miqyosida ish haqini qisqartirish – bu ahmoqona moliyaviy siyosat, chunki u tovarlarga talabni qisqartiradi.

Korxonani boshqarish tamoyillari to‘g‘risida hozirgi kunda Yaponiyani jahonning eng rivojlangan davlat sifatida o‘rin olishga yo‘naltirilishi omillaridan biri bo‘lgan Yaponlarga korxonani boshqarish tamoyillarini ayrimlarining mohiyatini misol keltiramiz.

1. Yaponiya korxonalarining asosiy falsafasi – bir umr yollanma ishchilarni korxona yoki kompaniyaga ishga olish. Ushbu tamoyilni joriy qilish masalasi bo‘yicha Yaponiyada taniqli marketolog, amaliyotchi va nazariyachi tadbirkor Akio Morita yozadi. Men yuqori sinf o‘quvchilari oldida chiqishimda odatda shunday deyman: «Biz sizlarni safarbar etmaymiz. Bu armiya emas, bu degani sizlar o‘z xohishingiz bilan «SONY» korxonasini tanladingiz. Bu sizni qaroringiz, biz ishonamizki siz bizni kompaniyaga ishga kirib, unda 20–30 yil ishlaysiz.

Men hohlaymanki, siz 30 yilda bizni kompaniyani tashlab, yoki umringizni oxirida bu joyda o‘tkazgan vaqtingizdan siz afsuslanishingizni. Bu hol tragediya (fojiya) bo‘lar edi.... baxtni siz o‘zingiz yaratishingiz kerak»[6].

2. Yaponiya menejmentining asosiy tamoyillaridan biri ishchilar bilan sog‘lom munosabatda bo‘lish.

3. Korxonani boshqarish – menejment – bu diktatura emas. Boshliqlar shunday qobiliyatga ega bo‘lishi kerakki, u insonlarni boshqarishi kerak. Ularni o‘z orqasidan ergashtirishi lozim. «SONY» kompaniyasida A.Moritani yozishicha, bironta boshqaruvchisiga, hatto zavod direktoriga alohida kabinet berilmagan.

4. Mehnat munosabatlarida rahbariyat bilan ishchilar o‘rtasida yuqori darajada tenglik o‘rnatish. A.Moritani fikricha, ular «Yashil» va «Oq» yoqaliklar o‘rtasida hech qanday farq sezmaydilar. Insonlarni rag‘batlantirish uchun, ularni oila a’zosiga aylantirish va ularga oila a’zosi sifatida hurmat bilan munosabat qilish kerak.

---

[6] Акио Морита. «Сделано в Японии», М.: «Знание», – 1991. с. 11

5. Boshqaruv lavozimida yaxshi ishlagan, talantli, o‘zini ko‘rsatgan ishchilar va xizmatchilari yerarxik tizim bo‘yicha yuqori pog‘onalarga ko‘tarilib boradi.

6. Ularda kattalarga hurmat, e’tibor yuqori bo‘lishiga qaramay, ish faoliyatida tortishuvlarga yo‘l qo‘yiladi. Odamlarni tabiiy talantini jilovlash Yaponlarning odatida yo‘q.

7. Faoliyat natijasiga javobgarlik yuqori.

8. Mahsulotlarni sotish jarayonida «O‘z vaqtida» tamoyiliga rioya qilinadi.

9. Qarzni deb yutuqni unutma, lekin yutuqqa erishganda qarzni esla.

10. Ishda eng yuqori sifat – jamiyatga xizmat qilish.

11. Narsa ishlab chiqarishdan oldin kadr tayyorla.

12. O‘z mehnatimiz bilan hayotimizni yaxshilaymiz va yaxshi jamiyat quramiz.

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlarning amaliyoti tahlili korxonani boshqarishni quyidagi umumiy tamoyillarini misol keltirishni taqoza qiladi.

1. Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligi va o‘zgaruvchanligi.

2. Yaxlit tizimligi, soddaligini ta’minlash.

3. Boshqaruvda tashqi muhitga vaziyatli qarashni va tashkiliy o‘zgarishlarni joriy qilish.

4. Strategik boshqarish tizimini joriy qilishni tan olish va hayotga tadbiq qilish.

5. Biznesni tashkiliy madaniyatga boshqarishga yo‘naltirish.

6. Innovatsion menejmentni rivojlantirish.

7. Tashkiliy masalalarda liderlar rolini oshirish.

8. Rahbarlarni ijtimoiy javobgarligini oshirish.

9. Insoniyat qadriyatlarini ardoqlash.

Boshqaruv tizimi quyidagilarga javob berishi zarur:

- boshqaruv tizimida minimal bo‘g‘inlarga ega bo‘lish;
- kompakt bo‘limchalarni tashkil qilish va malakali mutaxassislarni joylashtirish;
- mutaxassislar komandasiga asoslangan o‘zgaruvchan tarkiblarni tuzish;
- raqobat bozoriga mos mahsulotlar ishlab chiqarish;

- ishlab chiqarishni maqsadini va tashkillashtirilishini nafaqat yuqori foyda olishga, birlamchi maqsad sifatida iste'molchi talabini qondirishga yo'naltirish.

Boshqarishni o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun boshqarish obyektiga ta'sir ko'rsatishning qulay usullarini tanlash katta ahamiyatga egadir. Chunki aynan usullar boshqarish vazifalari va maqsadi qay darajada bajarilganligini ko'rsatib beradi. Boshqarish usullarini qo'llash natijasida obyektiv iqtisodiy qonunlarning talabi va ularning amaliyotda ko'rinishi amalga oshiriladi. Shuning uchun ham boshqarish usuli ana shu qonunlarning amal qilish mexanizmi rolini bajaradi.

Amaliyotda usullar tizimini to'g'ri qo'llash boshqarish tamoyillariga bogliq bo'ladi. Chunki usullar har doim boshqarish tamoyillari tomonidan belgilangan qoida, Nizom asosida qo'llaniladi.

Boshqarish faoliyatining vositasi sifatida boshqarish usullari boshqarishning subyektiv tomonini o'zida gavdalantiradi. Bundan ular hohlagan vaqtda, asossiz tanlanishi mumkin degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Usullarning tarkibi va mazmuni boshqarish qonuniyatlarini o'zida gavdalantirgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni harakat natijalaridan hosil topadi. Boshqarish usullariga ilm-fan taraqqiyoti bevosita ta'sir qiladi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti usullarini uzluksiz takomillashtirish, ularni qo'llash sifati va samaradorligini oshirishga olib keladi.

Shunday qilib, boshqarish usullari qo'yilgan maqsadga erishish uchun boshqarish obyektiga ta'sir o'tkazish ma'nosini anglatadi.

Boshqarish usullari o'zini mazmuni jihatidan iqtisodiy, ma'muriy-tashkiliy, sotsial psixologik uslublardan tashkil topadi.

Boshqarish usullari tizimida iqtisodiy usullar markaziy hisoblanadi. Iqtisodiy usul iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish obyektiga ta'sir ko'rsatish ma'nosini anglatadi. Bunday holda korxonaning boshqarish organi boshqariladigan obyektga ish haqi, mukofotlash, rag'batlantirishning turli shakllari, imtiyozlar, chegaralashni yumshatish, defitsit resurslar bilan ta'minlash, iqtisodiy erkinlikni kuchaytirish kabi iqtisodiy mexanizmlardan foydalanadi. Shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiy istak nafaqat ijobiy rag'batlantiruvchi omilga tayanadi, balki soliqlar, to'lovlar, daromaddan ushlab qolish va hatto jarima (sanksiyalariga) ham tayanadi.

Iqtisodiy usullarning harakati sharoitida pastki bo‘g‘inlarga markazlashgan ta’sir ko‘rsatish susayadi. Iqtisodiyotning pastki bo‘g‘inlari mustaqil ravishda qarorlar qabul qilshi uchun katta huquq va imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Korxona va xo‘jaliklarning o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tishi amalga oshiriladi.

Boshqarishni iqtisodiy usullarining hozirgi paytdagi o‘zgarish omillaridan eng asosiysi boshqarishni tik chiziqli shaklidan gorizontal shakliga o‘tish hisoblanadi. Bunda boshqarish obyektiga ta’sir nafaqat yuqori boshqarish organlari tomonidan, balki korxona bilan boglangan mijozlar, iste’molchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday ta’sir qilish usullari o‘z ifodasini o‘zaro majburiyatlar, bitimlar va shartnomalarda topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy usullarning qo‘llanilishi o‘zining ijobiy samaralarini beradi.

Tashkiliy-ma’muriy usullar iqtisodiy usullardn farq qilib, boshqarish obyektiga, ya’ni mehnat jamoalari va alohida xodimlarga bevosita buyruq, farmoyish asosida ta’sir o‘tkazishga asoslanadi. Shuning uchun ham ushbu usulni ko‘p hollarda ko‘rsatma tariqasidagi yoki komandaga oid usul deb ataydilar. Bunday ko‘rsatma va komandalar pastki bo‘g‘inlar tomonidan majburan bajariladi. Boshqarishni bu usulining mantiqi – «Boshliqning buyrug‘iga bo‘ysinadigan xodimlar uchun bajarilishi qonun» degan mazmunni anglatadi. Ushbu ma’muriy usul asosan bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lmagan markazlashgan tamoyillar tizimiga xosdir. Tashkiliy-ma’muriy usul o‘zining mazmu-niga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: tashkiliy va ma’muriy ta’sir ko‘rsatish.

Korxonalarda tashkiliy ta’sir ko‘rsatish birinchidan, xo‘jalik ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya va marketing faoliyatini takomillashtirishni, tashkiliy va texnologik me’yorlar va nizomlarni ishlab chiqarishni ta’minlaydi. Ikkinchidan, tashkiliy ta’sir ko‘rsatish, korxonalarda mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayrim mehnat turlarini bajarish usullarini aniqlaydi. Uchinchidan, tashkiliy ta’sir ko‘rsatish texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, kompyuter texnologiyasidan foydalanish, berkitilgan vositalardan unumli foydalanishni ta’minlaydi.

Qayerda va qaysi vaqtda korxonalarda tashkiliy jihatdan o‘zgarishlar sodir bo‘lib qolsa (bu jarayonda doimo rivojlanish va

takomillashtirish tendensiyasi mavjud) o‘sha yerda tashkiliy ta’sir ko‘rsatishga amal qilish zarurati tug‘iladi.

Tashkiliy ta’sir ko‘rsatish o‘z samarasini faqat uni ma’muriy ta’sir bilan to‘ldirilgandagina beradi. Chunki har qanday korxonani tashkiliy tuzilmasining ichida o‘zining turli xizmatga oid sifatlari, xususiyatlari, dunyo qarashi va hatto ba’zi vaqtda qo‘yilgan umumiy vazifani turlicha tushunishi bilan bir-birovidan farq qiladigan insonlar harakat qiladi. Bunday sharoitlarda bo‘g‘inlar o‘rtasidagi tashkiliy aloqalarni saqlab turish uchun korxona jamoalariga ma’muriy ta’sir ko‘rsatish zarur bo‘lib qoladi.

Ma’muriy ta’sir ko‘rsatish amaliyotda bo‘yruq, farmoyish va ko‘rsatma shaklida namoyon bo‘ladi.

Buyruq bu ma’muriy-ijrochi faoliyatni tartibga solib turuvchi boshqarish akti hisoblanadi. Bajarilishi muqarrar bo‘lgan buyruqlarni faqat korxona rahbari beradi. Buyruqlarni ishlab chiqish jarayonida unga kiritilgan masalalarni chuqur tahlil qilish va shu soha bo‘yicha bilimdon mutaxassislarni maslahatini inobatga olishga e’tibor berilishi lozim.

Buyruqlardan farqli farmoyishlarni rahbarlardan tashqari ularning muovinlari va o‘zining vakolat doirasida funksional bo‘lim boshliqlari berishi mumkin. Farmoyishda ham huddi buyruqdagidek masalalar aniq va tushunarli yoritilishi, ijrochilar, ijro sanasi va nazorat shakllari ko‘rsatilishi lozim. Farmoyishlarda uni bajarilshining aniq muddati ko‘rsatiladi.

Ma’muriy ta’sir ko‘rsatishning amalga oshirish vositasi ko‘rsatma hisoblanadi. Odatda, ular og‘zaki shaklda beriladi. Unda qo‘yilgan vazifalarning bajarish muddati aniq ko‘rsatiladi.

Ma’muriy ta’sir ko‘rsatish organlarining qo‘ygan vazifalarini amalga oshirish uchun uzluksiz nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish kerak. Har bir buyruqni bajarilish nazoratini shaxsan rahbar yoki uning vakolati bilan uning vakili amalga oshiradi. Ayniqsa, rahbarning shaxsiy nazorati haddan tashqari muhim hisoblanadi. Chunki bu o‘z vaqtida buyruqni bajarish bo‘yicha paydo bo‘lgan chetlanishlarni payqab, uni oldini olish imkoniyatini beradi.

Boshqarish usullari ichida sotsial-psixologik usullar muhim o‘rin egallaydi. Sotsial-psixologik usullar bu mehnat jamolari va ayrim

xodimlarga turli psixologik mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatish orqali boshqarishni amalga oshirishdir.

Har bir insonda mehnatga, mulkka, pul, boylikka, iqtisodiy munosabatlarga nisbatan qarashlar tizimi shakllanib va tarbiyalanib boradi.

Har qanday inson katta kichikligiga qaramasdan nafaqat mamlakatimizda harakat qilayotgan huquqiy qonunlar asosida ish ko'radi, balki o'zini dunyo qarashi, tasavvuri, ichki odob-axloq qoidalari asosida o'z turmush tarzini belgilaydi. Bu holat ham iqtisodda va maishiy sharoitda o'z ifodasini topadi. Sotsial-psixologik usullarning asosiy vazifasi insonlarni psixologiyasi. Vijdoni va odob-axloqiga ta'sir ko'rsatish orqali boshqarish subyekti qo'ygan maqsadga erishishni ta'minlashdan iborat. Odamlarni biron-bir ishni bajarishga majbur qilmaslik kerak. Ularni shu narsani bajarish zarur ekanligiga ishontirish kerak.

Sotsial-psixologik usullarning samaradorligi va amaliy ta'siri avloddan avlodga o'tib keladigan insonning vujudidagi tarbiyaga bogliq bo'ladi. Bunga bir qator mamlakatlarda shakllangan an'analarni misol keltirsak bo'ladi. Masalan, Yaponiyada mehnatga bo'lgan sevgi va hurmat, o'z ishiga va firmasiga sodiqlik go'dakligidan boshlab tarbiyalanadi. Agar firmada ish yomon borayotgan bo'lsa, Yapon ishchisi mehnat ta'tilidan ham voz kechadi.

Shunday qilib, sotsial-psixologik usullarni ikki guruhga bo'lish mumkin. 1. Sotsial ta'sir ko'rsatish usullari. 2. Psixologik ta'sir ko'rsatish usullari. Bularni har birini alohida ko'rib o'tamiz.

Sotsial ta'sir ko'rsatish usullari korxonalarda juda ko'p jamoani sotsial rivojlanish masalalarini hal qilish vositasi sifatida ishlatiladi. Ushbu usul orqali mehnat jamoalarining sotsial tuzilmasi va sotsial xususiyatlari (jamoani sotsial va kvalifikatsion tuzilishi, xodimlar va ishchi-xizmatchilarning madaniy-texnik darajasi, mehnat sharoiti, mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilish, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni qo'ilishi va hokazo) o'rganiladi.

Ularni amaliyotda qo'llash natijasida jamoa va uni a'zolarining sotsial faolligi oshadi, tarbiya jarayoni yaxshilanadi.

Amaliyotda sotsial ta'sir ko'rsatish usullari bilan birga mehnat jamoalari va uni a'zolarini boshqarishni psixologik usullari ham keng ishlatiladi. Ularning asosiy vazifasi mehnat jarayoni bilan band

bo'lgan insonlarning psixikasi va kayfiyatiga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Ushbu usullarning yo'nalishi korxonalarda xayrihohlik, do'stlik munosabatlarini, mehnatga qiziqishning oshishi uchun samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Yuqorida ko'rib chiqqan boshqarishning uch uslublari bir-birovi bilan chambarchas bogliq bo'lib, birgalikda xo'jalik faoliyatining hamma boshqarish funksiyalarini amal qilishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham amaliyotda ularni birontasini ham rolini pastga o'rish katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

4.3. Ishlab chiqarishni va ishlab chiqarish bo'g'inlarini boshqarish

Korxona taraqqiyotning hamma bosqichlarida iqtisodiyotning asosiy va birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Albatta konkret korxonani boshqarish fanlarining tuzilmasi, uni boshqarish shakli va usullari uning masshtabi va ixtisosligiga bogliq bo'ladi. Umumiy qilib aytganda iqtisodiyotimizda mavjud bo'lgan turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar bir-birovi bilan o'xshashlik va farqlari mavjud. O'xshashligi shundaki har qanday korxona mahsulot, tovar, xizmatlar ishlab chiqaradi, ma'lum faoliyatni amalga oshiradi. Aynan ana shunda uning bosh maqsadi va vazifasi o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham ularni shakl va turlaridan qat'iy nazar, korxonalarni boshqarish asosida texnologik jarayonlarni boshqarish yotadi.

Umumiy o'xshashligidan tashqari iqtisodiyotning turli sohalaridagi korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu birinchi navbatda turli sohadagi korxonalarda ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil qilishdagi o'ziga xos sharoitlardir. Masalan, ba'zi korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini uzoq muddatga cho'zilishi va jarayonlarning murakkabligi, ularni tayyorlash va xizmat qilish operatsiyalarining o'ziga xos xususiyati va hokazolar. Korxonalar o'rtasidagi farq, xuddi shunday ishlab chiqarishni tayyorlash jarayonining bosqichlarida ham o'z ifodasini topadi. Masalan, yangi mahsulotlarni loyihalash va uskunalash, loyihalash bilan bogliq bo'lgan hisoblarni amalga oshirish, me'yoriy hisoblarni amalga oshirish va hokazolar.

Iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan korxonalar mamlakatimiz va chet el ta’minlovchilar bilan ko‘plab aloqalarni amalga oshiradilar. Ushbu aloqalar xom ashyo bilan ta’minlovchilar va iste’molchilar bilan amalga oshiriladi. Ana shu o‘zaro aloqalarni saqlab turish va muvofiqlashtirish korxona boshqaruvining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Biron-bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun korxonalar ishlab chiqarishning turli omillaridan foydalanadi. Bularga ishchi kuchi, jihozlar, xom ashyo, materiallar, axborot, pul mablag‘lari kiradi. Shunga qarab korxonani boshqarish bir necha yo‘nalishlarga bo‘linadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, ularni madaniy-texnik darajasini oshirish, (personalni) kadrlarni boshqarish;
2. Korxonalarni ishlab chiqarish faoliyatini texnik-iqtisodiy rejalashtirish;
3. Ishlab chiqarishni operativ boshqarish;
4. Korxonani texnik rivojlanishiini va ishlab chiqarishni texnik tayyorgarligi;
5. Mahsulotlar sifatini nazorat qilish;
6. Mehnatni tashkil qilish va ish haqi;
7. Ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta’minoti;
8. Tayyor mahsulotni sotishni tashkil qilish;
9. Moliya faoliyatini amalga oshirish;
10. Ishlab chiqarishga texnik va tashkiliy-xo‘jalik xizmatini tashkil qilish.

Yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarning yigindisini chet mamlakatlar amaliyotida korxona menejmenti deb ataladi. Administratorlar, korxona faoliyatining boshqaruvchilarini menejerlar deyish qabul qilingan. Ushbu atama hozirgi paytda bizning respublikamizda chop qilingan iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda keng ko‘lamda ishlatilmoqda.

Hozirgi sharoitda respublikamizda bir qator korxonalarni boshqarish tuzilmasining turlari mavjud. Korxona, kompaniya, konsernlar odatda boshliq yoki prezident tomonidan boshqariladi. Kompaniya va konsernlarni prezidenti strategik rahbarlikni amalga oshiradi. Operativ boshqarish ijrochi direktorlar tomonidan olib boriladi. Direktor ko‘p holatlarda korxona faoliyatining alohida

yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zining muovinlariga ega. Masalan, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, fan, iqtisod, moliya va hokazolar bo‘yicha.

Korxonalarni boshqarish apparatiga turlicha xizmatga oid bo‘limlar mavjud bo‘ladi. Ularni amaliyotda ma’muriy-boshqarish xodimlari deb ataladi. Odatda, korxona bo‘limlarini boshqarish ishlab chiqarish (korxonani boshqaradigan) va funksional qismlarga (moliya, ta’minot, sotish, kadrlar, texnologiya, ish yuritish, tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish) bo‘linadi. Hammasini umumlashtirib rahbarlar, mutaxassislar va texnik ijrochilar deb ham atasak bo‘ladi.

Korxona tizimida bo‘linma, sex, bo‘lim, laboratoriyalar va boshqa bo‘limlarni ko‘rsatish mumkin. Hammasida o‘zining boshqarish organlari mavjud.

Korxonani boshqarish asosida chiziqli va funksional usuli yotadi. Shuni qayd qilish joizki, har qanday ishlab chiqarishni boshqarish tizimida chiziqli usul yotadi. Tizimning ichida bo‘g‘in va pog‘onalarni bir-biridan farq qilish lozim. Bo‘g‘in bu alohida funksiyalarni bajaruvchi mustaqil bo‘linmadir. Boshqarish bo‘g‘ini tushunchasiga shuningdek, bir necha tashkiliy tuzilmalarni faoliyatini amalga oshiruvchi rahbarlarni ko‘rsatish mumkin. Bularga bosh muhandis, bosh texnolog, smena boshliqlari va hokazolar kiradi.

Boshqarish pog‘onasi bu bo‘g‘inlarning yigindisi hisoblanadi. U boshqarish iyerarxiyasini belgilaydi (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo‘ysinishi). Boshqarish tizimidagi chiziqli bo‘limlar bo‘yrugini bajarish unga bo‘ysinadigan hamma bo‘limlar uchun shart hisoblanadi. Chiziqli boshqarish berilgan farmoyish va vazifalarni bajarilishida anglashmovchilik kelib chiqishiga imkon bermaydi. Chunki ushbu vazifalar bir rahbar tomonidan beriladi. Shu bilan rahbarlik birligi ta’minlanadi, rahbarlarning o‘zlariga berkitilgan bo‘limlar uchun mas’uliyati oshadi.

Chiziqli boshqarish tizimini joriy qilish butun boshqarish mexanizmining samarali harakatini ta’minlaydi. Shuning uchun ham chiziqli boshqarishni ratsional tashkil qilish bir qator talablarga javob berishi lozim. Birinchidan, bo‘ysinadigan pog‘onalarning soni qancha kam bo‘lsa, uni boshqarish shuncha oson bo‘ladi. Iloji boricha kam odamlar boshqarish jarayoniga aralashadi. Bu esa boshqarish obyektini holatini barqarorligini ta’minlash imkoniyatini to‘gdiradi.

Ikkinchidan, chizigli boshqarishni samarali harakat qilishi sharoitlaridan biri buyruqlarni pastki bo‘g‘inlarga uni bevosita rahbari tomonidan berilishi hisoblanadi. Masalan, zavod direktori sex boshligi xabarisiz, ya’ni bevosita sex ustasiga buyruq berilishi noto‘g‘ri hisoblanadi. Amaliyotda agar bunday holatlar uchrab qolsa, demak, chiziqli boshqarish tamoyili buzilgan hisoblanadi. Uchinchidan, chiziqli boshqarish tizimi rahbarlar va bo‘ysinadigan shaxslarning ratsional nisbatini hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Rahbar va boshliqlar sonining ko‘pligi, odatda mas’uliyatsizlikni keltirib chiqaradi va boshqarish operativligini susaytiradi.

Korxonani boshqarish tizimining barpo qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ikkinchi tamoyil – bu funksional tamoyildir. Bu tamoyil chiziqli boshqarish tizimidagi rahbarlar o‘rtasidagi mehnat taqsimotidan kelib chiqadi. Buning ma’nosi shundan iboratki chiziqli boshqarish tizimining har bir bo‘g‘ini ma’lum funksiyani, yoki uning bir qismini bajaradi. Funksional boshqarishning zaruriyati ishlab chiqarish tizimi-ning murakkabligi va bu jarayonning xilma-xilligidan kelib chiqadi. Ushbu xususiyatlar ma’lum darajada turli sohalar bo‘yicha maxsus bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Shuning uchun ham korxonani boshqarish va bu jarayon bilan bogliq bo‘lgan masalalarni hal qilish uchun ko‘p mehnat va ko‘pchilik odamlarning vaqti kerak bo‘ladi.

Funksional boshqarish bu alohida funksiyalar bo‘yicha boshqarishni amalga oshirishdir. Har bir funksional bo‘linmaning o‘zining rahbari bo‘ladi. Ular ham yakkaboshchilik tamoyili asosida harakat qiladi. Funksional bo‘g‘inlarning hamma rahbarlari korxonani chiziqli boshqarish tizimi tarkibiga kiradi. Bu asosda chiziqli va funksional boshqarishning birligi ta’minlanadi.

Funksional boshqarish quyi pogonadagi bo‘limlar faoliyatini rahbarligini ta’minlab, bir funksiya doirasidagi masalalarni hal qiladi. Ya’ni, uni boshqarish doirasi va yechadigan masalalari chegaralangan bo‘ladi. Funksional bo‘linmaning rahbarlari pastki bo‘g‘inlarga ma’muriy farmoyishlar berish huquqiga ega emaslar. Shuni qayd qilish joizki, ushbu sertarmoq va murakkab boshqarish nisbatan katta korxonalar uchun xosdir. Uncha katta bo‘lmagan korxonalarda bu hol ancha oddiy kechadi.

4.4. Ishlab chiqarishni tashkil qilish va korxonani boshqarishda rahbarning o‘rni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlanishi va takomillashuvining hal qiluvchi sharoitlaridan biri boshqarish kadrlari bilan olib borilayotgan ishlarni doimi suratda yaxshilashdan iborat. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, bozor munosabatlarining imkoniyatlari va ustunligidan samarali foyda-lanish aynan boshqarish kadrlarining va birinchi navbatda rahbarlarning aqli, ish bilarmonligi, yangi sharoitda boshqarish maqsadlari, tamoyillari va usullarini qay darajada qo‘llay bilish qobiliyatiga bogliq bo‘ladi.

O‘z vaqtida menejment nazariyasi klassiklari har qanday davlatni rivojlanishi uchun uchta asosiy omil amal qilishini alohida ta’kidlab o‘tgan edilar. Bularga insonlar, moliya siyosati, texnika va texnologiya kiradi. Burinchi o‘ringa insonlarning qo‘yilishi bejiz emas. Yaponiya, Amerika va Yevropadagi ko‘zga ko‘ringan menejerlarning biznes sohasida erishgan yutuqlarini ana shu omillarga tayanib ish ko‘rganlari bilan boglash mumkin.

Hozirgi sharoitda korxona rahbarlari rolining oshib borishi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bularga korxonalardagi sifatli o‘zgarishlar, ishlab chiqarish hajmining oshishi, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashishi, davrga xos bo‘lgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishchi-xodimlar mafkurasining o‘zgarishi, boshqarishni shakl va usullarining o‘zgarishi, hamma sohada demokratlashtirishni amalga oshirilishi, davrning talabi bilan rahbarlarning alohida o‘rin egallashi va hokazolarni ko‘rsatish mumkin.

Hozirgi sharoitda rahbarlar rolining oshib borishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

* turli mulk shakllarining vujudga kelishi (davlat, xususiy, aksioner jamiyatlar, mahalla va hokazolar);
* xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini vujudga kelishi (aksioner jamiyatlar, konsern, korporatsiya, konsorsium, qo‘shma korxonalar, xususiy korxonalar va hokazo);
* iqtisodiyotimiz hajmining o‘sishi, iqtisoddagi sifatli o‘sishlar, fan-texnika yutuqlarini amaliyotda qo‘llash boshqarish qarorlari

variantlarini ko'paytiradi, ularni tanlash muammolarini murakkablashtiradi;

* xo'jalik yuritishni noiqtisodiy yo'nalishlari rolining oshib borishi (sotsial me'yorlar, iste'mol mezonlari, atrofdagi muhit muammolari va hokazo) boshqarish kadrlari va birinchi navbatda rahbarlarning mas'uliyatini oshiradi;

* bilim hajmining oshishi va ularni tuzilishining o'zgarishi, yangi fan sohalarining paydo bo'lishi faoliyat yo'nalishlarini tanlash imkoniyatini kuchaytiradi va rahbarlarni boshqarishga ta'sir qilish zaruriyatini kengaytiradi;

* bozor sharoitida boshqarish tizimining o'zidagi o'zgarishlar, hamma sohalarda demokratik tamoyillarning kirib kelishi;

* qonun ustuvorligini ta'minlash boshqarish qarorlarini qabul qilishda subyekt omilning rolini oshiradi;

* bozor mexanizmlarining ta'siri ostida bir qator yangi istiqbolli qarorlar hissasi oshadi, doimiy ravishda yangi muammolar paydo bo'ladi. Bularni o'z vaqtida aniqlab hal qilish, birinchi navbatda, rahbarlardan mahorat, ziyraklik va bilimdonlikni talab qiladi.

Hozirgi zamonda ko'pchilik qarorlarning asosiy xususiyati shunday iboratki, ular o'zlariga iqtisodiy, sotsial, tashkiliy va boshqa yo'nalishlar nuqtai nazaridan yondoshishni talab qiladi. Aynan rahbar o'zining boshqarish tizimida tutgan o'rniga qarab yuqoridagi yondoshishni amaliyotga tadbiq qila olish mumkin. Bundan tashqari rahbarlar rolining oshib borishi axborotlarni ishlash jarayonini avtomatlashtirish, keng miqyosda kompyuter texnikasidan foydalanish bilan ham belgilanadi. Yuqoridagi texnikadan keng ko'lamda foydalanish boshqarish xodimlarini hammaga ma'lum bo'lgan, noijodiy vazifalardan ozod qilib, asosiy diqqat e'tiborni eng muhim masalalarga qaratishni talab qiladi. Shunday qilib, iqtisodiyot murakkablashib borgan sari rahbarlarning ham vazifalari murakkablashib boraveradi.

Rahbar sotsial, professional va shaxs nuqtai nazardan olib tekshirilishi lozim. Shuni aytish joizki, har qanday xo'jalik rahbari eng oldin bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulk shakllariga asoslangan mavjud iqtisodiy munosabatlarini ustunligini amalga oshirish yo'llarini o'ylab topishi kerak. Bu bilan u yuqori darajadagi mas'ul sotsial-iqtisodiy vazifani bajargan bo'ladi. Ushbu vazifani bajarish

uchun unda hamma imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi unga kerak bo'lgan va huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan vakolot berilgan. Avvalo, bizni Respublikamizda bajarilgan vazifalarning sifati va samaradorligi so'z bilan emas uni ishi bilan baholanishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ushbu baho har bir faoliyatning iqtisodiy va sotsial natijalari bilan belgilanishi lozim.

Xo'jalik rahbari o'zining eng asosiy sotsial-iqtisodiy vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun yuqori darajadagi professional va uni amaliyotga joriy qila olishi lozim va birinchi navbatda mehnat jamoasini tashabbusini davlat tomonidan belgilangan maqsadga erishish jarayoniga jalb qila bilishi kerak.

Va nihoyat shuni qayd qilish joizki, xo'jalik rahbari birinchi navbatda insondir. Shuning uchun ham inson uchun xos bo'lgan hamma xususiyatlar rahbarga ham xosdir. U kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Yashash uchun sharoit yaratish afzalroq ekanligini tushunadi. Ko'pchilik rahbarlar ishdagi muvaffaqiyat uy-ro'zg'orini tinch ekanligiga bog'liq ekanligini ham yaxshi his qiladi. Dam olishning, mashg'ulotlarni o'zgartirib turishning bahosini yaxshi biladilar. Lekin o'zining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun yaxshi moddiy imkoniyatlarga ega bo'lgan rahbarlar vaqt tansiqligiga duch keladilar. Natijada o'zlarining yaxshi tilaklarini hayotda tadbiq qilolmasdan qoladilar. Bularning hammasi oqibatda ularning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bu holdan serg'ayratli, tashabbuskor rahbarlarga ko'proq ziyon yetadi. Shuning uchun ham rahbarlarni sotsial, professional va shaxs tomonlarning birligi nuqtai nazaridan olib qaramaslik qarama-qarshi holatga olib kelishi mumkin. Bunday qarama-qarshilikni bartaraf qilish faqatgina jamiyat va rahbarlarni o'zlarining umumiy tirishqoqligi orqali amalga oshadi.

Boshqarish tizimida rahbarlarning alohida roli ularda doimo o'z ustida ishlash, bilimlarni takomillashtirib borish, alohida bilim sohalarini o'rganishni talab qiladi. Chunki yuqoridagi ishlarni amalga oshirmasdan turib rahbar o'ziga berilgan vazifani samarali hal qilishi juda qiyin bo'ladi. Hech kimga bir umr rahbar bo'lish huquqi berilmagan. Faqat halol mehnat, faoliyatida tashabbus, yaxshi xo'jalik natijalari bilan rahbar o'zining rahbar degan otini oqlay oladi.

Hozirgi sharoitda rahbarlarning rolini aniqlash ularni boshqarish tizimida tutgan o'rnini belgilash imkoniyatini yaratadi. Bozor

iqtisodiyoti sharoitidagi zamonaviy korxona rahbari a) peshqadam, b) boshqaruvchi, v) diplomat, g) tarbiyachi, d) innovator, e) insoniy mavjudot tariqasida namoyon bo'ladi. Bularning har birini amaliyotda sinab ko'rish rahbardan juda ko'p sifat va fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Bu borada mehnatni ilmiy tashkil qilish nazariyasining asoschisi F.Teylor menejerda quyidagi sifatlarni ajratib ko'rsatadi: aql, ma'lumot, texnik bilimlar, odoblilik, gayratlilik, qat'iyatlilik, rostgo'ylik, mulohazalik. Menejmentning yana bir klassiki A.Fayol esa, menejer oldindan ko'rabilishi va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z sogligi bilan ajralib turishi, rivojlangan aqlu zakovat sohibi bo'lishi, yuksak madaniy va axloqiy darajaga ega bo'lishi kerak deb ta'kidlagan edi. Qolaversa, hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar firma va kompaniyalarda menejer qanaqa sifatlarga ega bo'lishi kerakligi to'g'risida o'zlarining nuqtai nazarlari mavjud.

Menejment masalalariga oid chet el adabiyotlari bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik AQSH, Yevropa va Osiyo-Tinch okeani regionidagi raqobatga bardosh beradigan firma va kompaniyalar qat'iylik bilan menejerlik san'atini o'rganib, uni amaliyotda ustalik bilan tadbiq qilish natijasida katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Bu o'z ifodasini o'z vaqtini boshqarish, xizmatga oid xatlarni tayyorlash, odamlar bilan munosabat qilish, auditoriya oldida so'zga chiqishi, muzokaralar olib borish va hokazolarda topdi.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlarni yaxshi, sifatli boshqarish uchun rahbar nimalarga ega bo'lishi kerak?

Tashkilotchilik qobiliyatiga, tadbirkorlikka, boshqarishning pastki darajalarida rahbarlik qilish tajribasiga, ma'lum pedagogik mahoratga aniq va ma'lumotli qilib o'z fikrini yetkazish uchun so'zlashish qobili-yatiga, o'z xatolarini mardlarcha tan olish va tanqidni hurmat qilishga.

Nimalardan xabardor bo'lishi kerak?

1. Iqtisodiyotdan, tashkil qilishdan, boshqarishdan, rejalashtirishdan, moliyadan, hisobdan, texnika va texnologiyadan, pedagogikadan, psixologiyadan, huquqshunoslik va hokazolardan.

2. O'z sohasi bo'yicha oxirgi fan-texnika yutuqlaridan.

3. Boshqarishning obyektidan, shu soha bilan bevosita aloqador xodimlarning ma'lumotidan, jamoadagi munosabatlardan, ulardagi norasmiy peshqadamlarning (liderlarning) ma'lumotidan.

Nimalarni bilish kerak?

Ilm-fandan foydalanishni, yangilikni, ilgor yutuqlarni, aniq, tez ishlashni, shu bilan birga jamoada sokin, ishchanlik vaziyatini ta'minlashni, har bir vaziyatda asosiy muammoni ko'ra bilish va bir yo'la bir necha ishga yopishmaslikni, vaziyatni to'g'ri baholash va optimal qarorlar qabul qilishni, yuqori mehnat intizomini ta'minlashni.

Tayanch iboralar: boshqaruv, boshqaruv obyekti, boshqaruv subyekti, boshqarish prinsiplari, boshqarish shakllari, boshqarish usullari, tashkiliy ta'sir, ma'muriy ta'sir, buyruq, farmoyish, ko'rsatma, gorizontal boshqarish, chiziqli boshqarish, funksional boshqarish.

Takrorlash uchun savollar

1. Boshqarish tushunchasi.
2. Boshqarish ahamiyatini oshiruvchi omillarga nimalar kiradi.
3. Korxonalarni boshqarish xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Boshqarishni tarkibiy qismlari.
5. Korxonani boshqarish prinsiplari.
6. Boshqarishni shakllari.
7. Boshqarish usullari.
8. Tashkiliy ta'sir ko'rsatish usullari ma'muriy ta'sir ko'rsatish usullaridan qanday farq qiladi?
9. Korxonani boshqarish yo'nalishlari nimalardan iborat bo'ladi?
10. Korxona rahbarini rolini qanday omillar oshiradi?
11. Korxona rahbarini xususiyatlarini tushuntiring.
12. Korxona rahbari nimalardan xabardor bo'lishi kerak?
13. Korxona rahbari nimalarni bilishi kerak?

V BOB. KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA PROGNOZLASH

Reja:

5.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning metodologik asoslari.

5.2. Rejalashtirish prinsiplari, usullari va ko'rsatkichlari.

5.3. Korxonada rejalashtirish tizimi va rejaning turlari.

5.4. Korxona faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar.

5.5. Korxona rejasining bo'limlari va ko'rsatkichlari.

5.6. Biznes-reja tushunchasi, turlari va tarkibi.

5.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning metodologik asoslari

Bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida iqtisodiy fanlarning vazifalaridan biri rejalashtirish munosabatlarini to'g'ri va ilmiy asoslashdan iboratdir.

Iqtisodiyot fanining asoschilaridan biri qadimgi grek faylasufi Aristotelning aytishicha, har qanday ne'mat yaratish har joyda, har tomonlama ikki xil shartga bog'liq, ya'ni, birinchisi, har qanday faoliyatni kelajak maqsadini to'g'ri aniqlab olish, ikkinchidan, maqsadga erishishga munosib vositalarini topishdan iboratdir.

Ushbu iboralardan kelib chiqadiki, tarixan insoniyat o'z faoliyatini amalga oshirishda abstrakt fikrlash asosida uni doimo hayolan bashorat qilgan va rejalashtirgan.

Rejalashtirish atamasi hayotga keyinchalik ayniqsa, sotsialistik tuzum davrida tadbiq qilingan. Nosotsialistik tizimdagi davlatlarda ko'proq prognoz, programma, strategiya, konsepsiya kabi atamalar ishlatiladi. Bularning hammasi bir xil vazifani, ya'ni kelajakda sodir bo'ladigan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa va jarayonlarni kelib chiqishi, amalga oshirish tartibi, yo'llarini va ketma-ketligini ko'rsatadi. So'z atamada emas, so'z uning asl mazmunida.

Har qanday xo'jalik yuritishning samarasi iqtisodiyot qonunlarining talablarini chuqur o'rganish asosida rejalashtirish nazariyasini

ishlab chiqilishiga va uning metodologiyasini yaratishga bog'liq bo'lgan.

Tarixan iqtisodiyot bilan bog'liq fanlar o'z nazariyasini takomillashtirish asosida rejalashtirish nazariyasini yaratgan.

Rejalashtirish nazariyasi jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini bilish, jarayonlar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni obyektiv sabab va oqibatlarini o'rganish, ularni dialektik va logik usullar bilan asoslash negizida rejalashtirishning metodologiyasi yaratilgan.

Rejalashtirish metodologiyasi rejalashtirish jarayonining ichki logikasini yoritib beradi. Rejalashtirish metodologiyasi rejalashtirish jarayonini tashkil qilish, uni ishlab chiqish va joriy qilish tamoyillarini, usullarini, tarkibini, ishlab chiqish tartibini va bosqichlarini hamda ko'rsatkichlari tizimini asoslab beradi.

Rejasiz har qanday g'oya, maqsad, safsataga aylanib qoladi. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda o'z faoliyatini yurgizishda insoniyat uchta bir-biri bilan tig'iz bog'liq bo'lgan fundamental muammolar bilan to'qnashadi. Bozor iqtisodiyoti sharotida shakllangan iqtisodiy nazariya u muammolarni quyidagicha ta'riflaydi.

Birinchidan, nima ishlab chiqarish va qancha miqdorda?

Ikkinchidan, qanday ishlab chiqarish va qancha xarajatlar zarur bo'ladi?

Uchinchidan, kim uchun ishlab chiqariladi va ular qanday taqsimlanadi?

Jamiyat va uning subyektlari oldidagi bunday muammolar, albatta, o'z-o'zidan hal bo'lmaydi. Buning uchun xalq xo'jaligini tashkil qilish, boshqarish, tarmoqlararo va xo'jalik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni boglash, sotuvchi bilan iste'molchilar orasidagi munosabatlarni, tovar bilan baho miqdorini moslashtirish va hokazolar kabi iqtisodiy jarayonlar, hodisalarni uyg'unlashtirish kabi masalalarni hal qilish zarurati tug'iladi. Bu hodisalar va jarayonlarni tartibga solish hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash, avvalambor, iqtisodiy qonunlar ta'siri ostida va albatta davlatni aralashishi natijasida yuz beradi. Bunday umumiqtisodiy qonunlardan biri jamiyatni rejali-mutanosib (proporsional) rivojlanishidir.

Sotsialistik iqtisodiyot nazariyasi ko'p yillar davomida proporsional rejali-mutanosib rivojlanish qonunining harakatini o'zigacha bo'lgan formatsiyalarda ijtimoiy ishlab chiqarishga ta'sirini inkor

qilib, uning harakat qilish zaruratini faqatgina ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulk tug'diradi deb tasdiqlab keldi.

Lekin, bozor iqtisodiyotini shakllanishi va rivojlanish tarixiga nazar solinsa, rejalashtirish boshqarishning asosiy tamoyili (prinsipi), asosiy qoidasi va omili sifatida hayotda tarixan ishlatilib kelingan.

Fredrix Uinslou Teylor (1886–1915-y.) hozirgi zamon menejmentini asoschisi deb hisoblangan, ishlab chiqarishni tashkillashtirish nazariyasini yaratgan. Uning «Menejmentni ilmiy prinsiplari» nomli asarida mehnatni tashkil qilish qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarni qat'iy ilmiy tizimi, mehnatni tashkil qilishni, vaqtni o'rganish usullari (xronometraj), tannarxni hisoblashni matematik usullari, ish haqini differensiatsiya qilish, mehnat jarayonini tahlil qilish va uning asosida rejalashtirish, tashkil qilish masalalari asoslangan. F.Teylor nafaqat yuqoridagi qoidalarni nazariy asoslagan, ularni ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq qilgan.

Genri Lodrens Gamnt (1861–1919-y.) korxona faoliyatini tezkor rejalashtirish va boshqarishga asos solgan. Uning «Grafigi Gamnta» nomi bilan mashhur bo'lgan grafiklari ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini rejalashtirish jarayonida keng foydalanilgan.

Gorrington Emirson (1853–1931-y.) mehnat unumdorligini oshirishni 12 ta qoidasini ishlab chiqqan. Ularga boshqarishni boshlang'ich nuqtasi sifatida maqsadni aniqlash; kamchiliklar va nuqsonlarni tan olish va sababini axtarish; xodimlar faoliyatini reglamentatsiya va nazorat qilish, hamda moddiy rag'batlantirish; ishlab chiqarish jarayoni elementlarini normallashtirish, doimiy, to'la, real va tezkor hisob-kitob qilish, rejalashtirish kabi masalalarni kiritgan.

Germaniya Federativ Respublikasi Kansleri Lyudvig Erhard (1950–1960-y) iqtisodiy reformalar o'tkazgan va reformaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida indikativ rejalashtirishni joriy qilish bo'lib hisoblangan. Indikativ rejalashtirish indikativ ko'rsatkichlarni tasdiqlashdan iborat bo'lib, ularni bajarilishini ta'minlash uchun qudratli iqtisodiy, huquqiy, ma'muriy dastaklar (instrumentlarni) ishlatishni ko'zda tutgan. Jahon iqtisodiyot nazariyasi yutuqlari va tajribasini ishlatish asosida indikativ rejalar chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilib, uni tayyorlashga yuqori kasbiy malakaga ega bo'lgan iqtisodchilar, olimlar jalb qilingan.

Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotidagi yetuk yutuqlarga erishish, krizislarni bartaraf qilish, strategik, joriy va tezkor rejalashtirish usullarini, qoidalarini ishlatish asosida erishgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularda rejalashtirish masalalari bilan shug'ullanadigan zaruriy kafolatlarga ega bo'lgan vazirliklar, idoralar, muassasalar tashkil qilingan. Barcha firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar, korxonalar prognozlash va rejalashtirish bilan shug'ullanadigan funksional boshqaruv organlariga ega.

Korxonalar, firmalar faoliyatini rejalashtirish ilmiy asoslangan holda tashkil qilinadi. Chet el adabiyotlarida rejalashtirishni tashkil qilishni asosan ikki xil usuli keltiriladi. Birinchisi, «break-down» – yuqoridan pastga usuli, ikkinchisi, «buifd-up» – pastdan yuqoriga usuli. Birinchi usulni mazmuni korxona rahbariyati uning maqsad va vazifalarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, quyi bo'limlarda ular detallashtirilib, siljish jarayonida umumiy rejaga kiritiladi. Ikkinchi usul bo'yicha ko'rsatkichlarni miqdori rejalashtirgan davrga quyi bo'limlarda ishlab chiqiladi va rahbariyat ularni umumlashtirib korxonani umumiy rejasi aniqlanadi.

Amaliyotda ko'pchilik hollarda ikkala usul birgalikda ishlatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib rejalashtirishni tarixiy, iqtisodiy kategoriya deb hisoblash mumkin.

Rejalashtirish borasida jahonda 100 eng yirik deb tan olingan transnatsional kompaniyalardan biri, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi «Ay.M.-elektrik» firmasining tajribasi nazariy va amaliy jihatdan e'tiborga sazovor. Bu firma energetik jihozlar ishlab chiqarish, ularni ta'mirlash va ishlatish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Ushbu firmada rejalashtirish har ikki yilga (har bir strategik xo'jalik markazi (SXM) bo'yicha) strategik reja ishlab chiqishdan boshlanadi. Bu ishga 4 oy muhlat beriladi. Strategik yo'nalish uch yilga mo'ljallanib, 5 yilga ekstropolyatsiya qilinadi. Bu sikl yillik rejalarni asoslashni ham o'z ichiga oladi.

Yillik (joriy) rejalashtirishni xo'jalik faoliyatini, bozor kon'yunkturasini chuqur tahlil qilish asosida marketing bo'limi bajaradi. Rejani bajarilishini ishlab chiqarish bosh boshqarma boshlig'i har oyda o'tkazadigan majlislarda zavodlar boshliqlari orqali amalga oshiradi. Har qanday rejadan chetlashish marketing va moliya bo'limlari bilan tanqidiy tahlil qilinadi, rejaga zaruriy korrektirovkalar kiritiladi.

Rahbariyatning doimiy nazoratida turadigan ko‘rsatkichlarga - buyurtmalar soni, ishlab chiqarish vaqti, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish zahiralari miqdori, xarajatlar, foyda kabilar kiradi.

Rejalashtirishni bozor munosabatlariga mos kelmasligi, qalbaki asoslanib kelinganligi bizlarga hozirgi kunda a’yon bo‘lib turibdi. Bunday nazariyaning asosida «markazlashgan-buyruqbozlik» konsepsiyasi yotgan bo‘lib, xalq xo‘jaligini yagona reja asosida boshqarish, uning barcha sohalarini faqatgina markazdan turib rejalashtirish g‘oyasi yotgan edi. Mutanosib rivojlanishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri markazdan rejalashtirish deb tushunildi. Hozirgi kunda, shu sababli iqtisodiy adabiyotlarda, tadbirkorlar, xo‘jalik rahbarlari va oddiy odamlar ongida bozor iqtisodiyotida rejali-mutanosib rivojlanish qonuni harakat qilmaydi degan taassurot yo‘qolmagan. Bu qonun bizlarda tarqatilayotgan yangi adabiyotlarda bozor iqtisodi qonunlari qatorida eslatilmaydi ham. Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi kunda bizda chiqarilayotgan biznes-reja to‘g‘risidagi adabiyotlarda tadbirkorlar, yangi tashkil qilinayotgan kichik va o‘rta korxonalarda tuziladigan rejalar, bir necha jadvallar va hisob-kitoblar to‘g‘risidagina fikr izhor qilinib, rejalashtirishning jiddiy masalalari chetda qolib ketayapti. Asosan, yangi tuzilayotgan korxonalar uchun zarur bo‘lgan hisob-kitoblar, investitsiya olish uchun mo‘ljallanganligi biznes-rejalar to‘g‘risida ko‘proq fikr yuritiladi. Barcha rivojlangan davlatlarda bozor munosabatlari iqtisodiy qonunlar va reja tizimining barcha turlarini ishlatish asosida tartibga solinib turiladi. Tartibga solish rejasiz amalga oshmaydi va u ham davlat miqyosida rejalashtirishning keng ishlatilishini taqozo qiladi. Umuman olib qaraganda, insoniyat jamiyatining rivojlanishi, jahon tajribasi, kelajak to‘g‘risidagi g‘oyalar, etnografik, arxeologik ma’lumotlar, rejalashtirish va istiqbolni belgilash nazariyasi va tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tabiatda ham, insoniyat jamiyatida ham bizning ongimizdan qat’iy nazar muvozanat, mutanosiblik ta’minlanib kelgan.

Shunday qilib, rejali-mutanosib rivojlanish qonuni insoniyat jamiyatini rivojlanishining barcha pog‘onalarida (formatsiyalarida) mulk shaklidan, boshqarish tizimi shaklidan qat’iy nazar harakatda bo‘lib kelgan va u insoniyat jamiyatiga taalluqli umumiqtisodiy qonun bo‘lib hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish emas, markazlashgan-buyruqbozlik qoidasiga asoslangan,

davlat tomonidan direktiv ravishda jamiyatning barcha sohalarini yagona xalq xo'jaligi rejasi asosida tartibga solish mos kelmaydi. Bozor iqtisodiyoti rejalashtirish nazariyasi va amaliyotini inkor qilmaydi. Bozor iqtisodiyotiga «reja-hukm» emas, «reja-prognoz» mos keladi. Lekin bu deganimiz bozor iqtisodiyotida umuman «reja-hukm» ishlatilmaydi degan ma'noni tushuntirmaydi, ayrim sohalarda davlat tomonidan qat'iy rejalar ishlatiladi. Masalan: mudofaa sohasida, ayrim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan strategik tarmoqlarda, davlatlararo munosabatlarda va hokazolarda.

Asosiy masala rejalarning mazmuni, shakli va ularni ishlab chiqish, harakatga keltirish usullaridadir. Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini sotsialistik tuzumdan farq qilish tomonlaridan biri rejalashtirishni yo'qqa chiqarish emas, uning mazmunini, shakllarini, usullarini bozor iqtisodiyoti qoidalariga moslashtirib ishlatishdir.

Rejalashtirish boshqarishning iqtisodiy usullaridan biri bo'lib, u xo'jalik yuritishda iqtisodiy qonunlar talabini ishlatishni asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Rejalashtirish maqsadni tanlash, asoslash, chegaralangan resurslardan oqilona foydalanish, maqsadga yetish yo'llarini, chora-tadbirlarini belgilash, iqtisodiy asoslash va ularning bajarilishini nazoratga olish jarayonidan iboratdir. Rejalashtirish g'oyani, maqsadni amalga oshirish usulidir. Maqsadga yo'naltirilgan, kutilayotgan sharoitga mo'ljallangan reja faoliyatni samarali yuritishni ta'minlaydi.

Rejalashtirish – maqsadni belgilash, unga yetish vositalarini aniqlash va harakat yo'llari to'g'risida muntazam ravishda dastur ishlab chiqish jarayonidir.

Rejalashtirish ko'p qirrali, murakkab jarayondir. Tuzilgan reja yoki korxona programmasi nima qilish, kim bajaradi, qachon va qanday bajaradi degan savollarga ochiq, to'la va asoslangan javob berishi shartdir.

Sanoat korxonalari faoliyatining samaradorligi talab va taklifni hisobga olgan holda nima, kimga va qanday mahsulot ishlab chiqarish, resurslar bilan ta'minlanish, ishlab chiqarishning optimal texnologiyasini tanlash, mahsulotni sotish shakli va usullari va boshqa ko'pgina holatlarga bog'liqdir. Har bir korxona bu omillarni uzviy

bog'lashga harakat qiladi. Bu esa korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rejalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan rejalashtirish ta'rifiga quyidagilarni ham kiritish zarur.

Rejalashtirish – xo'jalik yuritishda obyektiv iqtisodiy qonuniyatlardan ongli ravishda foydalanishdir.

Rejalashtirish – bu korxonani tashkil etish, uning faoliyatini va taraqqiyotini belgilaydigan rejani ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish ustidan nazorat qilish jarayonlaridir.

Rejalashtirish yordamida korxonalar mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydlanish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Bozordagi beshafqat raqobatga bardosh berishda va korxonaning iqtisodiy o'sishini ta'minlashida rejalashtirish muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Rejalashtirish korxonalarda pirovard mahsulot tayyorlash va uni sotish bilan bog'liq ishlab chiqarish omillarini yaratish uchun o'ta zarur. Mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar juda ham ko'p: yer, mehnat resursi, kapital, tadbirkorlik faoliyati, axborotlar va hokazolar kiradi.

Reja g'oyalarni va maqsadlarni asoslashda, korxonani boshqarishda va uning istiqbolini belgilashda muhim qo'llanma hisoblanadi. Rejalashtirish raqobatda maksimum uyg'unlikka erishishda, bo'lishi mumkin hatolarning oldini olishga, ro'y berayotgan o'zgarishlarni ilg'ashga va ulardan foydalanishga, korxonaning zaif tomonlarining ta'sir kuchini pasaytirishga va o'z vaqtida choralar ko'rishga, turli xil xavf-xatarlarning oldini olishga imkoniyat yaratadi.

Rejalashtirishning asosiy vazifasi maqsadni to'g'ri belgilash, unga erishish parametrlarini (indikatorlarini, ko'rsatkichlarini) va yo'llarini aniqlab berishdan iborat.

Rejaga maqsadga erishish parametrlarini o'zida ifodalagan programma shaklidagi rasmiy hujjat sifatida qarash mumkin.

Rejalashtirish bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Ularni umumlashtirib uch bosqichga bo'lish mumkin.

Boshlangich bosqichda g'oyani shakllantirish, maqsadni aniqlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlarni yo'nalishlarini aniqlash, istiqbolni belgilashdan iborat

bo'lishi kerak. O'rtanchi bosqichi ko'p variantli rejani tuzish, xo'jalik subyekti rahbariyati tomonidan ko'rib chiqish, uning optimal variantini ma'qullash. Oxirgi bosqichi qabul qilingan rejani bajaruvchilarga yetkazish, bajarilishini ta'minlashni chora-tadbirlarini ko'rish va nazorat qilishdan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Ushbu bosqichlarni standart sifatida qabul qilmaslik kerak. Rejalashtirishning turlari va ko'rsatkichlari, rejalashtirilayotgan faoliyatga qarab bosqichlarni kengaytirish, boshqa ketma-ketlik shakllarini ishlatish mumkin.

Jahon amaliyotida rejalashtirishning alohida bosqichlari, ya'ni rejalashtirish jarayonining ketma-ketligi ishlab chiqilgan va unga rioya qilishlik bu jarayon bosqichlarini logik bog'liqligini ta'minlaydi.

Strategik rejaning bosqichlari 5.1.1-chizmada berilgan.

5.1.1-chizma

Strategik rejalashtirish bosqichlari



Rejani ishlab chiqish jarayoni ham uning turlariga qarab alohida bosqichlardan iborat bo'ladi. Masalan: uzoq muddatli rejalashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin (5.1.2-chizma).

5.1.2-chizma

Uzoq muddatli rejalashtirishning bosqichlari



Uzoq muddatli rejalar quyidagi tartibda tuzilishi ham korxonalar tajribasida ishlatilib kelinmoqda: - korxonaning maqsadi, investitsiya va ishlab chiqarishni takomillashtirish, resurslarning ishlatilish samarasi, boshqarishni takomillashtirish, raqobat vaziyatlarining tahlili, korxona tarkiblarining resurslari, ularning samaradorligi kabilar.

Chet el korxonalarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, rejalarning bajarilishi qat'iy harakterga ega. Rejalarda asosiy masalalar o'z ifodasini topadi. Masalan: ishlab chiqarishning assortimenti, foyda (yoki daromad) darajasi, xarajatlar miqdori, kapital mablag'larning samarasi kabilar. Bunday bo'limlarning har biri bo'yicha aniq chora-tadbirlar, konkret javobgarlar aniqlaniladi. Alohida bo'limlar bo'yicha (kalendar) taqvim rejalar tuzilib, kim nima qiladi, qanday bajaradi kabi savollarga javoblar belgilab qo'yiladi.

Rejalashtirish jarayoniga qo'yiladigan talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- korxonalarning rivojlanish g'oyasini, maqsadini aniqlash;

- asosiy maqsadga erishishni ta'minlaydigan tijorat g'oyalarini namoyon qilish;

- rejalashtirish uzluksiz jarayon bo'lib, barcha jamoaning ijodiy yondashishini, rag'batlantirishni taqozo qiladi (jamoa a'zolari rejalashtirish jarayonida faol qatnashishi, pirovard natijalarda ularning ish haqi undan bog'liqligidadir);

- reja barcha funksional bo'limlarni, mutaxassislarni, boshliq bilan uning qaramog'idagi xizmatchilarni o'zaro ta'siri va tig'iz boglanishda, birgalikda optimal aniqlashga erishish asosida tuzilishi kerak;

- bozor konyukturasi o'zgarish ehtimollariga mo'ljallangan alternativ variantlar mavjud bo'lishi shart;

- bozor iqtisodi sharoitida barcha resurslardan (ular chegaralangan) oqilona, ratsional foydalanish, xarajatlarning tejamliligini, natijalarning optimalligini ta'minlash;

- korxonaning faoliyatini chuqur, har tomonlama baholash maqsadida uning samaradorligi me'zonini, ko'rsatkichlarini aniqlash;

- korxona faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sir qilish darajalarini chuqur tahlil qilish, asoslash, imkoniyatlarni, yangi rezervlarini aniqlash;

- va nihoyat ishlab chiqarilgan hamda qabul qilingan dasturning bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish kabilardir.

5.2. Rejalashtirish tamoyillari, metodlari va ko'rsatkichlari

Jamiyatning siyosiy ustqurmasi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitidan qat'iy nazar rejalashtirishni umumiy tamoyillari (prinsiplari) mavjud. Ular insoniyat taraqqiyotining barcha farmatsiyalarida u yoki bu darajada, ayrim hollarda rejalashtirish to'g'risida ilmiy asoslangan fikr yuritishdan chetda bo'lgan holda ishlatilgan.

Bizlarga ma'lum, MHD-larida tarqatilayotgan iqtisodiyotga oid chet el adabiyotlarida rejalashtirish nazariyasi, uning metodologiyasiga oid masalalarga, shu jumladan, rejalashtirish tamoyillari to'g'risida nazariy fikrlar keltirilmaydi.

Rejalashtirishning o'ziga xos tamoyillari, usullari va uslublari, umuman aytganda, bozor iqtisodi sharoitida rejalashtirishning o'ziga xos metodologiyasi mavjud. Lekin bu gap sobiq sotsialistik tuzumda ishlatilgan rejalashtirish metodologiyasini butunlay inkor qilish degan

fikr emas. Uning salbiy tomonlarini (erkinlikning chegaralanganligi, rejalashtirishning direktivligi, partiyaviyligi va hokazolar) olib tashlanib, ijobiy jihatlarni, ya'ni metodologiyasidan, usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Rejalashtirish jarayonida ilmiylik, reallik, optimallik, komplekslik, uzluksizlik, uzgaruvchanlik (korrektirovka qilinishi, elastiklik) nazorat kabi tamoyillari ishlatiladi.

Jahon tajribasida rejalashtirishning o'ziga xos tamoyillari (prinsiplari) mavjud bo'lib ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- rejalashtirishning ilmiy asoslanganligini, ya'ni rejalashtirish iqtisodiy qonunlar talablarini, bozor iqtisodi qoidalarini hisobga olish, fan va texnika yutuqlariga asoslanishi, rejalashtirishda keng ma'noda ilmiy-tekshirish muassasalarini, olimlarni jalb qilinishi orqali ta'minlanadi;
- rejalashtirishni har xil muddatlarga tuzish tizimi orqali uning uzluksizligi ta'minlanib boriladi;
- jamiyatda, korxona, firmalarda ishlatiladigan barcha resurslarning chegaralanganligi, ulardan foydalanishda tejamlikka intilish, real resurslarga asoslanish, rejalarni har xil varinatlarda tuzib ulardan eng optimal variantni tanlab olishni taqozo etadi;
- raqobat, vaziyatning o'zgarib turishi rejalarga o'zgarishlar kiritib borishni taqozo qiladi va shu sababli rejalar har xil vaziyatlar uchun mo'ljallangan alternativ variantlarda tuzilishi, uning vaziyatga moslashuvchanligi, elastikligini ta'minlaydi;
- bozor iqtisodiyoti qoidalari korxonalar, firmalar o'rtasidagi aloqalarni kontraktlar asosida tashkil qilish, olingan majburiyatlarni belgilangan muddatda, miqdorda qat'iy bajarilishini talab qiladi. Bu esa rejalarning bajarilishini nazorat qilish qoidasining ahamiyatini oshiradi.

Rejalashtirish jarayonida har xil metod (usul) va uslublardan keng foydalaniladi.

Metod grekcha «methodos» so'zidan olingan bo'lib «nimagadir yo'l», bilish uslubi, jamiyat va tabiat hodisalarini tadqiqot qilish usuli ma'nosini bildiradi.

Rejalashtirish jarayonida balans usuli «moddiy, moliyaviy, mehnat resurslari balansi) normallashtirish usuli, solishtirish yoki indeks usuli, grafiklar, texnik-iqtisodiy hisoblar, sotsiologik tadqiqot, statistik guruhlash, iqtisodiy matematik usullar, eksport baholash usuli kabilar keng qo'llaniladi.

Rejalashtirishda ko‘rsatkichlar tizimidan keng foydalaniladi. Ular qatoriga natural va qiymat; absolyut va nisbiy; son va sifat ko‘rsatkichlarini kiritish mumkin.

Bu usullarning va ko‘rsatkichlarning mazmuni, qo‘llanish usullari tegishli fanlarda keng yoritilganligini e’tiborga olib ushbularni yoritishni ortiqcha deb hisobladik.

5.3. Korxonada rejalashtirish tizimi va rejaning turlari

Bozor iqtisodi sharoitida rejalarni tezkor, joriy va strategik tizimi keng qo‘llaniladi va bu asosida rejalashtirishning uzluksiziligi ta’minlanadi.

Rejalar quyidagi alomatlarga qarab tasniflanadi. Rejalarning tasnifi 5.3.1.-chizmada ko‘rsatilgan.

Rejalarning bir qator alomatlariga qarab turlanishi uni bozor iqtisodiyoti sharoitida keng ishlatilishi to‘g‘risida mubolag‘asiz dalolat berib turibdi.

5.3.1.-chizma

Rejalarni tasnifi





5.4. Korxona faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar

Vaziyatni oldindan ko‘ra bilish, tasodifiy o‘zgarishlar, korxonalarning tashqi aloqalari, ichki faoliyat yurgizish bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liqdir. Har qanday biznes bunday omillarning ta’siridan holi emas. Shu sababli faoliyatni rejalashtirish jarayonining eng zarur tomoni biznesga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularning ta’sir qilish darajalarini belgilashdan iboratdir. Bizning fikrimizcha, obyektiv omillar darajasini iqtisodiy jihatdan

hisob-kitob qilib aniqlash mumkin va ular real sharoitdan, resurslardan kelib chiqadi. Sub'ektiv omillar esa faoliyatga kishilarning professional bilimi, mahorati, dunyo qarashi, psixologiyasi kabilar bilan bog'liq bo'lib, rejalashtirish, faoliyatni tahlil qilishda ularning ta'sir qilish darajalarini, miqdorini belgilash iqtisodiy-matematik nuqtai nazardan imkoniyati yo'q. Lekin bunday omillarni ham mushohada orqali korxona rahbariyati, mutaxassislari rejalashtirish jarayonida e'tiborga olishi, shu omillarni chuqur va har tomonlama o'rganib chiqishi shart.

Obyektiv va subyektiv omillar korxonaning tashqi va ichki muhitidan kelib chiqadi. Shu sababli barcha omillarni korxonaning tashqi va ichki muhitidan kelib chiqqan holda tasniflash va tavsiflash nazariy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Rejalashtirish jarayonida bunday omillarni biznesga ta'sir qilish darajasini aniqlash bilan bir qatorda ularni boshqarish kelajakda o'zgarishini ko'ra bilish va shulardan kelib chiqqan holda biznesning samarasini oshirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish zarur.

Korxona faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki muhitni ko'rib chiqamiz.

5.4.1-chizma

Korxona faoliyatining umumiy ko'rinishi



Korxona faoliyatini umuman tasavvur qilsak bir tomondan moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar tursa, markazda ishlab chiqarish jarayoni turadi va ikkinchi tomonda xom ashyo bilan ta'minlash, tayyor mahsulot va ularni ayirboshlash jarayoni turadi. Bu jarayon 5.4.1-chizmada tasvirlangan.

5.4.1-chizmadan ko'rinib turibdiki, korxonaning ichki muhiti, ya'ni resurslarni topish bilan ularni birlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish, boshqarish, tayyor mahsulotni (xizmatni) ayirboshlash, iste'molchilarni aniqlash, ularning talabini o'rganish kabi omillar bilan bog'liqdir. Bu omillar o'z o'rnida boshqa bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, har biri butun korxona faoliyatiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

Korxonaning faoliyati ichki muhitdagi omillarga nisbatan ko'proq tashqi muhitdagi omillarga ham bog'liqdir. Korxonani tashqi muhit bilan aloqalarining umumiy ko'rinishi 5.4.2-chizmada berilgan.

5.4.2-chizma

Korxona tashqu muhit bilan aloqalarining umumiy ko'rinishi



Korxonaning tashqi muhit bilan aloqalaridan kelib chiqib unga tashqaridan ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- davlat boshqaruv muassasalari;
- umumiqtisodiy omillar;
- sotsial-ijtimoiy omillar;
- mahalliy (regional) omillar;
- milliy omillar;
- geografik omillar;
- demografik omillar;
- huquqiy omillar;
- raqobatchilar;
- ilmiy-texnik progress;
- mafkuraviy omillar;
- professional bilim bilan bog'liq omillar;
- iste'molchilar;
- raqobat muhiti;
- moddiy resurslar bilan ta'minlovchilar;
- texnologiya va jihozlar bilan ta'minlovchilar;
- malakali kadrlar tayyorlash;
- moliya bilan ta'minlovchilar;
- siyosiy omillar;
- xalqaro aloqalar va nihoyat yashirin (xufyona) bozor elementlari kabilardir.

Rejalashtirish jarayonida ichki va tashqi muhit bilan bog'liq bo'lgan barcha omillarni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

5.5. Korxona rejasining bo'limlari va ko'rsatkichlari

Korxonaning faoliyati ko'p qirralik bo'lib, uni rivojlantirish rejasi birqancha bo'limlardan, bo'limlar esa ko'rsatkichlar tizimidan iborat bo'ladi.

Uzoq muddatli (strategik) rejada korxonada yangi bo'lim, yacheyka, sex, filiallar kabilarni tashkil qilish; ishlab chiqarish quvvatini oshirish, kapital mablag'lar; moliyaviy vositalarga bo'lgan talab, ilmiy tadqiqot ishlari; bozor sigmenti, korxonani bozordagi hissasini kengaytirish; mahsulotni raqobatbardoshligi; korxona byudjeti, balansi kabi masalalar yechimi va ularga mos reja bo'limlari aks topadi.

Qisqa muddatli (joriy) rejalar ishlab chiqarish va sotish hajmi; zahiralarni siljishi; xom ashyo va qo'shimcha materiallar; mehnat va kadrlar; amortizatsiya; reklama; xarajatlar (tannarx) va ajratmalar; daromad; foyda va rentabellik; kredit; kapital mablag'lar; ilmiy tadqiqot ishlari; korxona byudjeti (moliyaviy reja), tabiatni muhofaza qilish (ekologiya) kabi bo'limlardan iborat bo'ladi.

Har bir bo'lim mohiyati, statistik o'lchov birligiga mos ko'rsatkichlar orqali o'z ifodasini topadi. Ular sonli va sifat; hajmiy va solishtirma kabi ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi.

Sonli ko'rsatkichlar absolyut miqdorda ifodalanib ishlab chiqarish hajmini (dona, tonna, t.k.m., kl.vt., shartli banka): ishchilar soni; ish haqi fondi; daromad hajmi; foyda so'mmasi kabilarni ifodalaydi.

Sifat ko'rsatkichlari nisbiy miqdorlarda hisoblanadi va korxona faoliyatini samaradorligini o'lchov birligi sifatida ko'proq ishlatiladi. Bu ko'rsatkichlar protsent, indeks, koeffitsiyent kabilarda o'z aksini topadi.

Hajmiy ko'rsatkichlar asosan ishlab chiqarish hajmini, ayrim ko'rsatkichlarni absolyut miqdorini ifodalaydi (zahiralar miqdori, ishlab chiqarish hajmi, resurslar so'mmasi, va h.k.).

Solishtirma ko'rsatkichlar nisbiy miqdorlarda o'lchanib (sifat ko'rsatkichlarni bir turi), solishtirma og'irlikni, solishtirma birlikni ko'rsatadi. Masalan: ishlab chiqarishni umumiy hajmida mahsulotni bir turini hissasi; umumiy ishchi - xizmatchilar ichida ishchilarning hissasi kabilar.

Barcha ko'rsatkichlar natural va qiymat miqdorlarda hisobga olinadi.

Ayrim turdagi korxonalar faoliyatining ko'rsatkichlarini keltiramiz.

Ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish hajmi - yalpi mahsulot, tovar mahsuloti va sotiluvchi mahsulot, ularning assortimenti kabi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi. Bu ko'rsatkichlar natural va qiymat miqdorlarda hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish korxonalarining ishlab chiqarish quvvati, ya'ni korxonaning sutkada, oyda, kvartalda, yilda mavjud jihozlarni maksimal ishlatgan holda ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan

mahsulotning miqdori natural ko'rsatkichlarda, ishchi-xizmatchilarning umumiy soni, tarkibi, ish haqi fondi (so'mda).

Xom ashyo, materiallar, yoqilgi, elektr energiya, jihozlarga ehtiyoj hajmi, soni, natural va qiymat ko'rsatkichlarda.

Tannarx hamda sex, umum ishlab chiqarish xarajatlarining so'mmasi, har xil ajratmalar va to'lovlar. Daromad, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.

Aylanma mablag'larni normativlari va ishlatilish ko'rsatkichlari.

Asosiy fondlar va amortizatsiya ko'rsatkichlari.

Kapital mablag'lar va uning tarkibi.

Avtotransport korxonalarida: yuk tashish (tonnada); shu jumladan, yuk bilan (km); avtomobillarni hisob soni; avtomobillarni umumiy yuk ko'tarish quvvati (tn); naryadda bo'lgan umumiy vaqti (soat), shu jumladan, yuk bilan (soat); marshrutda yurib kelganlik soni (marotaba); texnik tezligi (km/soat), ekspluatatsion tezligi (km/soat); mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni ishlatish bilan bog'liq ko'rsatkichlari ishlab chiqarish korxonalari ko'rsatkichlariga o'xshaydi.

Savdo korxonalarida tovar aylanishi hajmi va assortimenti (so'm); tovar zahiralari hajmi va assortimenti (so'm); tovarlarni kelishi hajmi va assortimenti (so'm). Bu uchala ko'rsatkichlarni assortiment bo'yicha miqdori natural ko'rsatkichlarda (dona, metr, tonna va h.k.) hisobga olinadi, tahlil qilinadi va rejalashtiriladi.

Muomala xarajatlari so'mmasi, tarkibi moddalar bo'yicha (so'm, %).

Mehnat va ish haqi ko'rsatkichlari.

Daromad, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.

Asosiy va aylanma fondlarni ishlatish bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Kapital mablag'lar, kredit, soliq va to'lovlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kabilar.

5.6. Biznes-reja tushunchasi, turlari va tarkibi

Biznes ingliz tilida «businees» so'zidan olingan bo'lib, butun jahonda tarqalgan, foyda beruvchi iqtisodiy faoliyat, ya'ni ish yuritish mazmunini bildiradi. Biznes so'zidan «businеesman» biznesmen, ya'ni biznes bilan shug'ullanuvchi, ishbilarmon, tojir, tadbirkor,

umuman foydali ish yurituvchilar ma'nosini bildiruvchi ibora kelib chiqqan va keng ishlatiladi. Bozor iqtisodiga o'tish munosabati bilan bunday iboralar bizning tilimizga ham kirib kelmoqda. Yuqoridagi iboralardan kelib chiqib barcha tadbirkorlar, firmalar o'z faoliyati rejasini «Biznes reja», ya'ni «Ish rejasi» deb yuritishadi.

Biznes-rejani qanday ta'riflash mumkin. Birinchidan, biznes-reja korxona faoliyati to'g'risidagi g'oya, maqsad, menejment, marketing faoliyati va ishlab chiqarishni kelajakga mo'ljallangan ko'rsatkichlari majmuasidan iborat hujjat sifatida tushunish mumkin. Ikkinchidan, faoliyatda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlarni tasvirlaydigan, korxonaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni asoslovchi hisob-kitoblar yig'indisi. Uchinchidan, korxonaning kompleks ish rejasi sifatida korxonaning «kompasi» deb hisoblash mumkin.

Biznes-reja iborasi g'arb davlatlarida asosan kichik va o'rta korxonalarning- firmalarning kompleks ish rejasi sifatida tushuniladi va uning asosiy maqsadi rahbariyatiga firmaning holati to'g'risida va uning rivojlanish imkoniyatlarini tasvirlashdir. Biznes-reja amaliyotda bir necha xil turlarda tuziladi. Ular asosan to'rt xil bo'lib, har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Firmaning ichki biznes-rejasi, aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida kredit olish uchun tuziladigan biznes-reja, investitsiya biznes-rejasi, moliyaviy barqarorlash rejasi ular qatoriga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida korxonalarning biznes-rejasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24-yanvar 2003-yil «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida: «... ijrochi organ tomonidan kelgusi yilga ishlab chiqiladigan korxona biznes-rejasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yoki uning topshirig'i bo'yicha kuzatuvchi kengash tomonidan tasdiqlanishi lozim. Ishlab chiqarishni o'stirish, foyda olishni ko'paytirish va dividendlarni to'lash ana shu biznes-rejaning eng muhim ko'rsatkichlari bo'lishi kerak;

direktor (aksiyadorlik jamiyatining ijrochi organi) yillik biznes-reja qanday bajarilayotgani to'g'risida har chorakda kuzatuvchi kengash oldida hisobot beradi. Kuzatuvchi kengash yillik biznes-reja qo'pol ravishda buzilgan yoki uning tasdiqlangan parametrlarini

bajarishi barbod etilgan hollarda direktor (boshqaruv raisi) bilan ishga olish shartnomasini muddatidan ilgari to'xtatish huquqiga ega...», deb ta'kidlangan.

Biznes-reja iqtisodiy jarayonning quyidagi ishtirokchilari kategoriyasi uchun mo'ljallaniladi:

1. Korxona mulkdorlariga. Ular uchun biznes-reja rahbarlik hujjati hisoblanadi. Biznes-rejani ishlab chiqishdagi ishtiroki menejerlarni korxona faoliyatini chuqur o'rganishga, uni rivojlantirish hamda takomillashtirishda to'g'ri qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi;

2. Korxona mulkdorlariga. Korxona mulkdorlari biznes-rejani o'z maqsad va manfaatlarini amalga oshirish uchun menejerlarga ta'sir qilish uchun ishlatadi;

3. Tashqi investorlarga (kreditorlar, aksiya egalari va h.k.). Investorlarni ularni qo'ygan mablag'laridan keladigan daromad qiziqtiradi, shu sababli ular korxona faoliyatini nazorat qiladilar;

4. Korxona faoliyatida ishtirok etuvchi boshqa sheriklarga (mahsulot va boshqa resurslar bilan ta'minlovchi, ulgurji sotib oluvchilar, davlat organlari va h.k. korxona faoliyatida qatnashuvchilar).

Biznes-rejani yangi tashkil qilinayotgan korxona ham, ishlayotgan korxona ham tuzadi. Uni kichik, o'rta va yirik korxonalar ham ishlab chiqadi.

Biznes-rejani ishlab chiqishda asosan ikkita maqsadni nazarda tutish zarur: 1. Korxonani hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, uni taraqqiyot etish maqsadi, maqsadga erishish yo'llari va kutilayotgan natijasini aniqlash; 2. Tashqi investor va sheriklarga korxonani afzalliklarini jozibalik qilib ko'rsatishga erishish.

Firmalar faoliyatlari har xil bo'lganligi uchun ularda biznes rejasi ham har xil shaklda, tartibda tuziladi. Lekin biznes-rejani tuzishning umumiy xalqaro standart talablari mavjud. Masalan: biznes-reja korxonaning ichki hisobot tizimiga, rahbariyat va tashqi investorlar, sheriklarga nazorat qilish talablariga javob berishi hamda kichik korxonalar uchun 10-20 varaqdan, yirik korxonalar uchun 40-50 varaqdan oshmasligi talab qilinadi. Investitsiya biznes-rejasi o'z standartiga ega, uning hajmi 75 varaqdan oshmasligi kerak. Biznes-rejaning mazmuni va tarkibi undagi bo'limlarni to'laligi, uni qismlarga bo'linishi; kimga mo'ljallanganligi (korxona, investor, bank); rejalashtirish davri (1 yil, 3-5 yil, 5 yildan ortiq); tuzuvchilarning malakasi va amaliy tajribasiga

(texnik-iqtisodiy asoslash) qarab har xil bo'lishi mumkin. Investorlarning manfaatini ko'zlash, tijorat sirlarini himoya qilish, fan-texnika yutuqlarining maxfiyligini ta'minlash, olingan kreditlarning qaytarilishini ta'minlashni biznes-rejada asoslash umumiy talablar qatoriga kiradi.

Biznes-rejani tarkibi uni ishlab chiqish usul va uslublari, kimga mo'ljallanganligiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Umumlashtirilgan holda biznes-reja quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1) tashrif varag'i;
2) korxona;
3) bozor va raqobat;
4) mahsulot;
5) sotish;
6) ishlab chiqarish;
7) moliya;
8) investitsiya;
9) qo'shimcha axborotlar.

O'rta va yirik korxonalarning biznes-rejasi tarkibi:

1) titul varagi;
2) tashrif varagi;
3) biznesning qisqa mazmuni yoki korxonaning maqsadi;
4) marketing va tovar (ish, xizmat)ni sotish;
5) innovatsiya;
6) mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish;
7) boshqaruv;
8) xodimlar;
9) xavf va xatarni baholash va sug'urta;
10) huquqiy reja;
11) korxona xarajatlari;
12) moliyaviy reja;
13) ilova qilinayotgan hujjatlar kabi bo'limlardan iborat bo'ladi.

Kichik korxonalarning biznes-rejasi tashrif varagi, biznesni mazmuni, marketing rejasi, mahsulot ishlab chiqish va moliyaviy rejadan tashkil topadi. Biznes-rejani texnik-iqtisodiy asoslash usul va uslublari «Biznes-reja» fanida chuqur o'rganiladi. Shu sababli bu masalalarni yoritishga to'xtalmadik.

Biznes-rejasi yuqorida keltirilgan tarkibdan ko'rinib turibdiki, uni tuzish uchun har bir tadbirkor, korxona rahbari, iqtisodchi,

korxona iqtisodiyoti, menejment, marketing, moliya va kredit, soliq va soliqlashtirish, buxgalteriya hisobi va audit, biznes-reja, logistika, iqtisodiy geografiya, matematika kabi fanlarni chuqur o'rganishi zarur. Chunki bu fanlardan o'rgangan bilimlar asosidagina har tomonlama asoslangan biznes-reja tuzishga erishish mumkin.

Tayanch iboralar: rejalashtirish, reja, rejalashtirish nazariyasi, rejalashtirish metodologiyasi, indikativ reja, rejalashtirish, ilmiylik, reallik, optimallik, uzluksizlik, o'zgaruvchanlik, nazorat qilish, usullar, ko'rsatkichlar, reja, bo'lim, son, sifat, nisbiy, absolyut, hajm, solishtirma, biznes, biznes-reja, biznesmen.

Takrorlash uchun savollar

1. Rejali-mutanosib rivojlanish qonuni talablarini tushuntiring.
2. Rejalashtirish nega tarixiy-iqtisodiy kategoriya hisoblaniladi?
3. Rejalashtirish tarixidan misollar keltiring.
4. Rejalashtirish nima?
5. Reja nima?
6. Rejalashtirish etaplarini yoritib bering.
7. Rejalashtirish jarayoniga qanday talablar qo'yiladi?
8. Rejalashtirish tamoyil (prinsip)larini takrorlang.
9. Rejalashtirish qanday usullar asosida amalga oshiriladi?
10. Rejalashtirishda qanday ko'rsatkichlar ishlatiladi?
11. Korxona rejasining bo'limlarini keltiring.
12. Korxona faoliyatini tahlil qilishda va rejalashtirishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
13. Korxonalar faoliyati ko'rsatkichlari bir-biridan nima bilan farq qiladi va ularni o'xshash tomonlarini ayting.
14. Biznes nima?
15. Biznesmen kim?
16. Biznes-rejani ta'rifini ayting.
17. Biznes-reja kimlarga mo'ljallaniladi?
18. Biznes-rejani maqsadi?
19. Biznes-rejani turlari?
20. Biznes-rejani tuzishga qo'yiladigan asosiy talablar?
21. Biznes-rejani tarkibi nimalardan iborat?

VI BOB. ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGI

Reja:

6.1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari.

6.2. Ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy, absolyut va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi.

6.3. Xarajatlarni qoplash muddati-xarajatlar samaradorligining muhim ko'rsatkichi.

6.4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.

6.1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari

Samaradorlikni butun iqtisodiyotdagi, uning tarmoqlari va sohalaridagi muammolarining dolzarbligi bir qator ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni hal qilishni talab qiladi. Ushbu masalalar qatoriga, bizning fikrimizcha quyidagilarni kiritish mumkin:

- samaradorlikning mohiyati va tushunchasi;
- samaradorlik turlarining (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, texnik-texnologik, jamiyat, hudud, korxona miqyosidagi kabilar) o'zaro bog'liqligi, farqlari, bir-biriga ta'sir qilish miqdorlarini aniqlash;
- samaradorlik mezonlarining mohiyati, tushunchasi, belgilarini asoslab berish;
- samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, bir tizimli holatga keltirish;
- samaradorlik ko'rsatkichlarini tanlangan obyekt doirasida tadqiqot qilish, ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash;
- samaradorlikni oshirishning yo'llarini aniqlash va bashorat qilish kabilar.

Yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda ko'plab qarashlar mavjud bo'lib, ular asosan alternativ xarakterga ega.

Ularning umumiy tomoni samaradorlik nisbiy ko'rsatkich hisoblanib, uni «xarajat» va «natijani» solishtirish orqali aniqlashni tavsiya qilishadi.

Bizning fikrimizcha, samaradorlikka bunday bir tomonlama yondoshish muammoli masala bo'lib, samaradorlikni mohiyati, tushunchasi, mezoni va ko'rsatkichlarini ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqot qilishda sistemali, keng ma'noda, har tomonlama qarash zarur.

«Эффект» лотинча «эффектус» so'zidan olinib, «Словарь иностранных слов»da ta'riflaishicha, «... 1) действие, результат чего-л. (напр. э.лечения); 2) впечетление, производимое на кого-л. кем-л, чем-л.; 3) средство, прием для создания определенного впечетления (напр., световое, шумовые эффекты в театре). Shu lug'atda «Эффективный» (лот. эффетивус) – дающий определенный эффект, действенний (напр., э-ние мери). «Эффектний» - производящий впечатление, эффект, привлекающий внимание, бросающийся в глаза» deb ta'rif berilgan[7].

С.И.Ожогов «Словар русского языка»да yuqoridagi ta'riflari aynan qaytaradi[8].

O'zbek tilining izohli lug'atida «samara», «samarador»,.«samaradorlik», «samarali» so'zlari keltirilib, ularga izoh berilgan. Unda yozilishicha «samara» – natija, oqibat. «Samarador» – kutilganicha yoki undan ham ortiq samara beradigan; samarali, sermahsul. «Samaradorlik» _ iqtisodiy samaradorlik. Mehnat samaradorligini oshirmoq. «Samarali» – samarali ish. Samarali mehnat. Samarali ta'sir ko'rsatmoq. Ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanmoq deb ta'kidlangan[9].

Ishlatilayotgan so'z, atama (termin)ning asl mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, samaradorlik, u qaysi turda bo'lishidan qat'iy nazar, inson faoliyatining «natijasini» anglatadi.

Samaradorlik to'g'risida fikr yuritilganda shuni ta'kidlash kerakki, har qanday chora-tadbirlar bir tomondan, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara bersa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy samara berib, har doim, har sohada ijobiy, ijtimoiy natija bermasligi mumkin.

---

[7] Словарь иностранных слов. – М.: Изд. «Русский язык», 1979. – С. 595.
[8] Ожогов С.И. Словарь русского язика. «Советская энциклопедия». М., 1973. – С. 837.
[9] O'zbek tilining izohli lug'ati. M.: «Rus tili» nashriyoti. 1981. – B.17

Natija ijobiy yoki salbiy xarakterga ega bo'lishi ham mumkin. Masalan, davlatlararo urushlar natijasi bir tomon uchun yutuq bo'lsa, ikkinchi tomon uchun yutqazish hisoblanadi.

Uran qazib olish, uni qayta ishlash bir tomondan, ushbu davlat uchun iqtisodiy va siyosiy samara bersa, boshqa davlatlar uchun bu xavf-xatar tug'diruvchi omil bo'lib, salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ishlab chiqarishni takomillashtirish, uni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish natijasida aholining moddiy faravonligini yuksaltirishga, ya'ni ijtimoiy samarani oshirishga, davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosati – minimal ish haqini oshirish, ijtimoiy fondlardan imtiyozlar berish, o'sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalash, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash, ekologiyani yaxshilash, jismoniy tarbiyaga yo'naltirilgan xarajatlar oxir natijada mehnat unumdorligini oshirishga, YAIMni ko'payishiga, ya'ni iqtisodiy samarani oshirishga olib keladi.

Ayrim tadbirlar natijasida esa teskari holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, davlat miqyosida uzoq muddatga milliy daromadni jamg'arma va iste'mol fondlariga taqsimlashda jamg'arma fondi hissasi doimo oshirib borilsa, oxir natijada aholining moddiy faravonlik darajasi pasayish holatiga olib kelishi muqarrar. Bu esa salbiy ijtimoiy holatlarni vujudga keltiradi. Yana bir misol, agar davlat byudjetini daromad qismini oshirish niyatida kommunal xizmatlarga, elektroenergiyaga, gazga va neft mahsulotlariga ta'riflar asossiz oshirilsa, bu aholini real daromadlarini kamayishiga va ijtimoiy va siyosiy talofatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu holatga 2010-yil 7–10- aprellarda ro'y bergan Qirg'iziston Respublikasidagi, 2011-yilda Shimoliy Afrika davlatlari (Misr, Yemen, Liviya) da xalqning ko'tarilishi va revolyutsion to'ntarishlar real misol bo'la oladi.

Bunday misollarni davlatlararo, davlat ichida, tarmoqlar, sohalar, korxonalararo va ularni ichki faoliyatidan ko'plab keltirish mumkin. Shu sababli samaradorlikni tadqiqot qilish, uning natijasiga kompleks qarashlar orqali va natijalarni bir-biri bilan bog'liqligini e'tiborga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Ya'ni samaradorlikni barcha turlarining (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa birbirining natijasidan bog'liq bo'lgan) o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda o'rganish ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asosli bo'ladi.

Xuddi shunday qarashlar samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlarini tanlashda ham amal qilinishi zarur.

Ilmiy-nazariy nuqtai-nazardan samaradorlikni uchta yirik guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: birinchidan, jamiyat miqyosida; ikkinchidan, hududlar miqyosida; uchinchidan, xo'jalik tuzilmalari, subyektlari miqyosida (konsern; xolding; assotsiatsiyalar; har xil boshqa birlashmalar; korxonalar; muassasalar va h.k.).

Ushbu umumiy yo'nalishlar ichida samaradorlikni turlarga ajratib tadqiqot qilish zarur. Samaradorlik turlarini umumiy va funksional nuqtai nazardan tasniflash mumkin.

Umumiy samaradorlikka: «ijtimoiy-iqtisodiy»; «iqtisodiy»; «ijtimoiy»; «siyosiy»; «texnik-texnologik»; «ekologik» kabilarni kiritish mumkin.

Funksional samaradorlikka: «ijtimoiy ishlab chiqarish»; «transport»; «aloqa»; «savdo»; «umumiy ovqatlanish»; «maishiy xizmat»; «turizm» va boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari. Ushbu guruhga iqtisodiyotni harakatga keltirayotgan omillarning samaradorligi, ya'ni yer, kapital, mehnat samaradorligi kiradi. Ushbu omillar ichida ishlatilayotgan resurslar turlari bo'yicha ham samaradorlik tasniflanishi mumkin.

Biz yuqorida keltirganimizdek, iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning mohiyati, tushunchasiga ko'plab har xil qarashlar mavjudligi kabi, uning har xil mezonlari va ko'rsatkichlari tasnif qilinadi. Ko'pchilik mualliflar samaradorlik nisbiy ko'rsatkich deb ta'kidlab, u olingan (erishilgan) natija bilan xarajatlar nisbati orqali aniqlanishini tavsiya qilishadi.

Bizning fikrimizcha, «samara», «natija» o'z tabiatiga binoan son va sifat ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Son ko'rsatkichlar sifatida absolyut miqdorlar – qiymat, natural va shartli o'lchov birliklarida ifodalansa, sifat ko'rsatkichlari sifatida har xil solishtirma, ya'ni nisbiy ko'rsatkichlar ishlatilishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarini asoslash uchun ayrim amaliy misollar keltiramiz.

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi progressiv texnika va texnologiyalarni har qanday tarmoq, soha va korxonalarga joriy qilinishi ular faoliyatining hajmini, mehnat unumdorligini, ish

haqini oshirishga olib keladi va boshqa ko‘rsatkichlarning ijobiy o‘zgarishlarini ta’minlaydi. Ushbu ko‘rsatkichlarning absolyut miqdorini ortishi xo‘jalik faoliyatining samarasini ifodalaydi;

• transport vositalarining modernizatsiyalanishi, ularning tezligini yuqorilanishi, komfort sharoitlarni yaratilishi natijasida transport xo‘jaliklarining miqdor ko‘rsatkichlarini ortishiga (pasajirlar sonini ortishi, yuk tashish hajmini ortishiga, daromadni ko‘payishi, xarajatlarni kamayishi) va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanishiga (rentabelligini ortishi, yo‘l bosishdan foydalanish koeffitsiyenti, yuk ko‘tarish koeffitsiyenti, yo‘l yurishning o‘rtacha tezligi) olib keladi. Bular tabiati bo‘yicha transport vositalarining samaradorligi natijasini ifoda qiladi;

• savdo, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat sohasi korxonalarida xizmatni progressiv shakllarini joriy etilishi ularning iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligini va boshqa ko‘rsatkichlaridan foydalanishning samarasini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, iqtisodiyotning har qanday tarmog‘i va sohasini misolga olmang, ilmiy-texnik progress natijasida faoliyat natijasi miqdorini ortishi, daromadini ko‘payishi, xarajatlarni qisqarishi va boshqa ijobiy ijtimoiy xodisalarni ro‘y berishini kuzatish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollar samaradorlik kategoriyasini, uning mezonlari va ko‘rsatkichlarini keng ma’noda tadqiqot etish zarur ekanligiga ishonchimizni oshiradi.

Shu sababli bizning fikrimizcha, har qanday samaradorlik, har qanday tarmoq, soha faoliyati, korxona faoliyati samaradorligi bo‘lishidan qat’iy nazar absolyut miqdorlarda (qiymat, natural, shartli birliklarida) va nisbiy (koeffitsiyentlar, indekslar, foizlar) ko‘rsatkichlar orqali aniqlanishi lozim.

«Kriteriya» so‘zi grekcha «Kriterion» so‘zidan olingan bo‘lib, uning asosida nimagadir baho berish alomati, nimadir aniqlanishi yoki tasnifi, o‘lchovi degan ma’noni bildiradi[10]. «Kriteriya» atamasining o‘zbekcha ma’nosi «mezon» so‘zini anglatadi.

Mezonni xodisalar, jarayonlar, holat va boshqalarni sifat mazmunini o‘lchovi, ular to‘g‘risidagi fikrning alomati deb tushunish lozim. Uning son o‘lchovlari ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topadi.

[10] Словарь иностранных слов. М.: Русский язык. 1985. С. 262.

Korxonaning samaradorlik mezoni to‘g‘risida fikr yuritganda tizimli tahlil, tizimli munosabatni ishlatish lozim. Samaradorlik mezoni xodisalar, jarayonlar va holatni sifat belgisi sifatida tizimni, tarmoqni yoki korxonani faoliyat yuritishining maqsadini aks ettirishi zarur.

Samaradorlikning mohiyati, mezoni va ko‘rsatkichlarini aholi iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar misolida ko‘rib chiqamiz.

Korxonaning maqsadi ikki tomonlama harakterga ega bo‘lib, bir tomondan, aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini to‘laroq qondirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, optimal miqdorda foyda olish yoki optimal rentabellikka erishishdir.

Ushbu ko‘rsatkichlarni maksimallashtirish korxona samaradorligining mezoni bo‘lib hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasidan shunday xulosa qilish mumkin: bosh maqsad eng yuqori iqtisodiy natijaga erishish, ya’ni maksimal foyda olish. Ushbu maqsadga erishish vositasi sifatida aholini iste’mol tovarlarga talabini to‘laroq qondirish hisoblanadi. Ushbu maqsad va unga erishish vositasi o‘rtasida sabab va oqibat aloqalari yotadi. Sabab o‘zaro ta’sir bo‘lsa, oqibat – bu o‘zaro ta’sir natijasidir. Bunday holatdan kelib chiqsak sabab aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini qondirish bo‘lsa, natija maksimal (yoki optimal) foyda olish bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqori foyda olishni ta’minlovchi sabab sifatida aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini qondirish hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy xulosalardan kelib chiqsak, savdo sohasi, korxonasi samaradorligining o‘lchov birligi sifatida ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur ekanligini asoslamoqda.

Korxonaning samaradorligini o‘lchash va baholashni quyidagi alomatlar bo‘yicha guruhlash zarur:

birinchidan, umuman milliy iqtisodiyot manfaati nuqtai nazaridan;

ikkinchidan, iste’molchi (aholi) manfaati nuqtai nazaridan;

uchinchidan, korxona (mulkdor, boshqaruv xodimlari hamda ishchilar) manfaati nuqtai nazaridan.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik – chegaralangan resurslardan oqilona foydalangan holda erishilgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy iste'mol darajasini yuksaltirishdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilishi – inson kamolotining yuksalishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining o'sishi, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishida ko'rinadi. Inson farovonligi hamda kamoloti naqadar yuksalsa, shu qadar yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikga erishgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi uning pirovard maqsad natijasida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik tarkibida iqtisodiy samaradorlik alohida e'tiborga ega.

Iqtisodiy samara ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan iqtisodiy ne'matlar hajmi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy samaradorlikning mezoni xarajatlar bilan erishilgan iqtisodiy ne'matlar munosabatidir. Ishlab chiqarish jarayonida omillar (yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik) xarajat qilinadi va uning natijasida ma'lum miqdordagi ne'matlar yaratiladi. Harajat bilan natijani taqqoslash orqali iqtisodiy samaradorlik ifodalanadi.

Ishlab chiqarishning natijasi ijtimoiy samaradorlik orqali ham ifodalanadi. Korxonaning ijtimoiy samaradorligi mezoni iste'molchilarni ehtiyojlarini qondirilish darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy samaradorlikning ko'rsatkichlari aholining daromadlar miqdori, ish bilan bandligi, salomatligini saqlash, mehnat malakasini yuksaltirish, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, bo'sh vaqtlari kabilarni aniqlash bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi – murakkab kategoriyadir. Unda ishlab chiqarish natijalariga hamda xarajatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mujassamlangandir. Unda ishlab chiqarish natijalarining o'sishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi hamda mahsulot assortimenti tuzilishining ijtimoiy ehtiyojlar tuzilishiga to'g'ri kelishida o'zining aksini topadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi o'sishining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

* Mahsulot sifati va tarkibining yaxshilanishi;
* Jonli mehnat unumdorligining o'sishi;
* Material sarfining kamayishi;
* Fond samarasining oshishi.

Yuqoridagilardan shuni anglash lozimki, ishlab chiqarish samardorligini o'lchash uchun ko'rsatkichlar tizimi zarur.

Bu ko'rsatkichlardan eng muhimi ijtimoiy mehnat unumdorligidir. U vaqtni tejash qonunining amal qilishini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichni quyidagi usulda aniqlash mumkin:

$$I.M.U. = \frac{MD}{JM}$$

Bunda: IMU – ijtimoiy mehnat unumdorligi;

MD – milliy daromad;

JM – moddiy va xizmat, ishlab chiqarish va xizmat sohalarida band bo'lgan ishchilarning o'rtacha soni.

Milliy daromad iqtisodiyotning eng muhim ko'rsatkichi, samaradorlik mezoni va jamiyat boyligini to'la tavsiflaydi. U mamlakat aholisining farovonligi va barqaror rivojlanishining moddiy manbaidir. Shuning uchun ham uni oshirishning barcha vositalari va yo'llari ishga solinadi.

Milliy daromad – bu moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida va xizmat sohasida yaratilgan qiymatdir. U yalpi ijtimoiy mahsulotning bir qismidir. Aniqroq aytganda, u yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish va xizmat jarayonida sarflangan xom-ashyo, yonilg'i, energiya va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarini chiqarishdan keyin qolgan qiymatdir.

Milliy daromadning o'sishi asosan ikkita omilga – ishlab chiqarishda band bo'lgan kishilarning soniga va ular mehnat unumdorligining oshishiga bog'liq. Bu ikki omil jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha ahamiyatga ega. Fan-texnikaning shiddatli taraqqiyoti ro'y berayotgan hozirgi sharoitda ikkinchi omilning roli oshmoqda.

Moddiy ishlab chiqarishning ayrim tarmoglarida unumdorlik yalpi mahsulot nisbati orqali aniqlanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sish sur'atini aniqlash uchun ko'rsatkichlarni taqqoslash hamda taqqoslama narxlarda ko'rish zarur ekanligini hisobga olish shart.

Mehnat unumdorligining oshishi xodimlar malakasiga, ularning tajribasiga, ishlab chiqarishning tashkil etish darajasiga bog'liq. Mehnatning fond bilan qurollanish miqdori (ayniqsa, sifati) unumdorlikka

sezilarli ta'sir etadi. Fond bilan qurollanish (F.K.) fondlar qiymatining ishchilar soniga nisbati ko'rinishida o'lchanadi va quyidagi formulada ifodalanadi:

$$FQ = \frac{F}{I.s.}$$

F – asosiy ishlab chiqarish fondlarning qiymati;

I.s. – ishchilar soni.

Misol: Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlarini o'rtacha yillik qiymati 40,0 mln. so'mni tashkil etadi. Korxonada 120 kishi ishlaydi. Korxona ishchilarining fondlar bilan qurollanganligi 40,0:120=333,3 ming so'mga teng.

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaraganda mehnat unumdorligining har qanday oshishi emas, balki jonli mehnatni tejash, uning texnika bilan qurollanish darajasining o'sishiga ketgan qo'shimcha xarajatlarni mumkin qadar qisqa muddatlarda qoplaydigan darajada oshishigina samaralidir.

Mehnat unumdorligining yana bir ko'rsatkichi mehnat sig'imidir. Bu ko'rsatkich yaratilgan mahsulot qiymatiga to'g'ri keladigan mehnat xarajatlari tusida bo'ladi. Uni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$MS = \frac{Ms}{Mh}$$

Bu yerda: Ms – mehnatning sarfi;

Mh – mahsulotni hajmi, miqdori.

Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligining teskarisi bo'lib uning hajmi qancha yuqori bo'lsa, natijaning yomonlashganligi va aksi bo'lsa, (ya'ni past bo'lsa) natijaning yaxshilanganligidan dalolat beradi. U asosan korxona darajasida aniqlanadi.

Misol. Korxonada bir smenada – 8 soatda 800 ta yengil mashina detali ishlab chiqarildi: bu 1 soatda 100 dona detal ishlab chiqarilganligini ko'rsatayapti (800:8).

Ishlab chiqarish korxonalarida aniqlanishi mumkin bo'lgan texnologik mehnat sig'imini, ishlab chiqarish mehnat sig'imining to'liq mehnat sig'imini farqlash va anglash lozim.

Ijtimoiy mahsulot sig'imi – bu ko'rsatkich xom-ashyo materiallar, yonilg'i, energiya va boshqa mehnat predmetlarini xarajatlarning yangi ijtimoiy mahsulotga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi.

Korxonalarning mahsulot sig'imi shu mahsulotni yaratilishi uchun ketgan moddiy xarajatlarning jami ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi. Ya'ni:

$$MhS = \frac{Mx}{Im}$$

MxS – mahsulot sig'imi turli o'lchovlarda;

Mx – moddiy xarajatlarning umumiy hajmi;

Im – ishlab chiqilgan mahsulot umumiy hajmi.

Korxona faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlaridan yana biri mahsulotning kapital sig'imidir. Ma'lum bir darajada kapital sig'imi hamda fondlar sig'imi bir-biriga yaqin ko'rsatkichlardir.

Mahsulotning kapital sig'imi odatda ishlab chiqilgan mahsulotni ko'paygan (o'sgan) qismining kapital qo'yilmalar nisbati bilan aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$K_0 = \frac{K}{\Delta O}$$

Bu yerda: K_0 – mahsulotni kapital sig'imi;

K – kapital quyilmalarni umumiy hajmi;

ΔO – yaratilgan umumiy mahsulotning o'sgan qismi.

Jamiyat Respublika darajasida bu ko'rsatkich kapital xarajatlarning milliy daromadga nisbati ko'rinishida hisoblanadi.

Korxona darajasida fondlarni samaradorligini hisoblaganda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Fs = \frac{F}{O}$$

Bu yerda: Fs – fondlar sig'imi;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati;

O – yaratilgan mahsulotning umumiy hajmi (odatda yalpi mahsulot).

Fondlar sig'imini xuddi kapital sig'imi singari milliy daromadga nisbatida ham hisoblash mumkin.

Xalq xo'jaligida, uning ayrim tarmoqlarida, shu jumladan, sanoatda fondlar qaytimi ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu fondlar sig'imi ko'rsatkichining aksidir.

Fond unumi (FU) asosiy ishlab chiqarish fondlardan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. U asosiy fondlar muayyan miqdoriga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi.

$$FU = \frac{MM}{F}$$

Bu yerda: MM – mahsulot miqdori.

Fond unumi, mehnat unumdorligi va uning fond bilan qurollanishi o'rtasida aloqa mavjud. U quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$FU = \frac{MU}{FQ}$$

Bu yerda: FU – fond unumi;
MU – mehnat unumdorligi.
FK – mehnatning fond bilan qurollanishi.

Bu bog'liqlikdan shu narsa kelib chiqadiki, mehnat unumdorligi mehnatning fond bilan qurollanishiga qaraganda tezroq o'sib borgan taqdirdagina fond unumi oshadi. Va aksincha, agar mehnat unumdorligi o'sishi fond bilan qurollanishining o'sishidan orqada qolsa, fond unumi pasayadi.

Samaradorlikni tashkil etuvchi omillar va uni ifodalovchi konkret ko'rsatkichlar bilan bir qatorda «Korxona iqtisodiyoti» fanida va xo'jalik tajribasida hozirgi vaqtda samaradorlikning mavjud ko'rsatkichlari bilan bir qatorda murakkab, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni ham qo'llash haqidagi masala qo'yilmoqda.

Fan va texnikaning shiddatli rivojlanayotgan hozirgi sharoitida zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini amaliyotga kiritish iqtisodiy samara bilan bir qatorda ogir jismoniy mehnatni mashinalar mehnati bilan almashtirish, ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarini bartaraf etish, fondlar va energiya bilan ta'minlanish

darajasini oshirish, yuqori malaka talab qiladigan va manfaatdorlikni oshiradigan jozibali kasblarga talabni oshirish hamda mavjud kasblarga yoshlarda rag'bat o'ygotish va boshqa ijtimoiy muammolarni ham hal etishi lozim.

Insonni har tomonlama yetuk (barkamol) qilib tarbiyalash – jamiyatning pirovard ijtimoiy samaradorlik mezonidir.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi bir qancha ko'rsatkichlar mavjud, jumladan, mahsulot (ish, xizmat)larga talabning qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, mehnat sharoiti va xavfsizligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Mahsulot (ish, xizmat)larga iste'molchilar talabining qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- mahsulot (ish, xizmat)lar tarkibining iste'molchilar talabiga mos kelishi koeffitsiyenti. Bu ko'rsatkich tovar zahiralarida turib qolgan (o'tmas) tovarlarning hissasi ko'rinishida tavsiflanadi. Bu ko'rsatkichning o'sishi ijtimoiy samaraning pasayayotganidan darak beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot (ish, xizmat)ning sifati va uning iste'molchi talabiga mos kelishi uchun kurash korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi;

- reklama vositasida mahsulot (ish, xizmat)larning mavjud turlari bilan iste'molchilarni tanishtirish darajasi. Hozirgi paytda haridorni tovarlarning xususiyatlari, sifati va boshqa afzalliklari ko'proq qiziqtiradi. Bu masalalarda esa unga reklama yordam beradi. Uning uchun mahsulot (ish, xizmat)larni iste'molchilarga tanishtirish darajasini o'rganishda turli shakldagi reklamalardan (televidenie, radio va gazetalardan, sportchilardan) foydalanuvchi korxonalar hissasini aniqlash kerak bo'ladi;

- iste'mol savatchasi doirasida iste'molni ta'minlash koeffitsiyenti va boshqalar.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar tarkibida mehnat sharoiti va tabiatini tavsiflovchi ko'rsat-kichlar alohida o'rin egallaydi. Ular asosan, quyidagilardan iborat:

- mehnatni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi;
- mehnat jarayonlarini robotlashtirish darajasi;
- ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnologiyalar, asbob uskunalar va mexanizmlarning ilgorlik (zamonaviylik) darajasi;

- mehnatni elektrlashtirish darajasi;

- isitish, sovutish, yuklash-tushirish, ko'tarish-yuklash uskunalar va boshqa asboblar bilan haqiqiy ta'minlanishning me'yorlarga mosligi darajasi;

- bino va inshootlarning davr talablariga javob berish darajasi (ularning zamonaviy loyiha asosida qurilishi, ularda ishlash va dam olish, tibbiy yordam ko'rsatish uchun shart-sharoitlarning mavjudligi);

- o'ralgan, qadoqlangan va idishlarga solingan mahsulotlarning ishlab chiqarilgan jami mahsulotlardagi hissasi;

- korxonalarning sog'lomlashtirish, sport va maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasi;

- korxonalarda xodimlar va mutaxassislar safining to'ldirilishi koeffitsiyenti. Bu haqiqiy ishlovchi xodimlar sonini belgilangan me'yor bilan qiyoslash asosida aniqlanadi;

- korxonalar xodimlarini davolanish va sayohat uchun yo'llanmalar bilan ta'minlash darajasi;

- xodimlar va mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni tashkil etish darajasi;

- ishlab chiqarish jarayonida aqliy mehnat hissasining va ijodkorlikning oshib borishi, mehnat intizomi buzilishi hollarining kamayishi, xodimlar qo'nimsizligini pasaytirish va boshqalar.

Qayd etilgan ko'rsatkichlar ijtimoiy samaradorlikning alohida yo'nalishlarini tavsiflaydi. Ular birgalikda hisoblansa va ijtimoiy samaradorlikni baholashda birgalikda qo'llanilsa, ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligiga to'liq baho berish imkoniyatini to'g'diradi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari uzviy bog'liq. Ijtimoiy samarani oshirmasdan turib iqtisodiy samarani o'stirib bo'lmaydi va aksincha.

6.2. Ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy, absolyut va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi

Mahsulot (ish, xizmat) birligi uchun sarflangan mablag' ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini puldagi ifodasi sanoat korxonalarida tannarx deb yuritiladi. Xarajatsiz hech

qanday iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi, uni qilmasdan turib foyda topish mumkin emas.

Iqtisodiyotda xarajatlarning umumiy miqdori emas, ularning samarasi muhim. Xarajatlar samaradorligini to'liqroq ifodalash uchun qiymat va natural ko'rsatkichlarga umumlashgan tavsif berish kerak bo'ladi. Bu maqsadga erishishda xarajatlarning umumiy (absolyut) va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi xizmat qiladi.

Rejalashtirishda va loyihalashtirishda umumiy iqtisodiy samaradorlik olinadigan natija (samara)ni kapital xarajatlarga nisbati, qiyosiy iqtisodiy samaradorlik esa turli variantlar o'rtasidagi joriy xarajatlar farqining kapital xarajatlar farqiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi.

Umumiy va qiyosiy iqtisodiy samaradorlik bir-birini to'ldiradi, ularning asosida xarajat va natijani solishtirish yotadi. Ulardan quyidagilarni hal etishda foydalaniladi:

- kapital xarajatlarni talab etuvchi masalalarni hal etishda eng optimal variantni tanlashda;
- ko'rib chiqilayotgan variantlardan eng optimalini amalga oshirish sharoitida solishtirilib ko'rilayotgan variantning mavjud bo'lgan boshqa variantlardan haqiqatda eng yaxshisi ekanligiga ishonch hosil qilishda, kapital xarajatning samaradorligini baholashda.

Kapital xarajatlar samaradorligi iqtisodiyot miqiyosida milliy daromadning, tarmoqlar va korxona miqiyosida esa foydaning o'sishini, bu o'sishga imkoniyat yaratuvchi kapital xarajatlarga nisbatini ko'rsatuvchi umumiy (absolyut) samaradorlik koeffitsiyenti bilan tavsiflanadi.

Umumiy samaradorlik koeffitsiyenti rejalashtirish darajasiga bog'liq turli formulalar bilan ifodalanadi.

Iqtisodiyot miqiyosida xarajatlarining umumiy iqtisodiy samaradorligi aniqlanganda milliy daromadning (uning o'sishiga sabab bo'lgan) kapital xarajatlarga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi. Ya'ni:

$$Si = \frac{\Delta MD}{\Delta K}$$

Bu yerda: Si – xalq xo'jaligi bo'yicha umumiy iqtisodiy samaradorlik;

ΔMD – milliy daromadning yillik o'sishi;

ΔK – ishlab chiqarishga sarflangan kapital xarajatlarning o‘sgan qismi.

Alohida tarmoqlar, hamda korxonalarda asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning shakllari (texnikaviy qurollash va qayta qurollash, rekonstruksiyalash, korxona va tashkilotlarni kengaytirish) bo‘yicha umumiy iqtisodiy samaradorlik ko‘paygan foydaning (ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi) (ΔF), kapital xarajatlarning (K) o‘sgan qismi nisbati ko‘rinishida bo‘ladi, ya’ni:

$$Si_{s.} = \frac{\Delta F}{\Delta K}$$

Bu yerda: ΔF – foydaning o‘sgan qismi.

Yangitdan qo‘rilayotgan sexlar, korxonalar va shu kabi obyektlar va ayrim chora-tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichi (Sich) aniqlanganda foydani kapital xarajatlar (smeta qiymati)ga bo‘lgan nisbati olinadi, ya’ni:

$$Si_{.ch} = \frac{F}{K} \text{ yoki } \frac{M - Xich}{K}$$

Bu yerda: F – foyda;

M – loyiha bo‘yicha yil davomida ishlab chiqilgan mahsulot, korxona ulgurji narxi bo‘yicha;

$Xi_{.ch}$ – loyiha bo‘yicha yillik mahsulotni ishlab chiqishga ketgan ishlab chiqarish xarajatlar (tannarx).

Shuni qayd etish lozimki, alohida ayrim holatlarda xarajatlarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini normativlar (me’yorlar) o‘tgan davrdagi ko‘rsatkichlar hamda boshqa shu kabi korxonalar ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi talabini to‘laroq qondirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ko‘proq ishlab chiqarish har bir korxonaning kundalik vazifasiga aylangan. Bu esa ishlab chiqarish korxonalarini to‘g‘ri joylashtirish, sexlarni texnik jihatidan yangitdan jihozlashtirish, amaldagi korxonalarni rekonstruksiya qilish, eksportga mo‘ljallangan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, bir-birining o‘rnini bosa oladigan mahsulotlarni yaratish, yangi

texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq xo'jalik yoki texnik masalalarni hal etishda, ularning turli variantlaridan foydalanishni talab qiladi. Bunday sharoitda xarajatlarning qiyosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini hisoblash tavsiya etiladi.

Korxonalarda kapital xarajatlarni amalga oshirishdan oldin investitsion loyihalarning bir nechta varianti tuziladi va ular bir-biri bilan qiyoslanadi. Shu asosida optimal ko'rsatkich – eng kam (minimum) keltirilgan xarajatlar aniqlanadi.

Har bir variantlar bo'yicha keltirilgan xarajatlar deyilganda joriy xarajatlar (tannarx) va kapital xarajatlarning bir xil o'lchamga keltirilgan ko'rsatkichlar ($Nsk \cdot K_1$)ni nazarda tutiladi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$\mathbf{KX_1 = Xj + Nsk \cdot K_i \rightarrow min}$$

Bu yerda: KX_1 – shu variant bo'yicha keltirilgan xarajatlar;

Xj – shu vaqt bo'yicha joriy xarajatlar (tannarx);

Nsk – kapital xarajatlarning normativ koeffitsiyenti;

K – har bir variant bo'yicha kapital qo'yilmalar.

Iqtisodiyot bo'yicha kapital xarajatlarining normativ koeffitsiyenti 0,12 hisoblanib, bu ko'rsatkich tarmoqlar bo'yicha tabaqalashtiriladi.

Tabaqalashtirish fan-texnika taraqqiyoti, mintaqalar hamda tarmoqlar xususiyatlari, qurilish davri va hokazolar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Korxonalarning xo'jalik yuritish natijalarini yaxshilashda va iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish infratuzilmalarining o'rni beqiyosdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasiga xilma-xil turdagi obyektlar, aloqa, elektr, neft, gaz, suv ta'minoti tizimi, moddiy-texnikaviy ta'minot (omborxonalar, xolodilniklar, mahsulotni saqlash joylari va h.k.), ma'lumotlarni qayta ishlash va hisoblash texnikalari – kompyuterlar, internet tarmoqlari kiradi.

Ishlab chiqarish infratuzilmalari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida ishlab chiqarish samaradorligi hisoblanadi, ya'ni bularga transport vositalaridan to'g'ri va to'la foydalanish, elektr energiyani, gaz, suv hamda yonilg'ini har bir so'mlik ishlab chiqilgan mahsulotga sarfini kamaytirib borish, omborxonalardan, xolodilnik-

lardan samarali foydalanish, kompyuter texnologiyasini ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda keng qo'llash va hokazo hisoblanadi.

Korxona faoliyatini tahlil qilganda, uning istiqbolini belgilaganda, faoliyatiga baho berganda faqatgina xarajatlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi haqida hamda qiyosiy samaradorligi ko'rsatkichlarini o'rganish bilan chegaralanmaslik kerak. Korxona faoliyati samaradorligini qo'shimcha ko'rsatkichlar – mehnat unumdorligi, fondlar sig'imi, fondlar qaytimi, kapital qo'yilmalar, xom ashyo materiallarini, yonilg'i, energiya, ishlab chiqarish xarajatlari darajasining pasayishi, hamda ijtimoiy natijalari ko'rsatkichlari orqali o'rganish zarurdir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxona faoliyatiga baho berish mezonlaridan biri sifatida foyda va rentabellik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shu sababli, korxonaning ishlab chiqarish faoliyati asosan, foydani ko'paytirishga va rentabellik darajasini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu, albatta, mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, maqsadsiz xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi texnologiyani joriy etish va hokazolar hisobiga erishiladi.

Korxona foyda olish uchun eng avvalo, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilishdan tushgan pul tushumi hisobidan qilingan xarajatlarni qoplashi zarur. Xarajatlarni hajmi qancha past bo'lsa, foyda shuncha ko'p bo'lishi hammaga ayondir. Shunday ekan, har bir korxona, faoliyatida yangilikni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish zaruriy jarayonga aylanib borishi kerak. Zero, yangilikni joriy etish va investitsiya kiritish hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonalarga yangi sanoat texnologiyalarini kiritishning eng qulay va ma'qul bo'lgan shakllari hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb etish korxona faoliyatiga yangilikni kiritishga asos bo'lib hisoblanadi. Korxona faoliyatining bozor talabi bilan bog'liqligi sababli yangilikni joriy etishning iqtisodiy tabiati bozor talabi orqali belgilanadi: bozor yangiliklarining fan-texnika yangiliklaridan ustunligi sababli u asosiy omilga aylanadi. Korxonaga, investitsiya va yangilikni joriy etishdagi bosh maqsad – bozor talabini qondirish asosida yuqori foyda olishdir.

6.3. Xarajatlarni qoplash muddati – xarajatlar samaradorligining muhim ko'rsatkichi

Madaniyatli bozor munosabatlarining shakllanib borishi mobaynida tovar taqchilligining va ayrim monopol korxonalarning yo'qolishi sababli korxonalarda foydani o'stirishning asosiy yo'li – ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo'lib qoladi. Albatta, buning uchun korxonalar ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarish obyektlarini kengaytirishga, qayta qurishga va yangitdan texnik jihozlashga ehtiyoj sezishadi. Bu esa, tabiiyki, qo'shimcha kapital xarajatlarni talab qiladi. Har bir korxona kapital xarajatlar qilishdan oldin ular qaysi muddat ichida o'zini qoplashini ham hisoblab chiqadi.

Kapital xarajatlarning samaradorligi nuqtai nazaridan ularni qoplash muddati yil hisobida bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, kapital xarajat qilish natijasida mahsulot (ish, xizmat) tannarxining pasayishi yoki mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan foyda kapital xarajatlarni necha yilda qoplashi tadbirkorni qiziqtiradi.

Kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun ikkita variant mavjud bo'lsa, ularning birontasini tanlashda, ikkala variantlardagi kapital xarajatlar summalari o'rtasidagi farqni variantlarning biron biri bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot (ish, xizmat) tannarxidan tejaladigan so'mmaga bo'lish yo'li bilan qo'shimcha kapital xarajatlarni qoplash muddati aniqlanadi. Variantlarning qaysi biri ko'proq foyda berib o'zini tezroq qoplasa shu variant tanlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$M = \frac{K_2 - K_1}{T_1 - T_2}$$

Bu yerda: M – kapital xarajatlarning qoplanish muddati;
K_1 va K_2 – birinchi va ikkinchi variantlar qo'yilgan kapital xarajatlar;
T_1 va T_2 – yillik mahsulotlarning birinchi va ikkinchi variantlar bo'yicha tannarxi.

Kapital xarajatlarni amalga oshirishda faqat bitta variant mavjud bo'lsa, kapital xarajatlar so'mmasi mahsulot (ish, xizmat) tannarxidan

tejaladigan summa yoki qo'shimcha olinadigan foydaga bo'lish orqali qo'shimcha kapital xarajatning qoplanish muddatini aniqlash mumkin:

$$M = \frac{K}{T_0 - T_1}$$

Bu yerda: T_0 – qo'shimcha kapital xarajat qilingunga qadar ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi;
T_1 – qo'shimcha kapital xarajat qilingandan keyin ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxi.

6.4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Barcha korxona ishlab chiqarishni intensivlashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Samarali tashkil etilgan iqtisodiyotga o'tish har tamonlama rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi eng muhim omil – bu fan va texnika taraqqiyoti bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Oxirgi vaqtlargacha fan-texnika taraqqiyoti evolyutsion tarzda rivojlanib keldi. Natijada amaldagi texnologiyalar takomillashib, mashina va uskunalar qisman zamonaviylashdi. Bunday natija sezilarli, lekin kutilganidek emas edi.

Yangi texnikalar bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish yetarli darajada emas edi. Bozor munosabatlarini shakllantirishning hozirgi sharoitida fan va texnikaning oxirgi yutuqlari asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan revolyutsion va sifatiy o'zgarishlarni amalga oshirish lozim.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

* ilgor texnologiyalarni keng o'zlashtirish: yuqori bosim va ta'sirchan kuchlar qo'llaniladigan membranali, lazerli, plazmali texnologiyalar va boshqalar;

* ishlab chiqarishni avtomatlashtirish – yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi robot texnikalar, rotorli va rotor - konveyr

liniyalar, moslanuvchan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish;

* metall mahsulotlar, plastik qorishma, kompozitlar, metall kukunlar, keramik va boshqa progressiv tuzulishli materiallarning yangi shakllarini yaratish va undan foydalanish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida eng muhim tadbirlar fan-texnik harakteriga ega bo'ladi. Foydaning katta qismi, soliqlar to'langach, korxonalar ixtiyorida qoladi. Bunday holat me'yoriy emas. Bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan korxonalar kelajakdagi ishlab chiqarishni rivojlantirishga yetarli e'tibor bera boshlaydilar. Yangi texnikalarga, ishlab chiqarishni yangilashga, yangi mahsulotlarni o'zlashtirish va ishlab chiqarishga zaruriy vositalarni yo'llaydilar. Undan tashqari, tashkiliy shart-sharoitlar va omillar, konstruktorlar, injenerlar, ishchilar ijodiy mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy motivlar yaratish zarur. Texnik va texnologik yangilanishlar, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar mehnat unumdorligining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishni ta'minlash, ishlab chiqarishga mehnatni ilmiy tashkil etishning progressiv shakllarini joriy qilish, uni me'yorlashni takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, tartib-intizomga erishish, mehnat jamoasining barqarorligini ta'minlash lozim.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi yana bir muhim omil bu – tejamkorlik hisoblanadi. Resurslarni tejash yonilg'i, energiya, xom-ashyo va materiallarga bo'lgan o'sib boruvchi talabni qondirishining asosiy manbaiga aylanishi lozim. Bu muammolarni yechishda sanoat asosiy o'rinni egallaydi. Bu tarmoqda xom-ashyo va yonilg'i-energetik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan mashina va uskunalarni joriy qilish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy daromad birligiga hisoblaganda boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yonilg'i, elektroenergiya, metallar sezilarli darajada ko'p sarflanayapti. Bu esa katta hajmdagi ishlab chiqarishni tashkil etishda resurslarning taqchilligiga olib keladi. Shuning uchun, mamlakat mashinasozligini tubdan zamonaviylashtirish zarur. Bu esa fan-texnik taraqqiyoti negizida butun iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim shartidir. Bunga erishishga qaratilgan uzoq muddatli, strategik maqsadlar

aholining zaruriy ehtiyojlarini to'laroq qondirish bilan uygunlashmogi lozim.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining oshishi ko'p hollarda asosiy fondlardan yaxshiroq foydalanishga bog'liq bo'ladi. Mavjud ish-lab chiqarish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, uskunalarni maksi-mal darajada ish bilan ta'minlash, uning smenaligini ratsional oshirish va shu asosda har bir uskuna birligiga va har bir metr kvadrat ishlab chiqarish maydoniga to'g'ri keladigan mahsulot miqdorini oshirish zarur.

Ishlab chiqarishni intensivlashtiruvchi va uning samaradorligini oshiruvchi omillardan biri – iqtisodiyotning tarkibini takomillash-tirishdir. Fan-texnika taraqqiyotini ta'minlaydigan va ijtimoiy muammolarni samarali hal qiladigan tarmoqlarni nisbatan yuqori darajada rivojlantirish zarur.

Investitsion siyosat kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish-ni ta'minlashga qaratilgan. Mablag'larni fan-texnika taraqqiyotini tez-lashtirishni ta'minlovchi tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlash lozim. Mablag'larning katta qismi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga va rekonstruksiya qilishga yo'naltirilishi kerak.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyotining asosi hisoblangan mashinasozlik tezkor rivojlantirilishi lozim. Bunda asosiy e'tibor stanoksozlik, elektrotexnika sanoati, mikroelektronika, hisoblash texnikasi, priborsozlik, informatika industriyasiga qaratilishi kerak.

Yonilg'i-energetika balansi tarkibini yaxshilash, xavfsizligi maksimum darajada ta'minlangan atom energetikasini rivojlantirish bilan birgalikda olib boriladi. Buning uchun esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yonilg'i-energetika resurslarini tejash bo'yicha muayyan tadbirlar amalga oshirilib borishi lozim.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish uchun quyidagi-larni amalga oshirish lozim: xalq iste'moli tovarlari va barcha turdagi xizmatlar ishlab chiqarishni tezkor oshirishni ta'minlash; kichik korxonalarni rivojlantirish; harbiy ishlab chiqarishni konversiyalash; ishlab chiqarish korxonalarini texnik qayta jihozlash; transport, elektr, neft va gaz ta'minoti tizimini hamda aloqa va axborot ta'minotini yaxshilash.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy o‘rinlardan birini (boshqaruvni o‘z ichiga oluvchi) tashkiliy-iqtisodiy omillar egallaydi. Ijtimoiy ishlab chiqarish masshtabining o‘sishi va xo‘jalik aloqalarining murakkablashishi bilan uning roli ortib boradi. Eng avvalo, bu ishlab chiqarishning ratsional shakllarini rivojlantirish va takomillashtirish demakdir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish infrastrukturasi ham ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Uni rivojlantirish talab qilinadi. Bu boshqarish, rejalashtirish, barcha xo‘jalik mexanizmlarini iqtisodiy rag‘batlantirishning usullari va shakllarini takomillashtirish; rejalashtirishda - rejalarning optimalligi va haqqoniyligi, iqtisodiyotning quyi bo‘g‘inlariga to‘sqinlik qilmasdan, faoliyati uchun imkoniyatlar yaratadigan rejali ko‘rsatkichlarning optimal tuzilgan tizimini yaratishni taqozo qiladi. Ushbu omillar tizimiga quyidagilar ham kiradi: tijorat hisobi va moddiy rag‘batlantirish dastaklari, moddiy javobgarlik va boshqa iqtisodiy rag‘batlarning keng qo‘llanilishi.

Samarali xo‘jalik yuritish muammosini hal qilishda, resurslarni tejaydigan texnika va texnologiyalarni yaratish hamda uni amaliyotga joriy qilishda asosiy o‘rinlardan birini fan o‘ynaydi. Fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishning aktual muammolari bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borishni kuchaytirish lozim. Bu esa ishlab chiqarishning mehnat, material va energiya sig‘imini kamaytiradi hamda mahsulot sifatining oshishiga olib keladi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi barcha omillarning ta’sir qilish imkoniyati sezilarli o‘zgaradi. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshiriladi, u iste’molchilar talabidan kelib chiqib, unga moslashtiriladi; iqtisodiyotning muhim tarmoqlari – sanoat, qurilish, transport va aloqa yuqori texnologiyalar asosida zamonaviylashtiriladi; jahon fan-texnika taraqqiyoti darajasiga tenglashtiriladi; xo‘jalik yuritishning barcha shakllari erkin rivojlantiriladi; iqtisodiyot moliyaviy sog‘lomlashtiriladi; mamlakat xalqaro aloqalarga uzviy bog‘lanadi.

Yuqorida ta’kidlanganlar natijasida boshqariladigan, madaniyatli bozor xo‘jaligi shakllanadi. Bu esa mehnat unumdorligining oshishiga, jami ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga, milliy boylikning ortishiga olib keladi.

Tayanch iboralar: ijtimoiy mehnat unumdorligi, milliy daromad, yalpi ichki mahsulot, mahsulotning mehnat sig'imi, ijtimoiy mahsulotning material sig'imi, mahsulotning kapital sig'imi, fond sig'imi, iqtisodiy samaradorlik, qiyosiy iqtisodiy samaradorlik, umumiy (absolyut) iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish infratuzilmasi, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy samradorlik, foyda va rentabellik.

Takrorlash uchun savollar

1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyatini yoriting.
2. Ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mohiyati nimada, uni umumlashtiruvchi mezon bo'lib nima xizmat qiladi?
3. Iqtisodiy samaradorlik qanday ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi?
4. Ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari mazmunini ochib bering.
5. Xarajatlarning umumiy (absolyut) va qiyosiy samaradorligi qanday hisoblanadi?
6. Xarajatlarni qoplanish muddati qanday aniqlanadi?
7. Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi asosiy omillarni va yo'nalishlarni sanab bering.

VII BOB. KORXONANING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQARISH QUVVATI

Reja:

7.1 Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o'rni

7.2. Asosiy fondlarning turlari va tarkibi

7.3. Asosiy fondlarni baholash, eskirishi va ta'mirlash

7.4. Amortizatsiya ajratmalari — asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning muhim manbai

7.5. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari

7.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53- moddasida qayd etilishicha «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyotning negizini ... mulk tashkil etadi»[11]. U ijtimoiy mehnatning mahsuli hisoblanadi.

Mulk iqtisodiy kategoriya sifatida har qanday jamiyatda ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etadi va ularning xususiyatlarini belgilab beradi.

Mamlakatimizda shakllanayotgan yangi iqtisodiy tuzum turli mulkchilikka asoslangan. Buning uchun huquqiy bazalar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi Qonunning kirish qismida: «O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat beriladi»[12], deb ta'kidlangan.

Hozirgi paytda mamlakatimizdagi mulk turli subyektlarga — davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishlidir.

---

[11] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. – T.: «O'zbekiston», 2008, 11-bet.

[12] O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni, 1990-yil 31-oktyabr.

Yuridik shaxs sifatida korxonalarning asosiy belgisi ularning o'zlariga tegishli mulkning mavjudligidir. Aynan shu narsa korxonalarning moddiy- texnik imkoniyatlarini belgilab beradi hamda ularning iqtisodiy erkinligi va kelajagini taminlaydi. Muayyan mulkdan foydalanmasdan hech bir korxona o'zining xo'jalik faoliyatini amalga oshira olmaydi.

Korxonalar egalik qiladigan mulk ko'chmas va ko'chirib bo'ladigan mulklarga ajraladi.

Ko'chmas mulkka yer uchastkalari, yer osti boyliklari, maxsus suv obyektlari va umuman yer bilan bog'liq bo'lgan buzilmas narsalar, shu jumladan, o'rmonlar, ko'p yillik daraxtlar, inshootlar, binolar kiradi.

Ko'chirib bo'ladigan mulkka ko'chmas mulkka kirmaydigan narsalar hamda pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar kiradi.

Korxona mulki uzoq muddatli va joriy aktivlarga ajratiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda ular ishlab chiqarish fondlari[13] deb nomlanadi. Bunda korxona mulkining nafaqat ijtimoiy ko'rinishi balki ishlab chiqarish jarayonidagi roli, ahamiyati va korxona iqtisodiyotiga tasiri ham hisobga olingan.

Uzoq muddatli aktivlar yirik va o'rta korxonalar mulkining 65–85 foizini tashkil qiladi. Uning tuzilishi 7.1.1-chizmada keltirilgan.

7.1.1-chizma

Uzoq muddatli aktivlarning tuzilishi



[13] Amaliyotda «fond» so'zi turli ma'nolarda ishlatiladi. U lotin tilidan olingan bo'lib, birinchidan, davlatning, korxonalarning va shu kabilarning biror maqsad uchun ajratgan pul mablag'ini, ikkinchidan, ayrim subyektlar tasarrufidagi moddiy narsa (masalan, urug'lik fondi, muzey fondi, kitob fondi)ni, uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda faoliyat yuritayotgan subyektlar (Xalqaro Valyuta Fondi, Jamoat Fondi, O'zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot Fondi kabilar)ning yuridik maqomini ifodalaydi. Shu sababli, mazkur ishda uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi asosiy vositalarga nisbatan (moddiy narsa, moddiy mulk nuqtai nazaridan) sinonim sifatida «asosiy fondlar» tushunchasi ishlatiladi. Ma'lumki, vosita — bu ish, harakat quroli.

Uzoq muddatli aktivlar korxona xo'jalik faoliyatida uzoq muddat mobaynida qatnashadi. Bu amortizatsiya jarayonining davomiyligi va aylanma tezligining sekinligi bilan bog'liq. Shuning uchun ular uzoq muddatli yoki sekin aylanadigan aktivlar, deb ataladi.

Korxonalarda uzoq muddatli aktivlarning tuzilishi va tarkibi bir-biridan jiddiy farq qiladi. Biroq, barcha korxonalar uzoq muddatli aktivlari tarkibida asosiy fondlar salmoqli hissani tashkil etadi.

Asosiy fondlar — bu korxonalar tomonidan xo'jalik faoliyatini yuritishda uzoq muddat davomida mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, ma'muriy va ijtimoiy-madaniy funksiyalarni bajarish uchun ishlatiladigan moddiy aktivlardir.

Asosiy fondlar — bu o'z qiymatga ega va xizmat muddati davomida korxonaga daromad keltiradigan moddiy aktivlardir.

Asosiy fondlar — bu moddiy boylik bo'lib, o'zining tabiiy ko'rinishini uzoq vaqt mobaynida (foydali xizmat muddati davomida) o'zgartirmaydi va qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot qiymatiga qismlab o'tkazadi. Ular yangi qiymatni yaratishda ishtirok etadilar.

Asosiy fondlarning foydali xizmat muddati, deganda ularning texnik hujatlarida ko'rsatilgan foydalanish muddati yoki bunday hujjat mavjud bo'lmagan holatlarda ularni qabul qilish komissiyasi tomonidan yoki korxona rahbari tomonidan belgilangan foydalanish muddati (yil, oy) tushuniladi. Ularning foydaliligi belgilangan muddatda ishlab chiqilgan mahsulot, ish va xizmatlar hajmi bilan o'lchanadi.

Asosiy fondlar jamiyat moddiy boyligining asosiy qismini tashkil etadi. Ularning 65 foizdan ko'prog'i asosiy ishlab chiqarish fondlariga to'g'ri keladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari umumiy ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasi hisoblanadi. Ular mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish uchun sharoit yaratadilar, mehnat buyumlari va tayyor mahsulotlarni saqlash hamda ularni bir joydan ikkinchi joyga tashish kabi ishlarni bajarish uchun xizmat qiladilar.

Demak, asosiy ishlab chiqarish fondlari (mehnat qurollari sifatida) inson bilan mehnat predmetlari o'rtasida turadi. Ishchi kuchi mehnat qurollarini harakatga keltirib, ular vositasida mehnat

predmetlariga ishlov beriladi, natijada, iste'mol uchun mahsulot yaratiladi, ish bajariladi va xizmat ko'rsatiladi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati, mehnatning qurollanganlik darajasi asosiy ishlab chiqarish fondlarining hajmiga bog'liq. Asosiy fondlarning va mehnatning qurollanganlik darajasining oshishi mehnatga ijodiy harakter bag'ishlaydi va jamoaning madaniy-texnik darajasini oshiradi.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida asosiy fondlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi, iqtisodiy o'sishni taminlovchi barcha omillar ichida asosiy o'rinni egalaydi. Ular foydali xizmat muddati davomida o'zlarining qiymatini to'liq qoplashlari va korxonaga qo'shimcha daromad keltirishlari lozim.

Ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan asosiy ishlab chiqarish fondlarining miqdoriy o'sishiga emas, balki ulardan olinadigan samarani oshirishga, ya'ni ishlab turgan asosiy fondlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmini ko'paytirishga bog'liq.

Asosiy fondlarning sifat jihatdan o'sishi va takomillashib borishi ishlab chiqarishning yuksak texnika darajasini ta'minlaydi va uning samaradorligini oshiradi. Shu sababli ham, mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, jumladan, sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilishga, texnik va texnologik qayta jihozlashga ustuvor yo'nalish deb qaralmoqda.

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va modernizatsiyalash jarayonlari korxonalardagi mavjud asosiy fondlar qiymatining o'sishiga hamda tarkibining o'zgarib, sifat jihatidan takomillashib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

7.2. Asosiy fondlarning turlari va tarkibi

Foydalanilishi nuqtai nazaridan asosiy fondlar harakatdagi, zaxiradagi va foydalanilmaydigan obyektlarga, korxonaga tegishliligi nuqtai nazaridan — korxonaning o'ziga qarashli va ijaraga olingan obyektlarga bo'linadi.

Asosiy fondlar kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ko'ra ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlariga bo'linadi.

Ishlab chiqarish asosiy fondlari moddiy ishlab chiqarish sohasida qatnashadi. U o'zining amal qilish sikli davomida ishlab chiqarish jarayonida bir necha marta ishlatiladi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari bosqichma-bosqich eskirib, o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qismlab o'tkazib boradi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlariga korxona balansida turgan, xodimlarga xizmat qiladigan turar joylar, bog'cha, sport muassasalari va boshqa madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi obyektlar kiradi. Ishlab chiqarish fondlaridan farqli o'laroq, ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashmaydi va o'zining qiymatini mahsulotga o'tkazmaydi. Ularning qiymati iste'molda yo'q bo'lib ketadi. Ularning o'rni to'ldirilmaydi. Ular korxona foydasi hisobiga takror ishlab chiqariladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir o'tkazmasada ishchilar turmush sharoiti bilan bog'liq holda albatta korxonaning xo'jalik faoliyati natijasiga ta'sir qiladi.

Korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlari iqtisodiy o'xshashligiga qaramasdan umumiy maqsadi va xizmat qilish muddati bilan farqlanuvchi mehnat vositalarining asosiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun ularni alohida xususiyatlari bo'yicha muayyan guruhlarga ajratish zarurati tug'iladi.

Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- binolar (sex, ombor, laboratoriya, idora, garaj, va shu kabi mehnat sharoitini yaratib beruvchi, tovar-moddiy boyliklar butligini ta'minlovchi obyektlar. Binolar tarkibiga ularni normal ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo'lgan barcha kommunikatsiyalar, ya'ni isitish, ventilyatsiya, suv va gaz ta'minoti, lift, yong'inga qarshi va signalizatsiya qurilmalari, telefon aloqasi simlari tuzumlari ham kiritiladi);
- inshoatlar (ochiq ayvonlar, devorlar, suv minoralari, temir yo'l shohobchalari, asfaltlangan yo'llar va yo'lkalar);
- uzatish qurilmalari (elektr liniyalar, gaz, suv, bug' o'tqazuvchi quvurlar va boshqalar);
- mashina va uskunalar (issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi generatorlar, dvigatel va transformatorlar, stanoklar, issiqlik pechlari, tikuv, yig'uv, dazmollash, saralash mashinalari, kranlar, kompressorlar, o'lchov tarozilari);

- hisoblash texnikasi (kompyuterlar va ularga o‘rnatiladigan periferiya qurilmalari — printer, skaner, modem va boshqalar);
- transport vositalari (yuk va odam tashuvchi avtomashinalar, avtobuslar, pritseplar);
- uskunalar (presslovchi, qisuvchi va boshka texnologik funksiyalarni bajaruvchi asbob- uskunalar);
- ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlari (ish stollari, dastgohlar, baklar, sandiqlar va boshqalar);
- ofis mebeli va jihozlari (shkaflar, stol va stullar komplekti, doskalar, seyflar, yozuv mashinkalari, faks, nusxa ko‘chirish apparatlari, uyali aloqa vositalari va boshqalar);
- ishchi va nasldor hayvonlar (otlar, tuyalar, ho‘kizlar, sigirlar, bo‘qalar, qo‘ylar, echkilar, cho‘chqalar va boshqa ishchi sifatida ishlatiladigan va nasl beradigan hayvonlar);
- ko‘p yillik o‘simliklar (bog‘lar va boshqalar);
- kutubxona fondi (badiiy-adabiy, texnik, iqtisodiy va boshqa turdagi adabiyotlar);
- erni va boshqa asosiy vositalarni obodonlashtirishga sarflangan mablag‘lar (yer uchastkalarini kadastrini tuzish, ko‘kalamzorlashtirish, reshyotkalar o‘rnatish, suv havza va omborlarini tozalash va boshqa ishlarga sarflangan kapital quyilmalar);
- boshqalar (yuqoridagi guruhlarga kirmay qolgan asosiy fond — muzey eksponatlari, lizingga olingan asosiy vositalarga qilingan kapital sarflar, turli namunalar va boshqalar).

Amaldagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq ayrim mehnat vositalari asosiy fondlar jumlasiga kiritilmaydi. Ular quyidagilardir:

- xizmat muddati 1 yildan kam bo‘lgan mehnat vositalari (ularning qiymatidan qat’iy nazar);
- maxsus kiyimlar, poyafzal, ko‘rpa-yostiqlar (qiymatidan qat’iy nazar);
- devonxonа buyumlari (kalkulyatorlar, stol usti priborlari va boshqalar);
- ko‘chatxonalarda ekish uchun o‘stirilayotgan ko‘chatlar va boshqalar.

Asosiy fondlar alohida guruhlari o‘rtasidagi nisbat, asosiy fondlarning qaysi guruhi uchun mablag‘ sarflanishi jamiyat uchun ahamiyatsiz emas. Chunki, korxonalarni ishlab chiqarishda asosiy

o‘rin egalaydigan va ularning ishlab chiqarish imkoniyatlarini harakterlaydigan asosiy fondlarning aktiv qismi — mashina va jihozlarning ko‘payishi qiziqtiradi.

Asosiy fondlar aktiv qismining normal ishlashini ta’minlaydigan binolar, inshootlar, inventarlar asosiy fondlarning passiv qismiga kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatida jihozlar hissasining oshishi boshqa teng sharoitlarda ishlab chiqarishning o‘sishiga va fondlar qaytimining oshishiga olib keladi.

Shuning uchun asosiy fondlar tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish ishlab chiqarishning o‘sishiga, tannarxning pasayishiga va korxona pul mablag‘larining ortishiga olib keluvchi shart sifatida qaraladi.

Sanoatning turli tarmoqlariga tegishli korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilishi bir xil bo‘lmaydi. Masalan, yengil va oziq-ovqat sanoatida binolar asosiy o‘rin egalaydi (44–46 foiz), yoqilg‘i sanoatida inshootlar (17–19 foiz), elektro energetika sanoati korxonalarida uzatish qurilmalari (30–33 foiz), mashinasozlik korxonalarida mashina va jihozlar asosiy o‘rin egallaydi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilishiga asosiy ta’sir qiluvchi omillar bo‘lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulot harakteri, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mexanizatsiya va avtomatlashtirilganlik darajasi hamda korxonaning iqlim va geografik joylashishi va xususiyatlari hisoblanadi.

Birinchi omil binolarning qiymati va o‘lchamiga, transport vositalari va o‘tkazish qurilmalarining hissasiga tasir qiladi . Mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi maxsus ishchi mashina va jihozlari hissasining oshishiga olib keladi. Xuddi shunday uchinchi va to‘rtinchi omillar ham asosiy fondlar tuzulishiga ta’sir ko‘rsatadi. Asosiy fondlar tarkibidagi bino va inshootlar hissasi iqlim sharoiti bilan ham bog‘liq.

Quyidagilar asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilishining yaxshilanishga olib keladi:

- uskunalarni yaxshilash va zamonaviylashtirish;
- uskunalar, xususan, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan stanoklar, avtomatlashtirilgan va yarim avtomatlashtirilgan stanoklar, universal va murakkab stanoklar, avtomatik liniyalar hamda hisoblash dasturlash stanoklari tuzilishini takomillashtirish;

- bino va inshootlardan optimal foydalanish, bo‘sh turgan joylarga qo‘shimcha uskunalar o‘rnatish;
- korxonaning qurilish loyihalarini to‘g‘ri tuzish va qurilish rejasini sifatli qilib amalga oshirish;
- ortiqcha va kam foydalaniladigan uskunalarni tugatish.

Asosiy fondlarni hisobga olish va rejalashtirish natural va pul shaklida olib boriladi. Asosiy fondlarni baholashdan oldin mashinalar soni, ularning unumdorligi, quvvati, ishlab chiqarish maydonining o‘lchami va boshqa natural shakldagi miqdoriy ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Bu ma’lumotlar tarmoq va korxona ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda, ishlab chiqarish dasturini rejalashtirishda, uskunalar balansini tuzishda foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida uskunalar inventarizatsiya qilinadi va ularni hisobdan chiqarish, hisobga kiritish amalga oshiriladi.

7.3. Asosiy fondlarni baholash, eskirishi va ta’mirlash

Asosiy fondlarni pul (qiymat) shaklida baholash asosiy fondlarning takror ishlab chiqarishini rejalashtirish, eskirish me’yorini va amortizatsiya ajratmalari miqdorini hamda xususiylashtirish hajmini aniqlash uchun zarur hisoblanadi.

Asosiy fondlarni baholashning boshlang‘ich, qayta tiklanish va qoldiq qiymat ko‘rinishlari farqlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining boshlang‘ich qiymati asosiy fondni yaratish yoki sotib olish uchun ketgan hamda uni o‘rnatish, montaj uchun ketgan jami xarajatlar summasidan iborat. Bundan amortizatsiya normasi va amortizatsiya ajratmalari ko‘lamini aniq-lashda, korxona foydasi va rentabelligini hisoblashda foydalaniladi.

Fan-texnik taraqqiyoti natijasida asosiy fondlarni ishlab chiqarish shartlari va omillari ham o‘zgarib bormoqda, binobarin, joriy bozor baholari va tariflari bilan bog‘liq ravishda ularning ishlab chiqarish xarajatlari ham o‘zgarib bormoqda. Hozirgi kunda asosiy fondlar joriy baholari va tariflariga birinchi darajali ta’sir qiluvchi omil bo‘lib inflyatsiya hisoblanadi.

Korxona balansida asosiy fondlar vaqt o‘tishi bilan turli xil qiymatda aks etib qoladi. Ya’ni xo‘jalik yuritishning hozirgi sharoitida asosiy fondlarni faqat ularning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha haqiqiy

baholab bo'lmaydi va shuning uchun ularni qayta baholash va bir xil qiymatga o'tkazish zarurati to'giladi.

Tiklangan qiymati — bu asosiy fondlarning qayta baholash, kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilingandan keyingi qiymati. Bu qiymat vaqtinchalik bo'lib, qo'shimcha qilingan xarajatlar va qayta baholash natijasi asosiy fondlar qiymatiga kiritilgach boshlang'ich qiymat bo'lib qolaveradi.

Asosiy fondlar ishlatilishi jarayonida eskirib boradi va o'zining boshlang'ich qiymatini bosqichma-bosqich yo'qotib boradi. Ularning real qiymatini aniqlash uchun eskirgan qismining qiymatini aniqlash zarurati tug'iladi. Ularning boshlang'ich yoki tiklanish qiymatidan eskirish summasi ayrilib asosiy fondlarning qoldiq qiymati aniqlanadi. Bu qiymatni balans qiymati ham, deb ataydilar. Chunki aynan shu qiymatda asosiy fondlar korxonaning balansida aks ettiriladi.

Sotish qiymati – bu asosiy fondlarning sotilishi vaqtida sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida kelishilgan shartnomaviy qiymat.

Eskirishning jismoniy va ma'naviy ko'rinishlari farqlanadi.

Jismoniy eskirish, deganda asosiy fondlarning boshlang'ich iste'mol qiymatining bosqichma-bosqich yo'qolib borishi tushuniladi. Bunda nafaqat ularning ishlash jarayonidagi eskirishi, balki bekor turishi natijasida ham eskirganligi kiradi. Asosiy fondlarning fizik eskirishi — asosiy fondlarning sifatiga, texnik takomillashganligiga, ishlash vaqtiga, tashqi ta'sirlardan himoyalanganligiga, parvarish qilinishiga, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari xususiyatlariga hamda ularga xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liq.

Asosiy fondlarning jismoniy eskirishi, hatto ularning bir xil elementlarida ham har xil bo'ladi. Asosiy fondlarning to'liq va qisman eskirishi farqlanadi. To'liq eskirganda ishlab turgan asosiy fondlar yo'qotiladi va joyiga yangisi (kapital qurilish yoki eskirgan asosiy fondlarni joriy almashtirish vositasida) keltiradi. Qisman eskirish ta'mirlash yo'li bilan qoplanadi.

Asosiy fondlarning jismoniy eskirishi haqiqiy xizmat qilgan davrni normativdagi davrga bo'lish va 100 ga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanishi mumkin. Nisbatan to'g'ri usul bu obyektning tabiiy holatini tekshirishdir.

Ma'naviy eskirish bu — mashina va uskunalar qiymatining ularni takror ishlab chiqarish uchun ketadigan umumiy, zaruriy

xarajatlarining qisqarishi, yangi va unumdor mashina va uskunalarning joriy qilinishi ta'sirida pasayishidir. Ushbu omillar ta'sirida asosiy fondlar o'zining texnik tavsifi va iqtisodiy samaradorligi jihatdan qoloq bo'lib qoladi, ya'ni ma'naviy eskiradi.

Ma'naviy eskirgan asosiy fond xali ishlab chiqarishga yaroqli bo'lsada, undan foydalanish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'ladi. Bu tusdagi eskirishning bosh omili ilmiy texnika taraqqiyoti hisoblanadi va asosiy fondlar ishlab chiqaruvchi sohada mehnat unumdorligini o'sishi hisoblanadi.

Ilmiy texnika taraqqiyoti negizida mehnat vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda mehnat unumdorligining ortishi, shu turdagi vositalar bahosining pasayishiga olib keladi.

Bu holatdagi ma'naviy eskirishning miqdori obyekt boshlang'ich qiymatiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$И_м = \frac{(Ф_б - Ф_т) \cdot 100\%}{Ф_б}$$

bu yerda: $И_м$ – ma'naviy eskirish miqdori;

$Ф_б$ – obyektning boshlang'ich qiymati;

$Ф_т$ – obyektni tiklash qiymati.

Bundan tashqari ilmiy texnika taraqqiyoti ta'sirida ostida mehnat vosita (mashina va qurilma)larining yangi avlodi yuzaga keladi. Ular oldingilariga nisbatan yuqori unumli, takomillashgan va tejamkorligi bilan farq qiladi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$И_{м_2} = Ф_н - \left(\frac{Ф_п}{ПТ_н} - \frac{Ф_п^1}{П^1 T_н^1} \right) \cdot T_0 \cdot П$$

bu yerda: $Ф_п$ va $Ф_н$ – eski va yangi mehnat vositasi (texnika)ning boshlang'ich qiymati, so'm;

$П$ va $П^1$ – eski va yangi mehnat vositasi (texnika)ning yillik mehnat unumdorligi;

$T_н$ va $T_н^1$ – eski va yangi mehnat vositasi (texnika)ning xizmat qilish normasi, yil;

T_0 – eski mehnat vositasi (texnika)ning qolgan xizmat muddati, yil.

Umumiy ko'rinishida ma'naviy eskirish quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin:

$$И_{Ал} = \frac{Ф_{П} - \frac{Ф_{В}^{1} П}{П^{1}} \cdot 100}{Ф_{П}}$$

bu yerda: $Ф_{В}^{1}$ – yangi mehnat vositasi (texnika)ning tiklanish qiymati.

Hozirgi sharoitda ma'naviy eskirishni hisobga olishning ahamiyati ortib boradi. Ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun hali to'liq jismoniy eskirmagan, lekin ma'naviy eskirgan asosiy fondlarni yangisi bilan almashtirish kerak bo'ladi. Ma'naviy eskirgan texnikani o'z vaqtida zamonaviylari bilan almashtirmaslik mahsulot tannarxini pasaytirishga, sifatini yaxshilashga imkoniyat bermaydi. Bunday mahsulotlar bilan raqobatga kirishib bo'lmaydi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlardan foydalanish oqibatida, ularning texnik xolati boshlang'ich davrdagiga nisbatan yo'qolib boradi. Shuning uchun ularni ishchi holatda ushlab turish uchun ta'mirlash lozim bo'ladi.

Asosiy fondlarni ta'mirlash ikki turga bo'linadi: joriy va kapital.

Joriy ta'mirlash — bu asosiy fondlarni vaqtidan oldin ish layoqatini yo'qotmaslik uchun vujudga kelgan kichik hajmdagi texnik buzilishlar va lat yeyishlarni tuzatish bo'yicha doimiy va o'z vaqtida o'tqazilgan profilaktik harakterga ega bulgan ta'mirlash ishlaridir. Odatda, joriy ta'mirlash muddati bir yildan oshmaydi. Bunday ta'mirlashda asosiy fondning u yoki bu qismi almashtirilmaydi. Joriy ta'mirlash ishlari joriy ta'mirlash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu dalolatnomada qilingan ishlarning turlari, sarflangan materiallarning qiymati, ketgan mehnat vaqti va qiymati, shuningdek, boshqa xarajatlar ko'rsatiladi. Dalolatnoma joriy ta'mirlashga ma'sul shaxslar tomonidan imzolanadi, korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Kapital ta'mirlash — bu ma'lum bir vaqtdan keyin (odatda, bir yildan keyin) asosiy fondlarni to'liq qismlarga ajratish, kerak bo'lganda u yoki bu layoqatsiz bo'lib qolgan qismlarni to'liq almashtirish bo'yicha bajarilgan ta'mirlash ishlari tushuniladi. Kapital ta'mirlash hajmi, murakkabligi va qiymati bo'yicha joriy ta'mirlashdan katta farq kiladi. Kapital ta'mirlash ishlari maxsus kapital ta'mirlash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga, jumladan, Soliq Kodeksiga va Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan

tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomiga muvofiq korxonalar joriy va kapital ta'mirlashni mablag' bilan ta'minlashni quyidagi ikki usulning birida amalga oshirishlari kerak. Va tanlangan usulni o'zlarining hisob siyosatlarida belgilab olishlari lozim :

- ta'mirlash uchun maxsus rezerv tashkil etish va barcha xarajatlarni ushbu rezerv hisobidan koplash usuli;
- ta'mirlash ishlari kiymatini rezerv tashkil etmasdan xarajatlarga bevosita olib borish usuli.

Birinchi usulda korxona ta'mirlash ishlari uchun har oyda o'zi belgilab qo'ygan me'yorlarda maxsus rezervga ajratmalar qilib boradi. Joriy va kapital ta'mirlash ishlari yakunlangan oyda ularning qiymati tegishli tasdiqlangan dalolatnomalar asosida rezerv evaziga hisobdan chiqariladi. Yil oxirida ta'mirlash uchun tashkil etilgan rezervning ishlatilmay qolingan qismi kelgusi yilga (soliq bazasiga qayta kiritish sharti bilan) o'tkaziladi.

Ikkinchi usulda «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish buyicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomiga muvofiq joriy va kapital ta'mirlash xarajatlari ta'mirlangan asosiy fondlarning ishlatilish maqsadiga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga, shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari va tajriba konstruktorlik ishlanmalari, shuningdek, kelgusida ishga tushirilishga mo'ljallangan texnologik liniyalarga doir asosiy fondlarni ta'mirlash xarajatlari (agar ITI va TKI yakunlari bo'yicha moddiy boyliklar olingan bo'lsa) ushbu boyliklar tannarxiga kiritiladi.

Amaliyotda shunday holatlar yuzaga keladiki, ma'lum bir miqdorda asosiy fondlar ishlab chiqarishga joriy etilsa, ularning ma'lum bir miqdor chiqarib tashlanadi. Shuning uchun ular qiymati quyidagicha hisobga olib boriladi:

- yil boshiga asosiy fondlar qiymati;
- yil oxiriga asosiy fondlar qiymati;
- o'rtacha yillik asosiy fondlar qiymati.

Korxonalarning asosiy fondlarini oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun investitsiyalar kiritish talab qilinadi. Bunda asosiy manbalardan biri bo'lib — amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

7.4. Amortizatsiya ajratmalari — asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning muhim manbai

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida tijorat korxonlarida asosiy fondlarni yangilashga ketadigan xarajatlarni qoplashning asosiy manbai, ularning o'z mablag'lari hisoblanadi. Bu mablag' asosiy fonddan foydalanish mobaynida amortizatsiya ajratmasi shaklida jamg'ariladi.

Amortizatsiya — bu asosiy fond eskirib borishiga qarab, uning qiymatini asta-sekin ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qismlab o'tkazish, asosiy fondni keyinchalik qayta tiklash maqsadlarida mahsulot(ish, xizmat)ning amortizatsiya miqdoriga teng qismini ajratib borish jarayonidir.

Amortizatsiya iste'mol qilingan mehnat vositalari qiymatini, ularning eskirishiga muvofiq ravishda mahsulot(ish, xizmat) tannarxiga o'tkazish, iste'mol qilingan mehnat vositalarining o'rnini qoplash maqsadida pul mablag'ini jamg'arish jarayonini aks ettiradi.

Amortizatsiya ajratmalari belgilangan amortizatsiya norma (me'yor)lari asosida ajratilib boriladi.

Amortizatsiya hisoblanadigan mulk tarkibiga O'zbekiston Respublikasini qonunchiligiga ko'ra korxona xo'jalik faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida o'zining fizik ko'rinishini o'zgartirmasdan foydalaniladigan aktivlar kiradi. Yer uchastkalari, qazilma boyliklar, o'rmonlar va moliyaviy aktivlar bunga kirmaydi. Amortizatsiya ajratmasi summasi asosiy fondning qiymatiga, undan foydalanish muddatiga va modernizatsiya xarajatlariga bog'liq.

Korxonalarning asosiy fondlari amortizatsiya hisoblanadigan va amartizatsiya hisoblanmaydigan turlarga bo'linadi.

Qo'yidagi asosiy fondlarga amortizatsiya hisoblanmaydi:

- kutubxona fondiga;
- ko'p yillik o'simliklarga;
- ishchi va nasldor hayvonlarga;
- konservatsiya qilingan asosiy vositalarga.

Asosiy fondlarning qolgan turlari bo'yicha amortizatsiya hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq asosiy vositalar amortizatsiya normalari bo‘yicha qo‘yidagi yettita guruhga bo‘linadi (7.4.1-jadval).

7.4.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya normalari[14]

№	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiya-ning eng yuqori normasi, foizlarda
1.	Binolar, imoratlar va inshootlar	5
2.	Uzatish qurilmalari	8
3.	Kuchquvvat beradigan mashinalar va uskunalar	8
4.	Faoliyatning turlari bo‘yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	15
5.	Harakatlanuvchan transport:	
5.1.	-temir yo‘lning harakatdagi tarkibi; -dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari; -havo transporti.	8
5.2.	-avtomobil transportiningharakatdagi tarkibi; -ishlab chiqarish transporti; -yengil avtomobillar va taksilar; -sanoat traktorlari.	20
5.3.	-kommunal transport; -maxsus vaxta vagonlari.	10
5.4.	-boshqa transport vositalari	20
6.	Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma’lumotlarni qayta ishlash uskunalari	20
7.	Boshqa guruhlarga kiritilmagan qat’iy belgilangan aktivlar	10

[14] O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 2007-yil 25-dekabr, 144-modda.

Amortizatsiya normasi darajasi asosiy fondlarning eskirgan qismini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan resurslar hajmini ifodalaydi. Uning yordamida asosiy fondlarning aylanma tezligi va ularni takror ishlab chiqarish jarayonini modellashtirish nazorat qilinadi.

Amortizatsiya ajratmalari miqdori bir necha usulda hisoblanishi mumkin:

- bir maromda hisoblash;
- bajarilgan ish hajmiga proporsional hisoblash;
- xizmat yillari yig'indisiga proporsional hisoblash (kumulyativ usul);
- kamayib boruvchi qoldiq qiymatdan hisoblash.

Amortizatsiya ajratmalari miqdorini bir maromli usulda hisoblash asosiy fondlarning bir maromda jismoniy va ma'naviy eskirishiga mo'ljallangan (7.4.2-jadvalga qaralsin).

7.4.2-jadval

Amortizatsiya ajratmalari miqdorini bir maromli usulda hisoblash

Asosiy fondlar ko'rinishlari	O'rtacha balans qiymati, mln. so'm	Amortizatsiya ajratmalarining yillik normasi, %	Amortizatsiya ajratmalarining yillik miqdori, mln.so'm (gr.2xgr.3)
1	2	3	4
Yuk avtomashinasi	60,0	20	12,0
Binolar	350,0	5	17,5
Kompyuterlar	7,0	20	1,4
Jami:			30,9

Korxonalar amortizatsiyani hisoblashning u yoki bu usulini doimiy tarzda tanlab olish yoki har to'rtta usulni bir vaqtning o'zida u yoki bu asosiy fondlar bo'yicha belgilab olish mumkin. Amortizatsiyani hisoblashning bu usullarni qo'llashda amortizatsiya summasi turlicha bo'lishi va u Soliq Kodeksida ko'zda tutilgan bir maromda hisoblab chiqilgan miqdordan kam yoki ko'p bo'lishi mumkin.

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi ko'p hollarda jadal kechadi. Shuning uchun korxona boshqaruvchisi amortizatsiya ajratmasini tez ma'naviy eskirayotgan asosiy fondlarning o'rnini qoplab oladigan darajada belgilashi lozim. Bu muammoni tezlashtirilgan amortizatsiya usuli yordamida hal qilish mumkin.

Hozirgi kunda uskunalar qiymatining katta qismini dastlabki yillardayoq ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkazishni ta'minlaydigan notekis amortizatsiya keng qo'llanilmoqda. Masalan, birinchi yil – 50 foiz, ikkinchi yil – 30 foiz, uchinchi yil – 20 foiz o'tkaziladi. Bu korxonalarga inflyatsiya sharoitida qilingan xarajatlarni tezroq qoplash va uskunalarni yangilash imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda amortizatsiya ajratmalari kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli ham ularda davlat ko'pincha firmalarga jadallashtirilgan, ya'ni yuqori amortizatsiya normalarini qo'llashga ruxsat beradi. Amortizatsiya ajratmalarining yuqori normalarini qo'llash asosiy fondlar qiymatini nisbatan qisqaroq vaqt ichida ro'yxatdan chiqarish imkonini beradi. Jadallashtirilgan amortizatsiya normalari, odatda, asosiy fondlarning aktiv (bevosita ishlab chiqarishda qatnashadigan) qismiga nisbatan qo'llashga ruxsat beriladi.

Tabiiyki, jadallashtirilgan amortizatsiya normalarini qo'llash mahsulot(ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan amortizatsiya ajratmalari ishlab chiqarish xarajatlarining oshib ketishiga va korxona sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keladi. Biroq, jadallash-tirilgan amortizatsiya normalarining qo'llanilishi asosiy fondlarning tezroq yangilanishiga moliyaviy sharoit yaratadi.

Sanoat korxonalarida amortizatsiya ajratmalari summasi mustaqil ravishda korxonaning asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va takomillashtirishga sarflanadi.

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning turli shakllari mavjud. Oddiy takror ishlab chiqarish shakli — bu eskirgan mehnat vositalarini kapital ta'mirlash. Bunda, ta'mirlash xarajatlari bevosita mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Noishlab chiqarish fondlarini ta'mirlash uchun xarajatlar foyda hisobiga qoplanadi.

Asosiy fondlarni kengaytirilgan shaklda takror ishlab chiqarish, deganda yangi qurilishni amalga oshirish, korxona faoliyatini

kengaytirish, uni rekonstruksiya qilish, texnik qayta qurollanish hamda uskunalarni modernizatsiya qilish tushuniladi.

Bu shakllarning har biri aniq vazifani bajaradi, o'ziga yarasha ustunlik va kamchiliklari bor. Yangi qurilish hisobiga asosiy fondlarining barcha elementlari zamon talabiga javob bera oladign korxonalar yuzaga keladi. Biroq, hozirgi sharoitda ishlab chiqarishning susayishi bilan ko'pchilik korxonalar mablag' yetishmasligi sababli faoliyatini to'xtatadilar. Rekonstruksiya qilishda kapital xarajatlarning asosiy qismi eski ishlab chiqarish binolari va inshootlaridan foydalanish davrida fondlarning aktiv qismini takomillashtirishga yo'naltiriladi. Uskunalarga qilinayotgan xarajatlar hissasining ortishi mehnat unumdorligining ortishiga, ishlab chiqarishning kengayishiga va mahsulot tannarxining pasayishiga olib keladi.

Uskunalarni modernizatsiyalash — bu uskunalardagi ma'naviy eskirishni to'liq yoki qisman bartaraf qilish va ishlab chiqarishga nisbatan zamonaviy konstruksiyalarni joriy qilishdir.

Uskunalarni modernizatsiyalsh bir necha yo'nalishlarda olib borilishi mumkin:

- ishlayotgan mashinalarning konstruksiyasini, ularning texnik imkoniyatlarini oshiradigan qilib takomillashtirish;
- stanok va mexanizmlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash;
- uskunalarni dasturiy boshqarishga o'tkazish.

Uskunalarni modernizatsiya qilish iqtisodiy jihatdan samarali bo'lib, mehnat unumdorligi va yillik ishlab chiqarish hajmini oshiradi, mahsulot tannarxini kamayishiga olib keladi. Agar foydaning o'sishi modernizatsiya xarajatlari tufayli asosiy fondlar qiymatining o'sishidan yuqori bo'lsa rentabellik oshgan bo'ladi. Shu sababli ham korxonalarda ishlab chiqarish texnologiyalarini va mehnat qurollarini modernizatsiyalash doimo dolzarb masalalardan hisoblanib kelingan.

Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009–2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturida «... korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan tenologiyalarni joriy etish»[15] asosiy vazifalardan biri, deb belgilangan.

---

[15] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009, 32-bet.

7.5. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari

Ishlab chiqarish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri — mavjud asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligining oshishi, avvalo, qo'shimcha kapital mablag' sarflamasdan turib mahsulot (ish, xizmat) hajmini ko'paytirishda o'z ifodasini topadi. Bu korxonalarning o'z ishlab chiqarish imkoniyatlaridan, ya'ni ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishini anglatadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati muayyan davrda (yil, smena, kun) korxona tasarrufidagi mehnat vositalaridan to'liq foydalangan holda belgilangan assortimentda (mumkin bo'lgan) eng yuqori miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ifodalaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati har bir mahsulotning tabiiy o'lchov birliklarida (tonna, metr, dona) va qiymatlarida aks etishi mumkin .

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati yetakchi sexlar, uchastkalar, shuningdek, ayrim liniyalar, agregatlar bo'yicha belgilanishi mumkin.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati (uning ishlab chiqarish xususiyatini e'tiborga olgan holda) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = N*P*T$$

bu yerda: Q – korxonaning ishlab chiqarish quvvati;
N – o'rnatilgan mashinalar soni, dona;
P – bir mashina unumdorligi;
T – yillik xizmat qilish muddati.

Bir tarmoq ichidagi korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlar yig'indisi, shu tarmoqning ishlab chiqarish quvvatini belgilaydi. Ishlab chiqarish quvvatlari balansi taxminan quyidagicha bo'ladi:

1) Yil boshidagi ishlab chiqarish quvvati.

2) Rejalashtirilgan davr mobaynida ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi, jumladan:

- tashkiliy-texnikaviy tadbirlar hisobiga;

- rekontruksiya va modernizatsiya hisobiga;
- yangi qurilish hisobiga.

3) Ishlab chiqarish quvvatlarining ishlab chiqarishdan chiqib ketishi.

4) Yil oxiridagi ishlab chiqarish quvvatlari.

5) o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati.

O'rtacha yillik ishlab chiqaruv quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti (K_{IM}):

$$K_{IM} = \frac{TM}{M_{O'RTA}}$$

bu yerda: TM – joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulot(so'm);
$M_{O'RTA}$ – o'rtacha yillik quvvat (so'm).

Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini rejalashtirishda o'rtacha yillik quvvat alohida, joriy yilga alohida, kelgusi davr (uzoq muddat)ga alohida hisoblanadi.

Joriy rejalashtirishda o'rtacha yillik quvvat quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_{URT.YIL} = M_{Y.B} + (\frac{M_{us} \cdot n}{12} - \frac{M_k \cdot n}{12}$$

bu yerda: $M_{URT.YIL}$ – o'rtacha yillik quvvat hajmi;
$M_{Y.B}$ – yil boshiga quvvat hajmi;
M_{US} – yil davomida quvvatning o'sishi;
M_k – yil davomida quvvatning kamayishi;
n – quvvat joriy etilgandan yoki chiqarib tashlangandan so'ngi qolgan oylar soni.

Uzoq muddatga (strategik) rejalashtirishda korxonanning ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$M_{Y.O} = M_{Y.B} + M_{TEX} + M_{REK} + M_{KENG} + M_{YAN.K} \pm M_{X.N.U} - M_L$$

bu yerda: M_{TEX} – texnik qayta qurollantirish hisobiga quvvatning ortishi;
M_{REK} – rekonstruksiya qilish hisobiga quvvatning ortishi;
M_{KENG} – kengaytirish hisobiga quvvatning ortishi;
$M_{YAN.K}$ – yangi qurilishi hisobiga quvvatning ortishi;
$M_{X.N.U}$ – mahsulot hajmi va nomenklaturasi o'zgarishi hisobiga quvvatning ortishi yoki kamayishi;
M_L – likvidatsiya qiymati.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati, uning texnik darajasi, kadrlar malakasi, xom ashyolarning sifati, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning assortimenti, kadrlarning malakasiga qarab o'zgarib boradi.

Asosiy fondlar tuzilishining va texnik darajasining — mahsulot ishlab chiqarishning oshishiga hamda mahsulot tannarxining kamayishiga ta'siri, ulardan foydalanish darajasiga bog'liq.

Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlarini quyidagi uch guruhga birlashtirish mumkin:

- asosiy fondlardan ekstensiv foydalanish ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar muddat bo'yicha ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;
- asosiy fondlardan intensiv foydalanish ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar ularning quvvatidan foydalanish darajasini ifodalaydi;
- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar barcha omillar — ekstensiv va intensiv omillar ta'sirini ifodalaydi.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti, uskunalardan foydalanishning smenalilik koeffitsiyenti, uskunalarning ish bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, uskuna ishlash vaqti rejimining smenali koeffitsiyenti.

Uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti uskunalardan haqiqatda foydalanilgan soatlar miqdorini rejadagi soatlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan topiladi:

$$\mathbf{Kekst=Thaq_{.f.} : Tmeer_{.f.}}$$

bu yerda: $Thak_{.f.}$ – uskunalardan haqiqiy foydlanilgan vaqt, soat;

$Tmeer_{.f.}$ – uskunalarning norma bo'yicha ishlash muddati, soat.

Misol. Agar smenaning davomiylik vaqti 8 soat bo'lsa, reja bo'yicha ta'mirlash ishlariga 1 soat sarflansa, stanoklarning haqiqiy ishlash vaqti 6 soatni tashkil etsa, unda uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti 0,86·[6:(8-1)] ga teng bo'ladi. Bu stanoklardan rejdagi foydalanish kerak bo'lgan vaqtning atigi 86 foizidangina foydalanilayotganligini bildiradi.

Uskunlardan ekstensiv foydalanish smenalik koeffitsiyenti ko'rsatkichi bilan ham tavsiflanadi. Bu ko'rsatkich kun mobaynida,

barcha smenalarda ishlatilgan uskunalar miqdorini eng katta smenada ishlatiladigan stanoklar miqdoriga bo'lish bilan aniqlanadi. Uskunalarning har bir birligi yilda nechta smenada ishlatilishini hisoblashning soddalashtirilgan usuli quyidagicha: sexga 150 birlik stanok o'rnatilgan, shulardan birinchi smenada 100 birlik stanok, ikkinchi smenada 90 birligi ishlatildi. Smenalilik koeffitsiyenti

$$\frac{100 + 90}{150} = 1{,}33$$ ni tashkil etadi.

Korxonalarda smenalilik koeffiitsentini oshirishga intilish kerak. Chunki u qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish ham ortadi.

Uskunalar ishining smenaliligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ishchi o'rinlarining ixtisoslashganlik darajasini oshirish. Bu ishlab chiqarishning seriyaliligini va uskunalarning ish bilan ta'minlanganligini oshiradi;
- ishlarning ritmligini oshirish;
- bekor turib qolishlarni kamaytirish;
- ta'mirlash ishlarini samarali yo'lga qo'yish;
- asosiy va maxsus yordamchi ishchilar mehnatini mexanizatsiyalash. Bu qo'shimcha ishchi kuchini ozod qilish va ularni ogir yordamchi ishlarga yoki uchinchi smenaga o'tkazish imkonini beradi.

Uskunalarning ish bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti ham uskunalardan vaqt bo'yicha foydalanishni harakterlaydi. Bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarishdagi jami mashina parklari uchun hisoblanadi. Bu ko'rsatkich mavjud uskunalar bilan barcha mahsulotlarni tayyorlash mehnat sig'imining, uning ishlash vaqti fondiga nisbati sifatida aniqlanadi. Amaliyotda uskunalarning ish bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti smenalik koeffitsiyentidan ikki barobar (agar 2 smenali rejim bo'lsa) yoki uch barobar (agar 3 smenali rejim bo'lsa) kam qiymatda qabul qiladi.

Bizning misollarimizda:

$$\textbf{Kyuklanganlik} = 1{,}33 : 2 = 0{,}67$$

Uskunalar ishining smenalik ko'rsatkichi asosida uskuna ishlash vaqti rejimning smenalik foydalanishi koeffitsiyenti ham hisoblanadi. Bu ko'rsatkich uskunalar ishining smenalik koefitsiyentini ushbu

korxonada o‘rnatilgan smenaning davomiylik vaqtiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Agar korxonada smenaning davomiyligi vaqti 8 soat bo‘lsa, unda bu ko‘rsatkich:

$$\mathbf{Ksm_{.i.} = 1,33 : 8 = 0,17}$$

ga teng bo‘ladi.

Biroq uskunalardan foydalanish jarayonining boshqa tomonlari ham bor. Smena orasida vaqtincha kun mobaynida bekor turib qolishlarni bilishdan tashqari uskunalardan haqiqatdan ish bilan ta’minlangan vaqtlarida qanchalik darajada samarali foydalanilayotganligini ham aniqlash kerak. Uskunalar to‘liq ish bilan ta’minlanmagan paytda umuman mahsulot chiqarmasligi mumkin. Bunday hollarda biz uskunalardan ekstensiv foydalanish ko‘rsatkichlarini hisoblash bilan cheklansak yuqori natija olganday bo‘lamiz. Lekin yuqorida ko‘rganimizdek, uskunalardan samarali foydalanish samaradorligi haqida to‘liq xulosa chiqarishga kifoya qilmaydi.

Olingan natijalarni ikkinchi guruxga taalluqli bo‘lgan, asosiy fondlar unumdorligi aks ettiruvchi asosiy fondlardan intensiv foydalanish ko‘rsatkichlari bilan boyitish kerak. Bularning ichida eng muhim ko‘rsatkich — uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsiyenti ko‘rsatkichidir.

Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun asosiy texnik uskunalar haqiqiy unumdorligini uning normtivdagi unumdorligiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Buni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\mathbf{Kint = Mh : Mme'yoriy}$$

bu yerda: Mhaqiqiy – uskunalar bilan vaqt birligi ichida haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish;

Mme’yoriy – uskunalar bilan vaqt birligi ichida texnik asoslangan mahsulot ishlab chiqarish.

Misol. Smena mobaynida stanok haqiqatda 6 soat ishlatilgan. Bo‘sh turgan vaqti 2 soat. Stanoklar soatiga 120 birlik mahsulot ishlab chiqarishi kerak, Lekin ular 6 soatlik ish vaqtida soatiga 90 birlik mahsulot ishlab chiqardi. Bunda, Kint= 90 : 120=0,75 bo‘ladi. Bu uskunlara quvvatining atigi 75 foizidan foydalanilganligini bildiradi.

Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlarining uchunchi guruhiga:

- uskunalardan integral foydalanish koeffitsiyenti;
- ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti;

• mahsulotlarning fondlar qaytimi va fondlar sig'imi ko'rsatkichlari kiradi.

Uskunalardan integral foydalanish koeffitsiyenti uskunalardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlari ko'paytmasi sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich uskunalardan foydalanishni vaqt va quvvati bo'yicha tavsiflaydi. Yuqorida keltirilgan misolda Kekst= 0,86. Kint=0,75. Shunga ko'ra uskunalardan integral foydalanish koeffitsiyenti

$$\mathbf{Kinteg._{foyd.} = 0{,}86 \times 0{,}75 = 0{,}65}$$

ga teng bo'ladi.

Bu ko'rsatkich uskunalardan ham ekstensiv ham intensiv foydalanishdagi kamchiliklarni birgalikda aniqlaydi. Ushbu ikki omil ta'siri natijasida stanoklar soatiga 0,65 foiz ishlatilgan.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichlari — fond qaytimi, fond sig'imi, fond rentabelligi kabilardir.

Asosiy fondlardan samarali foydalanish ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi. Shuning uchun asosiy fondlar samaradorligi ko'rsatkichini aniqlashda mahsulot ishlab chiqarilishida qatnashgan barcha asosiy fondlar qiymatini hisobga olish lozim. Bu ko'rsatkich asosiy fondlarning 1 so'miga qancha ishlab chiqarilgan mahsulot to'g'ri kelishini, ya'ni fondlar qaytimini ifodalaydi. Uni hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$\mathbf{Fq = M : F},$$

bunda: Fq – fond qaytimi, so'm;

M – sotilgan mahsulot hajmi, so'm;

F – korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, so'm.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{F = F_1 + \frac{Fit_{.} \times T_1}{12}; \quad \frac{Fich \times T_2}{12}},$$

bunda: F_1 – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati, so'm;

Fit; Fich – yil mobaynida ishga tushirilgan (hisobdan chiqarilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati, so'm;

T_1, T_2 – ishga tushirilgan (hisobdan chiqarilgan) vaqtdan keyingi to'liq oylar soni.

Fondlar qaytimi asosiy fondlardan foydalanishni ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Mamalakat bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida fondlar qaytimini oshirish milliy iqtisodiyotning muhim vazifasi hisoblanadi.

Mahsulotlarning fondlar sig'imi ko'rsatkichi fondlar qiymatiga teskari ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotning har bir so'miga qancha asosiy fondlar to'g'ri kelishini ifodalaydi. Agar fondlar qaytimi o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa, unda fondlar sig'imi kamayib boradi.

$$F_S = \frac{F}{M}$$

Fond rentabelligi ko'rsatkichi korxonaning yillik sof foydasining asosiy fond qiymatiga nisbati ko'rinishida quyidagi usulda hisoblanadi:

$$F_p = \frac{S_f}{F} x100,$$

bu yerda: F_p – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, so'm;

S_f – korxonaning yillik sof foydasi, so'm;

F – korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, so'm.

Asosiy fondlarning passiv qismidan, jumladan, binolarning ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish darajasi ishlab chiqarish maydonining har bir kvadrat metriga to'g'ri keladigan mahsulot miqdoriga ko'ra aniqlanadi. U quyidagi formula bilan topiladi:

$$M_м = \frac{M_{YA}}{I_м},$$

bunda: $M_м$ – $1м^2$ maydonda ishlab chiqarilgan mahsulot, so'm;

M_{YA} – yalpi mahsulot miqdori, so'm;

$I_м$ – ishlab chiqarish maydoni, $м^2$.

Korxona ishlab chiqarish maydonidan foydalanish ko'rsatkichi, nafaqat, asosiy fondlarning passiv qismidan foydalanishni ifodalaydi, ayni paytda, u asbob-usukunalardan ham foydalanish darajasini ham aks ettiradi.

Har bir $м^2$ maydondan olinadigan mahsulot miqdori qancha ko'p bo'lsa, maydonlardan va o'rnatilgan uskunalardan samarali foydalanilayotganlikdan dalolat beradi.

Amaliyotda ishlab chiqarish korxonalari xususiyatini hisobga olgan holda qiymat ko'rsatkichlaridan tashqari bir qancha natural ko'rsatkichlar ham ishlatiladi:

- metallurgiya sanoatida domna pechlaridan foydalanish darajasini aniqlashda bir tonna cho'yan ishlab chiqarish uchun domna pechining 1 $м^3$ dagi foydali hajmidan foydalanish koeffitsiyenti;
- mashinasozlikda bitta mashinaning natura birligidagi unumdorligi yoki 1 $м^2$ ishlab chiqarish maydonidan olinadigan mahsulot hajmi (soat, smena, sutka yoki bir yilga);
- sement sanoatida (vaqt birligi ichida) sement pechlari va tegirmonlarining tonna hisobidagi unumdorligi va hokazo.

Sanoat korxonalarining natural ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- dastgohlar unumdorligining o'sishi;
- mashina va mexanizmlarning bekorga turib qolish vaqtini bartaraf etish;
- mashina va mexanizmlarning ishlatilish darajasi, texnikaviy takomillashtirish va boshqalar.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini milliy iqtisodiyot miqyosida baholash qiyin. Bu muammoning yechimi mahsulot ishlab chiqarishning oshishiga, aholi istemolini to'laroq qondirilishiga, mamlakatda uskunalar balansining oshishiga, mahsulot tannarxining kamayishiga, ishlab chiqarish rentabelligining oshishiga olib keladi.

Asosiy fondlardan nisbatan to'laroq foydalanish — yangi quvvatlarni jalb qilish kabi ehtiyojlarning kamayishida muhim omil hisoblanadi. Asosiy fondlardan foydalanishning yaxshilanishi, ularning aylanish tezligining oshganligini ham bildiradi.

Xullas, asosiy fondlardan samarali foydalanish iqtisodiy islohotlarning muhim vazifasi hisoblangan — ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining oshishi, raqobat sharoitida ularning tez realizatsiya qilinishi bilan ham chambarchas bog'liq.

Asosiy fondlardan samarali foydalanish, ularning samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi intensiv va ekstensiv omillardan qanchalik to'liq foydalanilayotganligiga bog'liq. Asosiy fondlardan

foydalanishning ekstensiv o'sishi, bir tomonidan, kalendar davrda uskunalardan foydalanish vaqtini oshirishni taqozo qilsa, ikkinchi tomondan, uskunalarning umumiy qiymatida ishlayotgan uskunalar hissasini oshirishni taqozo etadi.

7.5.1 - chizma

Fondlar qiymatini oshiruvchi omillar



Uskunalardan foydalanish vaqtini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- smena o'rtasida bo'sh turib qolishlarni kamaytirish maqsadida uskunalarni ta'mirlash sifatini oshirish, o'z vaqtida asosiy ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan, xom-ashyo bilan, yoqilg'i va yarim fabrikatlar bilan ta'minlab turish;
- kun mobaynida uskunalarning bekor turib qolishini qisqartirish, ularning ishini smenalik koeffitsiyentini oshirish.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'li ortiqcha uskunalar miqdorini kamaytirish va o'rnatilmagan uskunalarni ishlab chiqarishga tezroq jalb etish hisoblanadi.

Mehnat vositalari katta qismining bekor turishi ishlab chiqarishni o'stirish imkoniyatlarining qisqarishiga, uskunalarning bekordan bekor jismoniy eskirishiga va uzoq vaqt ishlamasdan saqlanish natijasida, ularning yaroqsiz ahvolga kelib qolishiga sabab bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan yaxshi saqlangan uskunalar ham ma'naviy eskirish natijasida jismoniy eskirgan uskunalar qatoriga qo'shilib qoladi.

Asosiy fondlardan foydalanishning intensiv o'sishi vaqt birligida uskunalarning ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishni taqozo qiladi.

Uskunalarning intensiv ish bilan ta'minlanganligini oshirish uchun ishlayotgan mashina va mexanizmlarni modernizatsiyalash, ular ishining optimal rejimini o'rnatish lozim. Texnologik jarayonlarning optimal rejimda ishlash ishchilar soni va asosiy fondlarni ko'paytirmay turib mahsulot ishlab chiqarishni oshiradi va mahsulot birligiga sarflanadigan moddiy resurs xarajatlarni kamaytiradi.

Asosiy fondardan foydalanish intensivligini oshirish quyidagilarni talab qiladi: ishlab chiqarish texnologiyalarini va mehnat qurollarini takomillashtirish; mehnatni ilmiy tashkil etishni va boshqarishni takomillashtirish; ishchilarning professionaligi va bilimini oshirish; ishlab chiqarish jarayonidagi nuqsonlarni bartaraf qilish.

Texnika rivojlanishi va shu bilan bog'liq ravishda jarayonlarni intensivlashtirish chegaralanmagan. Shuning uchun asosiy fondlardan foydalanishni intensiv oshirish imkoniyatlari ham chegaralanmagan.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri uning tuzilishini takomillashtirish hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarishning qanchalik o'sishi asosiy sexlarga bog'liq. Shuning uchun ularning asosiy fondlar umumiy qiymatidagi hissasini oshirish lozim.

Yordamchi ishlab chiqarishdagi asosiy fondlarning ortishi mahsulotlar fond sig'imining oshishiga olib keladi, lekin bevosita mahsulot ishlab chiqarishning ortishiga olib kelmaydi. Biroq yordamchi ishlab chiqarishning proporsional ravishda rivojlanishisiz asosiy sexlar to'liq quvvat bilan ishlay olmaydi. Shuning uchun aosiy fondlarning optimal ishlab chiqarish tuzilishini aniqlash ulardan foydalanishni oshiruvchi asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosida aksionerlik jamiyatlarini hamda boshqa turdagi xususiy korxonalarni shakllantirish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bunda mulk egalari ishlab chiqarish vositalarini boshqarishda, asosiy fondlarning ishlab chiqarish tuzilishini shakllantirishda, shuningdek,

korxona foydasini boshqarishda mustaqil bo'lishadi. Mavjud asosiy fondlardan samarali foydalanishda ularning mas'uliyati oshadi. Bu maqsadli investitsiyalashni oshirishga ham yordam beradi.

Tayanch iboralar: mulk, uzoq muddatli aktivlar, asosiy fond, asosiy vosita, asosiy ishlab chiqarish fondlari, noishlab chiqarish asosiy fondlari, asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishi, asosiy fondlarni joriy va kapital ta'mirlash, amortizatsiya, ishlab chiqarish quvvati, asosiy fondlar modernizatsiyasi.

Takrorlar uchun savollar

1. Korxonalar mulkining asosiy fondga mansub ekanligi qanday mezonlarga ko'ra aniqlanadi?
2. Asosiy ishlab chiqarish fondiga tushuncha bering.
3. Asosiy ishlab chiqarish fondlari qanday ko'rinishlarda baholanadi?
4. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining jismoniy va ma'naviy eskirishi mazmunini va ularga ta'sir etuvchi omillarni yoriting.
5. Asosiy fondlarni joriy va kapital ta'mirlash manbalarini ayting.
6. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarish manbalarini ayting.
7. Amortizatsiyaning mohiyatini va keyingi yillarda amortizatsiya siyosatida qanaqangi o'zgarishlar ro'y berganini yoriting.
8. Korxona ishlab chiqarish quvvatiga tushuncha bering.
9. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining samarali ishlatilishi qaysi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi?
10. Korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishini yaxshilashning muhim va real yo'llarini ayting.

VIII BOB. KORXONANING AYLANMA MABLAG'LARI

Reja:

8.1. Aylanma mablag'larning iqtisodiy mohiyati va korxona faoliyatidagi roli.

8.2. Aylanma fondlarning tarkibi, tuzilishi va shakllanish manbalari.

8.3. Aylanma mablag'larni normalashtirish.

8.4. Aylanma mablag'lardan foydalanishni yaxshilash va ularning samaradorligini oshirish yo'llari.

8.1. Aylanma mablag'larning iqtisodiy mohiyati va korxona faoliyatidagi roli

Korxonalarda ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishi uchun uzoq muddatli aktivlar bilan bir qatorda aylanma (joriy) aktivlar ham zarur bo'ladi. Aylanma aktivlar ham korxona mulki hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalarida ularning tarkibiga moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari va pul mablag'lari kiradi.

Moddiy zaxiralar — ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda ular mehnat predmetlari ham deb ataladi.

Mehnat predmetlari mehnat vositalari bilan birgalikda mehnat mahsulotini, uning iste'mol qiymatini yaratishda va qiymatning shakllanishida qatnashadi.

Mehnat predmetlari ishlab chiqarishning bir siklidagina qatnashadi va o'zining natural shaklini o'zgartiradi, qiymatini to'liq yangidan yaratilgan mahsulot qiymatiga o'tkazadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar sotilganidan keyin, ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan mablag'lar korxonaga qaytadi va doimo oborotda qatnashadi. Korxonaning mablag'lari doiraviy aylanishning turli bosqichlarida: pul, ishlab chiqarish vositasi va tayyor mahsulot (tovar) shaklida bo'ladi.

Korxonalar mablag'larining doiraviy aylanishi jarayonida, albatta, debitorlik qarzlari paydo bo'ladi.Bu tabiiy hol.

Debitorlik qarzlari — bu haridorlar va buyurtmachilarning sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun, shuningdek, turli yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum maqsadlarda olgan mablag'lari uchun korxona oldidagi majburiyatidir.

Debitorlik qarzlari — korxonaga tegishli bo'lgan mablag'larning xo'jalik oborotidan chiqib ketishi va ularning vaqtinchalik boshqa subyektlar tassarufida bo'lishligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan tartibga binoan 90 kungacha olinmagan mablag'lar muddati o'tmagan, 90 kundan ortiq muddatda to'lanmagan mablag'lar to'lov muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq 90 kundan to'lov muddati oshib ketgan debitorlik qarzlariga yo'l qo'yganligi uchun korxonalarning rahbarlari va bosh hisobchilari ma'muriy va moliyaviy ja'zoga tortiladi.

To'lov muddati 3 yildan oshmagan qarzlar da'vo muddati o'tmagan debitorlik qarzlari, to'lov muddati 3 yildan oshib ketgan qarzlar esa da'vo muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari hisoblanadi.

Korxonalarning aylanma aktivlari ishlab chiqarish va muomala doirasiga ajratilgan bo'lib, shunga muvofiq, ular aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlarini hosil qiladi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlariga ishlab chiqarish zaxiralari (xom-ashyo, ehtiyot qismlar, neft mahsulotlari va boshqa moddiy boyliklarning qoldiqlari, xo'jalik inventarlari), tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati va kelgusi davr arajatlari kiradi.

Muomala fondlariga — ombordagi mavjud tayyor mahsulotlar; yuklangan, ammo, hali haq to'lanmagan mahsulot; zaxiralarni to'ldirish, ishchi va xodimlar bilan hisob kitob qilish uchn zarur bo'lgan pul mablag'lari; hisob kitobdagi mablag'lar kiradi.

Sanoat korxonalarida aylanma ishlab chiqarish fondlarining ahamiyati katta. Ularsiz ayrim hollarda mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish imkoniyati cheklanadi, ayrim hollarda esa umuman mumkin emas. Chunonchi, mehnat predmeti hisoblangan metallar, elektr kuvvatlari va boshqalar mavjud bo'lmasa mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish ham cheklanadi.

Korxonalar aylanma aktivlarining asosiy qismi ishlab chiqarish doirasida — xom-ashyo, ishlab chiqarish xarajatlarida va ozgina qismi

tovar mahsulotlarining zaxiralarida va muomala doirasida ishtirok etadi.

Aylanma aktivlar takror ishlab chiqarishning uzluksiz bo'lishligini ta'minlaydilar. Ularning miqdori va tarkibi nafaqat ishlab chiqarishning ehtiyoji, shu bilan birgalikda muomala ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ishlab chiqarish va muomala fondlari zaxiralarini shakllantirish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari korxonalarning aylanma mablag'lari deyiladi.

Aylanma mablag'lar — bu aylanma ishlab chiqarish va muomala fondlarining puldagi ifodasidir.

Erkin bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishini ta'minlashda aylanma mablag'larning rolini yaxshi tushunish va ulardan oqilona foydalanish zarur.

Aylanma aktivlarning uzluksiz harakati — ularning doiraviy aylanishini ifodalaydi va ishlab chiqarish vaqtini hamda muomala vaqtini o'z ichiga olib aylanma mablag'larning to'liq aylanish davrini hosil qiladi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish katta ahamiyatga egadir. U kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun qo'shimcha moddiy va moliyaviy resurslarni hosil qiladi. Bu esa ishlab chiqarish uchun qo'shimcha mablag'larni chetdan jalb qilishdan korxonalarni xolos qiladi.

Aylanma mablag'larning doiraviy aylanishini tezlashtirish davlat byudjetining daromadini oshirishga ham yordam beradi. Chunki bunda mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va ularni sotish uchun vaqt qisqaradi. Bu esa o'z navbatida qo'shilgan qiymatdan soliq va boshqa soliqlarning tezroq byudjetga kelib tushishiga olib keladi.

Demak, aylanma mablag'larning doiraviy aylanishini tezlashtirish kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sur'atini ko'tarishga hamda davlatning markazlashgan pul fond mablag'ini to'liq shakllantirishga imkoniyat yaratiladi.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonalar asosiy maqsadiga erishish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishga, jumladan, ishlab chiqarish zaxiralaridan tejab-tergab foydalanishga alohida e'tibor beradilar. Chunki shuning natijasida ular o'z foydalarini ko'paytirishga, oqibat natijada foydalilik darajasini oshirishga erishadilar.

Ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish zaxiralariga bo‘lgan talabini mustaqil ravishda rejalashtiradilar. Ular bozor talablarini, hamkorlarning imkoniyatlarini o‘rganish, narx-navoning o‘zgarish to‘g‘risidagi axborot asosida o‘z ishlab chiqarishining ta’minotini, bozorlardagi (tovarlar, xizmatlar, moliya bozorlarida) talablarni nazarda tutgan holda bevosita yoki vositachi orqali oldi-sotdini mustaqil amalga oshiradi.

Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, tannarxning pasayishi, foyda va rentabellikning oshishi, korxonani ishlab chiqarish zaxiralari bilan belgilangan assortimenti va sifati bo‘yicha ta’minlanishiga bog‘liq..

Shu sababli ham korxonalar o‘z ishlab chiqarishini bir maromda samarali rivojlanishini ta’minlash maqsadida uzoq muddatga mo‘ljallangan biznes rejalariga asoslangan holda ishlab chiqarish zaxiralari bilan ta’minlashga alohida e’tibor beradilar. Ishlab chiqarish zaxiralari (mehnat predmetlari)ning o‘z vaqtida olib kelinmaganligi yoki yo‘qligi korxona ishlab chiqarish faoliyatining to‘xtab qolishga olib kelishi mumkin.

Korxonalarning ishlab chiqarish zaxiralari bilan o‘z vaktida, zaruriy miqdorlarda, belgilangan sifatda hamda bir ma’romda ta’minlanishi shu bilan birgalikda ulardan oqilona foydalanish pirovardida uning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun har tomonlama ta’sir etadi.

Korxonalarning rivojlanishi, taraqqiy etishi hamda iqtisodiy jihatdan baquvvat bo‘lishi, mustaqil respublikamizning iqtisodiyotini barqarorlashishiga zamin yaratadi. Xalqimiz turmush darajasining yanada yuksalishiga har tomonlama o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, o‘z navbatida, aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘lamining ham kengayishiga olib keladi. Shuning uchun aylanma mablag‘lardan tejab, tergab foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishni ta’minlash uchun zamonaviy yangi texnikalardan unumli foydalanish, shuningdek, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezkorlik bilan tatbiq etish talab qilinadi. Ular yordamida aylanma mablag‘larning ishlab chiqarishga sarf qilinishi, tejalishi ta’minlanadi.

Yangi iqtisodiy tuzum (mavjud aylanma mablag‘lardan tejamli foydalanish uchun) ishlab chiqarish korxonalaridan quyidagi vazifalarni bajarishni talab qiladi:

- moddiy zaxiralar harakati bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘z vaqtida tegishli hujjatlarda rasmiylashtirish;
- moddiy zaxiralar to‘g‘ri saqlanishi ustidan nazorat olib borish;
- moddiy resurslar ta’minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib borish;
- materiallarning ishlab chiqarishga to‘g‘ri berilishi va ularni sarflash normasiga rioya qilish ustidan nazorat olib borish;
- ichki resurslarni ishga solish maqsadida ortiqcha va foydalanilmayotgan materiallarni aniqlash va sotish va boshqalar.

Erkin bozor munosabatlari sharoitida aylanma mablag‘lardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xo‘jasizlikka qarshi kurashish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e’tibor beriladi. Mavjud moddiy va moliyaviy resurslardan to‘g‘ri, tejamli foydalanish milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omildir.

8.2. Aylanma fondlarining tarkibi, tuzilishi va shakllanish manbalari

Aylanma mablag‘larga ishlab chiqarish zahiralarini shakllantirish, ta’minotchilar va boshqa turli subyektlar (jumladan, byudjet) bilan hisob-kitob qilish hamda ish haqini to‘lash uchun korxonaga zarur bo‘lgan pul mablag‘lari kiradi.

Aylanma mablag‘lar tarkibi va tuzilishini bir-biridan farqlamoq kerak. Aylanma mablag‘lar tarkibi, deyilganda aylanma aktivlarni tashkil etadigan elementlar yig‘indisi tushuniladi. Aylanma aktivlarning aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlariga bo‘linishi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish sohalarida ulardan foydalanish va taqsimlash xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishda band bo‘lgan aylanma aktivlar miqdori asosan mahsulot ishlab chiqarish shakllarining davomiyligi, texnika rivojlanish darajasi, texnologiya mukammalligi va mehnatning tashkil etilganligi bilan aniqlanadi.

Korxonaning aylanma ishlab chiqarish fondlari uch qismdan iborat:

- ishlab chiqarish zahiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va o'zi tayyorlagan yarim tayyor mahsulotlar;
- kelgusi davr xarajatlari.

Ishlab chiqarish zahiralari — bu ishlab chiqarish jarayoniga kiritish uchun tayyorlangan mehnat predmetlaridir. Ular xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar, idish va idish materiallari, asosiy fondlarni joriy ta'mirlash uchun ehtiyot qismlari va xo'jalik inventarlaridan iborat. Tugallanmagan ishlab chiqarish va o'zi tayyorlagan yarim tayyor mahsulotlar — bu ishlab chiqarish jarayoniga kirgan mehnat predmetlari: materiallar, detallar, ishlov yoki yig'ish jarayonidagi buyumlar, shuningdek, korxonaning bir sexida oxirigacha ishlab chiqarilmagan va keyinchalik shu korxonaning boshqa sexlarida ishlanishi lozim bo'lgan yarim tayyor mahsulotlar.

Kelgusi davr xarajatlari — bu aylanma fondlarning nomoddiy elementlari bo'lib, ular joriy davrda amalga oshiriladigan, lekin kelgusi davr mahsulotiga taalluqli bo'lgan yangi mahsulotni tayyorlash va o'rganish xarajatlarini, gazeta va jurnallarga obuna to'lovlarini hamda shularga o'xshash boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Korxonalarda muomala jarayoniga xizmat ko'rsatadigan aylanma mablag'lar — muomala fondlarini ifodalaydi. Muomala fonlari miqdori, asosan, mahsulotni sotish shart-sharoitlari va mahsulotning ta'minot va sotish tuzumini tashkil etish darajasiga bog'liq. Ularga korxona omborlaridagi sotishga tayyor mahsulot, jo'natilgan, lekin iste'molchilar tomonidan to'lanmagan mahsulot, korxona pul mablag'lari, hisob-kitobdagi mablag'lar kiradi.

Aylanma mablag'larning alohida elementlari o'rtasidagi nisbat aylanma mablag'lar tuzilishi deyiladi. Sanoat tarmoqlari aylanma mablag'lari tuzilishidagi farq ko'pgina omillar bilan asoslanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish xususiyatlari, ta'minot va sotish sharoitlari, ta'minotchi va iste'molchilar joylashishi, ishlab chiqarish xarajatlari tuzilishi.

Sanoat korxonalari aylanma aktivlarining ko'p qismini aylanma ishlab chiqarish fondlari tashkil etadi. Ularning ulushi 75–87 foiz. Turli tarmoqlar bo'yicha aylanma ishlab chiqarish fondlari tuzilishi

ham turlichadir. Ishlab chiqarish zahiralarining eng katta salmoqli ulushi yengil sanoat korxonalarida (xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ustunlik qiladi – 70 foiz. Kimyo sanoatida kelgusi davr xarajatlari ulushi yuqori — 9 foiz. Mashinasozlik sanoatida ishlab chiqarish zahiralari ulushi nisbatan kam, o'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish ulushi esa yuqori. Bunga sabab mashinasozlikda sanoatning boshqa tarmoqlariga nisbatan ishlab chiqarish sikli uzunroqdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, turli ishlab chiqarish korxonalarida xom-ashyo va materiallar tuzilishi ham har xildir. Ayrim korxonalarda ularning tuzilishi yil mobaynida keskin o'zgaradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarda xom ashyoning hissasi kuz paytida yuqori bo'ladi. Non va non mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda esa xom-ashyo va materiallar tuzilishi yil davomida o'zgarishsiz qoladi.

Sanoat korxonalari aylanma mablag'lari tuzilishida ishlab chiqarish sohasiga joylashtirilgan mablag'lar umumiy ustunlikga ega. Barcha aylanma mablag'lar tarkibida ularning hissasi o'rtacha 70 foizni tashkil qiladi (8.4.1-chizma).

Korxonalar banklardan va boshqa yuridik shaxslardan o'zlarining aylanma mablag'larini to'ldirish, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rivojlantirish maqsadida qisqa muddatli va boshqa maqsadlar uchun uzoq muddatli kreditlar va qarzlar olishlari mumkin.

Kredit va kreditorlik qarzlari — bu korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qarzdorligini bildiradi.

Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartarafetish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturida korxonalarni iqtisodiy qo'llab quvvatlash maqsadida, ularga «... aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ... Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish»[16] ko'zda tutilgan.

Korxonaning samarali ishi — bu minimal xarajatlar qilib maksimal natijalarga erishishdir. Xarajatlarni kamaytirish — bu avvalom bor, korxona aylanma mablag'larini shakllantirish manbalari

[16] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009, 33-bet.

tuzilishini optimallashtirish, ya'ni o'z mablag'lari bilan kredit resurslarini oqilona uyg'unlashtirishdir.

8.4.1-chizma



Korxona aylanma mablag'lari doimo harakatda bo'ladi — muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga o'tadi va hokazo. Aylanma mablag'lar aylanishi korxona tomonidan moddiy resurslar va ishlab chiqarishga zarur boshqa elementlar uchun to'langan vaqtdan boshlanadi va bu mahsulotni sotishdan olingan tushum ko'rinishida xarajatlar qoplanishi bilan tugaydi. Keyinchalik pul mablag'lari yana korxona tomonidan moddiy resurslar olish va ularni ishlab chiqarishga kiritish uchun ishlatiladi.

Aylanma mablag'lar to'liq aylanadigan, ya'ni ishlab chiqarish va muomala davrini o'tadigan vaqt aylanma mablag'larning aylanish davri deyiladi. Bu ko'rsatkich korxonada mablag'lar harakatining o'rtacha tezligini tavsiflaydi. U ma'lum turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish muddatiga mos kelmaydi.

Aylanma mablag'larni boshqarish eng kam miqdordagi aylanma mablag'lar bilan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Bu korxona aylanma mablag'lari doiraviy aylanishning barcha bosqichlari bo'yicha mos shaklda va minimal (lekin, yetarli) miqdorda taqsimlanishi lozimligini bildiradi. Aylanma mablag'lar har doim bir vaqtning o'zida doiraviy aylanishning barcha bosqichlarida mavjud bo'ladi — pul mablag'lari, materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar ko'rinishida.

Korxonalarning, o'zini-o'zi moliyalashtiradigan hozirgi sharoitda, aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega.

8.3. Aylanma mablag'larni normalashtirish

Korxonaning normal faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larning iqtisodiy asoslangan miqdorlarini ishlab chiqish jarayoni — aylanma mablag'larni normalashtirish, deyiladi. Aylanma mablag'larni normalashtirish — doimiy minimal va shu bilan birgalikda yetarli bo'lgan moddiy boyliklar zahiralarini, tugallanmagan ishlab chiqarish zahiralarini va boshqa aylanma mablag'larni shakllantirish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar summasini aniqlashdan iborat. Aylanma mablag'larni normalashtirish ichki zahiralarni aniqlash, ishlab chiqarish siklini (davomiyligini) qisqartirish va tayyor mahsulotning tezroq sotilishi imkonini beradi.

Aylanma mablag'larni normalashtirish — iqtisoiy va moliyaviy ishlarning muhim bug'inlaridan biridir. Bu ishlarni bajarishda, avvalo, aylanma mablag'larning har bir elementlari bo'yicha nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadigan normani aniqlash, so'ngra esa absolyut summalarda normativlar belgilash talab qilinadi.

Aylanma mablag'larni normalashtirish orqali ularning doiraviy aylanishini to'g'ri va oqilona ishlatilishi ta'minlanadi. Normalashtirish korxonalarning aylanma mablag'larda qatnashayotgan o'z mablag'lari bilan jalb qilinadigan mablag'larni optimal bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy jihatdan asosli qo'yilgan (belgilangan) normativlar aylanma mablag'larni tashkil etishda muhimdir. Chunki ularda ishtirok

etayotgan mablag'larning hajmidan ishlab chiqarish korxonalarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash bog'liqdir.

Normalashtirish muammosi — bu nomalashtiriladigan aylanma mablag'larning har bir elementiga optimal miqdorda norma qo'yishdan iboratdir. Iqtisodiy jihatdan asoslangan normalashtirish bo'lmas ekan xo'jalik oborotida mablag'lar oqilona joylashtirilmaydi. Ayrim aktivlarga ko'proq, ayrimlariga esa kamroq mablag'lar qo'yilishi mumkin. Oqibatda, aylanma mablag'larning samaradorligi pasayib ketadi.

Normalashtirishda quyidagi tamoyillarga amal qilinishi kerak:

- normalashtirish korxonalarning ishlab chifarish dasturiga asoslangan bo'lishi;
- normalar uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi;
- norma va normativlarni belgilashda hamma yetakchi mutaxassislarning qatnashishi.

Shuni ta'kidlash lozimki, normalar bir necha yilga o'zgarmas qilib belgilansa, normativlar har yili yangilanib turiladi. Dastlab aylanma mablag'larning har bir elementiga normativ qo'yilib, u yakka normativ, deb ataladi. Bu yakka normativlar jamlanib umumiy normativ aniqlanadi.

Normalar ishlab chiqarish korxonalarining xom ashyolar, yoqilg'i va hokazolar bilan ta'minlanishida, ishlab chiqarishni tashkil etishda va uning texnologiyasida o'zgarish bo'lganida qaytadan ko'rib chiqilishi (aniqlik kiritilishi) mumkin.

Ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha normalar odatda nisbiy ko'rsatkichlarda (necha kunlik zaxira, iste'molga nisbatan foiz) belgilanadi. Ularga asoslangan holda normativ qo'yiladi.

Aylanma mablag'larning normativi — bu moddiy boyliklar zaxiralarining puldagi ifodasidir. Aylanma mablag'larning har bir elementi bo'yicha normativlar har yili yangilanib turiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida normalashtiriladigan aylanma mablag'larga — ishlab chiqarish zahiralari, tugalanmagan ishlab chiqarish, korxona omborlaridagi tayyor mahsulot qoldiqlari, kelgusi davr xarajatlari va boshqalar kiradi.

Korxonalarda moddiy harakterga ega bo'lmagan mablag'larning ayrimlari bo'yicha normativlar qo'yilmaydi. Ular jumlasiga hisob kitob schyotidagi mablag'lar va debitor qarzlar kiradi.

Aylanma mablag'larni normalashtirish har bir korxonada ulardan to'g'ri foydalanishi ustidan doimiy ravishda nazorat qilib turish uchun katta ahamiyatga egadir. Ularni normalashtirish tijorat hisobini mustahkamlashning hamda korxona moliyaviy ahvolining barqarorligini ta'minlashning shartlaridan biridir.

Aylanma mablag'larni normalashtirish orqali mablag'larning doiraviy aylanishini to'g'ri tashkil etishga, ularning samaradorligini oshirish hamda ularning har bir elementida korxona o'z mablag'ining oqilona joylashtirilishi ta'minlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish tarmoqlari aylanma mablag'larini normalashtirishda umumiy prinsiplarga tayanilsada, har bir tarmoq ichida aylanma mablag'larni normalashtirishda o'ziga xoslik bor. Ammo barcha ishlab chiqarish korxonalarida aylanma mablag'lar elementlari bo'yicha normativ qo'yishda umumiylik mavjud:

- xom-ashyo, materiallar va yoqilg'i bo'yicha normativ bir kunlik sarflarning belgilangan normasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi;
- tayyor mahsulot bo'yicha normativ tovar mahsulotning tannarxdagi bir kunlik summasi belgilangan normaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi;
- boshqa aktivlar (jumladan, xo'jalik inventarlari) bo'yicha normativlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ming yoki million so'miga qo'yilgan norma asosida, ayrim holatlarda esa, buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida qo'yiladi.

Sanoat korxonalarida xom ashyo va materiallar bo'yicha norma, ularning (shartnoma asosida) necha kunda korxonaga yetkazib berilishi, omborga tashilishi, quritilishi va navlarga ajratilishiga qancha vaqt sarflanishi hamda sug'urta zaxirasi sifatida omborda saqlanish muddatiga ko'ra belgilanadi. Amaliyotda, zaxira sifatida omborda saqlanadigan xom ashyo va materiallar bo'yicha normativ (ular joriy zaxirasining 50 foiziga teng miqdorda) shakllantiriladi.

$$N = R \times T,$$

bu yerda: N – xom-ashyo yoki material bo'yicha normativ summasi;

R – ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom-ashyo yoki materialning bir kunlik sarfi, so'mda;

T – xom-ashyo yoki material zaxirasi bo‘yicha norma, kunlarda.

Misol: Korxonaga shartnoma asosida, xom ashyo transport vositasida har 10 kunda yetkazib beriladi, ularni omborga tashish, quritish, navlarga ajratish va zaxira sifatida omborda saqlash uchun 5 kun talab qilinadi.

Korxona joriy yilning ikkinchi choragida ishlab chiqarish uchun 5045,0 mln. so‘mlik xom ashyo sarflanadi. Xom-ashyoning bir kunlik sarfi 56,1 (5045,0 : 90) mln.so‘m. Xom-ashyo (shartnoma asosida) transport vositasida har 10 kunda yetkazib beriladi.

Bunda:

- xom-ashyo bo‘yicha joriy normativ 561,0 (56,1 x 10) mln. so‘m;
- xom-ashyoning omborga tashilishi, quritilishi va navlarga ajratilishiga ko‘ra qo‘yiladigan normativ — 280,5 (56,1 x 5) mln.so‘m;
- sug‘urta zaxirasi sifatida omborda saqlanadigan xom-ashyo va materiallar bo‘yicha normativ — 28,1 (561,0 x 50 % :100) mln.so‘m.

Demak, xom-ashyo bo‘yicha umumiy normativ 869,6 (561,0 + 280,5 + 28,1) mln. so‘mga teng bo‘ladi.

Yoqilg‘i bo‘yicha (gazdan tashqari) normativ qo‘yishda xom ashyo va materiallarga normativ qo‘yish tartibi qo‘llaniladi.

Tayyor mahsulotlarga normativ, ularning haridorlarga jo‘natiladigan paytigacha bo‘lgan vaqtga qarab aniqlanadi. Aytaylik, korxonada tayyor mahsulotlar omborlarda 8 kun saqlanadi. Ularning tannarxi 6375,9 mln. so‘m.

N = (6375,9 ×8) : 90= 70,8 mln.so‘m.

Sanoat korxonalarida tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘yicha normativ ishlab chiqarish siklida sarf bo‘ladigan xom-ashyo va mehnat sarflari hamda shu ishlab chiqarish siklining muddatiga bog‘liq, ya’ni sarflangan xom-ashyodan necha kundan so‘ng tayyor mahsulot olinishiga bog‘liqdir.

Ishlab chiqarish davrida material va mehnat sarflari doimo bir xil bo‘lmasligini hisobga olgan holda normativning aniq bo‘lishi uchun odatda, tugallanmagan ishlab chiqarish har bir mahsulot bo‘yicha hisoblanadi. Va uning asosida ishlab chiqarish siklining uzunligi va sarflarning o‘sish koeffitsiyenti aniqlanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish normativi quyidagi formulalarga asoslanib hisoblanadi:

1). $H_n = \frac{C \times П \times K}{Д}$,

bu yerda,

H_n – tugallanmagan ishlab chiqarish normativi;

C – ishlab chiqarishdagi sarflar;

$П$ – ishlab chiqarish siklining o'rtacha uzunligi;

K – sarflar o'chishi koeffitsiyenti;

$Д$ – rejalashtirilgan davrdagi kunlar soni.

2). $K = \frac{З_n}{З_1} \times Д$,

bu yerda,

K – sarflarning o'sish koeffitsiyenti;

$З_n$ – ishlab chiqarish sikli davridagi sarflar summasi;

$З_1$ – bir kunlik sarf;

$Д$ – ishlab chiqarish siklining o'rtacha muddati.

Misol: Korxonaning ishlab chiqarish rejasida joriy yilning IV choragida jami ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bo'yicha 6375,9 mln.so'mlik xarajat qilish ko'zda tutilgan.

Korxonada to'rtta turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi (8.3.1.-jadvalga qarang).

8.3.1.-jadval

Tugallanmagan ishlab chiqarish hisobi

Mahsulotlar	Ishlab chiqarish ish sikli davri (kunlarda)	Bir kunlik sarf (mln.so'm)	Jami sarflar (mln.so'm)
A	4	24,5	98,0
B	5	15,8	79,0
V	3	23,833	71,5
G	3,5	6,714	23,5
Jami	X	70,847	272,0

Ishlab chiqarish siklining o'rtacha muddati =

$$= \frac{(98,0 \times 4) + (79,0 \times 5) + (71,5 \times 3) + (23,5 \times 3,5)}{272,0} = 4 \text{ kun}$$

$$K = \frac{272000}{70847} \times 4 = 0{,}9.$$

Tugallanmagan ishlab chiqarish normativi:

$$H_n = \frac{6375{,}9 \times 4 \times 0{,}9}{90} = 255{,}0 \text{ mln. so'm.}$$

Tayyor mahsulotlar normativi ularning xaridorlarga jo'natilishi paytiga qarab aniqlanadi. Aytaylik, korxonada tayyor mahsulotlar omborda 8 kun turib qoladi. Ularning ishlab chiqarish tannarxi 6375,9 mln. so'm.

$$H_n = \frac{6375{,}9 \times 8}{90} = 70{,}8 \text{ mln. so'm.}$$

Kelgusi davr xarajatlari normativi oldindan to'langan ijara haqlari, kelgusi yilga jurnallar va gazetalarga obuna bo'lish hamda yangi turdagi mahsulotlarning texnologiyasini yaratish xarajatlari kabilarni o'z ichiga oladi. Oldindan to'lanadigan ijara haqlari, kelgusi yilga jurnallar va gazetalarga obuna xarajatlar bir marta amalga oshiriladi va ular foydalanish muddatida qismlarga bo'lingan holda turli xarajatlarga olib boriladi. Yangi turdagi mahsulotlarning texnologiyasini yaratish bo'yicha xarajatlar esa, ilmiy-tadqiqot ishlari yakunlangandan so'ng, korxona nomoddiy aktivi sifatida tan olinadi.

Kelgusi davr xarajatlari normativi (N) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$H = B_o + P_n - P_e,$$

B_o — yil boshiga kelgusi davr xarajatlariga kiritilgan summasi (buxgalteriya balansi ma'lumotlari bo'yicha);

P_n — rejalashtirilayotgan davrda shu maqsad uchun ko'zda tutilgan xarajatlar;

P_e — rejalashtirilayotgan yilda smeta asosida korxona foydasi hisobidan qoplanadigan xarajatlar.

Misol: Korxona buxgalteriya balansi ma'lumotlariga ko'ra yil boshiga kelgusi davr xarajatlari qoldig'i — 609121,0 ming so'm. Uning quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- jurnal va gazetalarga obuna to'lovlari 680,0 ming so'm;
- ijara to'lovlari 144000,0 ming so'm;
- yangi turdagi mahsulotlarning texnologiyasini yaratish xarajatlari 464441,0 ming so'm.

Rejalashtirilayotgan yilda kelgusi davr uchun jami 137274,0 ming so'mlik xarajat ko'zda tutilgan. Jumladan:

- jurnal va gazetalarga obuna to‘lovlariga 734,0 ming so‘m;

- yangi turdagi mahsulotlarning texnologiyasini yaratishga 136540,0 ming so‘m.

Rejalashtirilayotgan yilda kelgusi davr xarajatlarining 144680,0 ming so‘mi (680,0+144000,0) turli xarajatlarga olib boriladi. Jurnal va gazetalarga obuna to‘lovlari bo‘yicha xarajatlar, pirovard natijada, korxonaning foydasi hisobiga qoplanadi.

Kelgusi davr xarajatlari normativi:

N = 609121,0 + 137274,0 – 144680,0 = 601715,0 ming so‘m.

Barcha yakka normativlarning yig‘indisi korxona aylanma mablag‘larinng umumiy normativini tashkil etadi.

Sanoat korxonalarida nafaqat ishlab chiqarish zaxiralari, ayni paytda, ularning sarflanishi bo‘yicha ham normativlar belgilanadi.

Ishlab chiqarish zaxiralari (moddiy resurs) sarfini normalashtirish — bu belgilangan sifatda mahsulot ishlab chiqarishga yoki ma’lum bir miqdordagi ishni bajarishga ketgan xom ashyo, material, yoqilg‘i, energiyaning maksimal yo‘l qo‘yiladigan sarfini ko‘rsatuvchi reja miqdori. Moddiy manbalarning sarf normasini ishlab chiqarish jarayonida foydalanish xarakteriga ko‘ra asosiy materiallar sarfi va yordamchi materiallar sarfi aniqlanadi.

Asosiy material deb bevosita mahsulot tayyorlanadigan materiallarga aytiladi. Asosiy materiallar sarfi normasi ishlab chiqarish texnologiyasining mukamallashishi darajasiga qarab belgilanadi. Bu normalar mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bartaraf etish qiyin bo‘lgan chiqindilar (masalan, bo‘yashdan keyin cho‘tkada qolgan bo‘yoq)ni hisobga olgan holda tuziladi.

Materiallarni sarf qilishning nazorati ularning doimiy sarfi bilan belgilangan ishlab chiqarish normalarini chog‘ishtirish asosida amalga oshiriladi.

Yordamchi material deb ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan, lekin tayyor mahsulotlarga kirmaydigan (turli tozalash materiallari, materiallarni ishlash uchun kislotalar va boshqalar) materiallarga aytiladi.

Sanoat korxonalarida, shuningdek, texnologik chiqindilar va yo‘qotishlar normasi, ishlab chiqarishda materiallardan foydalanish koeffitsiyenti, dastlabki xom ashyodan foydali komponentlarni ajratib olish koeffitsiyenti va boshqalar ham qo‘llaniladi.

8.4. Aylanma mablag'lardan foydalanishni yaxshilash va ularning samaradorligini oshirish yo'llari

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning asosiy vazifalardan biri - resurslarni tejash tamoyiliga rioya qilgan holda ishlab chiqa-rishni jadallashtirishdir.

Tejamkorlik rejimini ta'minlash bo'yicha chora tadbirlar tizimida asosiy o'rinni moddiy resurslarni tejash egallaydi. Bu mahsulot sifati, ishonchliligi va uzoq muddat xizmat qilishiga zarar yetkazmagan holda unga sarflanadigan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i xarajatlarini kamaytirishni bildiradi.

Hozirgi sharoitda moddiy resurslarni tejashning iqtisodiy ahamiyati quyidagicha ifodalanadi:

- xom-ashyo, material, yoqilgi xarajatlarining kamayishi ishlab chiqarish uchun katta iqtisodiy foydani ta'minlaydi. Bu, avvalombor, mavjud moddiy resurslar miqdoridan ko'proq tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi;
- moddiy resurslarni tejashga intilish yangi texnikani joriy etish va texnologik jarayonlarni mukammallashtirishga turtki beradi;
- moddiy resurslar iste'molidagi tejamkorlik ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilashga va jonli mehnat xarajatlarining tejalishiga ham olib keladi (materiallarni tashish; saqlashga sarflanadigan ish kuchi kamayadi);
- moddiy resurslar tejalishi sanoat mahsuloti tannarxining kamayishiga yordam beradi. Hozirgi vaqtda moddiy xarajatlar hisobiga barcha ishlab chiqarish xarajatlarining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Keyinchalik, ishlab chiqarishning texnik darajasi o'sishi bilan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha umumiy xarajatlarda buyumlashgan mehnat ulushi oshib boradi. Demak, mehnat predmetlari va mehnat vositalaridan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini tejashning asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi;
- mahsulot tannarxining kamayishiga ta'sir qiladigan moddiy resurslar tejamkorligi korxonaning moliyaviy holatiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Shunday qilib, moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash va tejamkorligining iqtisodiy samaradorligi korxonaning barcha ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida har bir korxonalarning muhim vazifalaridan biri moddiy resurslarni tejash hisoblanadi, chunki moddiy xarajatlar foydaga bevosita bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarining katta qismini tashkil etadi. Foyda esa bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona hayot ta'minotining asosiy manbalaridan biridir.

Iqtisodiyotda tejash (iqtisod qilish) manbalari va yo'llari bir biridan farqlanadi.

Tejashning manbasi — bu nimani tejash mumkinligini bildirsa, yo'llari — qanday qilib yoki qaysi tadbirlar hisobiga erishish mumkinligini bildiradi.

Barcha korxonalarda moddiy resurslarni tejash zahiralari mavjud. Zaxira — bu hali foydalanilmagan imkoniyatlardir.

Moddiy resurslarni tejash, ularning yuzaga kelishi va foydalanishi jarayoniga qarab 3 guruhga bo'linadi:

- umumiqtisodiyot (milliy iqtisodiyot) zahiralari;
- umumsanoat-tarmoqlararo zaxiralari;
- ichki ishlab chiqarish zahiralari (sex, zavod, tarmoq zahiralari).

Moddiy resurslarni tejashning asosiy yo'nalishlari: ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy-iqtisodiy guruhlarga bo'linadi.

Birinchi guruh tadbirlariga — xom-ashyoni sifatli tayyorlash, mashinalar tuzilishini takomillashtirish, xom-ashyoni tejamli turlaridan foydalanish, ilg'or texnologiyani joriy etish. Brak va yo'qotishni iloji boricha kamaytirish, ikkilamchi xom ashyodan foydalanish va hokazo.

Ikkinchi guruh — tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishga material manbalarni tejash bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar kiradi:

- material sig'imini rejalashtirish va ilmiy darajasini oshirish;
- texnik iqtisodiy jihatdan asoslangan me'yorlar ishlab chiqish va joriy etish;
- xom-ashyoning zamonaviy turlarini yaratish;
- yoqilg'i balansini takomillashtirish va boshqalar.

Material manbalarni tejashning bosh yo'nalishi — bu tayyor mahsulot chiqishi darajasini oshirishdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, korxonalar tasarrufidagi barcha resurslardan tejamli foydalanish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoita yanada aktual masalalardan biri bo'lib turibdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009–2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturida «... qat'iy tejamkorlik tuzumini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish.

... tannarxni kamaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish ...»[17] vazifa etib belgilangan.

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan samarali foydalanishni uchta asosiy ko'rsatkich tavsiflaydi.

Aylanuvchanlik koeffitsiyenti ulgurji narxlarda mahsulot sotilishi hajmini korxonada aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'iga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$\mathbf{Kam = Rs : Qam},$$

bu yerda: Kam – aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti, aylanmalar;

Rs – sotilgan mahsulot hajmi, so'm;

Qam – aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i, so'm.

Aylanuvchanlik koeffitsiyenti ma'lum davr (yil, chorak) mobaynida korxona aylanma mablag'larining doiraviy aylanishlari sonini ifodalaydi yoki 1 so'm aylanma mablag'lar hisobiga to'g'ri keladigan sotilgan mahsulot hajmini ko'rsatadi. Formuladan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'lar miqdorining ko'payishi 1 so'm aylanma mablag'lar hisobiga mahsulot ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi.

Aylanma mablag'lar bandligi koeffitsiyentining kattaligi aylanuvchanlik koeffitsiyentiga teskari miqdordir. U 1 so'm sotilgan mahsulotga sarflangan aylanma mablag'lar miqdorini tavsiflaydi.

$$\mathbf{Kb = Qam : Rs},$$

bu yerda: Kb – aylanma mablag'larning bandligi koeffitsiyenti.

Bir aylanish davomiyligi kun hisobida – davrdagi kunlar sonini aylanuvchanlik koeffitsiyentiga bo'lish bilan topiladi:

---

[17] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009, 32 bet.

$$Ad = Dk : Kam,$$

bu yerda: Dk – davrdagi kunlar soni (360, 90).

Aylanma mablag'larning aylanish muddati qancha kam yoki sotilgan mahsulotning o'sha hajmda aylanishlar soni qancha ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shuncha kam talab qilinadi. Va aksincha, aylanma mablag'lar qancha tez aylansa, ular shuncha samarali foydalaniladi.

Misol: Korxonada sotilgan mahsulot hajmi o'tgan yili 600000,0 ming so'mni, hisobot yili esa 612000,0 ming so'mni tashkil etdi. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i mos ravishda 120000,0 ming so'm va 110500,0 ming so'mga teng.

Bunda aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti o'tgan yilda 5,0 ga (600000,0:120000,0) va hisobot yilda 5,54 ga (612000,0:110500,0) barobar bo'ladi. Aylanma mablag'larning bir aylanish davomiyligi o'tgan yili 360:5=72 kunga va hisobot yili esa 360:5,54=65 kunga teng. Aylanma mablag'larning yuklanish koeffitsiyenti: 120000,0:600000,0=0,2 va 110500,0:612000,0=0,18 so'm bo'ladi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezlashishi samarasi ulardan foydalanishning yaxshilangani tufayli ularga bo'lgan talabning kamayishida, ularning bo'shatilishda namoyon bo'ladi.

Mutloq bo'shatilishi aylanma mablag'larga bo'lgan talabning to'g'ridan-to'g'ri kamayishini aks ettiradi.

Korxonada aylanma mablag'larning mutloq bo'shatilishi hisobot yilda o'tgan yilga nisbatan 9500,0(120000,0 – 110500,0) ming so'mni tashkil etadi.

Nisbiy bo'shatilish aylanma mablag'lar miqdorining o'zgarishini, shuningdek, sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishini aks ettiradi. Uni aniqlash uchun shu davrda sotilgan mahsulotga haqiqiy aylanishdan kelib chiqqan holda hisobot yili uchun aylanma mablag'larga bo'lgan talablarni va o'tgan yil uchun aylanuvchanlikni hisoblab chiqish kerak. Farq bo'shalgan mablag'lar summasini beradi.

Yuqorida keltirilgan misol ma'lumotlari asosida korxonada bo'shatilgan mablag'lar qiymatini hisoblash mumkin.

Aylanma mablag'larning o'tgan yilgi o'rtacha qoldig'i – 120000,0 ming so'mni, hisobot yilda esa 110500,0 ming so'm tashkil etdi. Aylanma mablag'larning to'liq aylanish davomiyligi, mos ravishda, 72 kun va 65 kunga teng. Aylanma mablag'larga bo'lgan talab hisobot yilda o'tgan yilgi aylanuvchanlikda va o'tgan yilda

sotilgan mahsulot hajmida: (612000,0x72):360=122400,0 ming so'mga teng bo'ladi. Aylanma mablag'larning nisbiy bo'shatilishi 11900,0 ming so'mni tashkil etadi (122400,0-110500,0).

Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish korxona faoliyatini normal ta'minlashda, ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Biroq ayrim korxonalarning o'z moliyaviy resurslari, nafaqat kengaytirilgan, hatto oddiy takror ishlab chiqarish jarayonini to'liq miqdorda ta'minlashga yetmaydi. Korxonada zarur moliyaviy resurslarning yo'qligi, to'lovlar intizomi darajasining pastligi o'zaro to'lamasliklarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezlashishi, hozirgi sharoitda, korxonalarning birlamchi vazifasi hisoblanadi va quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

- ishlab chiqarish zahiralarini tuzish bosqichida — iqtisodiy asoslangan zahira normalarini joriy etish; xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar ta'minotchilarni iste'molchilarga yaqinlashtirish; moddiy-texnik ta'minotning ombor tizimini, shuningdek, materiallar va uskunalar ulgurji savdosini kengaytirish; omborlardagi ishlarni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish.
- tugallanmagan ishlab chiqarish bosqichida — ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini joriy etish; sanoat ishlab chiqarishni tashkil etish shakllarini takomillashtirish; xom-ashyo va yoqilgi-energetika resurslaridan tejamli foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirish.
- muomala bosqichida — hisob-kitob tizimini takomillashtirish; bevosita aloqalar asosida buyurtmalarini bajarish: yuqori talabga ega bo'lgan mahsulot ulushini ko'paytirish va boshqalar.

Tayanch iboralar: aylanma aktivlar, joriy aktivlar, aylanma mablag'lar, aylanma mablag'lar aylanish koeffitsiyenti, aylanma mablag'larning yuklanish koeffitsiyenti, norma, normativ.

Takrorlash uchun savollar

1. Aylanma ishlab chiqarish fondi tarkibini yoriting.
2. Muomala fondlarining tarkibini yoriting.
3. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajalari qaysi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi?

sotilgan mahsulot hajmida: (612000,0x72):360=122400,0 ming so'mga teng bo'ladi. Aylanma mablag'larning nisbiy bo'shatilishi 11900,0 ming so'mni tashkil etadi (122400,0-110500,0).

Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish korxona faoliyatini normal ta'minlashda, ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Biroq ayrim korxonalarning o'z moliyaviy resurslari, nafaqat kengaytirilgan, hatto oddiy takror ishlab chiqarish jarayonini to'liq miqdorda ta'minlashga yetmaydi. Korxonada zarur moliyaviy resurslarning yo'qligi, to'lovlar intizomi darajasining pastligi o'zaro to'lamasliklarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezlashishi, hozirgi sharoitda, korxonalarning birlamchi vazifasi hisoblanadi va quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

- ishlab chiqarish zahiralarini tuzish bosqichida — iqtisodiy asoslangan zahira normalarini joriy etish; xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar ta'minotchilarni iste'molchilarga yaqinlashtirish; moddiy-texnik ta'minotning ombor tizimini, shuningdek, materiallar va uskunalar ulgurji savdosini kengaytirish; omborlardagi ishlarni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish.
- tugallanmagan ishlab chiqarish bosqichida — ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini joriy etish; sanoat ishlab chiqarishni tashkil etish shakllarini takomillashtirish; xom-ashyo va yoqilgi-energetika resurslaridan tejamli foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirish.
- muomala bosqichida — hisob-kitob tizimini takomillashtirish; bevosita aloqalar asosida buyurtmalarini bajarish: yuqori talabga ega bo'lgan mahsulot ulushini ko'paytirish va boshqalar.

Tayanch iboralar: aylanma aktivlar, joriy aktivlar, aylanma mablag'lar, aylanma mablag'lar aylanish koeffitsiyenti, aylanma mablag'larning yuklanish koeffitsiyenti, norma, normativ.

Takrorlash uchun savollar

1. Aylanma ishlab chiqarish fondi tarkibini yoriting.
2. Muomala fondlarining tarkibini yoriting.
3. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajalari qaysi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi?

4. Aylanma mablag‘larni normalashtirishning ahamiyatini yoriting.

5. Aylanma mablag‘larni shakllantirish manbalariga tushuntirib bering.

6. Korxonalarda aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish yo‘llarini yoriting.

IX BOB. XODIMLAR VA ULARNING KORXONA FAOLIYATIDAGI O‘RNI

Reja:

9.1. Bozor munosabatlari sharoitida xodimlarni tanlash tamoyillari, ularning tarkibi va tavsifi.

9.2. Mehnat unumdorligi konsepsiyasi va uning korxona faoliyatidagi ahamiyati.

9.3. Mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlarining tasnifi va tavsifi.

9.4. Mehnatga haq to‘lashning qoidalari, shartlari va korxonada ish haqini tartibga solish.

9.1. Bozor munosabatlari sharoitida xodimlarni tanlash tamoyillari, ularning tarkibi va tasnifi

Inson bilan tabiat o‘rtasidagi moddiy, jismoniy, ashyoviy almashuvlar, munosabatlarning umumiy sharti mehnatdir. Mehnat inson hayotining doimiy va tabiiy shartidir. Mehnat inson bilan tabiat o‘rtasidagi narsalar almashuvining umumiy shartidir. Mehnat, bu nafaqat insonning muskul va ong, jimoniy va aqliy energiyasini sarflash bo‘lib qolmay, maqsadga muvofiq foydali, inson hayoti uchun zarur bo‘lgan moddiy, ma’naviy va jamiyat boyliklarini yaratish uchun yo‘naltirilgan ijtimoiy-zaruriy faoliyatdir.

Mehnat jarayonini boshlashdan oldin inson uning natijasini o‘z ongida shakllantiradi, keyin mehnatini o‘z maqsadiga erishish uchun yo‘naltiradi, o‘z xohishini amalga oshirish uchun mehnatni tashkil qilish usulini va yo‘nalishini aniqlaydi. Buning uchun inson mehnat qurollarini yaratadi.

Mehnatning boshlanish jarayoniga insonning maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan faoliyati kiradi. Mehnat jarayonida nafaqat inson bilan tabiat o‘rtasidagi moddiy almashuv amalga oshadi, unda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ham shakllanadi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar solsak mehnat uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omil ekanligiga ishonchimiz komil bo‘ladi.

Inson mehnati orqali moddiy va ma'naviy boylikni yaratish bilan tabiatni o'z hayotiga moslashtirib, uni o'zgartirish bilan bir qatorda o'zini ham takomillashtiradi. Mehnat orqali inson atrof-muhitni o'zgartiradi, uni o'zgartirish bilan o'zining doimo ortib borayotgan ehtiyojini qondirishga intilish bilan inson o'zining tabiatini o'zgartiradi, ya'ni qobiliyatini, bilimini, ko'nikmalarini, imkoniyatlarini kengaytiradi, takomillashtiradi hamda mehnat jarayonini tubdan o'zgartirib boradi. Mehnat jarayoni takomillashadi va insonning o'zi ham takomillashadi.

Shunday qilib, mehnat jarayonida inson shakllanganligini kuzatamiz.

Mehnat natijasida inson doimo eng murakkab jarayonlarni amalga oshirib, o'ziga yanada yuqori maqsadlarni qo'yib va unga erishib boradi.

Biz yuqorida aytgandek, mehnat inson bilan tabiat o'rtasidagi moddiy ne'matlar almashuvigina bo'lib qolmay, uni natijasida insonlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar vujudga keladi. Bu jarayonda mehnatning mazmuni va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati namoyon bo'ladi.

Mehnatning mazmuni nuqtai nazaridan mehnat insonni mehnat qurollari va predmetlari bilan o'zaro bog'lanishi jarayonida hamda ularga insonning ta'siri, aralashuvi natijasida vujudga keladi.

Bu jarayon doimo, tanaffussiz davom etib boradi va takrorlanib turadi.

Mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlar jarayonidagi o'rnida namoyon bo'ladi.

Korxonalarda mehnat resurslari korxona uchun muhim ahamiyatga ega.

Mehnat jarayoni tabiatga ishchi kuchi, mehnat predmetlari va mehnat qurollari (ikkalasi mehnat vositalarini tashkil qiladi) bilan birgalikda ta'sir qilishi tufayli sodir bo'ladi.

Ishchi kuchi bu jarayonda asosiy rol egallaydi. Ishchi kuchi insonning mehnat qilish qobiliyati bilan belgilanadi.

Ishchi kuchi deganda bizlar insonni jismoniy, aqliy, ma'naviy va ruhiy qobiliyatlari va ularni zaruriyat tug'ilishi bilan ishlatib qandaydir moddiy, ma'naviy va madaniy iste'mol qiymatlar yaratishga tushunamiz.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayoni uchta fazadan iborat bo'lib unga:

- shakllanish fazasi;
- taqsimot fazasi;
- iste'mol fazalari kiradi.

Jahon standartlariga binoan ishchi kuchining asosiy qismini yollanma xodimlar tashkil qiladi. Ularga shartnoma (kontrakt) asosida ishlayotgan barcha xodimlar kiradi. Statistikada ishchi kuchi ro'yxatdagi xodimlar sifatida hisobga olinadi. Ro'yxatdagi xodimlarga barcha doimiy, vaqtincha va shartnoma asosida ishga qabul qilinganlar kiradi.

Vaqtincha ishga qabul qilinganlar tarkibiga bir kun va undan ko'proq kunlarga ishga qabul qilinganlar kiradi. Bunga haqiqatda ishlayotgan va vaqtincha ishga chiqmagan, lekin ishda formal holda hisoblanadiganlar kiritiladi.

Nazariyada va amaliyotda mehnat resurslari va mehnat salohiyati degan ko'rsatkichlar ishlatiladi.

VIII Xalqaro statistiklar (1954-yil) konferensiyasida mehnat resurslariga «Xususan mehnat resurslari» va «harbiy xizmatchilar» kirishi ta'kidlangan. «Xususan mehnat resurslari» ishlovchilar va ishsizlar kategoriyalariga ajratilgan.

BMT statistika komissiyasi 1966-yilgi 14-sessiyasida «Iqtisodiy faol aholi» tushunchasini joriy qilgan. Ularga moddiy ne'matlar ishlab chiqarishida va xizmat qilishda qatnasha oladigan shaxslar majmuasi kiradi deb aytilgan.

Mehnat resurslari deganda mehnatga qobiliyatli yoshdagi (ayollar 16–55, erkaklar 16–60 yoshda) ishchilar soni tushuniladi. Bu chegara qonun orqali belgilangan. Mehnat resurslari chegaralangan, lekin hayotda nogironlar, nafaqaxo'rlar, yosh bolalar mehnat qobiliyatidan (ish kuchidan) foydalaniladi.

Mehnat resurslariga bularni qo'shsak mehnat salohiyatini tashkil qiladi.

Korxona miqyosida ishchi xodimlar soni mehnat salohiyatiga teng bo'ladi.

Xodimlar (ishchilar) soni korxonalarda o'rganishda va statistik hisobotda ikki xil turda bo'ladi.

1. Ro'yxatdagilar.

2. Ishga kelganlar.

Ro'yxatdagi xodimlar soni barcha ro'yxatdan o'tgan har xil sabablar bilan ishga (doimiy, mavsumiy, vaqtinchalik) ishchilar soni kiradi. Ularga (xizmat safarida, mehnat ta'tili, dekret ta'tili, kasallar, ishga har xil boshqa sabablar bilan o'qish, deputatlik va h.k.) kelmaganlar kiradi.

Ro'yxatdagi xodimlarga quyidagilar kirmaydi:

- bir marotaba yoki alohida ishlarni bajarishga taklif qilinganlar (vrachlar konsultatsiya uchun, ekspertiza uchun, inventarlarni ta'mirlash, oqlash, kraskalash kabilar);
- shartnoma asosida (huquqiy-fuqarolik shartnomalari), agar ular boshqa tashkilotda ro'yxatda tursa;
- o'rindoshlik asosida ishga qabul qilinganlar hamda boshqa xodimlar va ish haqi statistikasi to'g'risidagi nizomda ko'rsatilgan.

Mehnat resurslarining ahamiyati bozor munosabatlariga o'tish bilan yanada oshadi. Ishlab chiqarishning investitsion harakteri, yuqori darajada ilmiyligi va mahsulot sifatini oshirish muammolari, xodimlarga qo'yiladigan talablarni o'zgartiradi va ulardan yuqori kasbiy mahoratni talab qiladi. Bu korxonalarda xodimlarni boshqarishning tamoyillarini, usullarini va ijtimoiy-psixologik masalalarining tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Mehnat jamoasini yaxshi tanlash boshqaruvning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mehnat jamoasi bir yoqadan bosh chiqaradigan, bir-birini qo'llaydigan, qobiliyatli va korxona rahbariyatining maqsadlarini tushunadigan hamda uni amalga oshiradigan kadrlardan iborat bo'lishi lozim. Bunday mehnat jamoasi xo'jalik faoliyati samaradorligining oshishiga, korxonaning gullab-yashnashi va rivojlanishiga olib keladi.

Mehnat munosabatlari – korxona ishining murakkab aspekti hisoblanadi. Texnik va texnologik vaziyatlarni hal qilish, mehnat jamoasi o'rtasida vujudga keladigan konflikt holatlarni hal qilishga nisbatan juda oson. Chunki jamoani boshqarishda uning har bir a'zosining individual xususiyatlari va dunyoqarashini hisobga olish lozim.

Korxonaning texnik imkoniyatlari qanchalik yuqori bo'lmasin, baribir kerakli darajadagi inson resurslarisiz samarali ishlay olmaydi. Bularning hammasi ishchilar va xodimlarga, ularning bilim darajasiga

va ishlashga bo'lgan hohishiga bogliq bo'lib chiqadi. Bugungi kunda g'arb mutaxassislari bekorga korxonani asosiy tarkibi inson omilidan deb hisoblashmayapti. Chunki ishlab chiqarish tizimi nafaqat bexato ishlaydigan mashina va mexanizmlardan tashkil topgan, balki, ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadigan, yangi g'oyalarni yaratadigan va ularni amalga oshiradigan insonlarni ham o'z ichiga oladi. Murakkab texnik va ishlab chiqarish muommalarini yechish yo'lida insonlar orasida yaqindan o'zaro ta'sirni aniqlash uchun, ularning har birida oxirgi natijaga bo'lgan qiziqishni uygotish hamda mehnatga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirish lozim. Insoniy kapital asbob-uskunalar, ishlab chiqarish zahiralari raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan, ishlab chiqarish samaradorligi va hajmini oshiradigan vositadir.

Shu sababli har bir korxonada xodimlar siyosati ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bu siyosat quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi:

- sog'lom va ishlash qobiliyatiga ega jamoani shakllantirishga;
- korxona ishchilarining malaka darajalarini oshirishga;
- jinsi va yoshiga hamda malaka darajasiga ko'ra optimal tuzilgan mehnat jamoasini shakllantirishga;
- o'zgarib borayotgan holatlarni anglaydigan, yangi va ilgor ishlab chiqarishni sezadigan va uzoqni ko'ra oladigan yuqori mahoratga ega rahbarlarni tanlashga.

Xodimlar siyosati o'z ichiga:

- xodimlar tanlash va yuqori lavozimlarga ko'tarish;
- kadrlar tayyorlash va uzluksiz ularning malakasini oshirish;
- to'liq bandlik sharoitida xodimlarni yollash;
- shakllangan ishlab chiqrish tizimiga muvofiq ishchilarni joylashtirish;
- mehnatni rag'batlantirish;
- mehnatni tashkil etishni takomillashtirish;
- korxona ishchilari uchun qo'lay mehnat sharoitlarini yaratish va boshqalar.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bugungi kunda xodimlarni tanlash va ularning ish joyini o'zgartirishda ikkita asosiy mezonidan kelib chiqish kerak: birinchidan, yuqori kasbiy malakasi darajasi va o'rganishga layoqatli; ikkinchidan, tajribasi va mehnatga faolligi.

Agar insoniy kapital xarajat sifatida emas, balki korxona aktivi sifatida baholansa, xodimlarni ishga jalb etish katta xarajat talab qiladi. Agar korxonaga xuddi shunday katta xarajatga mashinalar sotib olinsa, bu masalaga chuqur yondashilib uning to'la quvvat bilan ishlashiga va ishchi holatining saqlab turilishiga katta e'tibor bilan qaralgan bo'lar edi. Afsuski, yangi xodimlar ishga olinayotganda uncha e'tibor berilmaydi. Xodimlarni tanlashda odatda asosiy e'tibor uning ixtisoslashtirilgan bilimiga qaratiladi. Bu esa tez eskiradi. Shuningdek, xodimlar va ishga kirmoqchi bo'lganlarning qaysilari o'z bilimini doimo oshirib borish qobiliyatiga ega ekanligiga e'tibor berilmaydi.

Garvard universiteti Prezidenti D.Bok ushbu holatga ishora bilan qayd etadiki: Agar siz bilim olishni qimmat deb hisoblasangiz, unda bilimsizlikdan keladigan zararni hisoblang. Savodsizlik va insoniy kapitalning yetarli darajada sifatli emasligi uchun biz qiladigan xarajatimiz juda yuqori. Shuning uchun kadrlarni o'qitish bu xarajat emas, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun, korxona ishini doimiy takomillashtirib borish uchun zarur bo'lgan omili deb qarash zarur zarur.

Kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish va bandligini kafolatlash iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi va xodimlarda ishlash samaradorligini oshirishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantiradi. Shu bilan birga mehnatga haq to'lash tizimi egiluvchan bo'lishi kerak. Shundagina u mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Ish haqining ortishi unumdorlik va samaradorlikning o'sish darajasidan yuqori bo'lmasligi kerak. Mehnatga haq to'lash tizimi shuningdek, ish haqining muayyan qismi korxona ishining umumiy samaradorligiga bogliq holda belgilanadi.

Hozirgi sharoitda samaradorlik va unumdorlikni oshirish uchun nafaqat mehnatga haq to'lash tizimini o'zgartirish zarur balki xodimlarga bo'lgan ijtimoiy-psixologik yondashuvni ham o'zgartirish kerak.

Korxona rahbariyati–hal qilishi lozim bo'lgan muhim jihat-mehnat motivatsiyasidir. Unga mehnat jamoasi ishi texnologiyasi sohasidagi bilimlar zarur. Har kun ishga keladigan va ma'lum vazifalarni bajaradigan ishchi ko'p qirrali shaxs hisoblanadi. Uni faqat ish kuchi sifatida ko'rish mumkin emas. Tadbirkorning maqsadi – ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash,

ishlab chiqarish samaradorligi oshirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, shaxs sifatida ishchining maqsadi bir-biriga mos kelmasligi mumkin va ko'p hollarda mos kelmaydi, shuning uchun tadbirkor bu bir-biriga mos kelmaydigan maqsadlarning bir-biriga to'g'ri kelishini ta'minlashi zarur. U nafaqat ishchini rag'batlantirishi, balki avvalom bor, uni shaxs sifatida tan olishi lozim.

Korxona ishchilarga quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- korxonada qoniqish hissini sezish;
- korxona ishlashni davomiyligi kafolatiga ega bo'lishlari;
- ularning nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham rag'batlantirilishi to'g'risida tasdiq olishlari.

Ishlab chiqarish jarayonining tarkibi mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillariga asoslanishi kerak:

* mehnat taqsimotini to'g'ri tashkil etish va har tomonlama mehnat jarayonidagi hamkorlikni oshirish;
* ishchilarning kasbiy-malakali tarkibini tashkil etish;
* mehnat jarayonlarini mehnatning ratsional usullarini ishlab chiqish va uni tadbiq etish asosida takomillashtirish;
* ish o'rinlariga xizmat ko'rsatishni yaxshilash;
* jamoaviy ishlashning samarali shakllarini joriy qilish, ko'p agregatli xizmatni rivojlantirish;
* mehnatni me'yorlashni mehnat sarfini pasaytirish va uskunalar ishini nisbatan ratsionallashtirish, rezervlaridan foydalanish asosida takomillashtirish;
* sistematik ishlab chiqarish instruktajlarni yo'lga qo'yish, mehnatning ilg'or usullarini joriy qilish;
* ishlab chiqarishni sanitariya-gigiyena, psixo-fiziologik talablar va mehnat xavfsizligi qoidalari asosida tashkil etish, ishlashning ratsional grafigini qo'llash.

Ushbu tamoyillarning amalda qo'llanilishi quyidagilarga olib keladi:

* mehnat unumdorligi oshadi;
* mehnat sharoitining sanitariya-gigiyena va psixofiziologik holatlari yaxshilanadi;
* mehnatga qiziqish ortadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchilarni jalb qilish o'quv yurtlari bilan doimo aloqada bo'lishni, ishga qabul qilishda test va

suhbatlashish tizimini qo'llashni, ularga nisbatan sinov muddati belgilashni talab qiladi. Korxonaga kadrlarni jalb qilishning asosiy manbai turli yo'nalishdagi o'quv yurtlari, mehnat birjalari hisoblanadi. Ishchilarni joylashtirish va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash mehnat taqsimoti tizimiga asoslanadi.

Mehnat taqsimotining quyidagi shakllari nisbatan keng tarqalgan:

* Texnologik jarayon bo'yicha kasbi va ixtisosligi;
* operatsiya bo'yicha texnologik jarayonlarning alohida ko'rinishdagi turlari;
* bajarilayotgan ishning funksiyasi bo'yicha asosiy, yordamchi, maxsus;
* ishchilar malakasi.

Korxonadagi ishchilarning makon va zamondagi harakati O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligining 1998-yilgi 26-oktyabrdagi 33-raqamli qarori bilan tasdiqlangan «Ishchilar soni va ish haqi statistikasi bo'yicha instruksiya» bilan tartibga solinadi va hisobi olib boriladi.

Kadrlarni ishga olishda mehnat kelishuvi yoki shartnoma asosiy o'rin egallaydi. Bu ish beruvchi va ishga yollanuvchi o'rtasidagi rozilikni bildiradi. Mehnat shartnomasida mehnat vazifasi, ish o'rni, majburiyatlar, malakasi, mutaxassiligi, vazifalari, ish haqi miqdori va ishning boshlanishi vaqti kabilar kelishib olinadi.

Mehnat shartnomasidan farqli ravishda, pudrat shartnomasi korxona topshirig'iga ko'ra ishni bajarishini bildiradi.

Korxonalarda ishlovchilar ikki kategoriyaga bo'linadi:

* ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi sanoat ishlab chiqarish personallari;
* nosanoat tashkilotlari personallari. Bunga kommunal xo'jaliklari xodimlari, bolalar va vrachlik-sanitariya muassasalari ishchi xodimlari kiradi.

Ishchilar asosiy va yordamchi ishchilarga bo'linadi. Ularning nisbati korxona ishining tahlili ko'rsatkichi hisoblanadi.

Asosiy ishchilarning miqdoriy koeffitsiyenti ($Ka_{i.}$) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ka_{i.}=1-Rr_{i.} : Ri$$

Bu yerda: $Rr_{i.}$ - korxona sexlari, uchastkalarida ishlaydigan yordamchi ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni, kishi;

Ri - korxona sexlari va uchastkalarida ishlaydigan jami ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni, kishi.

Mutaxassislar va boshqaruvchilar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadilar va uni boshqaradilar.

Xizmatchilarga moliya-hisob ishlarini amalga oshiruvchi va boshqa vazifalarni bajaruvchilar kiradi.

Xodimlarning malakasi mutaxassislik bilimi va amaliy tajriba darajasi bilan aniqlanadi va ular ishining murakkablik darajasini tavsiflaydi.

Korxona kadrlarining struktrasi turli kategoriyadagi xodimlarni, ular umumiy soniga nisbati bilan harakterlanadi. Kadrlar strukturasini tahlil qilish yordamida har bir kategoriyaga mansub xodimlar korxonada ro'yxatda turgan jami xodimlarning o'rtacha sonida qancha hissasini tashkil etishi aniqlanadi.

$$dP_j = P_j : R, \quad \text{yoki} \quad dP_j = P_j \cdot 100) R,$$

bu yerda: P_j – j-chi kategoriyadagi xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni, kishi;

R – korxonadagi ro'yxat bo'yicha jami xodimlarning o'rtacha soni.

Kadrlar strukturasi alohida har bir bo'linma bo'yicha aniqlanadi va tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning yoshi, normalarning bajarilishi darajasi va boshqalar ham qarab chiqiladi.

Mehnat jamoasi miqdor jihatdan ham, malaka jihatdan ham o'zgarib turadi: bir xodim ishdan ketsa o'rniga boshqasi qabul qilinadi. Bunday o'zgarib turish kadrlarning qo'nimsizligi bilan xarakterlanadi.

Korxonada kadrlarning holati quyidagi koeffitsiyentlar yordamida aniqlanishi mumkin:

Kadrlarning ketish koeffitsiyenti (Kb) joriy davr mobaynida barcha sabablarga ko'ra ishdan ketgan xodimlar sonining (R_b), shu davrdagi ro'yxatdagi jami xodimlarning o'rtacha soniga (R) nisbati sifatida aniqlanadi.

$$Kb = Rb : R \cdot 100 \ (\%)$$

Kadrlarni qabul qilish koeffitsiyenti (Kq) joriy davr mobaynida ishga qabul qilingan xodimlar sonining (R_s) shu davrdagi ro'yxat

bo‘yicha jami xodimlarning o‘rtacha soniga (R) nisbati sifatida aniqlanadi.

$$Kq=(R_{ş} : P) \cdot 100\ (\%)$$

Kadrlarning barqarorlik koeffitsiyenti (Kb) korxona yoki uning alohida bo‘linmalarida ishlab chiqarishni boshqarish qay darajada tashkil etilganligini baholash uchun ishlatiladi, ya’ni:

$$Kb=1 - Rmk : R + R_{ê}$$

bunda: Rmk – Hisobot davri mobaynida korxonadan o‘z hohishiga ko‘ra va mehnat intizomini buzgani uchun ishdan ketgan xodimlar soni, kishi;
R – Korxonada hisobot davridan keyingi davrdagi xodimlarning o‘rtacha ro‘yxat bo‘yicha soni, kishi;
$R_{ê}$ – hisobot davrida yangi ishga qabul qilinganlar soni, kishi.

Kadrlarning qo‘nimsizlik koeffitsiyenti (Kq) korxonadagi joriy davr mobaynida ishdan ketgan va haydalgan xodimlar sonini (Rmk) ro‘yxat bo‘yicha jami xodimlarning o‘rtacha soniga (R) bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$Kq=(Rmk : R) \cdot 100\ (\%)$$

Korxonada mehnatni to‘g‘ri tashkil etish uchun u yoki bu ishni bajarishga qancha mehnat talab etilishini bilish zarur, boshqacha aytganda har bir xodim uchun mehnat me’yorini aniqlash kerak.

Mehnatni me’yorlash deganda hozirgi ishlab chiqarish sharoitida aniq ishni yoki operatsiyani bajarish uchun maksimum qancha vaqt ketishini aniqlash (vaqt birligida minimum qancha mahsulot ishlab chiqarish mumkinligini aniqlash) tushuniladi.

Korxonada mehnatni me’yorlash, mehnat va ish haqini to‘g‘ri tashkil etishning garovidir. Mehnat me’yori mavjud sharoitlarni to‘liq hisobga olgan holda hisoblanishi lozim.

Mehnatni me’yorlashning tajriba-statistik va tahliliy usullari mav-jud. Tahliliy usuli nisbatan samaraliroq ya’ni maqsadliroq hisoblanadi. Bu usulda mehnatni me’yorlashga ilmiy nuqtai nazardan yondashiladi. Tajriba-statistik usulda esa murakkab holatlarni me’yorlash oldingi omil natijalari bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

Tahlil usulda quyidagi qator operatsiyalar amalga oshiriladi:

* mehnat jarayonini tadqiqod qilish;
* mehnat xarajatlariga ta'sir qiladigan barcha omillarni o'rganish;
* operatsiya va usullar bajarilishi loyihasini takomillashtirish;
* ishni bajarishga ketadigan vaqtni aniqlash;
* me'yorlarni ishlab chiqarishga tadbiq qilish.

Me'yorlashning tahlili usuli o'z navbatida tahlili-hisob va tahlili-tadqiqot turlariga ajraladi. Analitik-hisob turida vaqtning tayyor normativlari qo'llaniladi. Me'yorlashning analitik-tadqiqot usulida bevosita ish vaqtini o'rganish – xronometrajdan va ish kuni fotografiyasidan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Xronometraj bu tezkor vaqt sarfining o'rganish usulidir. Uning asosiy bosqichlari quyidagilar:

* kuzatishga tayyorlanish;
* kuzatish;
* kuzatish natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash;
* operatsiyalarning ratsional tarkibini hamda uning alohida elementlarining davomiyligini aniqlashni bildiradi.

Ish kunining fotografiyasi – bu ish vaqtini o'rganish usuli bo'lib, bu butun ish kuni mobaynida yoki ish kunining ma'lum qismi mobaynida ish vaqtining davomiyligini kuzatish va o'rganish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda asosiy e'tibor ish o'rinlariga xizmat ko'rsatish vaqtiga va ishdagi tanaffus vaqtiga qaratiladi.

Shu bilan birga ish kuni fotografiyasi Kishilar soniga bogliq holda individual, guruhiy va ommaviy turlarga bo'linadi. Ular quyidagi fotografiyalash bosqichlaridan iborat:

* kuzatishga tayyorlash – xodimlar, ularning ish o'rinlari va ishlarning bajarilish shartlari hamda tavsifi bilan tanilishi; ishlarning elementlarini aniqlash;
* ish vaqti sarflarini barchasini kuzatish ishning har bir elementining tugash vaqtini sonli va grafik usullarda qayd qilish; ishlarning bajarilgan elementlarini belgilab qo'yish;
* kuzatish natijalarini tahlil qilish – vaqt va indeksatsiyani alohida sarflarining davomiyligini aniqlash; ish vaqti sarfini guruhlash; ish vaqtining haqiqiy balansini tuzish; xodimlarni toifalar bo'yicha ish vaqti sarfini tahlil qilish;
* tadbir va xulosalar – ish vaqtidan foydalanishni oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish; ish vaqtining me'yoriy balansi loyi-

hasini ishlab chiqish; mehnat unumdorligini oshirishg imkoniyatlarini aniqlash.

Xronometraj va ish kuni fotografiyasi – mahsulot birligini ishlab chiqarishga yoki bir operatsiyani bajarishga ketadigan vaqt me'yorini aniqlashda foydalaniladi. Vaqt me'yori kishi-soat yoki kishi-minutda belgilanadi.

Mahsulot birligi yoki ishni qo'lda, qo'l va mashinada, to'liq mashinada bajarish uchun ketgan vaqt me'yori tarkibi quyidagi sarflarni o'z ichiga oladi:

$$t_n=t_a+t_{y.o'}+t_{d.o}+t_{t.v}+t_{nt},$$

bunda: t_a – asosiy vaqt;

$t_{y.o'}$ – ish o'rniga xizmat qilish vaqti;

$t_{t.v}$ – tayyorgarlik vaqti;

$t_{d.o}$ – dam olishga va shaxsiy maqsadlarga sarflangan vaqt;

$t_{n.t}$ – nazarda tutilmagan tanaffuslar.

9.2. Mehnat unumdorligi konsepsiyasi va uning korxona faoliyatidagi ahamiyati

Mehnat unumdorligi iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy omillaridan bo'lib uni oshirishga butun fan-texnika-boshqaruv yutuqlari xizmat qiladi.

Mehnat unumdorligini oshirishda boshqarish tamoyillarini ishlab chiqilishi o'ta dolzrab hisoblanadi. Bu masalada ayrim iqtisodchilarning fikrlari mavjud. Jumladan, amerikalik iqtisodchi olim Garrington Emirsonni (1853–1931) 1912-yili chop etgan «Unumdorligini o'n ikki tamoyili[1] asarida mehnat unumdorligini oshirishning bir qator tamoyillarini keltirilgan:

1. Boshqaruvning birlamchi vazifasi – aniq va ravshan maqsadni belgilash.

2. Soglom fikr yuritish, shu jumladan, qo'yilgan xatolarni tan olish va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash.

3. Professionallarning kompetentli islohatlari va takliflari asosida boshqarish jarayonini takomillashtirish.

---

[1] Эмирсон Г. Двенадцать принципов производительности: В. кн. Управление – это и искусство – М.: «Экономика», 1992. С. 87.

4. Kishilar faoliyatini aniq tartibga soladigan intizom, uni nazorat qilish va o‘z vaqtida rag‘batlantirish.

5. Xodimlarga nisbatan adolatli bo‘lish.

6. Tezkor, ishonchli, haqqoniy, to‘la va doimiy hisob.

7. «Rejalashtirilgan ishni dispetcherlashtirish, dispetcherlashtirilmagan ishni rejalashtirishga qaraganda yaxshiroqdir», degan qoidaga asosan ishni dispetcherlashtirish.

8. Mavjud imkoniyatlarni ishlatishga, topishga qaratilgan norma va jadvallar.

9. Mehnat sharoitini normallashtirish.

10. Vaqtni reglamentatsiya qilish va operatsiyalarni bajarilish usullarini standartlashtirish asosida operatsiyalarni normalashtirish.

11. Yozma standart instruksiyalarning mavjudligi.

12. Mehnatni unumdorligi uchun rag‘batlantirish.

Emirsonning fikricha xodimlarni tanlash asosiy omillardan biri hisoblanadi. U shunday deydi: «Bir tomondan, intuitsiya, kuzatuvchanlik, tushunuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lgan, ikkinchi tomondan, fiziologik, pisixologik va antropologik ilmiy bilimga ega bo‘lgan mutaxassislardan hech bo‘lmasa bir nechtasiga ega bo‘lish kerak. Faqat shunday mutaxassis rahbariyatga qaysi nomzodning ko‘zda tutilgan ishni bajara olishi yoki bajaraolmasligi to‘g‘risida asosli maslahat berishi mumkin»[2].

Har qanday korxona maqsadini belgilashda, uning faoliyatini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lgan mehnat unumdorligini oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. U uzoq muddatga (5, 10, 20 yilga) mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

Konsepsiya lotincha «conseptio» so‘zidan olingan bo‘lib hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi qarashlar, tushunchalar hamda asosiy maqsad degan ma’noni beradi.

Mehnat unumdorligi konsepsiyasi deyilganda uni amalga oshirish maqsadida ko‘zlangan vazifalar va yo‘nalishlar majmuasini, kelajakga mo‘ljallangan gipoteziya, prognozni yoki strategik rejani tushunish mumkin.

Mehnat unumdorligi konsepsiyasi jamiyat, hudud va korxona darajasida, u yerdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni, fan-texnika yutuqlari, shuningdek, mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi boshqa

[2] Keltirilgan asarda. 93-b.

tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda jamiyat har bir hudud va korxona uchun alohida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat unumdorligiga bir qator omillar ta'sir etadi. Shu sababli, uning konsepsiyasini ishlab chiqishda bu omillarni e'tiborga olish lozim.

Hisob-kitoblarni qilishda qo'laylik bo'lishi uchun ularni bir nechta guruhlarga ajratish zarur bo'ladi. Ular quyidagi ko'rinishlarda:

- ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar. Bunga ayrim turdagi mahsulotlar hissasining umumiy mahsulot ishlab chiqarishning hajmidagi o'zgarishlar kiradi;

- ishlab chiqarish texnik darajasining o'sishi. Bunga ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ilgor texnologiyalarni joriy etish, uskunalarni modernizatsiya qilish, buyumlarning texnologik tavsifini o'zgartirish, mahsulotlar sifatini yaxshilash, xom-ashyolarni tejash, yangi turdagi materiallarni va energiyani joriy etish taalluqli;

- ishlab chiqarishni, mehnatni, boshqaruvni tashkil etishni yaxshilash. Bu guruhga ishlab chiqarishni (yangi texnikani joriy etish bilan bogliq bo'lmagan holda), ixtisoslashtirish, mehnat predmetlarini kooperatsiyalashgan holda yetkazish, ishlab chiqarish boshqaruvni takomillashtirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ish vaqtining yo'qotishni qisqartirish, yaroqsiz mahsulot ishlab chiqishga yo'l qo'ymaslik, mavsumiy ishlab chiqarishda ish davrini o'zgartirish tadbirlari va boshqalar kiradi;

- mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi. Bunda shartli-o'zgarmas xodimlar sonining mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki pasayishi sababli o'zgarishi hisobga olinadi;

- tabiiy sharoitning va foydali qazilmalarni olish usulining o'zgarishi. Bunga neft, ko'mir va boshqa xom-ashyolarning geologik joylashishi, ularni qazib olish usullarining o'zgarishi kabi omillar kiradi;

- tarmoq va boshqa omillar. Bir guruhga ishlab chiqarishning hududiy o'zgarishi sababli yangi mahsulotlarni o'zlashtirish hisobiga bo'ladigan o'zgarishlar taalluqlidir.

9.3. Mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlarining tasnifi va tavsifi

Korxonada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi mehnat unumdorligi bilan ifodalanadi. Mehnat unumdorligi korxona faoliyatining natijaviy ko‘rsatkichlaridan bo‘lib, ular faoliyatning salbiy va ijobiy tomonlarini ifodalaydi.

Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda mehnat sarfi samaradorligini ifodalaydi va vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori sifatida yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan mehnat sarfi sifatida aniqlanadi. Odatda, jonli mehnat unumdorligi va ijtimoiy mehnat unumdorligi farqlanadi tushunchalari va ko‘rsatkichlari mavjud.

Jonli mehnat unumdorligi muayyan korxonadagi muayyan ishlab chiqarishdagi ish vaqti sarfi sifatida aniqlanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi esa moddiy va jonli mehnat sarfi bilan aniqlanadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish takomillashishi bilan ijtimoiy mehnat xarajatlarining hissasi ham ortib boradi. Biroq mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat, shuningdek, moddiy mehnat xarajatlari miqdori pasayib borishi qonuniyatga aylangan. Shuning uchun ijtimoiy mehnat unumdorligi ortib boradi.

Mehnat unumdorligi darajasi ikkita ko‘rsatkich bilan xarakterlanadi:

* vaqt birligida mahsulot ishlab chiqarish (bevosita ko‘rsatkich);
* mahsulot yaratishning mehnat sigimi (teskari ko‘rsatkich).

Bu ko‘rsatkichlar quyidagi formulalar bilan ifodalanadi:

$$v=V:T; \quad t=T:V,$$

bunda: v – vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarish;
t – mahsulot yaratishning mehnat sigimi;
V – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, so‘m.;
T – mahsulot ishlab chiqarishga ketgan jonli mehnat, so‘m.

Mahsulot ishlab chiqarish – mehnat unumdorligining nisbatan keng tarqalgan va universal ko‘rsatkichidir. Mahsulot hajmi qanday birlikda o‘lchanayotganiga bogliq holda mahsulot ishlab chiqarishni aniqlashning natural va me’yorlangan ish vaqti shakllari bilan farqlanadi.

Ko‘pincha mehnat unumdorligi mahsulot ishlab chiqarishning natural o‘lchov birliklari yordamida ifodalanadi. Bularga tonna, metr, dona kabi birliklar kiradi. Odatda, bunday birliklarda mahsulot ishlab chiqarishni o‘lchami bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarga bo‘ladi.

Agar korxona yoki sex bir turdagi tovarlarning bir necha xilini va markalarini ishlab chiqarsa, unda mahsulot ishlab chiqarish shartli birliklarda aniqlanadi.

Turli mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarda mehnat unumdorligini aniqlash uchun mahsulot ishlab chiqarishni o’lchamning qiymat shaklidan foydalaniladi.

Me’yorlangan ish vaqtidan foydalanilayotganda ishlab chiqarish me’yor-soatlarda aniqlanadi. Bu asosan natural birliklar bilan ham, pul o‘lchov birligida ham o‘lchab bo‘lmaydigan turli xil mahsulotlar yaratadigan sexlarda, uchastkalarda, guruhlarda va alohida ish o‘rinlarni baholashda ishlatiladi.

Ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari ish vaqti o‘lchov birliklariga bogliq holda ham farqlanadi. Ishlab chiqarish soatlik, kunlik, oylik va yillik ishlab chiqarish sifatida aniqlanishi mumkin.

Mahsulotlarning mehnat sigimi mahsulot birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqtini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkich mahsulot natural o‘lchov birligida ifodalangan bo‘lsa mahsulot va xizmatlarning har bir nomenklaturasi bo‘yicha alohida aniqalanadi. Agar korxona keng assortimentda mahsulotlar ishlab chiqaradigan bo‘lsa, mehnat sigimi mahsulotlarning alohida turlari bo‘yicha hisoblanadi.

Korxonalardagi mehnat unumdorligi, ya’ni korxona faoliyati bilan bogliqlik xarajatlari bilan bogliq holda aniqlanishi mumkin, bu yerda baho berilganda eng avvalo, qamrab olingan mehnat xarajatlarining tarkibiga bogliq holda quyidagilar farqlanadi:

* asosiy ishchilarning mehnat sarflarini o‘z ichiga oladigan texnologik mehnat sigimi, t_{tex};
* yordamchi ishchilarning mehnat sarfini o‘z ichiga oladigan ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi mehnat sigimi, t_{yord};
* ham asosiy, ham yordamchi ishchilarning mehnat sarflarini o‘z ichiga oluvchi ishlab chiqarish mehnat sigimi;

* ma'muriyat xodimlarining, xizmatchilarning va nazoratchilarning mehnat sarfini o'z ichiga oluvchi ishlab chiqarishni boshqarish mehnat sigimi, t_{bosh};

* barcha kategoriyadagi sanoat-ishlab chiqarish korxonalarining mehnat sarfini o'z ichiga oluvchi jami mehnat sigimi, t_{jam}:

$$t_{jam}=t_{tex}+t_{yordam}+t_{bosh}$$

Mehnat unumdorligi manbalarini izlash, bu manbalarni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va bu tadbirlarni bevosita qo'llash korxonadagi tahliliy ishlarning asosiy bosqichi hisoblanadi. Mehnat unumdorligini oshirish manbalari deganda jonli va moddiylashgan mehnat sarfini iqtisod qilishning hali foydalanilmagan imkoniyatlari tushuniladi. Ichki ishlab chiqarish manbalari texnika va ishchi kuchidan nisbatan samaraliroq foydalanish, ish vaqtini qisqartirish, xom-ashyo va materiallarni iqtisod qilish, uskunalardan oqilona foydalanish bilan bogliq. Ichki ishlab chiqarish manbalariga mehnat sigimini kamaytirish, ish vaqtidan foydalanishni oshirish, kadrlar strukturasini takomillashtirish, mehnat predmetlarini iqtisod qilish va mehnat vositalarini iqtisod qilishlar kiradi.

Mehnat unumdorligini oshirish manbalarini quyidagi yo'nalishlarini keltirish mumkin:

1. Ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish:
* ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
* yangi uskunalarni tadbiq etish;
* yangi texnologik jarayonlarni tadbiq etish;
* mahsulotlarning konstruktiv xususiyatlarini oshirish;
* xom-ashyo va yangi konstruktiv materiallarning sifatini oshirish;

2. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni yaxshilash:
* xizmat ko'rsatish me'yori va hududini oshirish;
* me'yorlarni bajarmaydigan xodimlar soni kamaytirish;
* boshqaruv strukturasini soddalashtirish;
* hisob-kitob ishlarini mexanizatsiyalash;
* ish vaqtini o'zgartirish;
* ishlab chiqarishning ixtisoslashganlik darajasini oshirish.

3. Tashqi tabiiy sharoitlarni o'zgartirish:
* xom ashyolarni yaratish, yer osti boyliklarini qazib olishni shart-sharoitlari;
* foydali qazilmalarni saqlashni o'zgartirish.

4. Ishlab chiqarishdagi strukturaviy o‘zgarishlari:

* mahsulotlar alohida turlarining hissasini o‘zgartirish;
* ishlab chiqarish dasturining mehnat sigimini o‘zgartirish–eng qulay darajasini aniqlash;
* sotib olingan yarim fabrikatlar va komplektlaydigan mahsulotlar hissasini o‘zgartirish;
* yangi mahsulotlar hissasini o‘zgartirish.

Korxonalardagi mehnat unumdorligining o‘zgarishi xususan uning o‘sishi muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat unumdorligini o‘sishi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Delta R = \frac{100\,\Delta V + \Delta Rn}{100 - Rn},$$

bunda: ΔV – korxonada joriy davrda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining o‘sishi, %;

ΔRn – korxona xodimlarining foizlardagi o‘zgarishi, %.

Ish vaqti fondidan samarali foydalanish hisobiga mehnat unumdorligining oshishi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\Delta R = \frac{Fs_1 - F_{ñ0}}{Fs_0} \times 100$$

bunda, Fs_1, Fs_0 – mos ravishda bazis va rejalashtirayotgan davrdagi bir ishchining samarali yillik ish vaqti fondi, kishi - soat.

Shuni ta’kidlash kerakki, qo‘shimcha erishilgan mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi ishlab chiqarish omillari va mavjud mehnat bozoriga bogliq.

Korxona qancha ishchi yollashi kerak, degan savolga javob topish uchun mehnatga bo‘lgan talab narxini, ya’ni ish haqi darajasini aniqlashi kerak.

Ishlab chiqarish omillari, shu jumladan, mehnat resurslariga bo‘lgan talab – mehnat unumdorligiga bogliq.

Qo‘shimcha erishilgan (chegarali) mehnat unumdorligi deganda boshqa teng sharoitlarda har bir qo‘shimcha jalb qilingan mehnat birligi hisobiga mahsulot chiqarish hajmining oshishi tushuniladi.

Demak, optimallashtirish zaruratidan kelib chiqib korxonanai boshqarish barcha resurslarni almashtirishni yoki mehnat sarfini qisqartirishni talab qiladi. Ularni bunga hech kim majbur qilmaydi, balki raqobat soladigan xavf ularni shunga intiltiradi.

Raqobat sharoitida ortiqcha ishchi kuchi, ishsizlik muammosi yuzaga keladi. Bunday holatda ishchi kuchidan ratsional foydalanish korxona uchun qanday ahamiyatli bo'lsa, davlat boshqaruv organlari uchun ham shunday ahamiyat kasb etadi.

Misol. Bazis davrida korxonada tovar mahsulotining tannarxi 400,0 mln. so'm.i tashkil etdi. Hisobot davrida mehnat unumdorligini 7%ga va o'rtacha ish haqini 5%ga oshirish ko'zda tutilgan. Doimiy xarajatlar miqdori o'zgarmas sharoitda ishlab chiqarish hajmi 9%ga oshadi. Mahsulot tannarxida ish haqi – 23%ni, doimiy xarajatlar – 20% ni tashkil etadi.

Tannarxning necha foizga pasayganligini va keltirilgan omillar ta'sirida qilingan tejam hajmini aniqlash kerak.

Yechim:

1. Mehnat unumdorligining oshishi va ish haqining oshishi hisobiga mahsulot tannarxining pasayishi:

$$Srejt = \left(1 - \frac{Uish_{haq.\ rej.}}{Urej}\right) \cdot Drej = \left(1 - \frac{1,05}{1,07}\right) \cdot 23\% = 0,46\%$$

2. Doimiy xarajatlar o'zgarmagan holda ishlab chiqarish hajmining oshishi natijasida mahsulot tannarxining pasayishi:

$$So_{.t} = \left(1 - \frac{Ui_{/ch.r.}}{Ui_{/ch.x.}}\right) \cdot Drej = \left(1 - \frac{1}{1,09}\right) \cdot 20\% = 1,6\%$$

3. Ikkala omil ta'siri natijasida mahsulot tannarxining pasayishi:

$$0,46\% + 1,6\% = 2,06\%$$

4. Mahsulot tannarxining pasayishi natijasida erishilgan tejam:

$$E = \frac{400,0 \cdot 2,06}{100} = 8,24 \text{ mln.rub.}$$

9.4. Mehnatga haq to‘lashning qoidalari, shartlari va korxonada ish haqini tartibga solish

Ish haqi iqtisodiyotda tashqi ko‘rinishdan bajarilgan ishni ish beruvchi tomonidan, mehnat xarajatlari natijasiga qarab, pul sifatida to‘lanadigan, mehnatini rag‘batlantirishning puldagi ifodasidir. Lekin, bunday tarif yuzaki va uni ichki tabiatining mohiyatini yoritmaydi.

Sotsialistik jamiyat davrida ish haqiga davlat tomonidan ishchilarni moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun mehnatni son va sifatiga qarab taqsimlanadigan milliy daromadning bir qismi sifatida qaralgan. Bunday tarif usha davrning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tavsifiga va ma’muriy boshqaruv tizimiga mos kelgan.

Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mazmunini tubdan o‘zgartirishga olib keldi va bozor iqtisodiyotiga mos iqtisodiy dastaklarni vujudga keltirdi. Lekin hozirgi iqtisodiy va ommaviy adabiyotlarda iqtisodiy kategoriyalarga, jumladan, ish haqiga nisbatan yagona fikr yo‘q. Ularning mazmuniga har hil ta’riflar berilishi, turli xil yoritilishga olib kelmoqda. Shu sababli biz ish haqiga berilgan ayrim ta’riflarni keltirishni lozim topdik. O.E. Лучинин «Статистика в рыночной экономике» (Ростов-на-Дону. «Феникс», 2006) ish haqiga quyidagicha ta’rif beradi: «Ish haqi – ijtimoiy zaruriy mehnatning son va sifatiga bog‘liq holda ishchining mehnat daromadidir» (382 b).

G.X. Gender, N.I. Vedernikovalar «Оплата труда в учреждениях бюджетной сферы» (Санкт – Петербург, «Питер», 2003) ish haqining mohiyatini yoritishda «... bozor iqtisodiyotida ish xaqi mehnat resursi bahosi (ishchi kuchi)» deb ta’riflaydi.

O‘zbekiston Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligining 1998-yil 26-oktyabrdagi 33-son qarori bilan tasdiqlangan «Инструкция по статистике численности и заработной плате работающых по найму»da (Toshkent, 1999) ish haqi quyidagicha ta’riflangan: ««Ish haqi» tushunchasi pul va natural shakldagi barcha turdagi maoshlarni (va har xil mukofotlar, ustamalar, qo‘shimchalar, ijtimoiy imtiyozlar)ni... qamraydi».

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksida ish haqi atamasi ishlatilmagan, unda «Mehnat haqi» ish haqi mazmunida ishlatilgan.

Kodeksning 153-moddasida: «Mehnat haqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi kelishuviga binoan belgilanadi deb ta'kid-lanadi.

Mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzdagi to'lovlar, jamoa shartnomalarida, shuningdek, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan qabul qilinadigan boshqa lokal iujjatlarda belgilanadi. Mehnat haqi, qoida tariqasida pul shaklida to'lanadi. Mehnat haqini natura shaklida to'lash taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan holda bundan mustasno», deb yozilgan.

Ish haqiga ta'lluqli chet el adabiyotlarida berilgan boshqa ta'riflarning ayrimlarini keltiramiz. Ularda:

Ish haqi – bu mehnat bahosi; bu ishchi kuchi bahosi; bu mehnat xizmatlari bahosi; bu iqtisodiy rentaning shakli; bu ishchi kuchini ijarasi uchun to'lov kabi ta'riflar keltirilgan.

Bunday ta'riflarni yuzlab keltirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ish haqi nihoyatda murakkab iqtisodiy kategoriya ekanligiga shubha tug'ilmaydi.

Ushbu masala yuzasidan biz o'z mulohazalarimizni bildirib o'tamiz.

Ish haqi nazariy jihatdan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har xil moddiy ne'matlar qatorida ishchi kuchi oldi-sotdi predmeti sifatida mehnat bozori obyektiga aylanadi. Ishchi kuchi oldi-sotdi predmeti sifatida iste'mol qiymatga va qiymatga ega bo'lishi kerak. Ushbu tushunchalar boshqa moddiy ne'matlar iste'mol qiymati va qiymati tushunchalariga nisbatan farq qilib, juda murakkab va iqtisodiy-statistik nuqtai nazardan hisobga olinishi allaqancha murakkabdir.

Ko'p hollarda ishchi kuchi va mehnat tovar deb ishlatiladi. Aslida tovarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqilsa, ishchi kuchi va uning mehnati boshqa tovarlardan shaklan va mazmunan farq qiladi.

Tovar deb o'zi uchun emas, sotish uchun ishlab chiqilgan mahsulotni tushunamiz. Oldi-sotti natijasida tovarning egasi, undan foydalanish va tasarruf etish huquqi o'zgaradi. Tovar ayirboshlash jarayonidan chiqib, iste'mol jarayoniga o'tadi va iste'mol predmetiga

aylanadi. U iste'molchilarning ehtiyojini qondiruvchi moddiy ne'mat sifatida xizmat qiladi.

Ishchi kuchi birinchidan, shaklan moddiy ne'mat emas, u ishlab chiqarish quvvati sifatida faoliyat ko'rsatuvchi jonli omildir;

ikkinchidan, u oldi-sotdi jarayonida o'zi sotilmaydi, unga egalik qilish huquqi o'zgarmaydi, bozorda mehnat resursi, mehnat jarayonida ishlatiladigan uning kasbiy mahorati, quvvati, ya'ni uning mehnat qobiliyati sotiladi;

uchinchidan, moddiy ne'matlarning oldi-sotdi jarayonida to'la qiymati (bu yerda to'la qiymat deganda, uning haqiqiy qiymati emas, ijtimoiy-zaruriy qiymati, ya'ni uning barcha omillar ta'siri natijasida shakllangan qiymatining puldagi ifodasi, ya'ni bahosi e'tiborga olingan), ayirboshlanadi, sotiladi. Ishchi kuchi atamasiga kelsak, unga mehnatining to'la qiymati to'lanmaydi, aksincha, qiymatini bir qismi to'lanadi. Chunki, uning mehnati natijasida qo'shimcha qiymat yaratiladi.

Ishchi kuchi mehnatining zaruriy qismiga ish haqi to'lanadi, qo'shimcha qiymat yaratuvchi qismining qiymati ish beruvchi, ya'ni mulk egasi (davlat, jamoa, korxona, ish beruvchilar) hamda jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan qismida qoladi;

to'rtinchidan, moddiy ne'matlarning oldi-sotdi jarayoni biror bir lahzada sodir bo'ladi, ishchi kuchi mehnatini oldi-sotdi jarayoni uzoq davrda sodir bo'ladi.

Ushbular nuqtai nazaridan kelib chiqib, ishchi kuchi, mehnat alohida, o'z xususiyatiga ega bo'lgan, oldi-sotdi jarayonining predmeti sifatida qaralishi lozim.

Bu borada ish bilan mehnatni farqlash zarur. Ishni ishchi kuchi, ya'ni uning mehnati, mehnat qilish qobiliyati bajaradi. Ish beruvchi ishchining bajargan ishi uchun haq to'laydi. Shuning uchun ham rasmiy hujjatlarda ish haqi atamasi ishlatiladi.

Umuman olganda, bozorda ishchining jismoniy va intellektual mehnat qilish qobilyati sifatida, uning to'la qiymati to'lanmaydi, aksincha, uni qiymatning bir qismi – bahosi mehnat qilish jarayonida to'lanib boriladi.

Mehnat bu ishchilarning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan ongli faoliyatidir.

Shunday qilib, ishchi kuchi yoki uning mehnatini umuman tovar sifatida tariflash ilmiy-nazariy nuqtai nazardan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ishchi kuchining ongli faoliyati, uning jismoniy va intellektual mehnat qilish qobiliyati bozorda sotiladi va ana shu qobiliyat tovar bo‘lib hisoblanadi.

Ish haqiga esa yuqorida keltirilgan tovar qiymatining bir qismining (zaruriy mehnat) puldagi ifodasi nuqtai nazardan qarash lozim.

Ish haqi ishchi mehnati motivatsiyasini va rag‘batlantirishning shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Ish haqi, mehnat haqi kategoriyalari adabiyotlarda ko‘p ishlatiladi, ayrimlar ularni sinonim qatorida ishlatadi[18], ayrimlar ularni farqlaydi. Bunga tegishli fikrlarni biz yuqorida ham keltirdik. Masalan, Ю.Ф. Елизаров «Экономика организации» darsligida (M., «Экзамен», 2005) «...ish haqidan, mehnatga to‘lov (mehnat haqi) kengroq tushuncha bo‘lib, u ish haqidan tashqari har xil to‘lovlar va imtiyozlarni o‘z ichiga oladi», deb ta’kidlaydi (115-bet). Muallifning ushbu fikrlariga qisman qo‘shilgan holda quyidagi nazariy fikrlarni e’tirof etish zarur deb hisoblaymiz.

Haqiqatdan olganda har hil qo‘shimcha to‘lovlar ish haqining elementi hisoblanadi. Ish haqini bir necha xil elementlarga bo‘lish mumkin. Ular asosan (bazali) ish haqi, ustamalar, qo‘shimcha to‘lovlar va ish haqining o‘zgaruvchan qismidir (har xil rag‘batlantiruvchi to‘lovlar).

Asosan ish haqi ishchining funksional vazifalarini har qanday sharoitda o‘z vaqtida va sifatli bajarishi uchun to‘lanadigan, belgilab qo‘yilgan, doimiy to‘lanadigan pul to‘lovidir (ayrim hollarda natural holda bo‘lishi ham mumkin).

Ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar ishchi mehnatining alohida shart sharoiti va mazmuni uchun to‘lanadi. Masalan, mehnat staji, qo‘shimcha funksiyalarni bajarganligi, kechqurun, dam olish va bayram kunlarida ishlaganligi uchun, ishlamagan vaqtlari uchun to‘lov, hududiy koeffitsiyentlar, og‘ir sharoitlardagi ishlar uchun qo‘shimchalar va hokazolar.

---

[18] Раицкий К.А. «Экономика предприятия». М., ИВЦ «Маркетинг», 1999.; Экономика предприятия (фирма). Коллектив авторов. М., ИНФА-М., 2004.; Ворст Й., Ревентлоу П. Экономика фирмы. М.: «Высшая школа», 1994

Ish haqining o‘zgaruvchan qismi rejadan yuqori darajada bajarilgan ish natijalari uchun to‘lanadi. Unga har xil mukofatlar kiradi. Masalan, tovar aylanishi rejasini ortiqicha bajargani uchun, biron davr (kvartal, yil) natijalari uchun to‘lanadigan mukofotlar, bonus to‘lovlar va hokozolar uchun.

Rasmiy statistikada «Ishchi kuchini saqlash uchun ketgan harajatlar» ko‘rsatkichi ishlatiladi. Ushbu ko‘rsatkichni bizning fikrimizcha mehnat haqining zaruriy qismining qiymatiga tenglashtirish mumkin.

Mehnat haqiga ish haqidan tashqari madaniy-oqartuv, sog‘lomlashtirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, ijtimoiy sug‘urtalar, maxsus to‘lovlar va boshqa xarajat kabilar kiradi.

Mehnat haqining ijtimoiy paketi tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- har xil ijtimoiy to‘lovlar;
- nomoddiy (pulsiz) imtiyozlar (har xil imtiyozlar, ish vaqtini moslashtirish, qo‘shimcha mehnat ta’tilini berish, erta nafaqaga chiqarish va h.k.);
- firma, korxonaning aksiyalarni o‘z ishchilariga sotish;
- mehnat sharoiti va mazmunini yaxshilash;
- ishda yaxshi ijtimoiy, psixologik muhitni yaratish;
- ishchilarni xizmat pog‘onalaridan ko‘tarilib borilishini ta’minlash;

Shunday qilib, «ish haqi» miqdori «mehnat haqi» miqdoridan («Ishchi kuchini saqlash uchun xarajatlar») tarkibi bilan farqlanadi.

Motivatsiya deganda ishchining faoliyat uchun ichki dunyoviy qiziqishini tushunish kerak. Motivatsiya inson ehtiyojini o‘z mehnati faoliyati orqali qondirishga intilishidir. Mehnat faoliyati orqali inson o‘zining nafaqat moddiy ehtiyojlarini hamda ijtimoiy ehtiyojini ham qondirishga intiladi (masalan, o‘zini himoya qilish, do‘stona munosabatlar, boshqalar hurmatiga sazovar bo‘lish, shon-sharafga ega bo‘lish, nufuz kabilar).

Ish haqi kategoriyasini nazariy va amaliy nuqtai nazardan nominal ish haqi va real ish haqiga ajratish zarur. Chunki ish haqining real miqdoriga inflyatsiya, baho kabi omillar salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular natijasida nominal ish haqi – ish haqi pul hisobida o‘zgarmay tursa, real ish haqi – olingan pulga sotib olinadigan tovarlar va

xizmatlar miqdori kamayib boradi. Shuning uchun ham jahon amaliyotida ish haqini indeksatsiya qilish qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat haqi yoki ish haqini talqin qilganda, bizning fikrimizcha quyidagi nazariy masalalarni e'tiborga olish zarur.

Ish haqi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari faoliyati bilan bog'lik bo'lib, u yollanma ishchilarga to'lanadi. Yakka tartibdagi yoki oilaviy tadbirkorlarda faoliyat (ish) yurituvchilar uchun mehnat natijasi qanday to'lanadi? Mehnat natijasi ish haqi sifatida namoyon bo'ladimi yoki boshqachami, degan savollar tug'iladi. Ushbu masala bo'yicha biz o'z fikr mulohazamizni bildirmoqchimiz.

Ushbu masalaga nazariy nuqtai nazardan yondashsak bunday xo'jalik subyektlari uchun ish haqi kategoriyasi mazmunan mos kelmaydi.

Ular uchun mehnat faoliyati natijasidan olingan daromad kategoriyasini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Masalan, yakka tartibda ishlayotgan tadbirkorning daromadi, oilaning ish faoliyatidan olgan daromadi. Ushbu daromadni nazariy va amaliy jihatdan yoritishda ularni ikki qismga bo'lib qarash kerak. Ya'ni daromadning bir qismi shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi. Uni shaxsiy iste'mol fondi deb yuritish va ularning ish haqiga tenglashtirish mumkin.

Daromadning ikkinchi qismi faoliyatni kengaytirish yoki takomillashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, uni jamg'arish fondi deb atash mumkin.

Xuddi shunday shaxsiy tomorqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda mahsulotga to'lov sifatida ularni natural mahsulotlari xizmat qiladi. Bunda mahsulotning bir qismi bozorga chiqarilib qiymat shakli (pul)da namoyon bo'lishi, ikkinchi qismi urug'lik fondini tashkil qiladi. Yoki mahsulot oiladi natural shaklda ishlatilib, bir qismi iste'mol fondini ikkinchi qismi urug'lik fondini tashkil qiladi.

Bular ham mehnat haqi (to'lovi) bilan ish haqini o'rtasidagi farqlarni anglatuvchi belgilardan hisoblanadi.

Ish haqining mohiyati va ahamiyati uning iqtisodiy jarayonda bajarayotgan funksiyalaridan kelib chiqadi.

Ish haqi birinchidan, mehnatni moddiy rag'batlantirish funksiyasini bajaradi. Bu funksiyani iqtisodiy deb han aytish

mumkin. Bu funksiya iqtisodiy deb yuritilsa ish haqini rag'batlantirish funksiyasiga kengroq qarash zarur bo'ladi. Masalan: ish haqining tabaqalanishi hamda aholining daromadi, harid qobiliyati, minimal ehtiyoj savatchasining shakllanishi masalalarini kiritish mumkin. Ushbu funksiyani bajarish orqali ish haqi mehnat motivatsiyasini ko'tarilishini ta'minlaydigan omil sifatida xizmat qiladi;

ikkinchidan, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish funksiyasini bajaradi. Ish haqi haqiqatda ishchi kuchini (umuman insoniyatni) takror ishlab chiqarish uchun moddiy omil yaratuvchi vosita sifatida xizmat qiladi;

uchinchidan, ijtimoiy funksiyani bajaradi. Ish haqi aholining nafaqat moddiy, balki ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun ham xizmat qiladi. U orqali ijtimoiy haqiqatni ta'minlash mumkin, aholining yuqori hayot darajasi, ishchilar va ular oilasi hayotini sifati ta'minlanishiga erishiladi;

to'rtinchidan, hisob kitob funksiyasini bajaradi. Ish haqi orqali ishchining mehnat qilish qobiliyati, quvvati hisob-kitob qilinadi, baholanadi. Jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan har xil tarmoq, sohadagi ishchilarning mehnat qobiliyatini, ularning murakkabligi yoki soddaligini solishtirish imkoniyati tug'iladi. Ishlab chiqarish (ish, xizmat) jarayonida jonli mehnatning hissasini aniqlash imkonini yaratadi (masalan, tovar (ish, xizmat) bahosida, tannarxida, savdoda muomala xarajatlarida va h.k.);

beshinchi funksiyasiga taqsimotni kiritish zarur. Bu funksiya orqali ish haqi jamiyatda yaratilgan birinchidan, milliy daromadni aholi o'rtasida, ularning mehnatining son va sifat jihatlaridan kelib chiqib pul va natural shaklda taqsimlanishini; ikkinchidan, tovar va xizmatlarni real ish haqi sifatida aholi o'rtasida taqsimlanishi ta'minlanadi;

oltinchidan, ish haqi jamiyatni boshqarishda davlat tomonidan *tartibga solish vositasi sifatida* ishlatiladi. Ish haqi tovarlar va xizmatlarni tarkibining asosiy elementlaridan biri. Qiymatning klassik formulasiga e'tibor berilsa c + v + m ish haqi tovar va xizmatlar qiymatining ikkinchi elementi «v» sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbulardan kelib chiqib, davlat «Minimal ish haqi»ni belgilash orqali, bahoni, talab va taklifni tartibga soladi hamda inflyatsiyaning ta'sirini chegaralaydi;

ettinchidan, ish haqi siyosiy funksiyani ham bajaradi, masalan, ish haqini kamaytirish aholi tomonidan norozichilikka, ish tashlashlarga olib keladi, bu esa siyosiy muhitni buzib yuboradi. Shu sababli ish haqining darajasini, uning holatini nafaqat iqtisodchilar, balki jamiyat xolatini o'rganuvchi siyosatchilar, davlat arboblari, sotsiologlar, psixologlar va boshqa mutaxasislar ham chuqur o'rganishi zarur.

Ish haqining shakllanishi, hisob kitobi, belgilanishi jarayonida butun jahon amaliyotida qabul qilingan, ishlatilayotgan qoidalar mavjud. Ushbu qoidalarga ish beruvchi tomonidan rioya qilinishi, davlat, jamiyat, kasaba uyushma tashkilotlari hamda har bir ishchi tomonidan nazorat qilinishi va talab qilinishi mukin.

Ushbu qoidalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehnatni sifat va son jihatlarini hisobga olish, uni ishlab chiqarish (xizmat) natijalariga qarab rag'batlantirish;
- ish haqini differensiatsiya qilish. Ushbu qoida ish haqini ishchining malakasi, mehnatining murakkabligi va soddaligiga, aqliy va jismoniy mehnatga, mehnat sharoitiga, mehnatni normallashtirish kabi hamda boshqa omillarni hisobga olgan holda belgilanishini talab qiladi:
- ish haqi har qanday xo'jalik subyekti hodimlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash kerak;
- moddiy rag'batlantirish shakllari, miqdori raqobatbardoshlikni ta'minlashi kerak;
- ish haqi davlat tomonidan belgilangan minimal ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi kerak;
- real ish haqining muntazam oshirib borishni ta'minlash zarur. Nominal ish haqi o'sish darajasi inflyatsiya darajasiga nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlash;
- mehnat unumdorligining o'sish darajasi o'rtacha ish haqining o'sish darajasiga nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlash.

Ish haqini tashkil qilish qoidalarini ko'rib chiqishda birinchi omil sifatida davlatning rolini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Davlat ish haqi tizimini qonuniy normalar orqali boshqaradi, u ish haqini boshlang'ich, bazis darajasini belgilaydi. Unga minimal ish haqi miqdori, minimal yashash darajasi kabi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin. Bulardan tashqari davlat ish kuni davomiyligini, mehnat ta'tili davrini va ularga to'lov miqdorini belgilaydi. Davlat ishchi va

ish beruvchilar o'rtasidagi nizolarni sud orqali hal qiluvchi arbitor bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mehnatning huquqiy qonuniy iujjati sifatida O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi hisoblanadi (Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasida 21 dekabr 1995 yili tasdiqlangan va 1996 yil 1 apreldan amalga tushgan). Ushbu mehnat kodeksining 16-moddasida mehnatkashlarning mehnat huquqlari, jumladan, mehnat motivatsiyasi va vositalari belgilab qo'yilgan.

Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- mehnat haqini qonun bilan belgilab qo'yilgan minimal miqdordan kam bo'lmagan darajada olish;
- tasdiqlangan mehnat ta'tili va uni haqini olish, dam olish va bayram kunlari dam olish;
- mehnat shart-sharoiti, uning xavfsizligi va gigiyenasi ta'minlanishiga ega bo'lish;
- mehnat faoliyati bilan bog'liq zararlarning qoplanishi;
- qonun bilan belgilangan ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish va h.k.

Ish beruvchi va ishlovchining o'rtasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlari va ish haqi masalalari xo'jalik subyektlarining ichida tuzilgan mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi. Ushbu shartnomada mehnat sharoiti, ish haqi, uy joy va meditsina ta'minoti, kafillar va imtiyozlar kabilar o'z aksini topadi. Shartnomalar muddatsiz, biron muddatga (besh yilga) yoki biron ishni bajarish davriga tuziladi.

Jahon amaliyotida ish haqini hisob kitob qilish uchun tan olingan ish haqi shakli va tizimi yaratilgan.

Ish haqi quyidagi ikki shakldan iborat:

– vaqtbay ish haqi;

– ishbay ish haqi.

Ish haqi ikki hil tizimda, ya'ni tarifli va tarifsiz tizimda amal qiladi.

Vaqtbay ish haqi oddiy vaqtbay (soat, kun, hafta, oy) va vaqtbay-mukofotli tizimlarga bo'linadi.

Ishbay ish haqi esa oddiy (bevosita) ishbay, ishbay-mukofatli, bilvosita-ishboy, akkord tizimlariga bo'linadi.

Yuqoridagilar hammasi ta'rifli tizimga kiradi.

Bulardan tashqari tarifsiz tizim ham qo'llaniladi.

Ish haqi shakllari va tizimlarini quyidagi 9.4.1-chizmada ifoda etamiz.

Ish haqini tashkillashtirish xo'jalik subyektlarida quyidagi elementlar (ko'rsatkichlar)ni ishlab chiqish (shakllantirish, hisoblash, tasdiqlash) bilan amalga oshiriladi:

birinchidan, mehnatni normallashtirish;

ikkinchidan, tarif tizimini aniqlash;

uchinchidan, ish haqini muqobil shakli va tizimini tanlash;

to'rtinchidan, ish haqi fondini shakllantirish;

beshinchidan, moddiy rag'batlantirish turlarini belgilash.

Mehnatni normallashtirish mehnat sifatini va umumiy natijaga individual shaxslarning hissasini aniqlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Mehnatning samaradorligini oshirish hamda ish haqini oqilona belgilash, uni tashkil qilish uchun ilmiy asoslangan mehnat normasi va normativlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Norma va normativlar orqali mehnat va ish haqi ko'rsatkichlarini chuqur tadqiqot qilish, prognozlash va rejalashtirish osonlashdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida norma va normativlar mehnatni odilona, adolatli va va haqqona baholashni ta'minlaydi. Bu esa o'z vaqtida korxona, tashkilot va boshqalarda jamoaning jipslashishiga, mehnat unumdorligini va samaradorligini oshirishga olib keladi.

Tarif tizimi – normativ majmuasi bo'lib, ular asosida ish haqini differinsiatsiyalash ta'minlanadi. Ish haqini differinsiatsiyalash meh-natning murakkabligi, shart – sharoiti, tabiiy – iqlimiy sharoiti, mehnatning intensivligi uning tavsifini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Tarif tizimi quyidagi normotiv hujjatlardan tarkib topadi:

I. Ish va ishchilar kasb-hunarini tarifiy-malakaviy ma'lumotnomasi hamda xizmatchilar lavozimini malakaviy ma'lumotnomasi. Ushbu ma'lumotnoma normativ hujjat hisoblanib, ishchi va ishchiga, lavozimga qo'yiladigan talablarning malakaviy tasnifini belgilaydi. Unda ishchiga yoki ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalar va har xil kasb, malakaga taa'lluqli ishlar turkumi tariflanadi. Tarifiy - malakaviy ma'lumotnoma ishchilar malakasi darajasini va tarif razryadini belgilaydi;

Tarifiy-malakaviy ma'lumotnoma bajariladigan ishlarning to'la tavsifini va uni bajaradiganlar uchun qo'yidagi malakaviy talablarni o'z ichiga oladi. Ular ishni baholashda yagona mezondan foydalanishni va ishning murakkabligidan kelib chiqib ishchilarga ta'lluqli razryad belgilashni ta'minlaydi.

9.4.1-chizma

Ish haqi shakllari va tizimlari



Hozirgi davrda O'zbekistonda 1985 yilda tasdiqlangan Yagona tarif – malaka ma'lumotnomasi (YATMM) ishlatilmoqda. Unda ishning tavsifi va ishga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Ma'lumotnomada har bir kasb – hunarga beriladigan malakaviy razryad ko'rsatiladi.

YATMM – ga o'xshash «Xizmatchilar lavozimi malakaviy ma'lumotnomasi» (XLMM) mavjud. Unda har bir lavozimda bajarilishi lozim bo'lgan burchlar va mutaxassislarga, xizmatchilarga qo'yiladigan malakaviy talablar keltiriladi.

II. Tarif stavkasi, ish vaqti o'lchov birligiga to'lanadigan ish haqi miqdorining puldagi ifodasi.

Ishchilarga ish haqi to'lashda ish vaqti o'lchov birligida(soat, kun, oy) ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) uchun to'lanadigan ish haqi miqdori belgilanadi. Tarif stavkasini u yoki bu turini (soat, kun, oy) ishlatish korxonada foydalanilayotgan mehnat normalari

turidan bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda soatbay tarif stavkasini ishlatish ko'proq tarqalgan. Umumlashtirib aytganda ishchilar uchun tarif stavkasi ish vaqti o'lchov birligida bajariladigan oddiy mehnatni («1» - razryad) uchun to'lanadigan ish haqining absolyut(pul ifodasida) miqdorini belgilaydi.

«1» - razryad tarif stavkasi davlat tomonidan belgilangan minimal ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi kerak. Rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilar, yordamchi xizmatchilar va ayrim normallashtirish mumkin bo'lmagan ishlarni bajaruvchilar uchun tarif stavkasi lavozim okladi orqali belgilanadi.

Tarif stavkaga nisbatan rag'batlantirish tizimi shakllanadi. Mukofotlar, qo'shimchalar, ustamalar, hududiy koeffitsiyentlar tarif stavkasiga nisbatan foiz hisobida belgilanadi.

Bajariladigan ish xizmat razryadiga qarab aniqlangan, tarif stavkalarining bir biriga nisbati tarif setkasida har bir razryad uchun ko'rsatiladigan tarif koeffitsiyentlarida o'z aksini topadi. «1» razryad koeffitsiyent birga teng. «1» razryaddan boshlab tarif setkasida belgilangan maksimal razryadgacha tarif koeffitsiyenti ortib boradi (Tarif setkasiga qaralsin 9.4.1 - jadval).

III. Tarif setkasi, ish haqini differensatsiyalashgan miqdorni belgilaydi. Unda mehnat (ish, xizmatlar)ning xususiyatlaridan kelib chiqib ishchilar uchun belgilanadigan razryadga qarab, tarif koeffitsiyentlari orqali oylik tarif stavkalari aniqlanadi. Tarif setkasida ish haqi shkalasi ishlatiladi, unda tarif razryadi va tarif koeffitsiyentlari, tarif stavkasi o'z ifodasini topadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi byudjetdan moliyalashtiriladigan korxona, tashkilot va muassasalar ishchi - ximatchilar uchun ish haqini belgilashda Yagona tarif setkasi (YATS) asosida hisob kitob qilinadi.

Yagona tarif setkasida tarif razryadi va tarif koeffitsiyentlari keltiriladi.

Tarif razryadi ishchining malaka darajasi, ishning murakkabligi, real (aniq)likligi va bajariladigan vazifaning javobgarligini aniqlaydi.

Tarif koeffitsiyenti tarif stavkasini tarif razryadining ortib borishiga nisbatan yuqorilanish darajasini belgilaydi, ya'ni «0» razryadga nisbatan yuqori malakali ish, xizmat necha marotaba ko'proq ish haqi olishini ko'rsatadi.

Tarif razryadi va tarif koeffitsiyenti orqali tarif stavka miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{ci} = T_o \cdot K_i,$$

bu yerda: T_{ci} – tarif stavkasi; i – razryaddagi ishchi yoki xodim uchun, so'mda;

T_o – «1» razryaddagi ishchi yoki xizmatchi uchun belgilangan tarif stavkasi, so'mda;

K_i – i - razryaddagi ishchi yoki xodim uchun belgilangan tarif koeffitsiyenti.

YATS O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ish haqi to'lashning yagona tarif stavkasini takomillashtirish to'g'risida»gi 20-iyun 2000-yilgi 280 – sonli Qarori bilan tasdiqlangan. U 22 tarif razryadini o'z ichiga olgan bo'lib, tarif koeffitsiyentlari orqali har xil turdagi ish va lavozim okladlarini belgilash uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 3-noyabrdagi PF–4377–son Farmoniga muvofiq byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining lavozim stavka(oklad)lari miqdori quyidagicha belgilangan (9.4.1 - jadval).

Davlat va davlat aksiyador korxonalari YATS nizomiga rioya qilishlari shart.

Byudjet tizimiga qaramagan xo'jalik subyektlari o'zlari ish haqi shaklini, tizimini, moddiy rag'batlantirish miqdorini, qo'shimcha to'lovlar kabilarni mustaqil belgilaydilar. Davlat tarif stavkasi okladlarini ular asos sifatida ishlatishlari mumkin. Lekin ularda o'rnatilgan minimal ish haqi davlat tomonidan belgilangan darajadan kam bo'lmasligi kerak.

Ularning miqdoriga mehnat bozoridagi raqobat va korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari ta'sir qiladi.

IV. Hududiy koeffitsiyentlar. Ushbu koeffitsiyentlar har xil tabiiy-iqlimiy sharoitlarda ishlovchilarning hayot darajasini difirensiatsiyalanishini ta'minlaydi va ish haqiga qo'shimcha to'lov miqdorini koeffitsiyent o'lchov birligida ko'rsatadi.

V. Ustamalar va har xil qo'shimcha to'lovlar. Bular tarif stavkasida hisobga olinmagan omillarni hisobga olib, ish haqining yakka tartiblanishini ta'minlaydi. Masalan, bajariladigan ish yoki lavozimning muhimligi; mehnat stajining doimiyligi; til bilishi; mehnatga munosabati; qo'shimcha vazifaga yoki ishda yo'q ishchini

lavozimini bajarish; kechqurun, dam olish, bayram kunlarida ishlash kabilar uchun to'lovlar.

Ularning xususiyatlariga qarasak, ustama kompensatsiya rolini o'ynaydi, qo'shimchalar esa rag'batlantirish xususiyatiga ega.

Tarif tizimi, yuqorida keltirilgandek ish haqini har xil shakllarida foydalanishni taqozo qiladi. Ish haqi shakllariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Vaqtbay ish haqi.

Vaqtbay ish haqi ikki xil tizimdan iborat:

– oddiy - vaqtbay;

– vaqtbay - mukofotli.

Oddiy- vaqtbay ish haqi shakli ishlatilganda ish haqi tarif stavkasi yoki lavozim okladi asosida hisoblanadi. Lavozim okladlari lavozim (shtat) jadvallarida ko'rsatiladi. Lavozim okladi – to'la ishlagan oy uchun belgilangan ish haqi miqdori. Ishchilarga ish haqi hisoblashda oddiy- vaqtbay shakli, soatbay yoki kunbay turlari ishlatiladi. Bunda ish haqi miqdori soatbay (yoki kunbay) ish haqi stavkasini haqiqiy ishlagan soatlar yoki kunlar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Uning uchun quyidagi formulani ishlatish mumkin.

$$I_x = C_{tc} \cdot t_i \quad \textbf{yoki} \quad I_x = K_{tc} \cdot K_o$$

bu yerda:

I_x – ishchining oylik ish haqi summasi, so'mda;

C_{tc} – ishchiga belgilangan bir soatli tarif stavkasi, so'mda;

t_i – ishchilarning bir oyda ishlagan vaqti, soat;

K_o – bir oyda ishchining ishlagan kunlari soni, kun;

K_{tc} – ishchiga belgilangan bir kunlik tarif stavkasi (7 yoki 8 soat ish kuniga belgilangan), so'mda.

Yuqorida keltirilgan shakl (oddiy-vaqtbay) asosan yordamchi va xizmat qiluvchi xodimlar uchun qo'llaniladi.

Lavozim okladlari boshqaruv, ma'muriy xo'jalik xodimlari, mutaxassislar va mehnat jarayoni normallashtirilib bo'lmaydigan yoki asosli hisobga olishni iloji yo'q ish turlarni bajaradiganlar uchun qo'laniladi.

9.4.1 - jadval

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 3-noyabrdagi PF-4377-sonli Farmoniga muvofiq byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining lavozim stavka(oklad)lari miqdori

Tarif razryadlari	Tarif koeffitsiyentlari	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 3-noyabrdagi PF-4377-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 21-iyuldagi 206-sonli qarori asosidagi tarif koeffitsiyentlariga binoan 2011-yil 1-dekabrdan qo‘llaniladigan tarif stavkalari miqdori,(so‘m).	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 3-noyabrdagi PF-4377-sonli Farmoniga asosan 2011- yil 1-dekabrdan kompensatsiya to‘lovlari hisobga olingan tarif stavkalari, (so‘m)
1	**2**	**3**	**4**
0	1.000	62920	X
1.	2.476	155790	X
2.	2.725	171457	X
3.	2.998	188634	225431
4.	3.297	207447	244135
5.	3.612	227267	264028
6.	3.941	247968	284754
7.	4.284	269549	306340
8.	4.640	291949	328709
9.	4.997	314411	351220
10.	5.362	337377	375986
11.	5.733	360720	401403
12.	6.115	384756	425418
13.	6.503	409169	449814
14.	6.893	433708	474417
15.	7.292	458813	499590

16.	7.697	484295	525044
17.	8.106	510030	550866
18.	8.522	536204	576960
19.	8.943	562694	603551
20.	9.371	589623	630451
21.	9.804	616868	657769
22.	10.240	644301	685219

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarori bilan ayrim hodimlarning ish haqi stavka (oklad)lariga o'rnatilgan qo'shimcha to'lov yoki ustamalar miqdori jadvalining kompensatsiya hisobga olinmagan holdagi stavkasidan (3-ustundan) kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Xizmatchilarga ish haqi to'lash o'zining mazmuni jihatidan vaqtbay-mukofotliga yaqin bo'lib, u asosida ish haqining asosiysi – lavozim okladi (odatda bir oylik) va undan tashqari qo'shimchalar va mukofotlar to'lanadi.

Lavozim okladi ishbay jadvali asosida xizmatchining kasbiy malakasi, ish hajmi, tavsifi va boshqa omillarga qarab belgilanadi.

Vaqtbay-mukofotli ish haqi shakli ishlatilganda tarif stavka yoki lavozim okladi orqali aniqlangan ish haqidan tashqari ishchi va xizmatchilarga har xil mukofotlar to'lanadi. Uning uchun korxona, xo'jalik subyektlari maxsus nizom ishlab chiqadi.

Moddiy rag'batlantirish miqdori nizomda ishchi va xizmatchilar bajargan ishlar va vazifalarni son va sifat ko'rsatkichlariga qarab foizda yoki absolyut so'mda ko'rsatilishi mumkin. Rag'batlantirish ko'rsatkichlari va miqdori jamoa shartnomasi yoki mehnat shartnomasida ko'rsatilishi yoki rahbar buyrug'i bilan amalga oshirilishi mumkin.

Moddiy rag'batlantirish har oyda, kvartalda, yil natijasi bo'yicha va ayrim ish yoki vazifani bajarilishi natijasi bo'yicha amalga oshiriladi. Mukofot summasi (Ms) quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$M_c = \frac{\mathbf{Ix\ (p + k \cdot n)}}{\mathbf{100}},$$

bu yerda:

p – rejalashtirilgan 100,0% bajarganligi uchun rag'batlantirish miqdori, %;

k – rejani ortig'i bilan bajarganligining har bir foizi uchun moddiy rag'batlantirish miqdori, %;

n – rejaning ortig'i bilan bajarilgan darajasi, %.

Vaqtbay ish haqi shakli quyidagi hollarda ko'proq samara beradi:

- ishchining vazifasi texnik-texnologik jarayonlarni kuzatish va nazorat qilish bilan bog'liq bo'lsa;
- faoliyat jarayonida ishning safati va xizmatni bajarish muddati muhim ahamiyatga ega bo'lsa;
- son jihatdan natijani hisobga olish qiyin yoki imkoniyati bo'lmasa. Bular qatoriga rahbarlar, mutaxassislar va yordamchi xodimlarni kiritish mumkin.

Ishbay ish haqi

Ishbay ish haqi mehnat natijasini son va sifat jihatdan hisob-kitob qilish imkoniyati bo'lgan ishchi va xizmatchilar uchun qo'llaniladi. Bunda asosan bajarilgan ish yoki xizmat o'lchov birligiga nisbatan rassenka ishlatiladi.

Ishbay ish haqi shakli ish yoki xizmat natijasini oshirib borish asosiy maqsad bo'lganda yoki mehnat natijasi ishchiga yoki brigadaga bog'liq bo'lganda yoki mehnat natijasini aniq hisoblash imkoniyati bo'lganda ishlatilsa ko'proq samara beradi.

Ishni tashkil qilish sharoitiga qarab ishbay ish haqi yakka tartibda va jamoaviy (brigada) turlariga bo'linadi.

Bevosita ishbay ish haqi haqiqiy bajarilgan ish, xizmat miqdorini belgilangan rassenkaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi va bu holda mukofotlar ishlatilmaydi.

Masalan: a) yakka tartibda rassenka belgilangan bo'lsa

$$Ix_{.} = \sum r_{i.} \cdot q_{i.}$$

bu yerda:

p_i – i- ish yoki xizmat o'lchov birligiga belgilangan rassenka, so'm;

q_i – ishchi tomonidan bajarilgan i-ish yoki xizmatning miqdori, son birligida bir oyga.

b) jamoa (brigada) uchun rassenka belgilangan holda jamoa (brigada) bajargan ish yoki xizmat miqdori belgilangan rassenkaga bog'liq bo'ladi. Har bir ishchining ish haqi ularning razryadlari va bir

oyda ishlagan ish vaqtiga proporsional taqsimlanadi. Bunda brigadani ish haqi ($I_{x.b.}$) quyidagiga teng bo'ladi:

$$Ix_{.b.} = \sum r_{i.b.} \cdot q_{i.b.}$$

bu yerda:

$p_{i.b.}$ – bajarilgan ish yoki xizmat o'lchov birligiga belgilangan brigada rassenkasi, so'm;

$q_{i.b.}$ – bir oyda brigada bajargan ish yoki xizmatning son miqdori, so'm, dona va hokazo.

Ishchining ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$Ix_{.i.} = Ix_{.b.} \cdot \frac{Ts_{.i.} \cdot t_i}{\sum_{t=1}^{p} (Ts_{.i.} \cdot t_i)},$$

bu yerda:

$I_{x.i}$ – i- ishchining bir oylik ish haqi miqdori, so'm;

$T_{c.i}$ – i- ishchining razryadi bo'yicha belgilangan soatbay tarif stavkasi;

t_i – ishchining bir oyda ishlagan vaqti, soat;

n – brigadadagi ishchilar soni.

Ish haqining ishbay-mukofotli shakli ishlatilganda belgilangan rassenka bo'yicha asosiy ish haqi yuqoridagicha hisoblanadi.

Ishbay-mukofotli ish haqi usuli ishlatilganda mukofot summasi vaqt-bay-mukofotli ish haqi usulida ishlatilgan formula orqali hisoblanadi.

Progressiv ishbay ish haqi shakli ishlatilganda (bu shakl asosan ishlab chiqarish tarmoqlarida ko'proq qo'llaniladi) reja darajasida bajarilgan ish uchun ish haqi belgilangan rassenkaga qarab hisoblanadi, rejadan ortiq bajarilgan ish uchun esa oshirilgan rassenkaga nisbatan hisoblanadi.

Bilvosita ishbay ish haqi shakli asosan qo'shimcha ishlarni bajaruvchi ishlar uchun ishlatiladi.

Akkord ish haqi shakli bajariladigan ishning umumiy hajmiga belgilanadi va unda ish tez (belgilangan muddatga nisbatan) bajarilgani uchun mukofot berishi rejalashtiriladi. Bu shakl qurilish korxonalari va avtotransportlarda ishlatiladi.

Xo'jalik subyektlari uchun motivatsiya muhitini yaratish muhim masalalardir. Shunday motiv va rag'batlantirish usullarini yaratish kerakki, rahbardan tortib, to oddiy ishchigacha ishlarni bajarish ular

uchun ham qiziqarli, ham foydali bo'lsin. Bizning fikrimizcha, mulkdor uchun ham, yollanma ishchi ham xo'jalik subyektining asosiy maqsadini, («X» darajadagi foyda yoki daromad olish bir tomondan, «Y» darajadagi talab yoki ehtiyojni qondirish ikkinchi tomondan) bajarish umumiy nuqta bo'lib hisoblanishi kerak.

Shuni ta'kidlash joizki, harakatdagi kafolatlangan tarif stavkalari va lavozim okladlari ishchi va xodimlarning maoshini xo'jalik subyekti maqsadi bilan bog'liqligini to'la ifoda qilmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqoridagi muammoni hal qilish uchun ish haqining progressiv shakllaridan, modellaridan foydalanishga harakatlar amalga oshirilmoqda. Bunga ushbu masalada xo'jalik subyektlarining mustaqilligini oshirish imkoniyat yaratmoqda. Bunday shaklga (modelga) tarifsiz tizimni kiritish mumkin. Bunda kafolatli tarif stavkalar lavozim okladlari, ayrim ustamalar va qo'shimchalar ishlatilmaydi. Ushbu tizimda ish haqi fondi yoki jamoa tomonidan ishlagan maoshining hajmi ular o'rtasida ishchi xodimning malakasi va mehnatining sifatiga qarab taqsimlanadi. Bunda ish haqini individullashtirishga erishiladi. Ushbu shakl (model) chet ellarda (AQSH, Yaponiya, Fransiya) qisman tajriba shaklda Rossiya va O'zbekiston korxonalarida ishlatilmoqda.

Ta'rifsiz tizim asosida ishchining maoshi mehnatning sifatiga (malakasi, mahorati, lavozimi) qarab uning umumiy fonddagi hissasi va miqdoriga qarab aniqlanadi. Buning uchun quyidagi ish haqini hisob-kitob formulasi ishlatiladi.

$$I_{xi} = \frac{K_i}{\sum_{i=1}^{p} K_i} \cdot I_{x.f}$$

Bu yerda: $I_{x.i.}$ - i – ishchining ish haqi;

K_i - i – ishchining ish haqi necha marotaba minimal ish haqidan yuqoriligini ko'rsatuvchi koeffitsiyent;

p – ishchilarning umumiy soni.

Tarifsiz ish haqi tizimi ishlatilganda alohida ishchining ish haqini hisoblashda yuqoridagidan tashqari alohida ishchining mehnatiga ishtirok etish koeffitsiyentini aniqlash orqali ham, ishchining ish haqi fondidagi hissasini va ish haqining miqdori hisob kitob qilinadi.

Bunda siljuvchi okladlar, shartnomaviy (mehnat shartnomasi, jamoaviy shartnomalarda ko'rsatilishi mumkin) va komission usuli qo'llaniladi.

Ish haqining tarifsiz tizimida ish haqi fondini taqsimlash qoidasi ishlatiladi. Ya'ni brigada yoki jamoa uchun ajratilgan ish haqi fondi ishchi yoki xizmatchilar o'rtasida ularning faoliyat natijasiga qo'shgan hissasini (ishning murakkabligi, ishchining malakasi, javobgarligi darajasi, ishlagan vaqti kabilar) hisobga olgan holda taqsimlanadi. Bunda hir xil koeffitsiyentlar, ballar tizimi (reyting) kabilar ishlatilishi mumkin.

Ish haqining tarifsiz tizimining maqsadi ish yoki xizmatni (korxona, xo'jalik subyekti, tashkilot) pirovardidagi natijani moddiy rag'batlantirishga qaratiladi. Ushbu natijaga qarab ish haqi fondi rejalashtiriladi.

Ish haqi miqdori uning uchun ajratilgan mablag' hajmiga qarab aniqlanadi.

Albatta, ishchiga qonuniy hujjatlarda belgilangan minimal ish haqi miqdorini to'lash kafolatlanishi zarur.

Ish haqini siljuvchi okladlar tizimi ish yoki xizmat hajmi rejasi bajarilganda boshqa ko'rsatkichlar (masalan: mahsulot (xizmat) hajmi va tarkibi, tannarx, daromad, foyda miqdori, rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi va boshqalar) o'zgarsa belgilangan (kelishilgan) ish haqi miqdori o'zgartirilib boriladi. O'zgartirilish miqdori ko'rsatkichlarni u yoki bu tomonlama o'zgarilishi miqdoriga qarab koeffitsiyentlarda yoki foizlarda belgilanishi mumkin.

Tarifsiz ish haqining komission usuli qo'llanilganda ish yoki xizmat natijasi miqdoriga komission foiz (yakka tartibdagi yoki jamoa, brigada) belgilanadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$Ix.b. = \frac{TA \cdot K_{f.b}}{100} \text{ yoki } I_{x.i} = \frac{TA \cdot K_{f.i}}{100}$$

Bu yerda: TA – bajarilgan ish, xizmat miqdori yoki boshqa belgilangan ko'rsatkich, bu yerda tovar aylanishi summasi keltirilgan;

Kf – «TA» miqdoriga belgilangan komission to'lov foizi, % da tegishlicha «b» brigada, «i» alohida ishchi uchun.

Komission – oshib boruvchi (progressiv) usul ishlatilganda ish haqini quyidagicha aniqlash formalasini tavsiya qilamiz.

$$Ix.i = K_{ix.r} + \frac{K_{ix} \cdot KTF}{100}$$

Bu yerda: $I_{x.i}$ – i – sotuvchining oylik ish haqi;

$Kix_{.r}$ – rejadagi komission to'lov summasi;

KTF – komission rag'batlantirish miqdori, % hisobida.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ish haqining kontarakt (shartnomaviy) tizimi keng tarqala boshlandi. Umuman kontrakt (shartnomaviy) ish haqi tizimi butun jahonda keng tarqalgan. Shuni e'tiborga olish kerakki, bu tizim ishlatilganda aslida tarif setkasi, tarif razryadlari, tarif koeffitsiyentlari, tarif stavkalari va moddiy rag'batlantirish tizimlarini hamda boshqa omillarni chuqur tahlil qilish asosida ish haqini kontrakt (shartnomada) ko'rsatilgan miqdorda aniqlanadi.

Bu albatda kontrakt (shartnoma) miqdori ish beruvchi yoki mulkdorning ish haqi uchun ajrata oladigan mablag'i hajmi, uni imkoniyati chegarasida belgilanadi.

Mehnat (jamoaviy) kontrakt (shartnoma) da ish haqi miqdori (vaqtbay yoki ishbay shakli ko'rsatilishi mumkin) moddiy rag'batlantirish va javobgarlik sharti, mehnat shart-sharoiti, ishchining huquqi va burchi, kontrakt (shartnoma) muddati kelishiladi.

Ish haqining tarifsiz tizimi ishlatilishda:

- aniq xodimga qo'yilgan vazifa va maqsadni;
- maqsadga erishish darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar;
- maqsadga erishish darajasi va moddiy rag'batlantirish miqdorini son nisbatini aniqlab olish lozim bo'ladi.

Korxonalarda ishchilarni tartibga solish quyidagi holatlarni e'tiborga olishni talab qiladi.

Ishchilarga ish haqi to'lash – bu ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan mehnat resurslarining narxidir. U sarflangan mehnat miqdori va sifati bilan belgilanadi, lekin unga talab va taklif, mavjud kon'yunktura, hududiy jihatlar, qonuniy hujjatlar kabi sof bozor omillari ham ta'sir qiladi. Masalan, AQShda minimal ish haqi, hamda vaqtbay stavkalar qonun bilan tartibga solinadi.

Bozor iqtisodiyotida ish kuchi bozori mavjud. Unda mehnat resurslari hudud bo'yicha siljiydi, talab bor joyda ishchi kuchi to'planadi, taklif ko'p bo'lgan joylardan esa ishchi kuchi boshqa joylarga siljiydi. Bu omillar majmuasi muayyan ish haqini shakllantiradi.

Mehnat bo'yicha taqsimlashga yondashuv o'zgaradi. Teng ish uchun teng ish haqi asosida xarajatlar, ya'ni ish vaqti soatlari soni va

malaka darajasi emas, balki mehnat natijalari - bozorda mehnat mahsulotining tovar sifatida tan olinishi yotadi. Tovar sotishdan olingan mablag'lar tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatining miqdori va sifatini baholash uchun yuqori mezonga va shaxsiy daromadlarning asosiy manbaiga aylanadi.

Bozor sharoitida ish kuchi harakati kuchayadi. U bir qator omillarga bogliq. Bozorda tovar nomenklaturasi va sifatiga yangi talablar paydo bo'lishi sababli korxonalar faoliyati o'zgaradi; bir xillari yo'qoladi, boshqalari paydo bo'ladi. Muhim omil – migratsiya jarayonlaridir. Xodimning bitta jamoada va bitta ish joyida barqarorligi o'tmishda qolmoqda: bozor sharoitida ishchi o'z qobliyatlarini to'liqroq namoyon qilish imkoniyati mavjud ish joyini izlaydi. Ammo salbiy jihatlar ham paydo bo'ladi, ya'ni - ishonchsizlik va xavotirlanish hissi va nihoyat, eng muhimi ishsizlik imkoniyati.

Korxona o'z faoliyatida ishlab chiqarishga jalb etiladigan har bir omilni haqqini to'laydi. U asbob, mashina, uskunalar, xom ashyoni harid qiladi va ishlab chiqarishni boshlash uchun, ish kuchini yollaydi. Mehnat uchun to'lov – ish haqi hisoblanadi. Bir tomondan, ish haqi ishchining jismoniy va aqliy kuchlarini qoplashi lozim, boshqa tomondan ishchi o'z ish haqini boshqa shunga o'xshash korxonada shunday mehnat to'lovi bilan solishtirganda o'zini zarar ko'rgan deb his qilmasligi lozim. Lekin korxonani tashqi xususiyatini bir qator omillar cheklaydi, ya'ni:

- davlat tomonidan belgilangan minimal ish haqi darajasi;
- tadbirkor va ishchilar jamoasi o'rtasidagi shartnoma shartlari;
- kasaba uyushmalari talablari.

Ish haqi to'lovini tashkil etishda korxona quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- ishchilarga ish haqi to'lash shakli va tizimini aniqlash;
- ishchilar, mutaxassislar, boshqaruvi xodimlari uchun lavozim okladlari tizimini ishlab chiqish;
- ishchilar va boshqaruv xodimlari uchun qo'shimcha to'lovlar miqdorlarini aniqlash va mezonlarni ishlab chiqish.

Korxonalar u yoki bu ish haqi shakli yoki tizimini tanlash borasida keng imkoniyatlarga ega, mukofot va rag'batlarni aniqlashda esa ular yanada kengayadi. Lekin rahbar san'ati mavjud vositalardan

muayyan korxona, bu korxonada ishlaydigan xodimlarga mos keladiganlarini tanlab olishdan iborat.

Tayanch iboralar: mehnat, mehnat resurslari, mehnat jamoasi, mehnat munosabatlari, insoniy kapital, kadrlar, tadbirkor, kadrlar qo'nimsizligi, mehnat taqsimoti, mehnat shartnomasi, mutaxassislar, xizmatchilar, xodimlar, mehnat jamoasi, mehnat unumdorligi, ish kuni fotografiyasi, ish vaqtini xronometraji, mehnatni me'yorlash, mehnat samaradorligi, ish haqi, ish haqi shakli, ish haqi tizimi, tarif tizimi, tarif setkasi, tarif stavkasi, tarif koeffitsiyenti.

Takrorlash uchun savollar

1. Mehnatga ta'rif bering.
2. Mehnat munosabatlari nimani bildiradi?
3. Xodimlar siyosati qanday maqsadlarga yo'naltiriladi?
4. Ishchilarga nimalarga ta'minlanishi shart?
5. Mehnat taqsimoti nima?
6. Mehnatni me'yorlash deganda qanday jarayonni tushunasiz?
7. Mehnat unumdorligi deganda nimani tushunasiz? U qanday aniqlaniladi?
8. Mehnat unumdorligi konsepsiyasi nima?
9. Mehnat unumdorligini oshirish tamoyillarini aytib bering.
10. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari tasnifini tushuntiring.
11. Mehnat unumdorligini oshirish yo'llarini ayting.
12. Ish haqi nima?
13. Ish haqi shakllari qanaqa?
14. Ish haqi tizimi nimalardan iborat?
15. Yagona tarif setkasi mohiyatini tushuntirib bering.

X BOB. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI, FOYDASI VA RENTABELLIGI

Reja:

10.1. Xarajatlar to‘g‘risida tushuncha va ularning tasnifi.

10.2. Foyda va uni shakllantirish manbalari, foydani taqsimlash tartibi va uni ko‘paytirish yo‘llari.

10.3. Rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko‘rsatkichlari.

10.4. Foyda va rentabellikga ta’sir qiluvchi omillar.

10.1. Xarajatlar to‘g‘risida tushuncha va ularning tasnifi

Ishlab chiqarish korxonalari faoliyati moddiy va mehnat xarajatlari bilan bog‘liq. Xarajatlarning asosiy hissasi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarishning jami xarajatlari mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi va unga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulot korxonaga qanchaga tushayotganini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq xarajatlarni ham amalga oshirishadi. Bunday xarajatlar ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat xarajatlari ham deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq korxonalarning xarajatlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar;
- korxona umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan korxonaning moliyaviy faoliyati bo‘yicha xarajatlari;
- favqulodda zararlar.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.

Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sugurta ajratmalari;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlarining eng yirik elementi – moddiy xarajatlardir. Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi tarkibida ularning hissasi 60–90 foizni tashkil etishi mumkin.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo‘ladi:

- mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar;
- normal texnologiya jarayonini ta’minlash va mahsulotlarni o‘rash, mahsulot (ish, xizmat)lar yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshoatlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o‘tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish uchun) materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlr, instrumentlar, moslamalar, inventar, priborlar, laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, maxsus kiyim-bosh va boshqa arzon baho ashyolarning eskirishi;
- sotib olinadigan, kelgusida ushbu korxonada montaj qilinadigan yoki qo‘shimçha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, korxonaning ichki tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo‘lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlar;

- tabiiy xom ashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to'lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo'jaligi tizimida belgilangan limitlar doirasida va undan ortiq olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xom-ashyo tarmoqlari uchun yogoch taxta materiallardan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari;

- texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, korxonaning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;

- korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi harid qilinadigan energiya;

- ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

- korxonaning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlaga kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

Korxonalar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladign chiqitlar qiymati hamda idish va o'rash-joylash materiallari qiymati, ularning amalda sotilishi, foydalanishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

«Moddiy xarajatlar» elementlari bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yigimlardan, transportda tashishga haq to'lashdan,

tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining yirik elementlariga asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishidir. Qaysikim, u amortizatsiya ajratmalari summasiga tengdir. Unga asosiy fondlarning tezlashtirilgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasi ham kiradi.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari – bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to'lash bilan bog'liq xarajatlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

- korxonada qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay rassenkalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib amalda bajarilgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ish uchun hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;
- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlariga ustamalar;
- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar (texnologik jarayon jadvalida nzarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram kunlari ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlariga ustamalar va qo'shimcha haq, ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar, hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha ogir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar va h.k.);
- ishlanmagan vaqt uchun to'lov (foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash, harbiy yiginlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yiginlar va boshqalar uchun mehnat haqi to'lash va h.k.);
- korxona shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga, ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun

xodimlar bilan hisob-kitob korxonaning o‘zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlaga kiradi;

- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to‘lash fondiga kiritiladigan to‘lovlarning boshqa turlari.

Korxonlarning ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sugurtaga ajratmalari – bu ijtimoi fondlarga (Pensiya fondiga, Aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish fondiga, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashiga) majburiy ajratmalardir.

Korxonalarning ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlariga quyidagilar tegishli:

- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish xarajatlari (ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg‘i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta’minash xarajatlari; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari; yongindan saqlash va qo‘riqlashni hamda korxonaning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta’minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari; ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog‘liq xarajatlar; tekin ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, korxona xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to‘lash xarajatlari; amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati va boshqalar);

- ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo‘lgan xizmat safarlariga yuborish bo‘yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar;

- ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sugurta qilish xarajatlari;

- brak tufayli kelib chiqadigan yo‘qotishlar;

- ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko‘ra bekor turishlar tufayli yo‘qotishlar;

- kafolatli xizmat muddati blgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

- mahsulot (xizmat)larning majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari;

- ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarsiz to'lanadigan nafaqalar;

- umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

Davr xarajatlari

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Korxonalarning sotish xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va ot-ulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar;

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari ishlari xarajatlari (mehnatga haq to'lash xarajatlari; ijtimoiy sugurtaga ajratmalar; savdo reklamasi xarajatlari; tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni navlarga ajratish xarajatlari; tashish, saqlash va sotish chogida Tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo'qotilishi; o'rash-joylash materiallari xarajatlari; mol-mulkni majburiy sugurta qilish xarajatlari va boshqalar);

- sotish bozorlarini o'rganish bo'yicha belgilangan normativlar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar (marketingga, reklamaga sarflangan xarajatlar);

- yuqorida sanab o'tilmagan sotish bo'yicha boshqa xarajatlar.

Boshqaruv (ma'muriy) xarajatlar

Korxonalarda boshqaruv xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan ijtimoiy sugurtaga ajratmalar;

- xizmat yengil avtotransportiga va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari;

- korxonani va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari;

- boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- ijara, xizmatlar ko'rsatilganligi uchun aloqa uzellariga haq to'lash (ATS, uyali, yo'ldosh, peyjing aloqa);

- shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun belgilangan normativlar doirasida va ulardan ortiqcha haq to'lash;

- ma'muriy - boshqaruv ehtiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to'lash;

- ma'muriy faoliyatga ega bo'lgan asosiy fondlarni saqlash va ularni tuzatish, shuningdek, eskirish (amortizatsiya) xarajatlari;

- yuqori tashkilotlar va yuridik shaxs maqomiga ega birlashmalar, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar va boshqalar xarajatlariga ajratmalar;

- xodimlarni va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulkni majburiy sugurta qilish;

- boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo'yia belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar;

- belgilangan normalar doirasida va undan ortiqa miqdordagi xarajatlar;

- umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqalarga binolarni tekin berish va kommunal xizmatlar qiymatiga haq to'lash xarajatlari;

- bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega bo'lgan jamg'armalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, shu jumladan, yo'l qo'yiladigan normalar doirasida va ulardan ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarning atrof-muhitga chiqarilganligi (tashlanganligi) uchun to'lovlar.

Umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa operatsiya xarajatlari

Korxonalarning boshqa operatsiya xarajatlari quyidagilardan iborat:

- kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari (yangi tashkil etilayotgan korxonada ishlash uchun normalar doirasida va ulardan ortiqcha kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno);

- loyiha va qurilish-montaj ishlarida chala ishlarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, shuningdek, obyekt qoshidgi omborgacha transportda tashish chogidagi shikastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari tufayli kelib chiqgan taftish xarajatlari (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) va shunga o'xshash boshqa xarajatlar yetkazib beruvchi va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatlar chala ishlar, shikastlanish yoki zarar ko'rish uchun javobgar bo'lgan yetkazib beruvchi yoki boshqa korxonalar hisobiga undirilishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladi;

- maslahat va axborot xizmatlariga haq to'lash, shu jumladan, korxona mulkdorlaridan birining tashabbusi bo'yicha o'tkazalidagan auditorlik xizmatlariga haq to'lash;

- o'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarni saqlashdan ko'rilgan zararlar;

- salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari;

- korxona tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar va xizmatlarni (shahar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam berish va boshqa xil ishlarni) bajarish xarajatlari;

- kompensatsiya va rag'batlantirish tusidagi to'lovlar (vaqtincha mehnat layoqatini yo'qotgan taqdirda qonun hujjatlari bilan belgilangan, haqiqiy ish haqi miqdorigacha qo'shimcha haq va boshqalar);

- ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar (qonunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqani to'lash bo'yicha xarajatlar; pensiyaga ustamalar; pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo'la to'lanadigan nafaqalar; xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam);

- sog'liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport obyektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek, uy-joy fondi obyektlari ta'minotiga (shu jumladan, barcha turdagi ta'mirlash ishlarini o'tkazishga amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo'shgan holda) joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan normativlar doirasidagi va ulardan ko'proq xarajatlar;

- vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalardan qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

- bank va depozitariy xizmatlariga to'lovlar;

- ekologiya, sog'lomlashtrish va boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sogliqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar;

- byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yigimlar, amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lanadign va korxona xarajatlariga qo'shiladigan maxsus byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar;

- zararlar, jarimalar, penyalar (bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha yo'qotishlar; moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolishi normalari doirasidagi va normalardan ko'proq, bevostita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan yo'qotishlar hamda kamomadlar; sud xarajatlari; to'lanishi shubhali qarzlar bo'yicha zahiraga ajratmalar va boshqalar);

- boshqa operatsiya xarajatlari.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar

Korxonalarning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Respublika Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari doirasida va ulardan yuqori doirada qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan, to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha to'lovlar;

- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari;

- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;

- sarflangan (qimmatli qogozlarga, shu’ba korxonalarga va hokazolarga) mablag‘larni qayta baholashdan ko‘rilgan zararlar;

- o‘z qimmatli qogozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;

- moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan, salbiy diskont.

Favqulodda zararlar

Favqulodda zararlar – bu korxonalarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida paydo bo‘ladigan va ro‘y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo‘lgan o‘tgan davr moddalari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilshi uchun quyidagi mezonlarga javob berishi shart:

- korxonaning odatdagi xo‘jali faoliyatiga xos bo‘lmasligi kerak;

- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi lozim;

- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

Tegishli moddalarni favqulodda zararlarga kiritish yoki kiritilmaslik to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda korxona faoliyat yuritayotgan sharoit ham hisobga olinadi. Masalan, korxona alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo‘lsa va uning shu iqlim sharoitiga bog‘liq holda ishlamay turib qolishlari favqulodda holat deb baholanmaydi. Chunki ushbu holat «bir necha yil mobanida takrorlanmasligi kerak» degan mezonga javob bermaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi sharoitda korxonalarning mahsulot ishlab chiqarishi va uni sotishi biln bog‘liq xarajatlari o‘sish tendensiyasiga ega. Bunga xom ashyo, materiallar, yonilg‘i, energiya va uskunalarning qimmatlashishi, kreditdan foydalanish uchun foizlr stavkasining o‘sishi, transport xizmatlari tariflarining ko‘tarilishi, reklama xarajatlarining ko‘payishi sabab bo‘lmoqda.

10.2. Foyda va uni shakllantirish manbalari, foydani taqsimlash tartibi va ko‘paytirish yo‘llari

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonalar xo‘jalik faoliyatini baholovchi asosiy mezon – foydadir.

Foyda – bu murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. U asosan, qo‘shimcha qiymatni yaratish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Korxona foydasining shakllanish manbalari ular xo‘jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlardir:

- sotishdan olingan sof tushum;
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari);
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
- favqulodda foyda.

Sotishdan olingan sof tushum mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan pul tushumidan qo‘shilgan qiymat va aksiz soligi hamda eksport boj poshlinasini chiqarish yo‘li bilan aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

Korxonalarning asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e’tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to‘lanmagan qarzlar va xo‘jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, shuningdek, yetkazilgan zaralarni undirish bo‘yicha daromadlar;
- hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi foyda;
- ishlab chiqarish va mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan renta daromadi, korxona huzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar;
- korxonaning asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar;
- da’vo bildirish muddati o‘tgan kreditorlik va deponet qarzlarni hisobdn chiqarishdan olingan daromadlar;
- tovar - moddiy boyliklarni qayta baholash;
- davlat subsidiyalaridan daromadlar;

- xolisona moliyaviy yordam;
- boshqa operatsion daromadlar.

Korxonalar moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- olingan royaltilar va sarmoya transferti;
- Respublika hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda korxonaga tegishli qimmatli qogozlar bo'yicha daromadlar;
- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish);
- valyuta schyotlari, shuningdek, chet el valyutlaridagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari;
- sarflangan (qimmatli qogozlarga, shu'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;
- moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Korxonalarning favqulodda foyda – bu ko'zda tutilmagan tasodifiy tusga ega bo'lgan hodisa yoki korxonaning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning kamdan-kam bo'ladigan moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Korxonalarning, yuqorida keltirilgan, xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlari va qilingan xarajatlari asosida foydaning quyidagi beshta ko'rsatkichlari aniqlanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda – bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut ko'rinishida bo'ladi:

$$YAF=SST-IT$$

Bu yerda: **YAF** – yalpi foyda;
SST – sotishdan olingan sof tushum;
IT – sotilgan mahsulotning ishlb chiqarish tannarxi

- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda – bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus

asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar ko‘rinishida bo‘ladi:

AFF=YAF-DX+BD-BZ

Bu yerda: **AFF** – asosiy faoliyatdan olingan foyda;
DX – davr xarajatlari;
BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;
BZ – asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar

- umum xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda – bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus xarajatlar ko‘rinishida bo‘ladi:

UF=AFF+MD-MX

Bu yerda: **UF** – umumxo‘jalik faoliyatdan olingan foyda;
MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari

- soliq to‘langungacha olingan foyda – bu umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar ko‘rinishida bo‘ladi:

STF= UF+FF-FZ

Bu yerda: **STF** – soliq to‘langungacha olingan foyda;
FF – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;
FZ – favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar

- yilning sof foydasi – bu soliq to‘langandan keyin korxona ixtiyorida qoladigan foyda. U soliq to‘langungacha olingan foydadan foyda (daromad) dan to‘lanadigan soliqni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi:

SF=STF-DS-BS

Bu yerda: **SF** – sof foyda;
DS – foyda (daromad)dan to‘lanadigan soliq;
BS – boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Demak, foyda korxona xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlarning xarajatlardan ortiq bo‘lganligidan, ya’ni ijobiy moliyaviy natijaga erishilganidan darak beradi. Uning miqdori asosan, ikkita

ko‘rsatkichga – mahsulot narxi va uni ishlab chiqarish xarajatlariga bog‘liq.

Erkin raqobat sharoitida mahsulotga narx uni ishlab chiqaruvchi yoki uni harid qiluvchining hohishiga qarab past yuqori qo‘yilmaydi. Mahsulot narxi erkin bozorning narxlashtirish qonuniyatlari ta’siri ostida, avtomatik ravishda belgilanadi.

Korxona ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yuqori darajadagi narxlarda sotilsa va ularni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar pasaysa foyda massasi, tabiiy ravishda, salmoqli bo‘ladi. Har bir korxona shunday natijaga erishishga intilishadi. Chunki, foyda korxona moliyaviy resursining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy resurs qanchalik o‘sib borsa korxonaning moliyaviy barqarorligi shunchalik mustahkamlanib boradi.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxona sof foydasining taqsimoti o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunga korxonaning mulk shakli ta’sir etadi.

Sof foyda taqsimoti quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

- aksionerlik jamiyatida dividentlar to‘lashga va rezerv kapitaliga ajratma qilinadi. Uning qolgan qismi taqsimlanmagan foyda ko‘rinishida jamiyat ixtiyorida qoladi va korxona faoliyatini rivojlantirishda (asosiy fondlarni kengaytirishda va aylanma mablag‘larni shakllantirishda) qatnashadi;
- qo‘shma korxonada rezerv kapitaliga ajratma qilinadi, uning ustaviga muvofiq ta’sischilr o‘rtasida taqsimlanadi yoki ta’sischilar qaroriga binoan korxona faoliyatini rivojlantirishga ishlatiladi;
- xususiy korxonalarda rezerv kapitaliga ajratma qilinadi va uning qolgan qismi taqsimlanmagan foyda ko‘rinishida korxona faoliyatini rivojlantirishda ishtirok etadi;
- davlat korxonalarida rezerv fondiga ajratma qilinadi, qolgan qismi esa Ustav fondiga qo‘shiladi. Ma’lumki, korxona Ustav fondi uning asosiy va aylanma fondlarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidan oladigan foydaning miqdori ichki va tashqi omillardan bog‘liq. Ichki omillarga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, xo‘jalik yuritish darajasi, rahbariyat va menejerlarning bilimdonligi (omilkorligi), mahsulotning raqobat-bardoshligi, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish

darajasi kiradi. Korxona faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi omillarga bozor konyunkturasi, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik resurslarning narxi, amortizatsiya normalari, soliq solish tizimi va boshqalar.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida har bir korxonada foydani ko'paytirish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish lozim. Umuman olganda bunday tadbirlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha monopol o'rinni egallashga (noyob mahsulotlar ishlab chiqarishga) erishish;
- doimo o'zgaruvchan konyunkturga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilab turish;
- raqobatbardoshlik sharoitida tovarlarning sotila olishini ta'minlash maqsadida haridorlarga turli xil xizmatlar ko'rsatish (jumladan, tovarlar sotilgandan keyingi xizmatlar);
- mahsulot ishlab chiqarishni o'stirish;
- mahsulot sifatini yaxshilash;
- ortiqcha uskunalar va boshqalarni sotish yoki ijaraga berish;
- mavjud moddiy resurslardan, ishlab chiqarish quvvatlaridan va ish maydonlaridan, ishchi kuchi va ish vaqtidan oqilona foydalanish asosida mahsulotlarning tannarxini pasaytirish;
- ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash;
- mahsulotlarni sotish bozorini kengaytirish va boshqalar.

Korxona faoliyati samaradorligini aniqlash uchun yakuniy natijani (foydani) ishlab chiqarish xarajatlari yoki shnday natijaga erishishni ta'minlagan resurslar bilan taqqoslash lozim.

10.3. Rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko'rsatkichlari

Korxona faoliyatiga obyektiv baho berishda, takror ishlab chiqarish jarayonlarining ayrim bosqichlarida xarajatlar bilan natijalarni qiyoslashda ma'lum bir iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ular qatoriga rentabellik ko'rsatkichi ham kiradi.

Rentabellik – korxonalar tijorat hisobi faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlaridan biridir. Foydalilik ishlab chiqarish faoliyatining ma'lum muddati (yil, chorak) davomida serdaromadlik (zarar keltirmaslik) xususiyatini anglatadi. U xo'jalik faoliyatining

pirovard natijalarini to'g'ri baholashga va korxonadagi mavjud resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy manfaatdorligini yo'lga qo'yishga imkon bradi.

Ishlab chiqarishning intensiv va samarali rivojlanayotganligiga baho berishda rentabllikning bir qator ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, qaysikim, ularni hisoblashda foydaning absolyut miqdori ma'lum bir bazalar bilan taqqoslanadi.

Amaliyotda tadbirkor va investorni qiziqtiradigan rentabellikning quyidagi ko'rsatkichlari hisoblanadi:

- xo'jalik faoliyatini yuritishga solingan aktivlar rentablligi;
- mahsulotni sotish rentabelligi;
- o'z kapitali (mablag'i) rentabelligi;
- xarajatlar rentabelligi;
- bir dona aksiya rentabelligi.

Korxona faoliyatini yuritishga solingan aktivlar rentabelligi (A_{rent}) – bu sof foydaning qo'yilgan barcha mablag'lar, ya'ni aktivlarning 1 so'miga to'g'ri keladigan ulushidir. U sof foydaning (SF) umumiy aktiv (A)ning o'rtacha yillik summasiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi:

$$Arent = \frac{SF}{A}$$

Mahsulotni sotish rentabelligi (S_{rent}) – bu sotilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan foyda ulushini, ya'ni sotilgan mahsulotning samaradorlik darajasini tavsiflaydi. U yalpi foyda samarasining (YAF) mahsulot sotishdan tushgan sof pul tushumiga (ST) nisbati ko'rinishida hisoblanadi:

$$Srent = \frac{YAF}{ST}$$

Korxonaning o'z kapitali rentabelligi (O'Krent) – bu sof foydaning korxona o'z kapitali (mablag'i) 1 so'miga to'g'ri keladigan ulushidir. U sof foydaning (SF) korxona o'z kapitalining o'rtacha yillik summasiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi:

$$O'Krent = \frac{SF}{O'K}$$

Xarajatlar rentabelligi (Harrent) – bu korxona asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foydaning asosiy ishlab chiqarish harajatlari (sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan xarajatlar)dagi (AICHX) ulushini tavsiflaydi.

$$Harrent = \frac{AFF}{AICHX}$$

Aksionerlik jamiyatining bir dona aksiyasi rentabelligi (AK) – sof foydaning korxona aksiyalari (AK) soniga nisbati ko'rinishida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxonaning bozordagi faolligini tavsiflaydi.

$$AKrent = \frac{SF}{AK}$$

Rentabellikning barcha ko'rsatkichlari korxonaning barqarorligini aniqlashga, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va bozordagi raqobat bardoshligini ko'tarish bo'yicha tadbirlarni belgilashga xizmat qiladi.

10.4. Foyda va rentabellikka ta'sir qiluvchi omillar

Hozirgi paytda foydaga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini bir qancha usullarni qo'llab aniqlash mumkin. Eng avvalo, korxonaning yalpi foydasiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi.

Sotishdan olingan sof tushumni korxonaning yalpi foydasi (Fsm) deb ham atash mumkin. Bu odatda sotilgan mahsulotning umumiy qiymatidan (Sm) uning tannarxini (Tn) ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Ammo shu ikki ko'rsatkich zamirida mahsulotning qiymati, miqdori, baho o'zgarishi, tannarxdagi tebranishlar mujassam etilgan. Shu tufayli yalpi foydaning vujudga kelishida bevosita shu omillar ta'sirini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Buni amalga oshirish uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.4.1-jadval).

10.4.1-jadval

Yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Asos yilida	Hisobot yilidagi shu davr tannarxi va asos yilidagi bahosi bilan	Hisobot yilidagi mahsulot asos yilidagi tannarxi va hisobot yilidagi baho bilan	Hisobot yilida	Farqi (+,-)
1. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymati	4583,3	5694,5	4745,4**	5694,5	+1111,2
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning to'la tannarxi	3951,2	3951,2	4841,7	4841,7	+890,5
Yalpi foyda *(1q-2q)	632,1	1743,3	-96,3	852,8	+220,7

* *Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)dan olingan yalpi foyda*

** *Viloyat statistika va istiqbolni belgilash boshqarmasining hisobotiga asosan baho indeksi 1,2 ga teng.*

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, yalpi foyda shu davr mobaynida 220,7 ming (852,8-632,1) so'mga oshgan. Uning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi

($\Delta Fsm=(Sm_1-Tn_0) - (Sm_0-Tn_0)=1743,3-632,1=+1111,2$

2. Tannarxning oshganligi

($\Delta Ftk=[(Sm_1/ir) - Tn_1] - (Sm_1-Tn_0)= - 96,3-1743,3=-1839,6$

3. Bahoning oshganligi

($\Delta Fb = (Sm_1-Tn_1) - [(Cm_1/ip)-Tn_1] = 852,8+96,3=+949,1$

Barcha omillar ta'siri

($\Delta F=1111,2 - 1839,6 + 949,1 = +220,7$ ming so'm

Korxonada yalpi foyda ma'lum ahamiyatga ega, chunki u barcha moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar negizini tashkil qiladi. Ammo xo'jalik faoliyatining pirovard natijasi sof foydaga erishish bilan belgilanadi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilda sof foydani o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Korxonada sof foydaning shakllanish jarayoni butun moliyaviy-xo'jalik faoliyatini qamrab oladi. Bu yerda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, sotish va ma'muriy xarajatlarni tejsh, moliyaviy faoliyat natijasida ijobiy saldoga erishish, tasodifiy foydaga muyassar bo'lish, soliq stavkasi o'zgarmagan holda soliq so'mmasini kamaytirish kabi bir qancha bosqichlar mujassam. Ularning ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin.

	Mahsulotni (ish, xizmatni) sotishdan tushgan sof tushum
-	Shu sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxi
=	Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija
-	Davr xarajatlari (sotishga, boshqarishga va boshqa ma'muriy xarajatlar)
(±)	Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlar va xarajatlar
=	Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining natijasi
±	Moliyaviy faoliyat natijasi (olingan dvidendlar, foizlar, valyuta kursi farqi foyda(+), zarar(-))
=	Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi
±	Favquloddagi (tasodifiy) foyda (+) yoki zarar (-)
=	Soliq to'laganga qadargi umumiy moliyaviy natija - foyda (+), zarar (-)

- Soliqlar va majburiy ajratmalar

= Sof foyda

- To‘langan dvidend

= Balansda ko‘rsatiladigan taqsimlanmagan foyda

Ushbu chizma moliyaviy natijalarni, ya’ni sof foydaning shakllanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlashning mumtoz chizmasi bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi paytda amaldagi me’yoriy hujjatlar moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning shakllanishini aynan shu tarzda ifodalashni taqozo etadi. Ushbu holat moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish uchun ham uslubiy jihatdan yondoshishga asosdir.

Ushbu ketma-ketlikka asoslanib korxona sof foydasining shakllanishi va ularning bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rib chiqish mumkin. Bu tadbirni amalga oshirish uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.4.2-jadval).

10.4.2-jadval

Korxona sof foydasining shakllanish hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,-)	O‘sish sur’ati, %
1. Mahsulotni sotishdan kelgan sof tushum (qiymatga qo‘shilgan soliq va aksizlarsiz)	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
2. Sotilgan mahsulot tannarxi (ish, xizmat)	3951,2	4841,7	+890,5	122,5
3. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) dan olingan moliyaviy natija (1q-2q)	632,1	852,8	+220,7	134,9
4. Davr xarajatlari (mahsulotni sotish, boshqaruv va boshqa ma’muriy xarajatlar)	152,4	178,3	+25,9	117,0
5 Boshqa operatsion daromad-	31,3	37,2	+5,9	118,8

lar				
6. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar natijasi (foyda(+), zarar(-)) (3q-4q+5q)	+511,0	+711,7	+200,7	140,6
7. Moliyaviy faoliyat natijasi (+,-)	+71,2	+80,4	+9,2	112,9
8. Tasodifiy (favqulotda) faoliyat natijasi (foyda(+), zarar(-))	+11,4	+8,3	-3,1	72,8
9. Soliq to'langanga qadargi foyda (6q(7q(8q)	593,6	800,4	+206,8	134,8
10. Soliqlar va ajratmalar summasi	225,6	304,2	+78,6	134,8
11. Sof foyda (9q-10q)	368,0	496,2	+128,2	134,8

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning sof foydasi hisobot yilida 128,2 ming so'mga yoki 134,8%ga o'sgan. Bu o'zgarish juda ko'p omillar evaziga sodir bo'lgan. Ushbu omillar ta'sirini shu javdal ma'lumotlari asosida aniqlash mumkin. Bu omillar guruhiga quyidagilar kiradi:

* mahsulot hajmining o'zgarishi;
* tannarxning o'zgarishi;
* bahoning o'zgarishi;
* davr xarajatlarining o'zgarishi;
* turli operatsion daromadlarning (xarajatlarning) o'zgarishi;
* asosiy faoliyat moliyaviy natijasi;
* moliyaviy faoliyat natijasi;
* tasodifiy (favquloddagi) foyda va zararlarning mavjudligi;
* soliq stavkasi;
* soliq so'mmasi.

Ushbu omillarning ta'sirini jadval ma'lumotlari va yuqoridagi hisob-kitoblar asosida ko'rib chiqish mumkin.

1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi	+1111,2
2. Tannarxning oshganligi	-1839,6

3. Bahoning oshganligi	+949,1
4. Davr xarajatlarining ko‘payganligi (178,3-152,4)	-25,9
5. Boshqa operatsion daromadlarning oshganligi (37,2-31,3)	+5,9
6. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadning oshganligi (711,7-511,0)	+200,7
7. Moliyaviy faoliyatdan olingan foydaning ko‘payishi (80,4-71,2)	+9,2
8. Tasodifiy foydaning kamayganligi (8,3-11,4)	3,1
9. Soliq va turli ajratmalar summasining oshganligi (304,2-295,6)	-78,6
10. Barcha omillar ta’siri sof foydaning umumiy o‘zgarishiga teng (496,2-368,0)	+128,2

Sof foydaning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarning umumiy miqdori quyidagicha hisoblanadi.

$$\Delta F = \sum_{i=1}^{n} \Delta F_i$$

Ushbu formulaga tegishli ma’lumotlarni qo‘llab barcha omillar ta’sirida natijaning umumiy o‘zgarishini aniqlash mumkin.

1111,-1839,6+949,1-25,9+5,9+9,2-3,1-78,6=+128,2 ming so‘m.

Ko‘rinib turibdiki, sof foydaning o‘zgarishiga sakkizta omil ta’sir qilgan. Ularning yigindisi natija ko‘rsatkichining umumiy o‘zgarishiga (+128,2 ming so‘m) teng.

Ushbu tahlil natijasida foydani ko‘paytirish imkoniyatlarini (rezervlarini) aniqlash mumkin. Bizning hisob-kitob ko‘rsatmoqdaki, agarda mahsulotning tannarxi oshmaganda edi foyda yana 1839,6 ming so‘mga, davr xarajatlari ko‘paymaganda 25,9 ming so‘mga, tasoddifiy

foyda kamaymaganda 3,1 ming so'mga, soliq va turli ajratmalar summasi ko'paymaganda 78,6 ming so'mga, jami 1947,2 ming so'mga oshgan bo'lar edi. U holda haqiqiy foyda miqdori 852,8 ming so'm emas, balki 2800,0 ming so'mni (852,8+1947,2) tashkil qilgan bo'lar edi. Kelajakda korxona rahbariyati aniqlangan imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Iqtisodchilarning muhim vazifalaridan bir korxona rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillarni ham hisoblab chiqishlari va ularni oshirish uchun tegishli ichki imkoniyatlarni axtarib topish yo'llarini ko'rsatishdan iboratdir. Mazkur bobda korxona rentabelligining umumlashgan ko'rsatkichi va aktivlar rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash yo'llariga to'xtalamiz.

Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkichga mahsulot (ish, xizmat) rentabelligini (Rst) kiritish mumkin. Mazkur ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Rst = \frac{Sf}{St} \times 100,$$

bu yerda: **Sf** – sof foyda;

Rst – mahsulot (ish, xizmat)ning umumiy hajmi.

Ushbu ko'rsatkichga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

* sof foydaning yalpi foydadagi hissasi (Sf/Yaf);
* yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalardagi hissasi (Yaf/Yamn);
* yalpi moliyaviy natijaning sof tushumdagi hissasi (Yamn/St).

Ular o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi chizmada aks ettirilgan (10.4.1-chizma).

Ushbu omillarni natija bilan bog'laydigan bo'lsak, quyidagi formulaga ega bo'lish mumkin:

$$Rst = \frac{Sf}{Yaf} \times \frac{Yaf}{Yamn} \times \frac{Yamn}{St}$$

Ularning qisqartirilgan matematik modeli natijani «Y», omillarni «X_i» deb belgilansa, quyidagi formula orqali ifodalanadi. Unda har bir omilni X_i deb qabul qilish mumkin:

$$3$$

$$Y=X_1 \times X_2 \times X_3 = \prod_{I=1} x_i \qquad (i=1,3).$$

10.4.1-chizma

Korxona umumiy rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik



Ushbu formuladagi ko'rsatkichlarni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida aniqlab omilli tahlil uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.4.3-jadval).

10.4.3-jadval

Moliyaviy natijalar umumlashgan ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Zanjirli almashtirishlar	
			I	II
1. Sof foydaning yalpi foydadagi ulushi, %	61,995	61,994	61,994	61,994
Yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalaridagi hissasi	0,939	0,938	0,939	0,938
3. Yalpi moliyaviy natijaning sotilgan sof mahsulotdagi hissasi	0,138	0,150	0,138	0,138
4. Mahsulot rentabelligi, % (1qx2qx3q)	8,03	8,72	8,03	8,02

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot rentabelligi ko'rsatkichining 0,69% (8,72-8,03) oshganligiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sof foydaning yalpi foydadagi ulushi juda kam miqdorda, ya'ni 0,001% o'zgargan. Bu natija o'zgarishiga ta'sir qilmagan:

8,03 - 8,03=0

2. Yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalardagi hissasi 0,001ga (0,938-0,939) kamayganligi natijani 0,01% kamayishiga olib kelgan:

8,02 - 8,03 = -0,01

3. Yalpi moliyaviy natijaning sotilgan sof mahsulotdagi hissasi 0,012ga ko'payganligi mahsulot rentabelligini 0,7% oshirgan:

8,72 - 8,02 = +0,7

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

0 - 0,01 + 0,70 = +0,69.

Bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida ko'p korxonalar barcha aktivlardan samarali foydalanish masalasini ustuvor vazifa qilib qo'yishmoqda. Chunki korxonaning aktivlari ularning mulki. Bu mulk foyda keltirish uchun mo'ljallangan mulkdir. Shu tufayli mazkur ko'rsatkichning tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga asoslangan. Buni inobatga olib ushbu ko'rsatkich tahliliga to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Barcha aktivlar rentabelligi ta'kidlanganidek, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\textbf{Rentabellik (Ra)} = \frac{\textbf{Sof foyda (Fs)}}{\textbf{Aktivlar (A)}}.$$

Agar aktivlarni tarkibi bo'yicha yoyib chiqilsa, u quyidagi elementlardan tashkil topganligini ko'ramiz.

	Asosiy		Nomoddiy	Aylanma
A =	vositalar	+	aktivlar	+ mablag'lar
	(Av)		(Nf)	(Aym)

Bu yerda aylanma mablag'lar ham ikki yirik guruhga bo'linadi. Bu guruhlarni yoyib chiqilsa, quyidagi formula vujudga keladi:

Moddiy Pul

Aym = aylanma mab- + mablag'lari
lag'lar (Amm) (Pm)

Endi aktivlar o'rniga uning tarkibiga kiruvchi alohida ko'rsatkichlarni qo'yadigan bo'lsak, aktivlar rentabelligini ifodalovchi formulalarning shakli quyidagicha ifodalanadi.

$$Ra = \frac{Fs}{Av+Amm+Pm+Nf}.$$

Endi ushbu formulaga asosan korxona aktivlari rentabelligining tahlilini ko'rib chiqamiz. Eng avvalo, uning farqi aniqlanadi:

$$\Delta Ra = \frac{Fsx}{Avx+Ammx+Pmx+Nfx} - \frac{Fsr}{Avr+Ammr+Pmr+Nfr}$$

Endi shu aniqlangan farqqa ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash mumkin. Natijaga birinchi omilning ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Rafs=Rafs-Rar = \frac{Fsx}{Avr+Ammr+Pmr+Nfr} - Rar.$$

Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Raav=Raav-Rafs = \frac{Fsx}{Avx+Ammr+Pmr+Nfr} - Rafs.$$

Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Raamm=Raamm-Raav = \frac{Fsx}{Avx+Ammx+Pmr+Nfr} - Raav.$$

Natija o'zgarishiga to'rtinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanadi:

$$\Delta Rapm=Rapm-Raamm = \frac{Fsx}{Avx+Ammx+Pmx+Nfr} - Raamm.$$

Natija o'zgarishiga beshinchi omilning ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitobni amalga oshirish kifoya:

$$\Delta Ranf = Ranf - Rapm = Rax - Rapm.$$

Natijaning umumiy o‘zgarishi, odatdagidek, barcha omillar ta’sirining yigindisiga teng bo‘lishi kerak:

ΔRa=ΔRafs±ΔRaav±ΔRaamm±ΔRapm±ΔRanf

Ushbu formulalarga aniq ma’lumotlarni qo‘llab korxona aktivlari rentabelligiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash uchun quyidagi javdalni tuzish tavsiya qilinadi (10.4.4-jadval).

10.4.4-jadval

Korxona rentabelligini aniqlash va uning hisobot yilidagi o‘zgarishining tahlili

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida	O‘zgarishi (+,-)	O‘sish sur’ati, %
Mutlaq ko‘rsatkichlar				
1. Sof foyda (Sf)	368,0	496,2	+128,2	134,8
2. Asosiy vositalarning o‘rtacha qiymati (Av)	2956,5	3497,5	+541,0	118,3
3. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati (Aym)	7269,0	8810,0	+1541,0	121,2
4. Nomoddiy aktivlarning o‘rtacha qiymati (Nf)	73,2	195,0	+121,8	266,4
5. Barcha aktivlar (B) (2q+3q+4q)	10298,7	12502,5	+2203,8	121,4
Nisbiy ko‘rsatkichlar				
6. Rentabellik darajasi, (Ra) [(1qx100)/2q+3q+4q] yoki [1qx100)/5q]	3,57	3,97	+0,40	111,2

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada aktivlar rentabelligi hisobot yilida 0,40%ga oshgan. Bu bir qancha omillar ta’sirida ro‘y bergan. Ularni aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.4.5-jadval).

10.4.5-jadval

Rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni zanjirli almashtirish yo'li bilan aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O't-gan yilda	Hiso-bot yilda	Farqi (+,-)	Zanjirli almashtirishlar			
				I	II	III	IV
1. Sof foyda	368,0	496,2	+128,2	496,2	496,2	496,2	496,2
2. Asosiy vositalar	2956,5	3497,5	+541,0	2956,5	3497,5	3497,5	3497,5
3. Aylanma mablag'lar	7269,0	8810,0	+1541,0	7269,0	7269,0	8810,0	8810,0
4. Nomoddiy Aktivlar	73,2	195,0	+121,8	73,2	73,2	73,2	195,0
5. Barcha aktivlar-ning rentabellik darajasi, %	3,57	3,97	+0,40	4,82	4,58	4,01	3,97

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha aktivlarning rentabellik darajasi hisobot yilida 0,40% bandga oshgan. Bu quyidagi omillar evaziga sodir bo'lgan:

1. Foyda summasining 128,2 ming so'mga ko'payganligi barcha aktivlar rentabellik darajasini 1,25% bandga oshirgan:

(4,82 - 3,57).

2. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining 541,0 ming so'mga ko'payganligi tahlil qilinayotgan ko'rsatkich darajasini 0,24% bandga kamayishiga olib kelgan:

(4,58-4,82).

3. Aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining 1541,0 ming so'mga ko'payganligi barcha aktivlar rentabellik darajasini 0,57% bandga kamaytirgan:

(4,01-4,58).

4. Hisobot yilida nomoddiy aktivlarning 121,8 ming so'mga ko'payganligi ushbu kategoriyaning rentabellik darajasini 0,04% bandga kamaytirib yuborgan:

(3,97-4,01).

Barcha omillar ta'siri natijasida barcha aktivlar rentabellik darajasining umumiy o'zgarishi hosil bo'lgan:

1,25 - 0,24 - 0,57 - 0,04 = +0,40%.

Tayanch iboralar: moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, moliyaviy xarajatlar, ishlab chiqarish tannarxi, ijtimoiy sugurta ajratmalari, sof foyda, rentabellik, mahsulot rentabelligi, aktivlar rentabelligi, sof foydaga ta'sir qiluvchi omillar, rentabellik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar.

Takrorlash uchun savollar

1. Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi qaysi elementlardan tarkib topgan?
2. Davr xarajatlari tarkibini yoriting.
3. Moliyaviy xarajatlar tarkibini yoriting.
4. Moliyaviy natijalarning qanaqa ko'rsatkichlarini bilasiz?
5. Sof foydani aniqlash tartibini aytib bering.
6. Sof foydani taqsimlash tartibini yoriting.
7. Rentabellikning iqtisodiy mohiyatini oching.
8. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari.
9. Korxona rentabelligini oshirish yo'llari.
10. Sof foydaga qanday omillar ta'sir qiladi?
11. Sof foyda o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash yo'lini ko'rsating.
12. Rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarga nimalar kiradi?
13. Mahsulot rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillarning hisoblanish usuli.
14. Aktivlar rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar qanday hisoblanadi?

XI BOB. KORXONANING INVESTITSIYAVIY FAOLIYATI

Reja:

11.1. Investitsiyalarga oid tushunchalar mazmuni, investitsiya tasnifi, ahamiyati, investitsion «portfeli» va siyosati.

11.2. Investitsiya manbalari va ularning korxonaga qo'yish sohalari.

11.3. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi ko'rsatkichlari, ularni aniqlash, baholash va samaradorligini oshirish yo'llari.

11.1. Investitsiyalarga oid tushunchalar mazmuni, investitsiya tasnifi, ahamiyati, investitsion «portfeli» va siyosati

Ishlab chiqarish faktorlaridan biri bo'lib kapital hisoblanadi.

Ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, jihozlar, transport vositalari, barcha instrument turlari, binolar, qurilmalar, inshoatlar kabilar) investitsion tovarlar yoki investitsion resurslar deb ataladi.

Investitsion resurslar (tovarlar) va kapital sanoat korxonasida sinonim sifatida ishlatiladi.

Ushbu terminlar mazmuniga pul kiritilmaydi, chunki u, o'z-o'zidan hech narsa ishlab chiqarmaydi, ishlab chiqarish resursi sifatida ishlatilmaydi. Pul ishlab chiqarish resurslarini sotib olish uchun manbaa bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, investitsion tovarlari (resurslari) bu uzoq muddatda foydalanadigan ishlab chiqarish vositalari bo'lib, u ko'plab tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va foyda olish maqsadida foydalaniladi.

Investitsiya lotincha «investire» (kiyintirish, yasantirish), nemischa «investition» so'zidan kelib chiqib, qisqacha uzoq muddatga ishlab chiqarishni kengaytirish, daromadni orttirish, foyda olish uchun qandaydir ishga yoki korxonaga kapital mablag qo'yishni bildiradi.

Investitsiyaga kengroq ma'noda ta'rif bersak, u foyda yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun biron-bir tadbirkorlik obyektiga (korxonaga) yoki boshqa faoliyatniyuritish uchun pul mablag'larini; qimmatbaho qog'ozlarni; pulda baholanuvchi mol-

mulkni, jumladan mulkiy yoki boshqacha huquqlarni yo'naltirish deb tushunish zarur.

Investitsiya so'zidan investor – omonatchi so'zi kelib chiqib, u omonat (qarz, kredit) beruvchi shaxs, tashkilot (korxona) yoki davlatni anglatadi. Investor investitsion faoliyatni obyekti hisoblanadi. Investorlar qatoriga qimmatli qogozlarni sotib oladigan va bu bilan o'zlarining bo'sh mablag'ini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslar ham kiradi. Investitsiyalar alohida alomatlar bo'yicha tasniflanadi. Uning tasnifi 11.1.1 - jadvalda keltirilgan.

Investitsiyalar tasnifi

Investitsion faoliyat deb – mablag' qo'yishdan boshlab to mablag'ni daromad bilan birga qaytarib olish davrigacha amalga oshirilgan jarayonlar majmui tushuniladi.

Investitsion faoliyat alohida bosqichlardan iborat bo'ladi.

Boshlang'ich bosqich – jahon amaliyotida pul mablag'ini ajratish davri hisoblanadi. Bunda investor investitsiya obyektiga biron-bir faoliyatni masalan, jihoz sotib olish uchun) bajarish uchun pul mablag'i ajratadi.

Ikkinchi bosqich – ajratilgan mablag'ni qaytarilishi. Mablag'ni ajratilishi biron muddatda amalga oshiriladi, mablag'ni qaytarilishi investitsion sikl davrida masalan, yilma-yil mobaynida amalga oshiriladi.

11.1.1 - jadval

Investitsiyalarning alohida alomatlari bo'yicha tasniflanishi

T/r	Alomatlari	Turlari	Mazmuni
1	***Maqsadi bo'yicha***	1.1. Foyda olish 1.2. Ijtimoiy va ekologik ehtiyojlar uchun	1.1. Turlari maqsadiga mos
2	***Obyektlari bo'yicha***	2.1. Real investitsiyalar 2.2. Moliyaviy investitsiyalar	2.1. Pul mablag'larini moddiy va nomoddiy aktivlarni avanslash 2.2. Qimmatbaho qog'ozlarga (aksiya, obligatsiya v.b.) pul mablag'larini qo'yish
3	***Tavsifi bo'yicha***	3.1. Alomat nomi bo'yicha	3.1. Alohida mahsulot turi bo'yicha va avanslash-qandaydir

			aksiya paketini egallash uchun pul mablag'ini qo'yish
4	***Investitsiya-lash muddati bo'yicha***	4.1. Qisqa muddatli 4.2. Uzoq muddatli	4.1. Muddati bir yilgacha avanslash (qo'yish) 4.2. Bir yildan ortiq muddatga avanslash (qo'yish)
5	***Mulk shakllari bo'yicha***	5.1. Xususiy mulkdorlar 5.2. Davlat mulkidagi investorlar 5.3. Qo'shma va horijiy mulkdorlar	5.1. Nodavlat shakldagi yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan mablag' qo'yish 5.2. Davlat mulkiga ega korxona, tashkilotlar, mahalliy tashkilot va muassasalar 5.3. Qo'shma va horijiy korxo-nalar, tashkilotlar, muassasalar
6	***Hududiy alomati bo'yicha***	6.1. Davlat ichida 6.2. Chet eldan	6.1. Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalari, mamlakat ichidagi yuridik va jismoniy shaxslar 6.2. Horijiy yuridik va jismoniy shaxslar, davlatlar, xalqaro mo-liyaviy-kreditlash tashkilotlari
7	***Investitsiyal ash xavf-xatari darajasi bo'yicha***	7.1. Xavf-xatarsiz 7.2. Xavf-xatari kichik 7.3. O'rtacha darajada xavf-xatarli 7.4. Yuqori dara-jada xavf-xatarli 7.5. Spekulyativ investitsiyalash	7.1. Mablag'ni xavf-xatari yo'q obyektlarga, ya'ni real daromadlar yoki foyda olish imkoniyati aniq 7.2. Mablag'ni o'rtacha bozor xavf-xatar darajasi kam bo'lgan obyektlarga qo'yish 7.3. O'rtacha bozor xavf-xatarli darajadagi obyektlarga mablag' qo'yish 7.4. O'rtacha bozor xavf-xatar darajasidan yuqori bo'lgan obyektlarga mablag' qo'yish 7.5. Juda xatarli aktivlarga mablag' qo'yish

Korxonalar investitsion faoliyatni amalga oshirishda investitsiyani ko'proq foyda keltiradigan joyga yo'naltirish muammosiga duch keladi. Ushbu muammolar – investitsiyalar qo'yish yo'nalishlarini aniqlash, joriy va perspektiv rejalar ishlab chiqish jarayonida aniqlanadi. Ushbu jarayon investitsion siyosatni ishlab chiqishda belgilanadi. Korxonaning investitsion siyosati bir qator omillar ta'sirida aniqlanadi. Ular ichida ayniqsa, zaruriyroqlari, asosiylari desak ham bo'ladi quyidagilardan iborat:

- Investitsiya obyektining mulk shakli;
- Korxona faoliyatining hayot bosqichlari;
- Iqtisodiy faoliyat turi;
- Strategik ustuvorliklar;
- Ishlab chiqarishning texnik-texnologik jarayoni;
- Korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotning raqobatbardoshligi, bozorligi;
- Korxonaning bozordagi o'rni (nishasi);
- Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holati va boshqalar.

Investitsion siyosatda avvalom bor, mablag' quyiladigan korxonaning investitsiya uchun ustuvor obyekti aniqlanadi. Keyin investitsiyadan samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqiladi. Bunda investitsiyadan samarali foydalanishga ta'sir qiladigan barcha obyektiv va subyektiv omillar o'rganiladi, salbiy holatlar bartaraf etiladi.

Investitsiya ikki xil shaklda amalga oshiriladi. Birinchisi, yangi korxonalar barpo qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, jihozlar sotib olish, litsenziya olish, ko'chmas mulk harid qilish. Ikkinchisi, mablag'ni qimmatbaho qog'ozlarga qo'yish. Birinchisi **real investitsiya** deb tushuniladi, ikkinchisi **portfelli investitsiyalash** deb yuritiladi. Portfelli investitsiyalar litsenzion va franchayzing kelishuvlari, marketing xizmati haqidagi kontraktlar asosida tashkil qilinsa investorga korxonani boshqarish huquqini beradi.

Investitsiya – pul mablag'lari, kredit, qimmatbaho qog'oz shaklida olib boriladi va ko'chma, ko'chma bo'lmagan mol-mulkga, intellektual mulkga, ne'matlarga bo'lgan huquqga va boshqa qiymatliklarga qo'yiladi, ya'ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi.

Nomoliyaviy aktivlarga, ya'ni real kapitalga qo'yilgan investitsiya asosiy kapitalni yangilash va takror ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Moliyaviy (pul) kapitaliga (moliyaviy mablaglarga kredit sifatida, qimmatbaho qog'ozlarga) qo'yilgan investitsiyani bir qismi tezlik bilan real kapitalga aylanishi mumkin, ikkinchisi – kengroq, ya'ni qandaydir vaqt o'tgandan keyin, uchunchisi esa – umuman real kapitalga aylanmasligi mumkin (Masalan: chiqarilgan yoki sotib olingan qimmatbaho qog'oz o'z qiymatini yo'qotsa, oddiy so'z bilan aytganda sinsa). Shu sababli moliyaviy investitsiyada investorga moliyaviy xatar ko'proq bo'ladi.

Investitsiya moliya bozorining elementi hisoblanadi. Moliya bozori muayyan moliya muassasalari orqali o'zaro aloqada bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilari o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Aksiya va obligatsiyalar investitsiya qimmatli qogozlari deb yuritiladi. Moliya bozorida qimmatli qogozlarning boshqa turlari – xazina majburiyatlar; depozit sertifikatlari; veksellar; varrantlar va hokazolar muomalada yuradi.

Investitsiya jamiyatni iqtisodiy rivojlanishiga va har bir jamiyat a'zosini moddiy farovonligini oshirishga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi.

Investitsiya korxona aktiviga, yangi mahsulot ishlab chiqish, ularni sifatini oshirish, mahsulotni sotishni va foydani ko'paytirish uchun qo'yiladigan mablag. Shu sababli investitsiya ishlab chiqarishni kengay-tirishni, kapitalni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, yangi ish joylarini tashkil qilishni, ish haqini va aholini sotib olish quvvatini oshirishni, davlat va mahalliy byudjetga tushumlarni ko'paytirishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan investitsiya asosiy va aylanma mablaglarni jamgarishni anglatadi. Moliyaviy nuqtai nazardan moliyaviy resurslarni daromad (foyda) olish uchun to'plashni ko'rsatadi. Buxgalteriya hisobi nuqtai nazardan hisobotning aktiv va passivining bir necha moddalariga ishlatilgan kapital xarajatlarni birlashishini ifodalaydi.

Investitsiyani bir turi bu – annuitet. Annuitet aholining shaxsiy investitsiyasi bo'lib, omonatchiga qandaydir bir davr ichida yoki doirasida unga daromad beradi. Annuitet asosan sugurta va pensiya jamgarmalariga mablag qo'yishni anglatadi.

Investitsiya muassasalariga moliya brokerlari, investitsiya kompaniyalari (dillerlar), investitsiya sohasi bo'yicha maslahatchilar, investitsiya fondlaridan iborat bo'lib, ular investitsiya bo'yicha vositachilik, qimmatli qogozlarni chiqarishni yo'lga qo'yish, ularni

uchinchi shaxslar foydasiga joylashtirish bo'yicha kafolatlar berish, aksiyalar chiqarish kabi ishlar bilan shug'ullanadi.

11.2. Investitsiya manbalari va ularning korxonaga qo'yish sohalari

Investitsiya resurslari iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishini boshqarishning iqtisodiy omili vazifasini bajaradi. Investitsiya mablaglari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish jarayonlarida hamda aholining foydalanilmayotgan mablaglarini to'planish natijasida, ularni boshqa jarayonlarda ishlatilishini ta'minlaydi.

Korxona nuqtai nazaridan investitsiya manbalari ular o'z mablaglari (foyda, amortizatsiya, boshqa pul jamgarmalari); qarzga olingan mablaglar (bank krediti va boshqa tashkilotlarni omonatlari); boshqa jalb qilingan mablaglar (aksiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan kelgan daromadlar); byudjet va byudjetdan tashqi mablaglar tashkil qiladi.

Investitsiya tarkibida uning manbalari o'z aksini topadi.

Investitsiya manbalarini uning tarkibidan kelib chiqib moliyaviy va moddiy resurslarga ajratish mumkin.

Moliyaviy manbalarga - naqd pul; chet el valyutasi; xalqaro to'lov pullari; aksiyalar; zayomlar; korxonalar mablaglari; amortizatsiya fondi kiradi.

Moddiy resurslarga – xom-ashyo resurslari; ko'chmas mulk; jamoa–shirkat–xo'jalik mulki; fermerlar mulki; dehqon xo'jalik mulki; tadbirkorlar mulki kiradi.

Investitsiya manbalarini shakllantirishda moliya bozori va uning infratuzilmasi muhim ahamiyatga egadir. Moliya bozorining asosiy maqsadi muamoladagi ortiqcha bo'lgan pul resurslarini aktiv kapital sifatida ishlab chiqarishga jalb qilishdan iboratdir.

Moliya bozori juda keng ma'noli tshuncha bo'lib, u doimo paydo bo'ladigan jamgarmalardan samarali foydalanish jarayonini o'zida ifodalaydi.

Moliya bozori hayotda vujudga kelgan jamgarmalarni (oilada, korxonada) bir turdan (jamgarmalanishi) ikkinchi turga (real kapitalga aylanishi) o'tishini ta'minlovchi mexanizmdir.

Hozirgi zamon moliya bozorining asosini moliya muassasalari va vositachilar tashkil qiladi. Ular sotuvchilar va haridorlar, hamda

sotiladigan va sotib olinadigan tovar, pul va boshqa moliya aktivlari mavjud bo'lgan bozordir.

Moliya bozorining tasnifi quyidagi 11.2.1-chizmada tasvirlangan.

11.2.1 - chizma

Moliya bozorining tasnifi[1]



Investitsiyalarni obyektlarga qo'yish sohalariga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

[1] Chjen V.A va boshqalar. Pul va moliya bozorlari. T.: «Biznes katalog». 1997, 158-b.

- kam qo'llaniladigan investitsion mablaglar, ya'ni, qo'riq (bo'sh yotgan) yerlarni o'zlashtirish, mehnat resurslaridan vaqtincha foydalanish (mutaxassislar va rahbarlardan) va h.k.;

- ma'lum hajmda talab qilinadigan investitsiya mablaglari;

- rejalashtirilgan investitsiyadan olinadigan daromadga ta'sir etuvchi boshqa investitsion sharoitlar, ya'ni rejalashtirilgan asosiy investitsiya mablaglariga qo'shimcha investitsiya mablaglarini jalb etish yo'li bilan investitsiyadan keladigan foydani oshirish;

- faoliyatga qo'yilgan shakliga qarab, investitsiya o'z harakatida daromadlarni oshirish yoki kamaytirish, xavf-xatarni kamaytirish, mehnat jamoasini manfaatdorligini oshirish, ish sharoitini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilishini ta'minlash zarur;

- qo'shimcha investitsiyalar xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, mahsulot ishlab chiqishni va sotishni oshirish, qo'shimcha daromad olishni ta'minlashga yo'naltirilish kerak;

- ma'lum ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi ishlab chiqarishni ixtisoslashuviga qarab taqsimlanishi darkor;

- investitsiyalar resurslarni tejash, yangi mahsulot ishlab chiqish, korxona imdjini oshirish, tabiatni muhofaza qilish va hokazolarni ta'milashi ham zarur.

11.3. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi ko'rsatkichlari, ularni aniqlash, baholash va samaradorligini oshirish yo'llari

Investitsiya faoliyati alohida tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, investitsiya strategiyasini aniqlash, strategik rejalashtirish, investitsiyaviy loyihalashtirish, loyihalarni tahlil qilish hamda investitsiyani samarasini aniqlash kabilardan iborat bo'ladi.

Korxona misolida investitsiya strategiyasini aniqlash – bu kelajak davrga korxonalarni asosiy faoliyatlarini rivojlantirish yo'llarini aniqlash, shu jumladan, o'z mablaglari hisobidan va boshqa investorlar hisobidan xarajatlarni qoplanish miqdorini aniqlash. Korxona aktivlarini hajmini va rentabelligini prognoz qilish. Strategik rejada aktivlarga bo'lgan ehtiyoj va uni ta'minlash resurslari uzoq muddatga aniqlanadi.

Investitsion loyiha bu investitsiyani texnik-iqtisodiy asoslash bo'lib, u investitsion faoliyat ishtirokchilarini (mulkdor, tadbirkor, bankir, davlat va xalqaro tashkilotlar kabilar) iqtisodiy axborotnomasi, ularni o'zaro aloqalarini boglaydi hamda tushintiradi. Qisqa qilib aytganda investitsiya loyihasi investitsiyadan foydalanish rejasini anglatadi.

Investitsiya loyihasini samaradorligini hisoblash - bu investtitsiyadan keladigan samara ko'rsatkichlarini aniqlashni anglatadi.

Investitsiya loyihasini asosi bu kapital qo'yilmalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan iborat. Shu sababli Investitsiya loyihasi samaradorligi kapital qo'yilmalar samaradorligi orqali aniqlanadi.

Jamiyat miqyosida kapital qo'yilmalar samaradorligi koeffitsiyenti (Ks) milliy daromadning o'sish miqdorini (ΔMD) kapital qo'yilmalar summasiga (Kk) nisbatan aniqlanadi. Ya'ni:

$$Ks = \frac{\Delta MD}{Kk}$$

Korxona miqyosida investitsiya samaradorligi (kapital qo'yilma) koeffitsiyenti (Kk_s) quyidagicha hisoblanadi.

$$Kk_s = \frac{Mk-T}{K} \text{ yoki } \frac{F}{K}$$

Bu yerda: **Mk** – yillik ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

T – yillik ishlab chiqarilgan mahsulotni tannarxi;

F – yillik foydaning miqdori.

Ko'p variantli kapital qo'yilmalar loyihasi samaradorligini aniqlash uchun har bir variantdagi xarajatlarni minimumga keltirish yo'li bilan aniqlanadi. Ya'ni:

$$T_i + Yen \cdot K \rightarrow min$$

Bu yerda: T_i – i varinatdagi xarajatlar;

Yen – kapital qo'yilmalar samaradorligi koeffitsiyenti;

K – kapital qo'yilmalar summasi.

Solishtirilayotgan variantlar har xil davrga mo'ljallangan bo'lsa, bunday sharoitda variantlar (V) keltirilgan koeffitsiyentlar bo'yicha aniqlanadi. Ya'ni:

$$V = \frac{1}{(1+Yen._v)} \cdot t$$

Bu yerda: $Yen._v$ – har xil davrdagi xarajatlarni keltirish normativi;

t – mablaglarni ishga tushirishdan samara olgungacha bo'lgan vaqt.

Investitsiya samaradorligini aniqlashda uning o'zini qoplash muddati, xavf darajasi, inflyatsiyani oshish tempi, kelajakda soliqlar miqdorini o'zigarishi kabilar hisobga olinishi shart. Chunki investitsiyani qulay va samarali sohaga qo'yish investorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Jahon amaliyotidan shu ma'lumki pulni banklarda saqlash eng qulay hisoblanadi, chunki omonatchi undan protsent oladi.

Pulni investitsiya qilish (ishlab chiqarishga qo'yish yoki qimmatbaho qogozlar sotib olish) investorga faqatgina unga bank tomonidan beriladigan protsentdan ko'proq daromad keltirsagina foydalikroq bo'ladi. Bu investorlar uchun birinchi qoida bo'lib hisoblanadi.

Investorlarning ikkinchi qoidasi – investitsiya rentabelligi inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lishi kerak.

Shunday qilib, investitsiya samaradorligini hisoblaganda yuqorida keltirilgan qoidalarda keltirilgan ko'rsatkichlarni solishtirma tahlili katta ahamiyatga ega.

Investitsiya loyihasini baholashda xarajatlar va daromadlarini har xil davrga solishtirma tahlili katta ahamiyatga ega. Chunki xarajatlar biron davrda ishlatiladi, daromad esa nafaqat biron davrdan keyin, u asosan xarajatlar amalga oshirgandan keyin kela boshlaydi. Shu sababli davriy pul qiymati degan tushuncha ishlatiladi. Ushbu ko'rsatkich oldin olingan 1 so'm keyin olingan 1 so'mdan qimmatroq turishini anglatadi.

Shu sababli iqtisodiy va moliyaviy tahlilda so'mning joriy va kelajakdagi qiymatini hisoblaydi, tahlil qiladi. Bunday hisob-kitoblar diskontirovaniya deb yuritiladi.

Diskontlashtirish investitsiya yoki pul oqimlarini kelgusidagi qiymatining joriy bahoda ifodalanishi tushuniladi.

Diskontlashtirish murakkab foyiz hisoblashning teskari jarayonidir. Murakkab foyiz usuli orqali investitsiyaning kelajak qiymati ($Ik_{.q.}$) quyidagicha aniqalanadi.

$$Ik_{.q.}=Ij_{.q.}(1+Ch)^{p}$$

Bu yerda: $Sj_{.q.}$ – investitsiyani joriy qiymati;
Ch – bank foyizi stavkasi;
P – yillar soni.

Masalan: bank foyizi 10% bo'lgan holda 5 yildan keyin 1 so'mning qiymati = $1\cdot(1+0,1)^{5}=1\cdot 1,55=1,55$ so'mni tashkil qiladi.

Ushbu ko'rsatkichni diskontlashtirish usuli bilan investitsiyaning joriy qiymati aniqlanadi. Buning uchun investitsiyani kelajak qiymatini (1+bank foyizi) mo'ljallangan yillar soni darajasiga bo'lish bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$Ij_{.q.}=\frac{Ik_{.q}}{(1+Ch)^{p}}=Ik_{.q}\cdot(1+Ch)^{-p}$$

Masalan: bank foyizi 10% bo'lgan holda 20 yildan keyingi 1 so'mning joriy qiymati $=1:(1+0,10)^{20}=1:1,10^{20}=1:6,7=0,15$ so'mni tashkil qiladi.

Shunday qilib, diskontlashtirish yilma yil ketma-ketlikda daromadlar, xarajatlar potoklarini diskont stavkasiga asosli bir-biriga keltirish yo'li orqali kelajakdagi daromad va xarajatlarni joriy qiymatini belgilab olish uchun investitsiyani iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishda ishlatiladi.

Axborot uchun ma'lumotlar

O'zbekiston iqtisodiyoti 1997–2003-yillar davomida yiliga 3,8–5,2 foiz o'sish sur'atlari bilan rivojlandi. Qulay ishchan muhit yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004-yildan

e'tiboran yiliga 7–9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi[19].

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2011-yilning yanvar-dekabr oylarida 18291,3 milliard so'mlik kapital qo'yilmalar o'zlashtirilgan. Investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashgan investitsiyalar 17,5 foizni (3198, 7 milliard so'm), investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,9 foizni tashkil etgan.

2011-yilda umumiy investitsiyalar hajmida davlat byudjeti mablag'lari 5,1 foiz; chet el investitsiyalari 25,3 foiz; korxonalar va aholi mablag'lari 49 foizni tashkil etgan.

2011-yil uchun qabul qilingan O'zbekistonning investitsiya dasturida byudjet mablag'lari hisobidan jami 950 milliard so'mlik mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan edi, olib borilgan iqtisodiy siyosat natijasida, 2012-yil 1-yanvar holatiga ko'ra byudjetdan 1101,7 milliard so'm mablag' o'zlashtirildi. Bu esa prognoz qilingan mablag'dan 116 foizga ko'p demakdir.

2011-yilda o'zlashtirilgan markazlashmagan investitsiyalar umumiy investitsiyalarning 77,3 foizini tashkil etgan. Prezidentimiz ma'ruzasida qayd etilganidek, 2011-yilda jami investitsiyalarning (*10 milliard 800 million dollar*) 73 foizdan or tig'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilgan.

2011–2015-yillar davomida 13 milliard dollardan ziyod yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar ko'p to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta'minlaydi.

2011–2015-yillarda jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 18,6 milliard dollarni tashkil etishi yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. Ularning 75 foizdan ortig'ini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi.

Tayanch iboralar: investitsiya, investor, qimmatli qogozlar, moliya bozori, investitsiya manbasi, moliyaviy manba, moddiy resurslar.

---

[19] O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: «O'zbekiston», 2011. – 13-b.

Takrorlash uchun savollar

1. Investitsiya nima?
2. Investor kim?
3. Moliyaviy va nomoliyaviy investitsiyalarga tushuncha bering.
4. Real kapital mablag nima?
5. Moliyaviy bozor tarifini ayting.
6. Investitsiya tasnifini keltiring.
7. Investitsiyalarni manbasini tushuntiring.
8. Investitsiya qanday sohalarda ishlatiladi?
9. Moliya bozorini tasnifini keltiring.

XII BOB. KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA TIJORAT SIRI

Reja:

12.1. Korxona iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi va tasnifi.

12.2. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi va vazifalari.

12.3. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi.

12.4. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari, tashkil etish va boshqarish.

12.5. Korxonada iqtisodiy xavfsizlik xizmati, uning funksiyalari va tarkibi

12.6. Korxonalarning tijorat siri mohiyati.

12.7. Korxonalar tijorat sirini himoya qilish mexanizmi.

12.8. Raqobatchilar to'g'risida axborot olish uslublari.

12.1. Korxona iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi va tasnifi

Xavfsizlikni tushunish uchun, eng avvolo, xavflilik nimaligini tushunib olish lozim. Xavflilikka quyidagicha ta'rif berish mumkin. **Xavflilik deganda turli ofat, baxtsizlik, g'am-g'ussa, halokat, yo'qotish kabi salbiy holatlarning sodir bo'lish mumkinligi tushuniladi.** Agar ushbu ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak, xavfsizlik – bu mavjud bo'lgan xavflilikni bartaraf qilinishni anglatadi. Bu tushunchadan kelib chiqib, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin. **Xavfsizlik deganda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldi olinib, biror obyektning tinch-osoyishta faoliyat yuritishi, tabiiy ofatlardan, yong'in xavfsizligidan, raqobatchilar xavfidan saqlanishi va barqaror faoliyatini ta'minlovchi tadbirlar majmuasi tushuniladi.**

Bu ta'rif xavfsizlikka berilgan umumiy ta'rif. Mazkur bobda korxonaning umumiy xavfsizligi bilan birga iqtisodiy xavfsizlikni mazmuni va mohiyati ham yoritilgan. Uni ta'minlash uchun mulkdordan, shu korxona rahbariyatidan juda katta tashkilotchilikni, bilim va tajribani talab qiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini aniqlash uchun u bilan bog'liq bir qancha tushunchalarning ta'riflarini ko'rib chiqish lozim. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xavfsizlik;
- axborotlar xavfsizligi;
- obyektning xavfsizligi;
- ishlab chiqarish obyektining xavfsizligi;
- yong'in xavfsizligi;
- tovarning iste'mol xavfsizligi;
- xom-ashyo xavfsizligi;
- korxonaning xavfsizligi;
- korxonaning iqtisodiy xavfsizligi.

Biz yuqorida xavfsizlikga keng ma'noda ta'rif berdik, agar qisqa qilib aytsak xavfsizlik deganda biror xavfning paydo bo'lishidan himoyalangan holat tushuniladi. Agar shunday holatdan kelib chiqadigan bo'lsak, xavfsizlikning ko'lami juda keng. Uni hayotimizning barcha jabhalariga qo'llashimiz mumkin. Bizga asosan iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq tushunchalar lozim bo'ladi. Bulardan biri axborot xavfsizligidir.

Axborotlar xavfsizligi deganda mazkur axborotlarni qo'lga kiritishga huquqi bo'lmagan shaxslarga tasodifan yoki ataylab axtarganda ham oshkor bo'lmaydigan holatning ta'minlanganligi tushuniladi. Axborot xavfsizligi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy hayotimizda ham muhim o'rin egallaydi. Chunki barcha holatlar axborotlarda o'z aksini topadi. Shu tufayli korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun ham axborotlar xavfsizligini ta'minlashni taqozo qiladi.

Bozor munosabatlari sharoitidan har bir obyektning ham xavfsizligi ta'minlangan bo'lishi lozim. Buning uchun obyekt xavfsizligining ta'rifini ishlab chiqishni taqozo qiladi. **Obyektning xavfsizligi deganda turli tahdidlardan himoyalangan va o'z faoliyatini normal rejimda olib borishga tegishli sharoit yaratib olishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga ega bo'lgan obyektlar tushuniladi.**

Biz ushbu holatda butun obyektning xavfsizligi xususida gap yuritmoqdamiz. Bizga iqtisodiy obyektlarning xavfsizligi muhimdir.

Ularning biri, ya'ni eng muhimi ishlab chiqarish obyektidir. Bunga bir quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ishlab chiqarish obyektining xavfsizligi deganda shaxs va jamiyatning manfaatlariga mos kelmaydigan turli ishlab chiqarshda sodir bo'ladigan halokatlarning (avariyalarning) oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmuasining mavjudligi tushuniladi.

Jamiyatimizdagi holatlar iqtisodiy xavfsizlik qatoriga yong'in xavfsizligini ham qo'shishni taqozo qilmoqda. Chunki har xil ehtiyotsizliklar oqibatida yuzlab yong'in hodisalari ro'y bermoqda. Natijada minglab so'm miqdorida moddiy zarar ko'rilmoqda. Shu tufayli ushbu masala ham xavfsizlikning bir turi sifatida o'z ta'rifiga ega bo'lishi lozim.

Yong'in xavfsizligi deganda uning oldini olishga qaratilgan barcha tadbirlarning me'yor darajasida amalga oshirilganligi tushuniladi. Iqtisodiyotda yong'in xavfsizligini ta'minlamas ekanmiz korxonaning umumiy xavfsizligini to'liq ta'minladik deyish qiyin. Shu tufayli ushbu masalaga ham alohida ahamiyat berish ozimdir.

Korxonaning nufuzi bevosita uning tovariga va mahsulotiga bog'liq. Qachonki u o'z tovarining xavfsizligini ta'minlamas ekan, uning haridorini topib bo'lmaydi. Bu esa uni iqtisodiy jihatdan nochor ahvolga olib keladi. Bu holatdan ham ko'rinib turibdiki, har bir korxona o'zining tovarining xavfsizligini ta'minlashlari lozim. Buning nimaligini bilish uchun uning ta'rifini ishlab chiqishni taqozo qiladi. **Tovarning iste'mol xavfsizligi deganda insoning uni iste'mol qilganda hayotining xavfsizligi ta'minlangan va har qanday holatda zarar qilmasligi kafolatlangan bo'lishi tushuniladi.**

Korxona tovarining xavfsizligi bevosita uning mahsulotining xavfsizligiga bog'liq. Iqtisodiyotda ko'p hollarda tovar bilan mahsulot bir xil sinonim sifatida ishlatiladi. Albatta, ushbu tushunchalar bir biri bilan uzviy bog'liq. Ammo ularning mazmuni bir-biridan farq qiladi. Mahsulot deganda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hammasi tushuniladi. Tovar deganda esa, uning sotishga mo'ljallangan qismi tushtniladi. Shu tufayli ularning xavfsizligida ham ayrim tafovutlar bor. Buni anglash uchun ularning ta'rifiga nazar tashlaymiz.

Mahsulotning xavfsizligi deganda inson hayotiga, sog'likga va mulkiga xavf solmaydigan sifatga ega bo'lgan kafolat xizmati

va kafolat muddati davomida iste'molga yoroqli bo'lgan mahsulotlarning mavjud xususiyatlari majmuasi tushuniladi.

Barcha xavfsizliklar korxona xavfsizligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu tufayli ushbu masalani yoritib o'tamiz. **Korxonaning xavfsizligi deganda korxonaning muhim hayotiy manfaatlarini g'irrom raqobatdan, kriminal guruhlardan, turli noqobil shaxslardan saqlangan holda normal faoliyat ko'rsata olish imkoniyatlarining mavjudligi tushuniladi.**

Yuqorida keltirilgan barcha tadbirlar amalga oshirilsagina korxonaning iqtisodiy xavfsizligi ma'lum darajada ta'minlanishi mumkin. Bulardan kelib chiqib, o'ta murakkab jarayon bo'lgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga quyidagicha ta'rif berish mumkin bo'ladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda uning mustaqilligini, mustahkamligini, barqarorligi va ichki imkoniyatlar evaziga takomillashib, taraqqiy etib borishini doimiy ravishda ta'minlab turuvchi sharoitlar va omillar majmuasining mavjudligi tushuniladi.

Erkin raqobat sharoiti korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash obyektiv zaruratga aylanmoqda. Chunki bu ishni amalga oshirmasa korxonalarning bankrotlikka uchrab qolishi tabiiydir.

12.2. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi va vazifalari

Xavfsizlikni ta'minlash hamisha, hamma joyda, hamma narsalar uchun muhim bo'lib kelingan. Hatto hayvonlar ham o'zlarining xavfsizligini ta'minlash uchun o'zlari instingi orqali tegishli choralar ko'radilar. Insoniyat paydo bo'libdiki, xavfsizlik masalasi uning oldida hamisha dolzarb bo'lib hisoblangan. Shu tufayli xavfsizlik masalasi jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Xavfsizlik tizimida iqtisodiy xavfsizlik ham tegishi o'ringa ega. Chunki iqtisodiy xavfsizlik ta'minlamas ekan, iqtisodiy rivojlanish haqida ham baralla gapirish qiyin. Iqtisodiy subyektlarning vujudga kelishi ko'plab mablag' va vaqtni talab qiladi. Bularning erkin faoliyati va rivojlanishi ta'minlash uchun uning eng avvalo, har tomonlama xavfsizligini ta'minlash lozimdir.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida hamma korxonalarga mustaqillik berilib, erkinlik ta'minlanayotan bir paytda, uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ham o'ta dolzrab va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik bo'lgan juda muhim jarayondir. Bu jarayonni to'g'ri va to'liq anglash uchun uning tushunchasi bilan birga, tamoyillarini, maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishi lozim.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ham o'z-o'zidan amalga oshirilib qolinavermaydi. Bu tadbir ham bir qancha o'ziga xos tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilishish mumkin. Bu tamoyillarning tavsifini qisqacha yoritib o'tamiz.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifalari. Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonaning vazifasi o'zining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Bu ishda boqimandalik ketmaydi. Har bir korxona o'zining xavfsizligini o'zi ta'minlamasa boshqa joydan kelib uni ta'minlab bermaydi. Bu jarayon ancha tadbirlarni o'z ichiga oladi. Buni quyidagi 12.2.1 - chizmadan ko'rish mumkin.

Ushbu chizmada korxona xavfsizligini ta'minlashning 8 ta vazifasi keltirilgan. Ularning har biri nimalardan iborat ekanligining tavsifini ko'rib chiqamiz.

1. Korxona faoliyatiga tashqi subyektlar aralashuvlarining kucha-yishiga yo'l qo'ymaslik. Hozirgi kunda buning uchun Prezidentimiz I.Karimov tomonidan juda katta tadbirlar belgilangan va belgilan-moqda. Tadbirkorlik faoliyatining erkinliklarini kafolatlash to'g'risi-da bir qancha qonunlar bilan birgalikda Prezidentning farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham qabul qilingan.

2. Korxona ichida samarali mehnat qilish muhitini buzishning oldni olish, har bir xodimning mehnatini xolisona baholay olish. Xolislik halollik bo'lgan joyda mehnat jamoalari o'rtasida ruhiy muhitning barqarorligi ta'minlanadi. Bunday sharoitda mehnatning samarali bo'lishi tayin. Shu tufayli bugungi korxona rahbari xodimlar va ishchilar ruhiyatini yaxshi biladigan, uni to'liq ta'minlaydigan, mehnat jamoasi o'rtasida adolatni o'rnata oladigan zukko bo'lishi lozim. Adolat tarozisi buzilgan joyda korxonaning xavfsizligini ta'minlash juda qiyin kechadi. Chunki korxonaning xavfsizligi tashqi xavfdan ko'ra ichki xavfning mavjudligi xavf yuqoriroqdir.



12.2.1 - chizma. Korxona xavfsizligini ta'minlash vazifalari

3. Xodimlar o'rtasida axloqiy-ruhiy muhitning barqarorligini ta'minlash, korxonaning muvaffaqiyati ularning har birining muvaffaqiyati ekanligini singdirish va shunga amal qilish. Hozirgi sharoitda ko'pgina kichik korxonalarda mehnat jamoasi asosan qarindosh-urug'lardan tarkib topgan oilaviy korxona jamoalaridan iborat. Ularning maqsadi, qiziqishi va rag'batlantirilishi ko'p jihatdan bir-biriga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda masalani ijobiy hal qilish bir muncha oson kechishi mumkin. Ammo hamisha ham ishni yuritish uchun oilalar tarkibidan mutaxassislarni topish qiyin. U holda kimlarnidir yollashga to'g'ri keladi. Bunda mehnatni tashkil qilishda umum e'tirof etilgan tartib va tamoyillarga amal qilishni taqozo qiladi.

4. Bozordagi o'z raqobatchilaridan mahsulotning (ish, xizmatning) sifati, narxi bo'yicha orqada qolib ketmaslik choralarini ko'rish. Bugungi erkin raqobat sharoitida korxonalar xavfsizligini ta'minlash

uchun o‘zlarining raqobatchilari to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishligi lozimdir. Agarda bir xil tovar yoki xizmat ishlab chiqarayotgan korxonalarda sifat yuqori bo‘ladigan bo‘lsa, bir xil narx bilan raqobatda yutqazib qo‘yishi mumkin. Agarda narxi katta bo‘lib, sifati bir xil bo‘lsa ham shu holatning takrorlanishi mumkin. Bunday sharoitda korxona rahbariyati mahsulotinining va xizmatining sifatini muttasil oshirib borishlari bilan birga narxini ham nazorat qilib borishlari lozimdir. Narxni sun’iy ravishda kamaytirib bo‘lmaydi. Buning uchun mahsulotning tannarxini kamaytirish orqali erishish lozimdir.

5. Bozor konyunkturasining tez o‘zgarishidan hamisha voqif bo‘lish va unga moslashgan holda taraqqiyotni ta’minlash. Bu vazifa ham bozor munosabatlari hukm surib turgan va ning ta’moyillar toboro chuqrlashib borayotgan sharoitda o‘ta muhimdir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda bozordagi muhitni muntazam o‘rganib borishni taqozo qiladi. Bu holat ham korxona rahbariyati va mutaxassislaridan katta bilim va tajribani talab qiladi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, korxonaning xavfsizligiga o‘z-o‘zidan erishish qiyin.

6. Ishlab chiqarish, texnologik, tijorat kabi sirlarini saqlash. Nodir mutaxassislar qo‘nimsizligining oldini olish. Korxonalarning xavfsizligini ta’minlashda uning tijorat sirini saqlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bir korxona muvoffaqiyatga erishsa, u raqobatda oldingi o‘rinlarda turgan bo‘lsa, albatta uning ma’lum darajada o‘zigagina xos sir-sinoatlari bor. Ularni imkon qadar asrashga, atrofga ashkor qilmaslikka harakat qilish lozim. Buning uchn o‘zida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘ta noyob va tajribali kadrlarni asrab avaylash lozim. Bunday kadrlarning qo‘nimsizligiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ularni o‘z ish joylarida muqum ushlab turish choralarini ko‘rish lozimdir.

7. Korxona hududi, mulki va boshqa moddiy resurslarning saqlanishini ta’minlash, ularning o‘g‘irlanishi va yo‘qolshining oldini olish choralarini ko‘rish. Korxoaning iqtisodiy xavfsizligining muhim jihatlaridan biri ularning mol-mulkining saqlanishiga ham bevosita bog‘liq. Mahsulotni saqlash uchun tegishla sharoitni yaratish kerak. Tovarlarning yaroqlilik muddatidan oldin buzilib, aynib yektishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Agar ushbu mahsulotlar sinadigan bo‘lsa, ularning butligini ta’minlash choralarini ham ko‘rish kerak. Shuningdek, mahsulotlarning o‘g‘irlanishiga yo‘l qo‘yilmaydigan,

yo‘qolishining oldini oladigan holatlarga ham hamisha ahamiyat berib borishni taqozo qiladi.

8. Hamkorlarini tanlashda ularning moliyaviy ahvolini o‘rganish va o‘zining moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun tegishli tashkiliy ishlarni doimiy ravishda e’tibordan qoldirmaslik. Bu vazifa ham korxonalarning xafsizligini ta’minlashga qaratilgan muhim choralardan biridir. Ammo hozirgi payda ko‘pgina korxonalarda moliyaviy xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, uning haqiqiy moliyaviy ahvolidan darak bermaydi. Chunki soliqdan qoshish uchun ular shu darajada ko‘p «hunarlarni» qilmoqdaki, ularni maxsus nazorat organi xodimlarisiz aniqlash qiyin. Shu tufayli bu masala ham korxona rahbariyatining diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun eng avvalo, uning rahbariyati va mutaxassislari halol-pokiza ish ko‘rmoqlari lozim. Qing‘ir ishning qiyig‘i bir kun chiqib qolib, bor mol-mulkni turli jarimalarga majburan to‘lab bir kunda bankrot holatiga tushib qolish mumkin. Shu tufayli hamisha boylikni orttirishni halol yo‘l bilan qilishga o‘rganilsa bu asta sekinlik bilan boyib boriladi va iqtisodiy jihatdan xavfsiz bo‘ladi. Hech qanday jarima va boshqa majburiy to‘lovlardan qo‘rqmasligingiz mumkin.

Shu va shu kabi vazifalarning bajarilishi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy tadbirlaridir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, albatta, o‘z-o‘zidan ta’minlanib qolmaydi. Shu tufayli bu masala korxonaga daxldor bo‘lgan mutasaddilarning (mulkdor, rahbar, menejer, mutaxassislar va barcha xodimlar hamda soliq, moliya, bank kabi manfaatdor tashkilotlar) hamisha diqqat e’tiborida bo‘lmog‘i lozim.

12.3. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi

Korxona iqtisoiy xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasini ishlab chiqish uchun bir qancha yo‘nalishlarni ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Bular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Davlatning iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi;
2. Hududning iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi;
3. Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi bevosita davlat va uning ichidagi subyektlar xavfsizligini ta'minlash bilan xarakterlanadi. Chunki har bir davlat, hatto shaxslarning ham erkin faoliyati uchun ular turli tahdidlar qurshovida ekanligini yodidan chiqarmasliklari lozim. Shulardan himoyalanishi uchun hamisha har bir subyekt shu jumladan, davlat ham o'zining xavfsizligini ta'minlab borishi lozim. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi bevosita uning iqtisodiy manfaatlarining qondirilishi bilan bog'liq.

Davlatning iqtisodiy manfaatlarining qondirilishi faqat iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lmasdan bir qancha keng qamrovli yo'nalishlarga ham bog'liq. Bular o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- mamlakatnng hududiy yaxlitligi;
- davlatning dunyo hamjamiyatida munosib o'ringa ega bo'lishligi;
- davlat siyosiy mustaqilligining to'liq ta'minlanganligi va o'zininng davlatchiligi shakllanib, o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatining mavjudligi;
- mamlakatning gullab-yashnashi va barcha fuqarolarining tinch-totuv yashashi uchun tegishli sharoitlarning yaratilganligi;
- barqaror iqtisodiy o'sishning ta'minlanganligi;
- mamlakat ravnaqi uchun investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatining mavjudligi va iqtisodiyotni innovatsion omillar evaziga rivojlantirish yo'liga o'tganligi;
- bahoning barqarorligini, milliy valyutaning mustahkamligini, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxining oshishi aholi daromadlari o'sish sur'atidan oshib ketmaslik kabilarning ta'minlanganligi;
- mehnat unumdorligining muttasil oshib borishining ta'minlanganligi;
- yangi ish o'rinlarining tizimli ravishda yaratilishi uning minimal darajada bo'lishligi bilan birga bandlik muammosining hal bo'lganligi kabilarni.

Yuqorida qayd etilgan barcha yo'nalishlar hudud va xo'jalik yurituvchi subyektlar xavfsizlik konsepsiyasiga ham to'g'ri keladi. Chunki korxonaning yoki hududning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash faqat korxona yoki hudud doirasida sodir bo'lmasdan, bevosita mamlakat miqiyosidagi iqtisodiy holatga ham bog'liqdir.

Mamlakatning ravnaqini ta'minlash uchun uning ma'lum bir qismini gullab-yashnashini ta'minlab, boshqa qismini e'tiborsiz holda tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bu mamlakatda ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltiradi. Odamlar migratsiyasidagi buzulishlarga olib keladi. Qaysi hududda ahvol yaxshi bo'lmasa, yaxshi hududga ko'chib ketish yoki boshqa migratsion jarayonlar yuz berishi mumkin. Shu tufayli barcha hududlarning ham iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni taqozo qiladi.

Hududning iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi o'z ichiga quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi. Bularga:

- ishlab chiqarish kuchlarining hududlar bo'yicha aholining soniga mos ravishda joylashtirilishi va unda hudud manfaatlarining inobatga olinganligi;
- hudud aholisining ish bilan ta'minlanganligi, mazkur hududda bandlik muammosining hal bo'lganligi;
- hududning imkon qadar iqtisodiy jihatdan boshqa hududlarga va tashqi omillarga qaram bo'lib qolmasligi;
- hududning o'z bozoriga ega bo'lishligi va uning barqarorligining ta'minlanganligi;
- hududda erkin raqobatning shakllanganligi;
- hududda innovatsiyani joriy qilish imkoniyatining mavjudligi va uni amalga oshirish uchun tegishli investitsiyaning yetarliligi:
- hududning tashqi bozor bilan aloqasining yaxshi yo'lga qo'yilganligi va unga o'z mahsulotini erkin chiqara olish imkoniyatining mavjudligi;
- hududiy byudjetning yetarli darajada shakllanganligi va unda aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini sifat darajasiga ko'tarish imkoniyatining mavjudligi;
- hududiy korxonalar xodimlarida yuqori mehnat unumdorligining ta'minlanganligi kabilarni kiritish mumkin.

Endi bevosita korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi xususida gapirish mumkin. Chunki yuqoridagi ikki pag'onadagi holat ham bevosita korxonalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash imkonini yaratadi. Bunday konseptual yo'nalishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxona texnologiyalarining uzluksiz innovatsiyalarga tayangan holda yangilanib borishi;

- rivojlanishida ilmiy-texnik yutuqlarga tayanishi;
- sifat va samaradorlikka erishish kundalik faoliyat tarziga aylanishi;
- xodimlarni rag'batlantirishning ilg'or usullaridan foydalangan holda, ularning ilmiy va professional salohiyatini oshib borishga erishish masalalarining hal qilinishi;
- korxonada ruhiy muhitning yaxshiligi va ular hamjihatligining to'liq ta'minlanganligi;
- kadrlar qo'nimsizligiga barham berilganligi;
- korxona mahsulotlarining bozorgirligi, bozorning barqarorligi, yangi bozorlarning kashf qilinishi;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatining mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi ham bevosita ichki va tashqi omillarga bog'liq. Ichki omillar ta'kidlangan yo'nalishlardan iborat. Tashqi omillar yo'nalishlariga bevosita davlatning va hudud iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq konseptual yo'nalishlarni kiritish mumkin.

Endigi vazifa xo'jalik yurituvchi subyektlarda korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi mulohazalarga e'tibor qaratilishi kerak:

Birinchidan, har bir korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ko'rsatkichlarini baholash va bu borada tegishli tashhislarni qo'yib borishni ta'minlash lozim. **Ikkinchidan**, xo'jalik yurtuvchi subyektlarning barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida muttasil ravishda ularda mehnat unumdorligining oshib borishiga erishish. **Uchinchidan**, korxonaning likvidligi va daromadlilik darajasini hamisha nazorat qilib borish va ularning pasaymaslik choralarini ko'rish. **To'rtinchidan**, korxonadagi turli risklarni baholash va ularning oldini olish choralarini ko'rish, unda bozor, baho, tannarx masalalariga e'tiborni qaratish. **Beshinchidan**, korxonaning moliyaviy muvozanatini nazorat qilib borish, olingan daromadlariga yarasha buromadni ta'minlash, ortiqcha sarflarga yo'l qo'ymaslik. **Oltinchidan**, har bir korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashni boshqarishni yo'lga qo'yish va buni biror kun ham nazardan qoldirmaslik ko'nikmasini shakllantirish. **Yettinchidan**, innovatsion

jarayonlarni boshqarish bilan birga korxonaning strotegik yo'nalishini belgilab olish.

Yuqorida keltirilgan choralarning hammasi korxonalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq konsepsiyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

12.4. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari, tashkil etish va boshqarish

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tamoyillari ham iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan masalalar sirasiga kiradi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarda xavfsizlikni, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun uni amalga oshirishda ma'lum tamoyillarga tayaniladi. Bu tamoyillar korxona ishining taktikasi va strategiyasini, aniq maqsad va vazifalar bilan faoliyat ko'rsatishini belgilab olishida namoyon bo'ladi.

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari, ularni tashkil etish va boshqarish masalasi qaralganda uning iqtisodiy, siyosiy va sotsial, texnik, ekologik, axborot sohalarini inobatga olish lozim bo'ladi. Xavfsizlikni ta'minlashda qat'iy qonunga amal qilish tamoyiliga asoslanishi lozim. Qonun buzulgan joyda xavfsizlik haqida gapirishning o'zi befoyda. Shu tufayli qonunga amal qilish masalasi har bir korxonaning qonuni darajasida bo'lishi kerak. Yana shuni e'tirof etish kerakki, xo'jalik faoliyatida qonun doirasida harakat qilish korxonaning barqarorligini ham ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsa, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi quyidagi tamoyillarga tayanadi (12.4.1 - chizma).

Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxonaning xavfsizligi yettita ta'moyilga asoslangan holda tashkil qilinishi zarur. Bularning tasnifi quyidagicha.

1. Uzoq istiqbolga mo'ljallangan dastur va maqsadli rejaning mavjudligi. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona o'z mulkiy javobgarligiga asoslandi, u uzoqni ko'zlab aniq strategik maqsad bilan va shu maqsadga erishish uchun uzoq muddatga mo'ljallangan dastur asosida faoliyat ko'rsatishi lozim.



12.4.1 - chizma. Korxona xavfsizligi tamoyillari

2. Qonuniylikni ta'minlash tamoyili. Hozirgi paytda juda ko'p korxonalar qonunni chetlab ma'lum vaqt noqonuniy foyda olish evaziga faoliyat ko'rsatmoqda. Ular faoliyatidagi qonunbuzarlik fosh bo'lgach (albatta shunday bo'ladi) juda ko'p jarimalar to'lashi evaziga birdaniga sinib inqirozga uchramoqda. Oqibatda, korxona bankrot bo'lmoqda. Bu holat jamiyat uchun ham, davlat uchun ham, shu yerda ishlagan mehnat jamoasi uchun ham, pirovardida korxonaning iqtisodiy xavfsizligi uchun ham katta zarar keltirishi ehtimoldan holi emas.

3. Mustaqillik va mas'uliyatlilik ta'moyili. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun, eng avvalo, o'z faoliyatini mustaqil boshqarishi lozim. Ammo mustaqillik – bu o'zboshimchalik emas. Mustaqil faoliyat o'ta mas'uliyatni ham talab qiladi. Zero, korxonaning foydasi o'ziniki bo'lganidek, zarar ham o'zlari hisobidan

qoplanadi. Ko‘p zarar ko‘rish korxonani iqtisodiy jihatdan xavf to‘g‘dirishi tabiiy.

4. Mehnat va ijro intizomi. Barcha muvaffaqiyatlar kaliti intizomda. Agar mehnat jamoasi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash maqsadi bilan ishlasa albatta u qattiq mehnat va ijro intizomiga rioya qilishi lozim. Intizom orqali qonuniylik, mustaqillik, mas’uliyat, maqsadlilik kabi tamoyillarga ham amal qilishni ta’minlaydi.

5. Kasbiy va texnologik takomillashuv. Bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobat muhiti korxonaning kundalik o‘zgarishlar va yangilanishlarga, bozor konyunkturasiga moslashib borishni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida korxonaning tez o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ta’minlashni, bozor talabiga moslashish kabi holatlarni talab qiladi.

6. Mahsulot (ish, xizmat) sifatining doimi oshib borishini, tannarxning nisbiy kamayishini ta’minlash. Korxonaning nufuzi va iqtisodiy qudratini oshirib borishi uchun, eng avvalo, har bir korxona o‘z mahsulotining (ish, xizmatining) sifatini oshirish uchun kurashib yashashi kerak. Sifat ko‘rsatkichining yaxshilanishi korxonaning nafaqat iqtisodiy xavfsizligini, balki uning raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi. Mahsulotning (ish, xizmatning) sifatini oshirish ko‘p hollarda tannarxni oshirish evaziga amalga oshiriladi. Ammo korxona hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida shunday natijaga erishish lozimki, qaysiki sifatning yaxshilanishi tannarxning oshishiga nisbatan ustuvor bo‘lishi ta’minlansin. Bunda mahsulot (ish, xizmat) sifatining oshishi evaziga olinadigan daromad 100 ming so‘mni tashkil qilsa, shunga bog‘liq tannarx 50–60 ming so‘mga ko‘payishini ta’minlash lozim bo‘ladi.

7. Foydalilikni ta’minlash. Har bir korxona iqtisodiy jihatdan qudratli bo‘lishiga, o‘z xavfsizligini ta’minlashga erishmoqchi bo‘lsa barcha faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, uning har bir harakatidan foyda olish ta’minlansin. Bozor munosabatlari, tadbirkorlik va foyda bir-biri bilan ajralmas tushunchalardir. Bu degani, bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona tadbirkorlik bilan ish ko‘rib, faoliyati natijasida yetarli darajada sof foydaga erishishni ta’minlashdan iboratdir.

Ushbu holatlardan kelib chiqib, korxona iqtisodiy xavfsizligi tamoyillariga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tamoyili deganda uni ta'minlashga mo'ljallangan maqsadli strategik va taktik dasturlarni bajarishga qaratilgan iqtisodiy dastaklar majmuasi tushuniladi.

12.5. Korxonada iqtisodiy xavfsizlik xizmati, uning funksiyalari va tarkibi

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning umumiy xavfsizligini, ayniqsa, uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Zero, korxona bankrotlikga uchramasligi, barqaror faoliyat ko'rsatishi, muntazam ravishda iqtisodiy o'sishni ta'minlab borishi uchun, eng avvalo, uning xavfsizligi ta'minlanishi lozim. Ammo hozirgi paytda turli mulk shaklida faoliyat ko'rsatuvchi juda ko'p korxonalar tarkibida xavfsizlik xizmati tashkil qilinmagan. Bu bilan asosan korxona rahbariyati shug'ullanadi. Ammo bu erkin raqobat sharoitida yetarli emas. Xavfsizlik xizmati juda ko'p funksiyalar bilan shug'ullanadi va bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Shu tufayli har bir korxona tarkibida maxsus xavfsizlik xizmati bo'limi faoliyat ko'rsatishi lozim.

Xavfsizlik xizmati o'z faoliyati davomida juda ko'p me'yoriy hujjatlarga tayanadi. Bu hujjatlar davlat miqyosida ishlab chiqilib tasdiqlangan bo'lsa shu me'yoriy hujjatga tayaniladi, agar bunday hujjat bo'lmasa tashkilotning (korxonaning) o'zida xavfsizlik xizmati bo'yicha Nizom ishlab chiqilib shunga amal qilinadi. Umuman olganda, korxona xavfsizligi bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim:

* korxonaning xavfsizlik xizmati to'g'risida umumiy Nizom;
* xavfsizlik xizmati xodimlarining funksional majburiyatlari;
* tartib (rejim) va soqchilikni tashkil etish bo'yicha Nizom;
* Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha Yo'riqnoma;
* rahbarlar, mutaxassislar va texnik xodimlarning maxfiy axborotlar bilan ishlashlari bo'yicha mansabdorlik qo'llanmalari;
* yong'in xavfsizligi to'g'risida Nizom;

* maxfiy axborotlar mavjud bo‘lgan ish hujjatlarining arxivda saqlanishini tashkil etish bo‘yicha mansabdorlik qo‘llanmalari;

* texnik xavfsizlik to‘g‘risida Nizom;

* axborotlarni muhandislik-texnik jihatdan himoya qilishni tashkil etish bo‘yicha mansabdorlik qo‘llanmalari;

* xorijiy vakillar va vakolatxonalar bilan ishlash tartibi bo‘yicha mansabdorlik qo‘llanmalari.

Korxonaning xavfsizlik xizmati tarkibida uni turli xavf-xatarlardan saqlab qolish maqsadida axborot-tahlil bo‘linmasi, xavfsizlikni ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha aniq vazifalarni yechish uchun tajribali mutaxassislardan iborat vaqtincha tuzilmalar tashkil etilishi mumkin.

Korxonaning xavfsizlik xizmati o‘z faoliyati davomida juda ko‘plab vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun bir qancha funksiyalarni ham ijro etadi. Bularga quyidagilar kiradi (12.5.1-chizma).



	ko‘rish moliyaviy - tijorat faoliyatidagi uzulishlarga yo‘l qo‘yilmaslik holatlarini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.
Kadrlar siyosati funksiyasi	Korxona xavfsizlik xizmatining kadrlarni joy-joyiga qo‘ish, jamoada axloqiy-ruhiy muhitning buzulganligini aniqlash, nizolarni o‘z vaqtida va joyida hal qilish, jamoada ijodiy muhitni yaratish kabi kadrlar siyosati bilan bog‘liq muammolarni hal qilish orqali amalga oshiriladi.
Tashkiliy-boshqaruv funksiyasi	Korxonada doimiy faoliyat ko‘rsatib kelayotgan boshqaruv tizimini, uning xavfsizligini ta’minlash uchun tegishli yo‘nalishlarga safarbar qilish, boshqaruv bo‘g‘inlari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda maqsadli dasturiy vazifalarga yo‘llash orqali amalga oshiriladi.
Reja-ishlab chiqarish funksiyasi	Korxonada xavfsizlik qoidalarini (rejimini) ta’minlash bo‘yicha kompleks dasturini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish yo‘llarini belgilab olish va tegishli amaliy tadbirlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.
Tashkiliy-texnik funksiyasi	Korxona xavfsizligi qoidalarini (rejimini) ta’minlash, uning moddiy-texnika ta’minotini yo‘lga qo‘yish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish, sir saqlanadigan holatlar tartibini o‘rnatish, korxonaning xavfsizligini ta’minlashga doir boshqa ilg‘or usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.
Ilmiy-uslubiy funksiyasi	Korxonaning xavfsizligi bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalarni, ilmiy ishlanmalarni xavfsizlik sohasiga joriy qilish, bu sohaga xizmat qiluvchilarning doimiy ravishda malakasini oshirish, muammolarni yechish uchun tegishli



12.5.1 - chizma. Korxona iqtisodiy xavfsizligi xizmati funksiyalari

Qayd etilgan funksiyalarni bajarish bevosita korxonaning xavfsizlik xizmati orqali amalga oshiriladi. Mazkur xizmatning tarkibiga quyidagilar kiradi: xavfsizlik xizmati boshlig'i, tartib (rejim) va soqchilik bo'limi, maxsus bo'lim, muhandislik-texnik himoya bo'limi, tashqi faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'limi, ichki nazorat-taftish bo'limi kabi bo'linmalar.

Ushbu bo'linmalarning bevosita aniq vazifalari korxona xodimlarining funksional majburiyatlarida, uning nizomida o'z aksini topadi. Har bir bo'limda maxsus xizmat sektorlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, tartib (rejim) va soqchilik bo'limida tartib sektori va soqchilik sektori, maxsus bo'limda maxfiy hujjatlar sektori va h.k.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun xavf-xatarlarni bartaraf qilishga erishish lozim. Iqtisodiy xavf-xatarlardan biri bankrotlik xavfidir. Chunki bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot tasodiflardan xoli emas. Bozorda faoliyat ko'rsatayotgan korxona yoki firma har xil vaziyatga tushib qolishi mumkin. Bu holat har qanday korxonani hushyorlikka chorlaydi.

Bankrotlik deganda, odatda korxonaning sinishi tushuniladi, ya'ni u mablag'li yo'qligidan o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarni to'lashga qurbi yetmay qoladi. Tabiiyki, bunday holatda korxona yopiladi. Erkin iqtisodiyot sharoitida, oldingidek, barcha zararlar davlat hisobidan qoplab berilmaydi, chunki korxona mulkida davlatning ulushi umuman bo'lmasligi mumkin. Shu tufayli korxonaning qarzlarini qoplashi uchun bor mol-mulkini sotishdan boshqa chorasi qolmaydi. Bu esa korxonaga ham, mulkdorga ham,

shu yerda ishlayotgan xodimlarga ham, davlat va jamiyatga ham katta zarardir.

Shu tufayli faoliyat ko'rsatib yaxshigina daromad qilib ishlayotgan korxonalarga bankrotlik xavfini bartaraf qilish imkoniyati yaratilgan bo'lshi lozim. Albatta, bu imkoniyatlar davlat tomonidan tartibga solinadi. Ammo korxonaning o'zlari esa tegishli chora-tadbirlar asosida bunday sharoitni o'zlariga yaratib olishlari lozim.

Bankrotlik xavfini bartaraf qilish uchun, uning turlarini bilishni taqozo qiladi. Hozirgi paytda bankrotlik xavfining uchta turi mavjud (12.5.2 - chizma).



12.5.2 - chizma. Korxonaning bankrotlik xavfi

Mazkur xavflarning hammasi ham xavfli. Ammo ularning oldini olish mumkin. Shu tufayli ularning tavsifiga to'xtalib o'tamiz.

1. Ishlab chiqarish bankrotligi xavfi. Bu xavf korxonaning mo'ljaldagi mahsulotini tegishli hajmda va narxda ishlab chiqarish imkoniyatining cheklanganligi tufayli sodir bo'ladi. Uni bartaraf qilish uchun korxona doimiy ravishda bozor konyunkturasini o'rganish, marketing xizmatini yaxshi yo'lga qo'yish, texnologik jarayonlarni tezlikda boshqa mahsulotni ishlab chiqarish uchun o'zgartira olish kabi imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim.

2. Moliyaviy bankrotligi xavfi. Bu korxonaning moliyaviy bozorda, soliq va boshqa majburiy to'lovlarini amalga oshiraolmay qolish xavfidir. Bu korxonaning o'ziga kerak bo'lgan kreditni uning foyizi oshganligi tufayli olish imkoniyatining cheklanganligi, korxona aksiyasining narxi tushganligi, nufuzining pasayib ketganligi, kreditor qarzlarining oshganligi evaziga sodir bo'lishi mumkin. Bunday xavflarning oldini olish, albatta, juda murakkab. Chunki ushbu jarayonlarning ko'p qismi korxonaning faoliyatiga bevosita bog'liq emas.

3. Tijorat bankrotligi xavfi. Bu xavf ishlab chiqaruvchi, savdo va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda ham sodir bo'lishi mumkin. Ishlab chiqaruvchilar, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun eng avvalo, xom ashyo va materiallarni bozordan sotib oladi va ishlab chiqarilgan mahsulotini bozorda sotadi. Savdo korxonasi esa, ma'lumki, tovarlarni sotib olib sotadi. Bu jarayonda bozordagi talab va taklifning o'zgirishi oqibati uning bahosi ham tez o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin. Natijada, bir tomondan xom ashyo va materiallar taxchilligi ro'y bersa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarilgan (agar savdo korxonasi bo'lsa oldin sotib olingan) tovarini bozorda ortiqchaligi ro'y berib tegishli narxda sotish imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin. Bu holatdan ham chiqish, ushbu xavflarning ham oldini olish o'ta murakkab bo'lib korxona rahbariyatidan tajriba, bilim va tadbirkorlikni talab qiladi.

Bu xavf-xatarlarni bartaraf qilishdan davlat ham manfaatdir. Chunki korxonalarning sinishi ishsizlikning ko'payishiga, byudjetga tushumlarning keskin kamayishiga, boz ustiga ishsizlik nafaqasini to'lash uchun sarflarning oshib ketishiga olib keladi.

Korxonaning xavfsizligini ta'minlash o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Bu uchun juda mukammal ishlangan chora-tadbirlar dasturi bo'lishi lozim. Bu dastur, o'z navbatida, bir qancha faoliyatlarni qamrab olishi mumkin.

Ular quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

1. Moddiy va intellektual mulkni saqlash va ulardan samarali foydalanish dasturi.

2. Axborot xavfsizligini ta'minlash dasturi.

3. Korxonaning maxfiy-tartib faoliyatini tashkil qilish dasturi.

4. Mehnat jamoasida axloqiy-ruhiy muhitni saqlash, salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik dasturi.

5. Alohida muhandislik-texnik vositalarning maxfiyligini himoya qilish dasturi.

6. Korxonaning tijorat sirini saqlash dasturi kabilar.

Ushbu dasturlarni amalga oshirishda, albatta, eng avvalo, asosiy mas'uliyat korxonaning xavfsizlik xizmati zimmasiga tushadi. Ammo undan hamma manfaatdor bo'lganligi uchun korxonada ishlaydigan barcha xodimlar, rahbardan tortib to oddiy xizmatchilarga qadar uning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim.

12.6. Korxonaning tijorat siri mohiyati

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda uning faoliyatiga doir ayrim hujjatlar, texnologik jarayonlar, boshqaruv usullari boshqa raqobatchilardan sir saqlanishini taqozo qiladi. Bu esa uning mazmun-mohiyatini, himoya qilish mexanizmini, axborot olish yo'llarini ochib berilishi lozimligini keltirib chiqaradi.

Korxonaning tijorat sirining mazmuni va mohiyatini ochib berish uchun uning lug'aviy ma'nosiga e'tiborni qaratish lozim. Hozirgi paytda sir so'ziga iqtisodiy lug'atlarda uch xil ta'rif beradilar:

1. Hali topilmagan, aniqlanmagan narsa;
2. Boshqalarga oshkora qilinmasdan maxfiy saqlanadigan, hammaga ma'lum bo'lmagan narsa;
3. Biror hodisa yoki jarayon sabablarining maxfiy tutilishi.

Ushbu tushunchalarni hamma sohaga xususan, tijorat sohasiga ham tadbq qilish mumkin.

Tijorat siri deganda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tijorat, ishlab chiqarish, moliyaviy operatsiyalari, reja, marketing, ilmiy ishlanmalar va boshqa jarayonlar ifoda etilgan oshkor qilinishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlarning maxfiy saqlanishi tushuniladi.

Mamlakatimizda tijorat sirining himoyasi Fuqarolik Kodeksida (FK) (98-modda) kafolatlangan. FKning mazkur moddasida «Fuqarolik qonun hujjatlari xizmat yoki tijorat siri bo'lgan axborotni, basharti bu axborot uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qiymatiga ega bo'lgan, qonun yo'li bilan undan erkin bahramand bo'lish mumkin bo'lmagan hamda axborot egasi uning maxfiyligini saqlashga doir choralar ko'rgan hollarda himoya etiladi», deb ko'rsatilgan.

Korxonaning xavfsizligini ta'minlashning yana bir yo'li, **xizmat sirini** saqlashda ham namoyon bo'ladi. Korxonani boshqarishda, uning samarali faoliyatini ta'minlashda turli vosita va variantlardan foydalanish mumkin. Bu ham ma'lum shaxsning (rahbarning) ixtirosi sifatida baholanadi. Bu usulni ham himoya qilish, uni maxfiy tutish lozim. Ammo bu jrayonni muallif qonun hujjatlari bilan rasmiylashtirib, uning egasi ekanligini tasdiqlab olishi ham mumkin. Bunday

holda u mazkur huquqni to'liq qo'lga kiritgan va nomoddiy, ya'ni intellektual mulk egasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bu holatda muallif uchinchi shaxsga ma'lum bo'lmagan texnikaviy, tashkiliy yoki tijorat siri bo'lgan axborotga, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlariga (nau-xau) qonunan ega bo'lib turgan shaxs basharti bu oshkor etilmagan bo'lsa, bunday axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi FKda ta'kidlanishicha oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqi bu axborotga nisbatan biron bir rasmiyatchilikni bajarishdan (uni ro'yxatdan o'tkazish, guvohnoma olish va hokazodan) qat'i nazar vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotni muhofaza qilish qoidasi qonunga muvofiq xizmat yoki tijorat siri bo'la olmaydigan ma'lumotlarga nisbatan tadbiq etilmaydi. Bularga yuridik shaxslar to'g'risidagi, mol-mulkga bo'lgan huquqlar va mol-mulk xususida tuzilib, davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan kelishuvlar to'g'risidagi ma'lumotlar, davlat statistika hisoboti tariqasida taqdim etiladigan ko'rsatkich kabi axborotlar kiradi.

Oshkor etilmaydigan axborotlarning ayrimlari vaqtincha bo'lishi mumkin. Bunday holda vaqt tugagach u oshkor bo'lishi mumkin va u qonun bilan muhofaza qilinmaydi. Vaqt tugagach u ham oddiy axborotlar singari hammaning foydalanish huquqini cheklamaydi.

Oshkor etilmagan axborotni qonuniy asosi bo'lmay turib olgan yoki tarqatgan yoxud undan foydalanayotgan shaxs bu axborotga qonunan ega bo'lib turgan shaxsga axborotdan noqonuniy foydalanganlik natijasida yetkazilgan zararni to'lashi shart.

Oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanayotgan shaxs bu axborotni uni tarqatishga huquqi bo'lmagan shaxsdan olgan bo'lsa, axborotni qo'lga kirituvchi shaxs bundan bexabar bo'lsa ham axborot egasi bunday shaxsga davo qilishi mumkin. Oshkor etilmagan axborotdan foydalanganlik natijasida axborot muallifiga yetkazilgan zararlarni, axborotni qo'lga kiritgan shaxs bundan bexabar bo'lsa ham, qoplashiga majbur.

Oshkor etilmagan axborotga qonunan ega bo'lib turgan shaxs bu axborotdan noqonuniy foydalanayotgan shaxsdan axborotdan foydalanishni darhol to'xtatishni talab qlishga haqlidir. Agar oshkor

etilmagan axborotni boshqa bir kishi mustaqil tarzda tadqiqot yo'li bilan aniqlagan bo'lsa, bunday axborotdan tadqiqotchi bemalol foydalanishi mumkin. Bu uchun u oldingi muallif oldida javobgar bo'lmaydi.

Oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi ham mumkin. Bu oshkor etilmagan axborotga ega bo'lgan shaxsning ushbu axborotning hammasini yoki bir qismini boshqa shaxsga litsenziya shartnomasi asosida berishi mumkinligida namoyon bo'ladi. Ammo litsenziat ushbu axborotdan faqat o'zi foydalanishga haqli. U shartnoma bo'yicha olgan axborotlarning maxfiyligini muhofaza qilishga doir kerakli choralarni ko'rishi shart. Agar litsenziyaning vaqti tugab litsenziat bu axborotdan foydalanishni to'xtatsa ham ushbu axborot hali maxfiy bo'lib, uni oshkora qilish mumkin bo'lmasa, litsenziatning uni oshkora qilishga haqli bo'lmaydi. Korxonaning xavfsizligini ta'minlash uchun uning sirini, ayniqsa, tijorat sirini saqlashni taqozo qiladi. Bu sirni saqlash esa mamlakatimizda tegishli qonunlar bilan kafolatlangan.

12.7. Korxona tijorat sirini himoya qilish mexanizmi

Mamlakatimizda ochiq demokratik jamiyat qurilmoqda. Bu hamma narsa «ochiq» bo'ladi degani emas. Bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobat mavjud ekan tijorat sirining ham saqlanib qolishi muqarrar. Shu tufayli korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun uning tijorat sirini saqlay bilishi lozim. Bu o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning birqancha mexanizmlari mavjud (12.7.1 - chizma).

1. Tashkiliy tadbirlar. Bunda korxonaning xavfsizligini ta'minlash uchun alohida xavfsizlik xizmati tashkil qilinadi. Bu xizmat korxonaning tegishli axborotlarining maxfiyligini saqlash chora-tadbirlarini ko'radi. Odatda, xavfsizlik xizmatiga korxonaning mulkini saqlaydigan soqchilar ham kirishlari lozim.

2. «Ochiq testlar» o'tkazish tadbirlari. Korxonaga xodimlarni ishga qabul qilishda ishlayotganlarini esa vaqti-vaqti bilan test orqali sinab turiladi. Bu test orqali xodimning mazkur korxonaga sodiqligi, axborotlarga, ayniqsa, maxfiy axborotlrga e'tibori aniqlanadi. Chunki

nufuzli korxonalarga raqobatchi korxona ayg'oqchilari, maxfiy xufiya iqtisodiyot vakillari kirib olishga xarakat qiladilar.



12.7.1 -chizma. Tijorat sirini himoya qilish mexanizmlari

Bu vakillarning xodimlar tarkibiga kirib qolishi ushbu jamoada axloqiy, ruhiy muhitni buzishga, tegishli axborotlarni o'g'rilab olishga harakat qiladi. Tabiiyki, bunday holat korxonaning ishini orqaga ketkizadi, ko'zda tutilgan foydani olish imkoni bo'lmaydi. Xullas, mazkur korxona bankrotga uchraydi. Shu tufayli «Ochiq testlar» ushbu xavfning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

3. Texnik tadbirlar. Hozirgi paytda raqobatchilar, turli uyushgan jinoyat guruhlar, reketchilar korxona haqidagi maxfiy axborotlarni texnika orqali olishga harakat qiladilar. Bunga korxonaning saytiga kirib tegishli axborotni kompyuter orqali olishi mumkinligini, telefonda gaplashgan gaplarni eshitish, orqali muhim shartnomalarga oid axborotlarni olishligi kabilarni kiritish mumkin. Bu holatlarga qarshi tegishli texnik tadbirlarni qo'llash lozimki, toki bunday yo'llar bilan maxfiy axborotlarning chetga chiqib ketishiga yo'l qo'yilmasin. Hozirgi paytda ko'pgina axborotlar kompyuter orqali oshkor bo'lib bormoqda. Buning ham yo'lini qilish va adolatni o'rnatishga hamma jon-jahdi bilan kirishishlari lozim.

4. Rag'batlantiruvchi tadbirlar. Korxona xavfsizligi bilan shug'ullanadigan o'z xodimlarini xavfsizlikni ta'minlaganligi uchun doimiy ravishda rag'batlantirib borishi lozim. Odamlarga korxona qanchalik g'amxo'rlik qilsa, odamlar ham shunga javoban korxonani

asrab-avaylashga harakat qiladi. Bunda korxonaning xavfsizligi bilan bog'liq jarayonlarga faqat korxonaga sodiq kishilarni jalb etish lozim bo'ladi. Zero, xodimda sodiqlik bo'lmasa korxonaning tashqi raqobatchilari, eng avvalo, shu korxonaning xodimlarini qo'lga olishga harakat qiladilar. Shu tufayli maxfiy axborotlarga har kimni ham yaqinlashtirib bo'lmaydi.

5. Tekshiruv tadbirlari. Korxona o'z faoliyati davomida yuzlab hamkor tashkilotlar, korxonalar bilan munosabatda bo'ladi. Ammo ularga mol jo'natishda, pul o'tkazishda qaytishiga ishonch hosil qilingan bo'lishi lozim. Ammo hammaga ishonish mumkinmi. Albatta, yo'q. Bunga mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yakka tartibdagi jismoniy va yuridik shaxslar hayotida sodir bo'layotgan ko'plab hodisalarni misol keltirish mumkin. Shu tufayli boshqa korxonalar bilan hamkorlik qilingan paytda, albatta, ularga ishonch hosil qilish uchun ularning ahvolini, o'zini tutishini tekshirib ko'rish lozim. Biz kim bilan, qanchagacha va qaysi muddatga shartnoma tuzilishi lozimligini oldindan bilsak bunday operatsiyalarni amalga oshirish, har holda, ma'lum ma'noda, ishonchli bo'ladi.

Albatta, bozor munosabatlari har bir korxona xodimlarini o'ta hushyor bo'lish bilan birga ko'p hollarda risk (tavakkal) qilishga ham majbur qiladi. Chunki bozor munosabatlarining tabiati shunday. Ammo tavakkal qilish bilan birga korxonaning xavfsizligini ta'minlash uchun tegishli himoya mexanizmlaridan ham foydalanish zarur.

Bozor munosabatlari sharoitida ishlash, erkin raqobat muhitining hukm surishi shundayki, o'zingni ehtiyot qil, amma hamisha ogoh bo'l, ya'ni raqobatchi korxonalarning hol ahvolidan hamisha voqif bo'lib turish lozimligini taqozo qiladi. Buning uchun ular to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda olib turishga harakat qilish kerak. Ammo bu ish ham unchalik oson ish emas.

12.8. Raqobatchilar to'g'risida axborot olish uslublari

Bozor munosabatlari sharoitida biznes to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish bu muvaffaqiyatning yarmi. Bozor sharoitida bozor haqidagi axborotlar o'ta qimmatli tovar hisoblanadi.

Raqobatchilar ichidan muvaffaqiyatli chiqish, biznesga jiddiy tus berish, tadbirkor o‘z taktikasi va strategiyasini belgilashi uchun eng qimmatli va zarur narsa bozor haqidagi, bozor subyektlari, ya’ni raqobatchilar haqidagi axborotlardir.

Ammo axborot o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilib qolinmaydi. U ma’lum miqdorda xarajatni, vaqtni talab qiladi. Lekin axborotga sarf qilingan xarajat o‘n marotaba ko‘p foyda keltirishi mumkin. Tovarga qilingan xarajat 1,5–2,0 barobar foyda keltirsa axborotga qilingan xarajatning qanchalik samarali ekanligini baholash qiyin emas. Shu tufayli axborotdan tejalgan mablag‘ o‘ziga nisbatan qimmatga tushadi.

Zamonaviy rahbar o‘z ishini axborot to‘plashdan boshlashi lozim. Agar unda aniq axborot bo‘lmasa ko‘r-ko‘rona ish boshlash bilan biznesda muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi.

Rahbar, eng avvalo, o‘zi ishlab chiqarmoqchi bo‘lgan tovarining shu hududda bir qancha haridori borligini aniqlashi, shu tovarga bozorning to‘yinganlik darajasini, mazkur tovarni kimlar ishlab chiqayotganligini, o‘zi qancha ishlab chiqarish mumkinligini, raqobatchilar qanchadan sotayotganligi, bu esa undan arzonroq sotib qancha foyda qilish mumkinligi kabilarni obdon o‘rganib, aniq hisob-kitoblarga ega bo‘lishi lozim.

Axborotlar qo‘lga kiritilishi nuqtai nazaridan uch guruhga bo‘linadi:

* erkin oladigan axborotlar;
* sotib olinadigan axborotlar;
* o‘ta zarur ammo olshi qiyin bo‘lgan tijorat siriga mansub maxfiy axborotlar.

Rejali iqtisodiyot sharoitida maxfiy axborotlar faqat davlatniki bo‘lgan. Uni fosh qilmasligi uchun ayrim axborotlar maxfiy hisoblangan.

O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlar erkinligi prinsiplari va holatlari to‘g‘risida»gi 2003-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonunda axborot erkinligi, uning prinsiplari, ochiqligi, oshkoraligi, olish va berishni rad etish tartiblari, muhofaza etish kabilarning huquqiy asoslari o‘z ifodasini topgan.

Ushbu qonunning 6 moddasiga binoan quyidagi axborotlar-maxfiy hisoblanadi:

- fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularni ro‘yobga chiqarish tartibi to‘g‘risidagi, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv

organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlari;

- ekologik, meteorologik, demografik, sanitariya-epidemiologik, favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida ma’lumotlar hamda aholining, aholi punktlarining, ishlab chiqarish obyektlari va kommunikatsiyalarning xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan boshqa axborotlar;

- kutubxonalarning, arxivlarning va O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslarga tegishli axborot tizimlarining ochiq fondlaridagi mavjud ma’lumotlar.

Maxfiy axborotlarni berishni rad etish qonunning 10-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Erkin bozor munosabatlari sharoitida maxfiy axborotlar nafaqat davlatga, balki barcha tadbirkorlarga, korxonalarga, birlashma kabi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ham daxldordir. Oldin maxfiy axborotlarni faqat davlat himoya qilgan bo‘lsa, endi axborotlarni himoya qilish ham quyidagi subyektlar o‘rtasida taqsimlanadi:

* davlat himoya qiladigan axborotlar;
* tijorat tizimi himoya qiladgan axborotlar;
* ikkalasi birgalikda himoya qiladigan axborotlar.

Hozirgi paytda davlat sirini saqlash bo‘yicha maxsus «Davlat siri to‘g‘risida»gi qonun mavjud. Mazkur qonunda davlat siri, uni saqlash, oshkor qilmaslik, oshkor qilinganda javobgarlik kabi tartiblari aniq o‘rnatilgan. Ammo korxona, tashkilot tadbirkorlar kabi xo‘jalik yurituvchi tijorat subyektlari sirlariga nimalarning kirishi, ularni himoya qilish yo‘llari bo‘yicha aniq qonuniy normalar yetarli emas. Bu bo‘yicha maxsus qonun qabul qilinmagan. Yuqorida ko‘rganimizdek faqat mamlakatimizda amal qilib turgan Fuqarolik Kodeksi (FK)da uning ayrim normalari yozilgan.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ularni tajribasidan kelib chiqib bizda ham, tadbirkorlar, bozor subyektlari to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plab sotadigan maxsus kompaniyalar, firmalar bor. Ular o‘zlari to‘plagan axborotlarni sotadlar. Bularga quyidagi axborotlarni kiritish mumkin:

* korxonaning moliyaviy ahvoli;
* boshqa hamkorlari bilan hisob-kitob olib borishdagi intizomi;
* debitor va kreditor qarzlari;
* qanday biznes bilan shug‘ullanishi;

* sheriklari bilan sudlanish darajasi;
* rahbarning nufuzi;
* jamoadagi axloqiy-ruhiy muhit kabilar.

Shuni unutmaslik kerakki, hayotda mayda-chuyda bo'lganidek, biznesda bu o'ta muhim. Korxona faoliyatida hech narsaga arzimaydigan, mayda-chuydadek tuyulgan narsa biznesda juda katta muvaffaqiyat olib kelishi mumkin, yoki biznesmenni sindirib, inqirozga yuz tutishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Shu tufayli raqobatchilar to'g'risidagi barcha katta-kichik axborotlar mazkur korxona uchun o'ta muhim va qimmatli hisoblanadi.

Korxona o'z raqobatchilari to'g'risida axborot to'plashi uchun qanday ishlarni amalga oshiradi? **Eng avvalo**, u raqobatchilari to'g'risida umumiy ma'lumotlarni oladi. Bu axborotlar umumiy xulosa qilish uchun asos bo'ladi. **Ikkinchidan**, korxonaga kerak bo'lgan to'liqroq axborotlarni axtara boshlaydi. Bularga:

* korxona faoliyatining samaradorligi;
* ularning istiqboli;
* moliyaviy ahvoli;
* tavakkal qilish qobiliyati kabilar kiradi.

Uchinchidan, mazkur korxona qaysi biri bilan aloqa qilish mumkinligini aniqlab olgandan so'ng, o'sha korxona, uning rahbari haqida batafsil ma'lumotlarni to'plashga kirishadi. Chunki korxonaning rahbaridagi insoniy va tadbirkorlik sifatlari biznes borasida aloqa qilish uchun juda muhim.

To'plangan ma'lumotlar ekspertlar tomonidan o'rganib chiqiladi va ular yana qanday axborotlarni olish mumkin yoki qanday harakat qilish lozimligi xususida o'z xulosalarini beradi.

Korxonalar o'z sheriklari to'g'risida, ularning bozordagi mavqei haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Korxonalar bozordagi mavqeiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

1. Raqobatchi korxonalar. Ularning mazkur bozordagi ulushi 25%gacha bo'lishi mumkin;
2. Hukumron korxonalar. Ularning bozordagi ulushi 25 dan 70 foizgacha bo'lishi mumkin;
3. Monopol korxonalar. Ularning mazkur bozordagi ulushi 70% dan ortiq bo'ladi.

Agar mazkur korxonaning bozordagi ulushi juda kam bo'lsa erkin raqobatga chiqishda juda ehtiyot bo'lishlari lozim. Hamisha «kitlar» «mayda baliqlar»ni yutib kelganlar.

Korxonalar to'g'risida axborot to'plab, ularning raqobatbardoshligi va raqobat maydonidagi o'rniga qarab to'rt guruhga bo'linishini ham inobatga olish lozim:

1. Xalqaro bozorda raqobat qiladigan korxonalar. Bu korxonalarning bozori nafaqat mamlakatda, balki uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlarda bo'lishi mumkin. Bular hamisha o'z mahsulotini xalqaro andozalar darajasida ishlab chiqarishga erishishi lozim. Oddiy korxonalar bunday korxona bilan raqobatga kirishmaydi. Demak, «kim kim bilan o'ynashi mumkinligini» to'g'risida har bir korxona rahbariyati aniq xulosaga ega bo'lishi lozim;

2. Xalqaro bozorda raqobat qilish qobliyatiga ega bo'lmagan korxonalar. Bular ham yuqoridagi korxonalar singari mahsulot ishlab chiqishi mumkin. Ammo u xalqaro standartlar talabiga to'liq javob bermaydi. Bu yuqori bosqichga o'tishi uchun ham ancha ishlarni bajarishlari lozim. Ya'ni ilg'or texnologiyalarni, fan va texnika yutuqlarini joriy qilishi kabi;

3. Tabiiy monopoliyaga ega bo'lgan korxonalar. Bunday korxonalar faqat o'zlariga o'xshash korxonalar bilan raqobat qilishi mumkin. Bu turdagi korxonalar uchun alohida «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida» qonun qabul qilingan;

4. Xorijiy raqobatchilarga bog'liq bo'lmagan korxonalar. Bularga mamlakat xom ashyosiga tayanib, mamlakat bozori uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Masalan, non, sut, go'sht sanoati zavodlari kabilar. Ular o'rtasidagi raqobat ichki raqobat bo'lib hisoblanadi. Bu haqdagi ma'lumotlar ham xulosa qilish uchun o'ta muhimdir.

Bozor munosabatlari sharoitida raqobat muhiti ham, bozor konyukturasi ham, raqobatchilarning soni, mavqei ham tez o'zgarib turadi. Bunday o'zgarishlarga har qanday korxona tayyor turishi lozim. Shu tufayli, har bir korxona bir qancha vazifalarni bajarishi lozim.

1. Har bir korxona o'zining ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalangan holda bozorbop, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarib bozordagi mavqeini doimiy ravishda mustahkamlab borishga harakat qilmog'i lozim.

2. Mahsulotning hajmini ko‘paytirish blan birga, sifatini oshirish, narxini pasaytirish choralarini ko‘rish doimiy ravishda diqqat e’tiboridan chetda bo‘lmasligi kerak.

3. Raqobatchilariga nisbatan foydani ko‘proq olish choralarini ko‘rish lozim, chunki erkin raqobat korxonani modernizatsiya va rekonstruksiya qilish uchun hamisha imkoniyat bo‘lishini ta’minlashni talab qiladi.

4. Korxona ijtimoiy yacheyka sifatida xodimlarni rag‘batlantirishning noan’anaviy usullaridan foydalanish ustida tinimsiz ishlashi lozim. Chunki korxonaga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoni tug‘uladi. Ishlayotgan kishilar o‘z kasbiy mahoratini oshirishga ichki tuyg‘u hosil bo‘ladi. Bu ham juda katta muvaffaqiyatlarning kaliti hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar erkinligi bosqichma-bosqich ta’minlanib boriladi. Ammo erkinlikni hech mahal o‘zboshimchalik deb tushunmaslik kerak. Har qanday korxonaning faoliyatini davlat o‘zining dastaklari bilan tartibga solib turadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

* soliqlar, ularning turlari va tabaqalangan stavkalari;
* amortizatsiyaning namunaviy normalari;
* valyuta kursi;
* davlat byudjetiga soliqsiz turli majburiy to‘lovlar;
* bojxona tarifi;
* ekologik me’yorlar, tashqi muhitni ifloslantirilganlik bo‘yicha to‘lovlar;
* bank krediti foizlari;
* standartlar, texnik shartlar va h.k.

Korxonalar to‘g‘risida axborot olganda uning davlat bilan bo‘lgan munosabatini albatta tekshirib ko‘rish kerak. Chunki har qanday korxona davlatga xiyonat qilsa hamkorini aldamaslikning iloji yo‘q. Shu tufayli korxonaning xavfsizligini ta’minlash uchun sheriklarga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida yetti o‘lchab emas yetmish o‘lchab keyin esa ekspertlar xulosasiga asoslangan holda «kesish» kerak. Shundagina u o‘zining yashovchanligini saqlab qoladi va ma’lum ma’noda umumiy xavfsizligini, ayniqsa, iqtisodiy xavfsizligini ta’minlaydi.

Tayanch iboralar: xavflilik, xavfsizlik, korxona xavfsizligi, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, xavfsizlik tamoyillari, korxona xavfsizligi funksiyalari, ma'muriy buyurish, xo'jalik buyurish, hisob-nazorat, kadrlar siyosati, tashkiliy-boshqaruv, reja-ishlab chiqarish, tashkiliy-texnik, ilmiy-uslubiy, axborot tahlil, bankrotlik, bankrotlik xavfi, sir, tijorat siri, xizmat siri, oshkor etilmagan axborot, raqobatchilar to'grisida axborot, maxfiy axborot, ochiq axborot, davlat siri, raqobatchi korxonalar, tabiiy monopoliyaga ega korxonalar, davlat dastaklari.

Takrorlash uchun savollar

1. Xavflilik va xavfsizlik tushunchasi.
2. Korxona xavfsizligi nima?
3. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi.
4. Korxona iqtisodiy xavfsizligi tamoyillari.
5. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifalari.
6. Korxonaning xavfsizlik xizmati.
7. Xavfsizlik xizmati funksiyalari.
8. Bankrotlik tushunchasi.
9. Bankrotlik xavfining turlari.
10. Korxona xavfsizligini ta'minlash dasturlari.
11. Sir tushunchasi.
12. Korxonaning tijorat siri.
13. Xizmat siri.
14. Davlat siri.
15. Oshkor etilmaydigan maxfiy axborotlar.
16. Oshkor etiladigan ochiq axborotlar.
17. Axborotlarning qo'lga kiritilishi bo'yicha turlari.
18. Axborotlarni himoya qilish subyektlari.
19. Hamkor korxonalardan olinadigan axborotlar.
20. Korxonalarning bozordagi mavqei bo'yicha tasnifi.
21. Korxonalarning raqobatbardoshligi bo'yicha tasnifi.
22. Korxonalarning raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha vazifalari.
23. Davlatning korxonalarni tartibga solib turadigan dastaklari.
24. Davlatning nazorat funksiyalarini cheklashi.

GLOSSARIY

A

Aylanma kapital (оборотний капитал, working capital) – Ishlab chiqarish jarayonida bir doiraviy aylanish davomida to‘liq iste’mol qilinib, ishlab chiqarish natijalariga to‘liq o‘tishi.

Ayirboshlash (обмен, exchange) – Almashish, ayirboshlash, biror tovarni boshqa tovar yoki mahsulotga almashtirish.

Aktiv (актив, asset) – 1) Kompaniyaga tegishli bo‘lgan, pul mablag‘lari, bino va uskunalar (asosiy kapital), qimmatli qog‘ozlar hamda patentlar va «firma qiymati» (yollanma aktivlar); 2) korxonaning moddiy va nomoddiy qiymatlarini aks ettiradigan buxgalterlik balans qismi.

Aksizlar (акцизы, excise) – Asosan, ommaviy iste’moldagi tovarlar va xususiy korxonalarning narxiga yoki tarifiga qo‘shiladigan bevosita tovarlarga solinadigan soliq turi.

Aksiz soliq (акцизный налог, excise tax) – Ayrim tovarlar ishlab chiqarish yoki sotishga solinadigan soliq.

Aksiya (акция, share) – Aksionerlik jamiyati chiqaradigan va uning egasiga jamiyat oladigan foyda (divident)dan ma’lum miqdorda daromad olish huquqini beradigan qimmatbaho qog‘oz.

Aksiyador (акционер, stockholder) – Korporatsiya (kompaniya) aksiyalarining egasi.

Aksiyadorlik jamiyati (акционерное общество, joint-stock company) – Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlanmagan xo‘jalik yurituvchi subyekt.

Amortizatsiya (амортизация, amortization) – Asta-sekin eskirayotgan asosiy fondlar qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot qiymatiga o‘tkazish. Pul mablag‘larining maqsadli jamg‘arilishi va ularning keyinchalik eskirgan asosiy fondlar o‘rnini to‘ldirish uchun qo‘llaniladi.

Amortizatsiya ajratmalari (амортизационние отчесления, capital consumption allowances) – Bu asosiy fondlarning eskirish o‘rnini sekin-asta to‘ldirishdir. Amortizatsiya ajratmalari to‘liq va qisman tiklanishlarga, ya’ni asosiy fondlarni kapital ta’mirlashga ishlatiladi. To‘liq tiklanadigan amortizatsiya ajratmalari faqat jismoniy eskirishini emas, balki asosiy fondlarning ma’naviy eskirishini ham qoplashi kerak. Chunki texnik jihatdan eskirgan obyektlar garchi jismo-nan ishga yaroqli bo‘lsada, iqtisodiy jihatdan yaroqsiz bo‘lib qoladi.

Amortizatsiya normasi (норма амортизации, amortization norm) – Amortizatsiya ajratmalari yillik so‘mmasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizi.

Amortizatsiya fondi (амортизационний фонд, amortization fund) – Asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan tarzda ishga tushirishga mo'ljallangan pul mablag'lari.

Antimonopol siyosat (антимонополная политика, antimonopoly polity) – Iqtisodiyotda erkin raqobat muhitini yaratish, monopoliyalarga qarshi kurashish siyosati.

An'anaviy iqtisodiyot (традиционная экономика, traditional economy) – Iqtisodiy tizim; undagi cheklangan resurslar odatga muvofiq taqsimlanadi; undagi o'zgarish va rivojlanish sur'atlari juda past bo'ladi; odamlarning ota-onalari shug'ullanib kelgan ishlar bilangina shug'ullanadi: mahsulotning ko'p qismi ishlab chiqarilgan joyning o'zida iste'mol qilinadi.

Aralash iqtisodiyot (смешанная экономика, mixed economy) – Iqtisodiy tizim; u ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulkchilik unsurlarini xususiy mulk unsurlari bilan birlashtiradi.

Aralash kompaniya (смешенная компания, mixed company) – Hissadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilgan, aksiyalari davlatga va xususiy omonatchilarga sotiladigan, davlat tomonidan pul va dotatsiya berilish imtiyozlariga ega bo'lgan kompaniya.

Aralash mulk (смешанное имущество, mixed property) – Turli mulk shakllarining sintezidan tashkil bo'ladi.

Asosiy kapital (основной капитал, basically capital) – Ishlab chiqarish jarayonida bir necha doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o'zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulot (xizmat)ga bo'lib-bo'lib asta-sekinlik bilan o'tkazib boradigan ishlab chiqarish vositalari.

Assotsiatsiya (ассоциация, association) – Yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy birlashmasi.

Aholi daromadlari (доходы населения, income population) – Aholining ma'lum vaqt davomida pul va natura shaklida olgan daromadlar miqdori.

Aholining bandligi – Ijtimoiy ishlab chiqarishning fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan aniqlangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

Aholini ijtimoiy himoyalash (социальное защита население, social protection the population) – Aholini bozor iqtisodiyotining salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlaridan saqlash, aholi turmush farovonligini o'sishini ta'minlash.

B

Balansli qiymat (балансовый стоимость, balance cost) – 1) Uzoq muddatli aktivning yig'ilib qolgan eskirish qiymati chegirib tashlangandan keyingi qoladigan dastlabki qiymati; 2) kompaniyaning balans qiymati; majburiyatlar yig'indisi chegirib tashlangandan keyin qoladigan sof aktivlar

va yig‘ma aktivlari; xususiy kapital; 3) aksiyaning balans qiymati; kompaniyaning hisob-kitob hujjatlari asosida aniqlanadi; kompaniyaning yig‘ma aktivlari va yig‘ma majburiyatlari o‘rtasidagi farqqa imtiyozlashtirilgan qimmatli qog‘ozlarning tugatilishi qiymati, muomalaga kiritish uchun chiqarilgan oddiy aksiyalar soniga taqsimlanib olingan so‘mma, u oddiy aksiyalarning balans qiymatidan iborat bo‘ladi.

Bandlik (занятость, employment) – Ijtimoiy mehnatga qobiliyatli bo‘lgan aholi darajasi. To‘la ish bilan bandlik - ishga talabgorlarni ish joyi bilan ta’minlab, ularni samarali mehnat qilishiga erishishini, shu bilan birgalikda iqtisodiyotning o‘sishi uchun minimal mehnat rezervi qilinishini bildiradi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda to‘la bandlik ishga talabgorlarning 94–96 foiz ishlagani holda 4–6 foiz mehnat rezervida turishini bildiradi.

Bankrot (банкрот, bankrupt) – O‘z qarzlarin to‘lash imkoniyat-larga ega bo‘lmagan yuridik shaxs. Bankrotlik mablag‘ yo‘qligi to‘fayli o‘z qarzlarini to‘lashni rad qilishi.

Bankrotlik (банкротство, bankruptcy) – Qarzli nochorlik, tadbirkorning o‘z qarz majburiyatlari bo‘yicha mablag‘i bo‘lmaganligi uchun tulashdan bosh tortishi. Kompaniya sudning qarz majburiyatlari bo‘yicha hisoblashish qobiliyati yo‘qligi haqidagi qaroridan so‘ng formal darajada bankrot bo‘lib qoladi. Sud korxonaning o‘z iltimosi (o‘z xohishi bo‘yicha tugatilishi) yoki uning kreditlari talabi bilan (majburiy tugatilish) haqida qaror chiqaradi.

Biznes (бизнес, businees) – Foyda beradigan iqtisodiy faoliyat, har qanday daromad yoki boshqa shaxsiy foyda keltiradigan tadbirkorlikni istalgan turi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor.

Biznes odobi (деловая этика, business ethics) – Tadbirkorlikni vijdonan yuritish talabi.

Biznesmen (бизнесмен, businessman) – Komersant, daromad yoki boshqa shaxsiy foyda keltiradigan iqtisodiy faoliyatning istalgan qonuniy turi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor.

Biznes reja (бизнес–план, business plan) – Korxona kelajagining asosiy jihatlarini, kelgusida duch keladigan barcha muammolarni va ularni yechish yo‘llarini yoritib beradigan hujjat.

Bitim (сделка, deal) – Ichki xo‘jalik va tashqi iqtisodiy faoliyatlar sohasida yuridik hamda jismoniy shaxslar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni o‘zgartirish yoki to‘xtatishga yo‘naltirilgan harakat.

Boj (пошлина, tariff) – Bojxona nazorati tomonidan chetdan olib kelinadigan tovarlardan chegarada undiriladigan pul yig‘imi.

Bojxona (таможня, custom) – Tovar (xizmat), mahsulotlarning eksporti va importi operatsiyalarini nazorat qiluvchi va boj to'lovlarini to'lovchi tashkilot.

Bojxona bojlari (таможняя платёжа, customs house of payment) – Milliy chegaradan olib o'tadigan tovarlarga ma'lum bir stavkalar bo'yicha davlat soladigan to'lov.

Bozor (рынок, market) – Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchi va haridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisi.

Bozor infratuzilmasi (рыночния инфраструктура, market infrastructure) – Bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimi. Masalan: bank, kredit uyushmalari, tovar birjalari va boshqalar.

Bozor islohotlari (рыночная реформа, market reform) – Bozor iqtisodiyotini va boshqa munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Bozor iqtisodiyoti (рыночная экономика, market economy) – Tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasiga asoslangan iqtisodiy monopolizmni inkor qiluvchi, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga asoslangan iqtisodiy tizim.

Bozor kon'yunkturasi – Muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo'lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

Bozor mexanizmning afzalliklari (преимущества рыночного механизма, benefits of market mechanism) – 1) Resurslarning samarali taqsimlanishi - bozor resurslarini jamiyatga zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga yo'naltiradi; 2) g'oyat cheklangan axborot mavjud bo'lganida uning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining mumkinligi; 3) ilmiy-texnika revolyutsiyasi natijalaridan oqilona foydalanish. Tovar ishlab chiqaruvchilar eng yuqori darajada foyda olishga intilib tavakkal qiladilar, yangi tovarlar ishlab chiqaradilar, yangi texnologiyalarni kiritadilar, bu esa ularga raqobatchilari oldida vaqtning afzalliklariga ega imkonini beradi; 4) iste'molchilar va tadbirkorlarning erkin tanlashi va harakat qilishi. Ular o'z qarorlarini qabul qilish, turli bitimlar tuzish, ishchi kuchini yollash va hokazolarda mustaqildirlar; 5) xilma-xil ehtiyojlarni qondirish, tovarlar va xizmatlar sifatini oshirish, tengsizlikka tezroq tuzatish kiritish qobilyatini namoyon qiladilar.

Bozor mexanizmining kamchiliklari (недостатки рыночного механизма, defects of market mechanism) – 1) Takror ishlab

chiqarilmaydigan resurslarning saqlanishiga ko‘maklashmaydi; 2) atrof muhitni himoya qilishning iqtisodiy mexanizmiga ega emas, faqat qonuniy hujjatlar tadbirkorlarni turli xil ekologik ishlab chiqarishni yaratish uchun mablag‘ sarflashga majbur etishi mumkin; 3) bozor ijtimoiy zarur bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishga emas, balki puli bor odamlarni ehtiyojini qondirishga yo‘naltiradi.

Bozor muvozanati (рыночное равновесие, market equilibrium) – Bozordagi talab va taklifning miqdori va tartibi jihatidan bir biriga muvofiq kelishi. Bozor muvozanatini ta’minlashni asosiy yo‘llari: tovar ishlab chiqarishni talab darajasiga yetkazish orqali bozorni to‘ldirish; yetarli tovarlar zaxirasini barpo etish; talabgor tovarlar narxini oshirish; o‘tmay turgan tovarlar narxini pasaytirish; eksport va importning ortishi yoki kamayishi; aholi daromadlarining tovarlar va xizmatlar ko‘payishiga qarab ortib borishi; mehnat unumdorligining ish haqiga nisbatan tezroq o‘sishi. Bozor muvozanati ma’rifatli jamiyatda bozorni tartibga solish orqali ta’minlanadi.

Bozor obyekti (рыночний объект, market object) – Bozorga ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtiriladigan moliyaviy aktivlar.

Bozor subyekti (рыночний субъект, market subject) – Bozorning, ayirboshlash munosabatlarining qatnashuvchilari.

Bozor tizimlari (рыночная система, market system) – Bozorlar quyidagi asosiy turlarga – subbozorlarga, bozor sigmentlariga bo‘linadi. Umuman bozor boy va murakkab tuzilishi bilan xarakterlanadi. U turli mezonlar bo‘yicha tavsiflanadi: 1) Bozor munosabatlari obyektlarining iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha iste’mol mollari va xizmatlari bozori, sanoat mollar bozori, oraliq mollar bozori, nou-xau bozori, xomashyo bozori, mehnat bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori, chayqov bozori, ikkilamchi xomashyo bozori va boshqalar; 2) geografik holati bo‘yicha mahalliy, milliy, jahon; 3) raqobatni cheklash darajasi bo‘yicha – monopolistik, oligopolistik, monopsonik, erkin, aralash; 4) tarmoqlar bo‘yicha – avtomobil, kompyuter, neft va boshqalar; 5) sotish xususiyatiga ko‘ra ulgurji, chakana bozorlarga bo‘linadi.

Bozor qiymati (рыночний стоимость, market value) – Xarajatlari belgilangan tarzda ishlab chiqarilgan tovarning qiymati. Bu qiymat tovarlarni bozordagi bahosini tartibga solib turadi.

Bosqichma-bosqich o‘tish (пройти по этапам, to pass on stages) – Jamiyat taraqiyotining, uning bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tishning asosiy shakllaridan biri.

Boshqarish (управлять, management) – 1) Boshqarish, idora qilish; 2) subyekt va organlar tomonidan kishilar hamda iqtisodiy obyektlarga

ularning harakatini yo‘naltirish va kutilgan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan ongli ravishdagi maqsadli ta’sir.

Broker (брокер, broker) – Vositachi manfaatdor tomonidan - mijozlar o‘rtasida ularning topshiriqlari va hisobidan turli ishlarni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi (tijorat, kredit, sug‘urta va boshqalar). Broker komission (vositachilik) haqi oladi. Brokerlik vazifasini firma va tashkilotlarning shaxslari bajaradilar. Broker aynan birjada o‘z ishini amalga oshiradi. Broker sotuvchi va haridorni «birlashtiradi», lekin o‘z hisobidan ish yuritmaydi.

Bunak to‘lovi (авансовый платеж, advance payment) – Moddiy boyliklar berish, biror ishni bajarish yoki xizmat ko‘rsatishdan avval beriladigan ma’lum miqdordagi pul to‘lovi. Bunak to‘lovi kredit berishning alohida shakli bo‘lib, u mahsulot yetkazib beruvchilar, ish bajaruvchilar yoki xizmat ko‘rsatuvchilarning muomaladagi aylanma mablag‘ini ko‘paytirishga omil bo‘ladi.

Byudjet (бюджет, budget) – Davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo‘ljallangan pul ifodasining daromadi va sarf xarajatlari.

Bo‘yruqbozlik iqtisodiyoti (экономика команды, command economy) – Resurslarning taqsimlashga ta’luqli eng muhim qarorlari hukumat idoralari tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy tizim.

V

Valyuta (валюта, currency) – Mamlakatning pul tizimiga asos qilib olingan birlik, pul tizimining turi (oltin, kumush, qog‘oz) o‘z navbatida chet el pullarini belgilash uchun ham ishlatiladi.

Vaqtbay ish haqi (по часовая заработная плата, on hour wages) – Ishchining ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) hisobga olinib, to‘lanadigan ish haqi.

G

Giperinflyatsiya (гиперинфляция, hyperinflation) – Tovarlar bahosi va pul massasining tez sur’atda oshib ketishi. Pul birligi qadrsizlanadi, to‘lov oborotiga salbiy ta’sir etadi. Giperinflyatsiya narxlar oyiga 1,5 barobar oshganda vujudga keladi.

D

Davlat (государство, state) – Foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan, iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan, turli xil byudjet tashkilotlari va muassasalari majmui.

Davlat boji (государственная пошлина, public tariff) – Davlatning maxsus quyilgan yuridik tashkilotlari tomonidan fuqarolar va shaxslardan ularga ko‘rsatilgan bir qancha yuridik hamda boshqa xizmatlar uchun undiriladigan haq.

Davlat buyurtmalari (государственные заказы, public order) – Davlat buyurtmasi ba'zi mahsulot turlariga, ilmiy-texnik dasturlarni bajarish, ilmiy tadqiqotlarni olib borish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish kabilar uchun beriladi.

Davlat mulki (государственное имущество, public property) – Mulk davlatga tegishli bo'lishi, mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish davlat ehtiyorida bo'lishi.

Davlat tasarrufidan chiqarish (разгосударствление, privatisation) – Davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirish.

Davlat tomonidan sotib olish (государственные закупки, public purchases) – Davlat byudjeti hisobidan ichki va tashqi bozorda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning sotib olingan qismi.

Daromadlar (доходы, incomes) – Korxonaning daromadi. Natural va pul ko'rinishida bo'ladi. Daromad soliqli va soliqsiz turlarga bo'linadi. Daromad tushunchasi davlat haqida gap ketganda, milliy daromad, korxona darajasida (yalpi daromad, sof daromad) va alohida shaxslar ko'rilganda aholining pul daromadlari, fuqarolarning real daromadlari va shaxsiy daromad shaklida bo'lishi mumkin.

Daromad samarasi (польза доходов, advantage of incomes) – Narx pasayganda iste'molchi pul daromadlarining sotib olish layoqatining ortishi.

Defitsit (дефицит, deficit) – Taqchillik, kamomad, xarajatlarning kutilgan daromadlardan ortib ketishi.

Dehqon xo'jaligi (кристианское хозяйство, shristian a facilities) – Oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tamorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dotatsiya (дотация, dotation) – Korxona, muassasalarga qaytarib olmaslik sharti bilan zararlarni, bahoni quvvatlash uchun davlat byudjeti hisobidan beriladigan subsidiya (pul mablag'lari).

YO

Yollanma xodimlar – Ish beruvchilar bilan kelishilgan miqdordagi ish haqi evaziga belgilangan ish vaqti davomida topshirilgan xizmatni bajarish majburiyatlarini olib mehnat shartnomalari asosida yollanib ishlaydigan ishchi va xizmatchilar.

J

Jamoa mulki (коллективная собственность, collective ownership) – Mulkchilikning bir shakli sifatida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan

moddiy va ma'naviy boyliklarni birgalikda o'zlashtirishdir. Masalan, ijara korxonalari, jamoa korxonalari, kooperativlar, aksioner jamiyatlari, xo'jalik shirkatlar, assotsiatsiyalar va ijtimoiy tashkilotlar kiradi.

Jamoat birlashmasi (общественное объединение, public association) – Ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashuvi. Masalan: kasaba uyushmasi, siyosiy partiyalar va boshqalar.

Jarima (штраф, fine) – Qonunni, shartnomani yoki belgilangan qoidani buzganligi uchun ko'riladigan tadbir, pul to'lovi; jarima.

Jahon bozori kon'yunkturasi – Jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

Jismoniy shaxs (физическое лицо, physical body) – Iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi va bu jarayonning to'la huquqli subyekti sifatida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs. Jismoniy shaxs o'zining nomidan ish yuritadi, firma yoki korxona kabi hokimiyatda ruyxatdan o'tish majburiyatidan ozod.

Joriy investitsiya (текущие инвестиции, current investment) – Erkin sotiladigan va bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda egalik qilishga qaratilgan kapital.

Joriy kon'yunktura – Muayyan davrda tovarlarga bo'lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui. Joriy kon'yunktura ayni davrdagi milliy va jahon iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

Z

Zararlar (убытки, damages) – Korxona yoki xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarining daromadidan oshib ketgan qismi.

Zararsizlik nuqtasi (безубыточная точка, break-even a point) – Bu shunday ishlab chiqarish hajmki, bunda umumiy ishlab chiqarish xarajatlari so'mmasi sotuvdan kelgan umumiy pul daromadi bilan tenglashadi, ya'ni zarar ham, foyda ham teng bo'ladi.

Zahira (запас, reserve) – FIRMA omborlarida saqlanayotgan tovarlar.

Zahiralar (запасы, reserves) – Bankdagi omonatlarning qat'iy belgilab quyilgan qismi, undan kreditlar berish uchun foydalanish mumkin emas.

I

Ijara (аренда, lease) – Mulkiy yollanish bo'lib, unda ijaraga so'rovchiga ma'lum mukofot pul evaziga ya'ni ijara haqi uchun shartnoma asosida mulk vaqtincha foydalanishga berish.

Ijtimoiy yordam (социальная помощ, social help) – Vaqtincha ishsiz qolgan va mehnat qobiliyatini yuqotgan keksa, kasal fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlashni kafolatlash tizimi. Bu kafolatni amalga oshirish uchun maxsus fondlarda pul mablag'lari tuplanadi. Bu fondlar fuqarolarning o'z mehnat hayoti davomidagi to'lovlariga, ular ishlagan tashkilotlar hamda davlat ajratmalariga asoslangan holda tashkil topadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish (социальное производство, social production) – O'zaro bog'liqlikda va doimiy aloqada bo'lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning birligi.

Ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar (социально-экономические отношение, social economic relations) – Kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladi.

Ijtimoiy siyosat (социальная политика, social policy) – Davlat-ning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

Ijtimoiy to'lovlar (социалные оплаты, social payments) – Kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Imidj (имидж, image) – Xo'jalik faoliyati doirasida korxona yoki tashkilotning ish tarzi, uslubi.

Import (импорт, import) – Ichki bozorda sotish maqsadida tovar, mahsulotlarni chet eldan keltirish; xorij firma tashkilotlari xizmatidan pulli foydalanish; chet el tovar va kapitalini kredit va zayom ko'rinishida mamlakatga keltirish.

Investitsiya (инвестиция, investment) – Ishlab chiqarish (xizmat kursatish)ni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish, foydalarning o'sishi va yangilanishini belgilab beruvchi tadbirlar tizimi.

Investorlar – Xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari. Investorlar obyektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditorlar va xaridorlar rolini bajarishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishlari mumkin. Odatda investorlar kapital quyilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydilar, kontrakt va shartnomalarning shartlarini ishlab chiqadilar va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan - kontraktor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulotning iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

Indeks (индекс, index) – 1) Biror iqtisodiy hodisaning izchil o'zgarib borishini ko'rsatadigan raqamlar ko'rsatkichi; 2) narx, nom va shunday ko'rsatkichlar ro'yxati; 3) harf yoki raqamlarning o'ng tomoniga quyiladigan harf yoki son ko'rsatkichi.

Innovatsiya (инновация, innovation) – Yangi texnika, texnologiya, ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqish uchun mablag'larni yo'naltirish faoliyati.

Innovatsiya jarayoni – Yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda xarakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud: yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish.

Institutsional siyosat – Davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilarini yo'qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo'yicha amalga oshiradigan chora-tadbirlar, hatti-harakatlar.

Integratsiya (интеграция, integration) – 1) Turli bo'limlar, elementlar harakatining bir butunga birlashish jarayoni; 2) iqtisodiy integratsiya - iqtisodiy subyekt (davlat, korxona, firma)larning iqtisodiy, texnologik munosabatlarning o'zaro bog'liqligi oshishi natijasida vujudga keladi.

Inflyatsiya (инфляция, inflation) – Lotincha «inflation» so'zidan olingan bo'lib, shish, bo'rtish, ko'pchish degan ma'noni anglatadi. Inflyatsiya pulning qadrsizlanishi, pul massasining tovar va xizmatlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullar paydo bo'lishi. Iqtisodiyotda baholarning muntazam oshib borish jarayoni.

Inflyatsiya darajasi (норма инфляции, rate of inflation) – Ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizdagi o'zgarishi.

Infratuzilma (инфраструктура, infrastructure) – Takror ishlab chiqarish shartlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo'llar, aloqa, transport, maorif, sog'liqni saqlash va boshqalar.

Inqirozga qarshi mo'ljallangan choralar dasturi – O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012 yillarga mo'ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tabdirlar majmui o'z aksini topgan dastur.

Islohotlar konsepsiyasi (концепция реформы, concept of reform) – Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy g'oyasi.

Iste'mol (потребление, consuption) – Iste'mol qilish, foydalanish, ishlatish; ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining so'nggi fazasi bo'lib, aholining iqtisodiy talablarini ta'minlash jarayonida ijtimoiy mahsulotlardan foydalanish.

Iste'mol bozori (потребительский рынок, consumer the market) – Aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarni ayirboshlanishi.

Ishbay ish haqi (сдельная работа, piecework) – Ishlab chiqargan mahsuloti miqdoriga yoki bajargan ish hajmiga qarab to'lanadigan ish haqi.

Ish vaqti (время работы, hours of work) – Ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining ishlagan vaqt hajmi.

Ishlab chiqarish jarayoni (процес производства, process production) – Insonlarning iste'moli uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan jarayon.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – Ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

Ishlab chiqarish omillari (факторы производства, factors of production) – Tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda qatnashadigan resurslar majmui.

Ishlab chiqarish umumiy samarasi (общая польза производства, general advantage of production) – Ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga sarflangan resurs xarajatlari o'rtasidagi nisbat.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – Ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarib; zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan almash-tirish; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnolo-giyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texno-logiyalarni joriy etish va boshqalar.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar (производительные силы, productive forces) – Ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalarining yig'indisi. Ular ishlab chiqarishni harakatga keltiradi. Asosiy ishlab chiqarish kuchlariga moddiy ne'matlar yaratuvchi mehnatkashlar va mehnat vositalari kiradi.

Ishsizlik (безработице, unemployment) – Iqtisodiy jihatdan aktiv aholining bir qismi o'z ish kuchini qo'llay olmay «ortiqcha» bo'lib,

mehnatning zahira armiyasi bo'lib qolish hodisasi. Turlari: friksion, tarkibiy, mavsumiy, davriy va hududiy.

Ishsizlik darajasi (уровень безработицы, unemployment rate) – Ishsizlar sonining ishchi kuchi umumiy soniga nisbatining foizdagi ifodasi.

Ishsizlik nafaqasi (пособия по безработице, unemployment benifits) – Ma'lum vaqt davomida ishsiz bo'lib qolganlarga ijtimoiy himoyalash maqsadida davlat tomonidan ma'lum muddatda to'lanadigan nafaqa.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (естественная норма безработицы, natural rate of unemloyment) – Real va potensial yalpi ichki mahsulotning oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida hisoblanishi mumkin.

Ishchi kuchi (рабочая сила, labour) – Insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatining yig'indisi.

Ishchi kuchi bandligi (занятость рабочей силы, employment the worker of force) – Ish bilan ta'minlanganlarning umumiy ishchi kuchi sonidagi ulushi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish (восстановить рабочей силы, to restore a labour) – Insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash, yosh ishchilar avlodini yetishtirishdan iborat.

Ish haqi (заработная плата, wage) – Fuqarolarning qilgan mehnatlari, xizmatlari uchun to'lanadigan haq (bir oyda bir marta yoki ikki marta); milliy daromadning bir qismi bo'lib, ishlovchining mehnati uchun son va sifat jihatdan taqsimlanadi, uning shaxsiy iste'moliga kelib tushadi; mehnat uchun mukofot. Masalan, ish haqi, avans, mukofot.

Ixtisoslashtirish (специализация, specialization) – 1) Faoliyatni biron-bir mashg'ulotga, kasb-hunarga yo'naltirish; ijtimoiy mehnat taqsimoti shakllaridan biri; 2) biron-bir cheklangan sohada ma'lumot olish; 3) ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, sanoatda, qurilishda, qishloq xo'jaligida, xizmat ko'rsatish sohasida texnologiyani ixtisoslashtirish - faoliyatini muayyan mahsulot, buyum, detal ishlab chiqarishga yo'nal-tirish.

Iqtisodiyot (экономика, economics) – Cheklangan iqtisodiy resurs-lardan unumli foydalanib insonlar uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilariga yetkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog'liqlikda amal qiladigan faoliyat tizimi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish (стабилизировать экономику, to stabilize economy) – Tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (государственное регулирование экономики, govemment adjustment of economy) – 1) Davlatning xo'jalik subyektlariga va bozor konyunkturasiga bozor mexanizmlariga amal qilishi uchun normal sharoit yaratish, hamda ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etish maqsadida ta'sir etishi; 2) iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tartibga solish bir maromda ishlashini yo'lga quyish; iqtisodiy holatlar va ularning aloqalarining o'zgarishini yoki quvvatlashni ta'minlovchi maqsadli yo'naltirilgan jarayonlar. Mexanizmlari: soliqlar, narxlar, davlat byudjeti va tadbirkorligi, pul-kredit vositalari yordamida muayyan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – Mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozoridagi o'z o'rni va mavqeini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati bo'lib, quyidagilar orqali belgilanadi: mamlakatdagi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarning mavjudligi.

Iqtisodiyotning real sektori – Iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini oladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish (освободить экономику, to exempt economy) – Nima, qancha ishlab chiqarishni, qayerga, qancha bahoda sotishni tadbirkorlikning o'zi belgilashi uchun imkon berish. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkinligini va mustaqilligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish.

Iqtisodiy integratsiya (экономическая интеграция, economic integration) – Xo'jalik subyektlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarning rivojalanish shakli, davlatlar o'rtasida kelishilgan iqtisodiy siyosat yuritish, yagona iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi.

Iqtisodiy islohotlar (экономические реформы, economic reforms) – Iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o'zgarishlarga qaratilgan tadbirlar.

Iqtisodiy model (экономическая модель, economic model) – Sodda fikr, diagramma yoki formula; undan foydalanib, iqtisodiy voqealarni yaxshiroq tushunib olish mumkin.

Iqtisodiy muvozanat (экономическое равновесие, economic balance) – Iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga teng kelish holati.

Iqtisodiy mutanosiblik (экономическая равность, economic equally) – Iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor hamda sifat o'lchamlarining mos kelishi.

Iqtisodiy nochor korxonalar – Muayyan miqdorda kapital yo'qotish, ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo'lmagan mahsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xom ashyo, yonilg'i, mehnat resurslari sarflaydigan qoloq, samarasiz korxona.

Iqtisodiy resurs (экономический ресурс, economic resource) – Ma'lum davrda ma'lum bir mamlakat ixtiyorida to'plangan va mavjud bo'lgan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish), ularni iste'molchilarga yetkazib berish va iste'mol jarayonida qo'llaniladigan vosita, zahiralar va imkoniyatlar manbai.

Iqtisodiy rivojlinish (экономическое развитие, economic development) – Ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topishi.

Iqtisodiy sikl (экономический цикл, economic cycly) – Iqtisodiy rivojlanishning bir holatidan, birin-ketin depressiya, jonlanish, yuksalish fazalarini bosib o'tib, oldingi holatiga qaytib kelgunga qadar o'tgan davr.

Iqtisodiy o'sish (экономический рост, economic growth) – Yalpi ichki mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisoy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

K

Kapital (капитал, capital) – Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish-da xizmat qilib, o'z egasiga daromad keltiradigan ishlab chiqarish vositalari, tovar, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqalar.

Kichik korxonalari (малое предприяти, small business enterprise) – Mustaqil xo'jalik faoliyatini olib boruvchi, o'z balansiga ega bo'lgan, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan foydasini o'zi taqsimlaydigan korxona. Yengil va oziq ovqat sanoatida, metallarga ishlov berish, yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallarni va mebel sanoatida 100 kishi, mashinasozlik, metalurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoatida 50 kishi, fan, ilmiy xizmat, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi, umumovqatlanish va noishlab chiqarish sohasida 25 kishigacha ishlaydigan korxonalar.

Kon'yunktura (конъюнктура, conjuncture) – Konyunktura biror ishning borishiga, oqibatiga ta'sir etuvchi umumiy ahvol, vaziyat, sharoit. Masalan, bozor konyunkturasi, xalqaro konyunktura.

Korxona (предприятие, plant) – Huquqiy shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va

sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan, xizmat kursatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o‘z faoliyatini ro‘yobga chiqaradigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

L

Lizing (лизинг, leasing) – Mashina, asbob-uskunalar, transport vositalarini, ishlab chiqarish binolarini, inshootlarini uzoq muddatli ijaraga berish. Ijaraning bir turi bo‘lib, muayyan davrdan keyin, ijara to‘lovlarining hammasi amalga oshirilgandan keyin ijaraga olingan narsa, ijarachi mulkiga aylanadi.

Litsenziya (лицензия, license) – Ba’zi xo‘jalik faoliyati va tashqi savdo operatsiyalarini bajarish uchun davlat tomonidan beriladigan ruxsat.

Litsenziyalash (лицензировать, license) – Chetdan mol keltirish yoki chet elga mol chiqarish uchun davlat organlari tomonidan litsenziyalash (ijozat berish).

Loyiha (проект, project) – Resurslar va vaqt birligi bilan cheklangan, nazariy ishlanmalar bilan asoslangan loyiha sikli konsepsiyasi ko‘rinishida ta’riflangan, belgilangan jarayonni tayyorlash va maqsadli faoliyatni amalga oshirish.

M

Makroiqtisodiyot (макроэкономика, macroeconomics) – Moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlash-tirilgan milliy iqtisodiyot va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyot.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – Mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o‘lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko‘rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o‘sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Makroiqtisodiy siyosat (макроэкономическая политика, macro-economic policy) – Mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan davlat siyosati.

Malakali ishchi (опытный рабочий, caft worker) – O‘z kasbida yuksak malakaga ega bo‘lgan ishchi. Masalan: duradgor, slesar, avtomexanik va hokazo.

Malakasiz ishchi (без опытный, without skilled) – Umumiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ishchi. Masalan: farroshlar, axlat yig‘uvchilarga nisbatan ishlatiladigan atama.

Marketing (маркетинг, markęting) – Mahsulot ishlab chiqargandan to iste’molchiga yetib borgungacha bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat (общество с ограниченной ответсвенностью, limeted society) – Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi tasis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushga

bo‘lingan xo‘jalik jamiyati. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladi.

Mahsulot (продукт, produce) – Biror faoliyatning moddiy natijasi (mehnat; xizmat ko‘rsatish; ish bajarish). Ishlab chiqarishni iste’mol uchun foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalari va iste’mol uchun ishlatiladigan iste’mol predmetlari; Masalan: yalpi mahsulot, sof mahsulot, sanoat mahsuloti.

Menedjer (менеджер, manager) – Ishlab chiqarish samaradorligi va daromadini oshirish tamoyillari, uslub va tadbirlari majmuidan foydalana oladigan shaxs.

Menejment (менеджмент, management) – Eng samarali ishlab chiqarishni tashkil qilish maqsadida ma’naviy, moliyaviy, moddiy va xom-ashyo manbalaridan foydalanishini boshqarish san’ati.

Mehnat (труд, labor) – Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun inson sarflaydigan jismoniy va aqliy kuch, g‘ayrat.

Mehnat predmeti (предмет труда, subject of work) – Inson mehnati bevosita ta’sir qiladigan, mahsulot tayyorlanadigan resurslar. Masalan, xom-ashyo, material va boshqalar.

Mehnat unumdorligi (производителность труда, labour productivity) – Ma’lum vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqti.

Mehnat qurollari (предметы труда, subjects of work) – Inson uning yordamida tabiatda, mehnat predmetlariga ta’sir ko‘rsatadigan vositalar.

Mikroiqtisodiyot (микроэкономика, microeconomics) – Muayyan iqtisodiy birlikni tahlil qilish, ya’ni birorta ishlab chiqarish korxonasini o‘rganish.

Mikrofirma (микрофирма, mikrofirm) – Band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan, xizmat ko‘rsatish sohasidagi va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida 10 kishidan, ulgurji hamda chakana va savdo-umumiy ovqatlanish tarmoqlarida 5 kishidan oshmaydigan korxona.

Milliy daromad (национальний доход, national income) – Mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilab beruvchi umumlashgan muhim ko‘rsatkich. Sof milliy mahsulot tarkibidan biznesga egri soliqlarni chegirib tashlangan qismi.

Modernizatsiya – Mavjud obyektni takomillashtirish, yaxshilash, uni yangi talab va me’yorlar, texnik shart-sharoitlar, sifat ko‘rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya (финанс, financ) – Pul mablag'larining harakati, ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanishi bilan bog'liq bo'lgan munosabat.

Moliyaviy manbalar – Iqtisodiyotning turli darajasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag'larning kelib chiqish manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarning mablag'lari, davlat byudjeti mablag'lari, qarzga olingan mablag'lar, xorijiy investorlarning mablag'lari va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Monopoliya (монополия, monopoly) – Davlat, korxona yoki jismoniy shaxslarga u yoki bu faoliyat olib borishi uchun berilgan huquq; yirik firmalar, kompaniyalar yoki ularning birlashmalari; yakka hokimlik.

Mulkdor (владелец, owner) – O'z ixtiyoriga ko'ra o'ziga tegishli mol mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi.

Mulkni tasarruf etish (усвоение имущества, mastering of property) – Mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.

N

Narx (цена, price) – Tovar qiymatining pulda ifodalanishi; xo'jalik mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy vosita. Bozor sharoitida narx qiymat o'lchovi, rag'batlantirish omili, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi.

Narxlar indeksi (индекс цен, price index) – Har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Nafaqa (пенсия, pension) – Fuqarolarga ma'lum yoshga yetganda, nogiron bo'lib qolganda, boquvchisini yo'qotganda, ko'p yillik xizmatlari uchun davlat tomonidan beriladigan doimiy pul to'lovlari.

Naflilik (выгодность, profitableness) – Tovarlar kishilarning biron-bir iste'molini qondirish layoqati.

Nominal ish haqi (номинальная зарплата, nominal salary) – Pul shaklidagi olingan ish haqi so'mmasi.

Nou-xau (nou-xau, know-how) – Korxona va professional faoliyatda amaliy qo'llaniladigan tajriba va ilmiy, texnik, ishlab chiqarish, ma'muriy, moliyaviy, tijorat harakteridagi turli xil yangi bilimlar yig'indisi; Nou-xau dan foydalanish litsenziya shartnomalarini tuzish asosida amalga oshiriladi.

O

Obligatsiya (облигация, bond) – Qimmatli qog'oz turi, muddatli qarz majburiyati. Egasiga kafolatlangan daromad olish huquqini beradi. Aksiyadan farqli ularoq, daromad miqdori korxonaning umumiy daromadliligiga bog'liq bo'lmaydi.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati (акционерное общество открытого типа, joint-stock company) – Aksiyadorlar o'zlariga tegishli aksiyalari jamiyatdagi o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi (sotish, hadya qilish va boshqalar) mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati. Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chiqarayotgan aksiyalariga ochiq yoki yopiq obuna o'tkazishga xaqli, jamiyatda aksiyadorlarning soni chegaralanmaydi. Ochiq aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi 50000 AQSH dollar ekvivalenti so'mmasidan kam bo'lmasligi lozim.

P

Pul (деньги, money) – O'ziga xos tovar, barcha tovarlar qiymatining umumiy ekvivalenti. Tovar qiymatini ifodalaydi. Turlari: metall, qog'oz, kredit, elektron pullar ayirboshlashda umumiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Pul to'rtta funksiya (vazifa)ni bajaradi: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arma vositasi, to'lov vositasi.

Pul muomalasi (денежное обращение, monetary circulation) – Tovarlarning pullarga ayriboshlanishini aks ettirib, muomala vositasi va to'lov vositasi sifatida pulning harakatiga aytiladi; tovarlarning doiraviy aylanishi, xo'jalikda tovarsiz to'lov va boshqa hisob-kitoblarga xizmat ko'rsatadi.

Pulning qadrsizlanishi (обесценивание денег, money depre-ciation) – Qog'oz pulning mahsulot va xizmatlar bahosining oshishida namoyon bo'ladi.

R

Raqobat (конкуренция, competition) – Bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurash.

Real daromad (реалный доход, real the income) – Aholining nominal daromadlari so'mmasining tovar va xizmatlari sotib olish layoqati. Aholi real daromadiga nominal daromad so'mmasi bilan birga baholar darajasi, soliqlar va boshqa omillar ham ta'sir qiladi.

Real ish haqi (реалная заработная плата, real wages) – Real, haqiqiy ish haqi, insonning haqiqiy mehnati uchun olgan haqi; moddiy boyliklari va xizmatlar aks etgan ish haqi; real ish haqi nominal ish haqi miqdori, baho darajasi, xizmatlar va olinadigan soliqlar miqdori bilan aniqlanadi.

Reklama (реклама, reclame) – 1) Yangi tovar, uning o'ziga xos belgilari, xizmatlari to'g'risidagi ma'lumot; 2) ommaviy axborot vositalarida tijorat faoliyati (tovar va g'oyalarni e'lon qilish).

Rekonstruksiya (qayta tiklash) – Faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik

bo‘g‘inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo‘qotish yo‘li bilan almashtirish yordamida to‘liq yoki qisman o‘zgartirish.

Rentabellik (рентабелность, efficiency) – Korxona xo‘jalik faoliyatining bir ko‘rsatkichi, ma’lum bir davr davomida korxona faoliyati foydaliligi (zarar ko‘rib ishlashi)ni harakterlab beradi. Mahsulotni sotishdan keladigan foydaning shu mahsulot ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati.

Resurslar (ресурсы, reserve) – 1) Resurs, imkoniyat, boylik manbai; chora, iloj. Masalan: iqtisodiy va moliyaviy resurslar; 2) ishlab chiqarishni ta’minlaydigan omil va vositalari. Iqtisodiy resurslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tabiiy (xom ashyoviy, geofizik), mehnat (inson kapitali), kapital, muomala vositalarini, informatsion va moliyaviy resurslar.

S

Savdo (торговля, trade) – Tovar va xizmatlarni oldi-sotdi qilish shakli. Savdo mehnat taqsimoti natijasida ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molchilarni bir-birlari bilan bog‘lovchi maxsus faoliyat sifatida kelib chiqqan.

Sanatsiya (санация, sanitation) – Moliya va kreditlash tadbirlari tizimi; korxona, shirkat, birlashma, bank va boshqalarning moliyaviy ahvolini yaxshilash, ularni bankrodlikdan saqlash va raqobatdoshlik qobiliyatini oshirish maqsadlariga yo‘naltiriladi.

Sertifikat (сертификат, certifacate) – 1) Moliya (pul) majburiyatini aks ettiruvchi guvohnoma, hujjat; 2) qimmatli qog‘oz turi; 3) tashqi iqtisodiy aloqalarda tovar sifati haqidagi guvohnoma; sug‘urtalangan mulkka yetgan zarar tasnifi, hajmi va sabablarini tasdiqlaydigan hujjat ham sertifikat deb ataladi.

Soliq (налог, tax) – Davlatning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan huquqiy va jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini byudjetga jalb qilish. Masalan: daromad, aksiz va boshqa soliqlar.

Sof foyda (чистая прибыль, net profit) – Korxonalarning yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

T

Tabiiy boylik (естественное богатство, natural wealth) – Milliy boylikning tabiat in’omlaridan iborat bo‘lgan, foydalanishga jalb qiligan, ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladigan qismi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat (внешнеэкономическая деятельность, foreign trade activities) – O‘zbekiston Respublikasi davlat idoralarining, yuridik va jismoniy shaxslarning xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, halqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali hamkorlik

o‘rnatishga, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jami amaliy harakatlaridir.

Tadbirkorlik (предпринимательство, bisinees) – Foyda olish maqsadida fuqarolar va korxonalarning o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyat yuritishi. Masalan, xususiy, jamoa tadbirkorligi. Tadbirkorlikni rivojlantirish bozor iqtisodiyoti shakllanishining asosiy mezonlaridandir.

Taklif (предложение, supply) – Ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan va muayyan paytda bozorga chiqarilgan yoki keltirilishi mumkin bo‘lgan jami tovarlar va xizmatlar miqdoridir. Ishlab chiqaruvchilar bozorda sotishga mo‘ljallangan tovar hajmi taklif qilingan tovarlar miqdoriga aytiladi. Tovarlar taklifining hajmi sotishga chiqarilgan tovarlar so‘mmasi bilan belgilanadi.

Talab (спрос, demand) – Tovar yoki xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning bozorda namoyon bo‘lishi, lekin bu shunchaki ehtiyoj emas balki, to‘lovga qobil, pul bilan ta’minlangan ehtiyojdir.

Tarif (тариф, tariff) – Rasmiy belgilangan stavka, soliq, to‘lov yig‘imi; stavkalar tizimi. Masalan, transport tariflari, aloqa bo‘yicha bojxona tariflari va boshqalar.

Tartibga solish (регулирование, regulation) – Iqtisodiyotning ma’lum bir holatida bo‘lishini ta’minlash. Iqtisodiyotning subyektlari aloqalarini o‘zgarishni yoki quvvatlashni ta’minlovchi, maqsadli yo‘naltirilgan jarayonlar. Masalan: sohalarni, pul-kreditni, moliyani, tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish.

Tashkilot (организация, organization) – Tizim elementlarini tartibga solish va koordinatsiya qilishga qaratilgan boshqaruvning tarkibiy qismi.

Taqsimlanmagan foyda (сохраненный доход, retained earnings) – Rezerv fondiga ajratmalar va dividentlar to‘langanidan so‘ng qoladigan foydaning bir qismi.

Tijorat siri (коммерческая тайна, industrial secret) – Korxonalarning barcha operatsiyalari va hujjatlarini sir saqlash. Bu davlat tomonidan muhofaza qilinib, raqobat kurashida bir vosita hisoblanadi.

Tovar (товар, goods) – Biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo‘lgan ayirboshlash uchun yaratilgan mahsulotdir.

Tovar ishlab chiqarish (производство товара, production of the goods) – Tovarlar o‘zining iste’moli uchun emas, balki bozorda sotish, ayirboshlash uchun va boshqalarning iste’molini qondirish maqsadida ishlab chiqarish.

Turmush darajasi (уровень жизни, standard of living) – Hayot tarzi, kishilarning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirilish darajasi,

aholining iste'mol ne'matlari bilan ta'minlanganlik darajasi. U aholi jon boshiga hisoblangan real daromad bilan belgilanadi.

To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar – Bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital quyilmalar kiritish. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

U

Uy xo'jaligi (домашние хозяйства, housekeeping) – Iqtisodiyotning iste'molchilik sohasida faoliyat ko'rsatuvchi, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste'mol qilinishi.

Unumdorlik (производительность, efficiency) – Ishlab chiqarishning foydaliligi, unumliligi; mahsuldorlik, barakali faoliyat. Mahsulotning hajmi, sifati va mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbat.

F

Farovonlik darajasi – Mamlakat fuqarolarining shinam va betaxlika yashashi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlari, tovarlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanish darajasi.

Firma (фирма, firm) – Korxona, kompaniya, tashkilot (ishlab chiqarish, savdo, transport, bank va boshqa sohalarda). O'zi mustaqil faoliyat yuritadi, ustav fondiga ega.

Foiz (процент, percent) – Hissa, ustama, qo'shimcha foyda; foiz; qarzga olgan pullari yoki material buyumlar (qimmatli narsalar) foydalanganligi uchun kreditorga zayomchining to'lovi.

Foyda (прибыл, profit) – Balans foydasi; tovar mahsulotini ishlab chiqarishdan olingan foyda va hisob foydasiga bo'linadi; tovarlar realizatsiya va xizmatlardan kelgan daromadlar so'mmasidan xarajatlar va soliqlarni chegirib tashlangandan so'ng qolgan mablag'.

Franchayzing (franchayzing, franchising) – Fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, «imtiyoz, yengillik» degan ma'noni bildiradi. 1) Yirik va kichik tadbirkorlik korxonalarining kelishuv shakli; 2) davlatning xususiy korxonaga beradigan maxsus imtiyozi.

Frenchays (привилегия, franchise) – Savdo tarmog'ining nomidan foydalanib xususiy biznes yuritish huquqini beradigan litsenziya (ruxsatnoma).

X

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (международная экономическая интеграция, international economic integration) – Jahon mamlakatlari o'zaro

iqtisodiy aloqalarning chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishi hamda milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik aloqalarining birlashib borish jarayoni.

Xalqaro mehnat taqsimoti (международное разделение труда, international division of labour) – Alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Xarajatlar (расходы, charges) – Ishlab chiqarish faoliyati jarayonida yuzaga kelgan chiqim, xarajatlar, sarflar. Xarajatlarga sotilgan mahsulot tannarxi, noishlab chiqarish ma'muriy xarajatlar, foizlarni to'lash, ijara to'lovi, ish haqi, soliqlar kiradi.

Xolding kompaniyasi (холдинговая компания, holding company) – Boshqa firmalarni nazorat qilish va boshqarish maqsadida aksiya nazorat paketlari bilan ta'minlangan kompaniya.

Xususiylashtirish (приватизация, privatisation) – Davlat mulkining xususiy mulkga aylantirilishi; davlat mulkining fuqarolarga bo'lib berish (sotish) vositasi; jamiyatning rivojlantirish darajasi va holati uchun javobgarlikni taqsimlash shakli.

Xususiy mulk (частная собственность, private ownership) – 1) Mulkning turi; individual mulkning bir shakli sifatida fuqaro foyda olish maqsadida o'z mulkidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Ishlab chiqarish fuqaroni o'z mehnati bilan yoki ishga yollash orqali bo'lishi ham mumkin; 2) ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlariga xususiy shaxslar tomonidan egalik qilinishi va o'zlashtirilishi.

Xususiy tadbirkorlik (частное предпринимательство, private business) – Alohida shaxs yoki korxona tomonidan xususiy tashabbus asosida tashkil qilinadi.

Xufiyona iqtisodiyot (теневая экономика, shadow economy) – Jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va tovar-material boyliklarning iste'moli va xizmat ko'rsatish sohalari. Bu sohalar faoliyati davlat boshqaruv organlaridan yashirincha tarzda olib boriladi. Uni bartaraf etish yo'llari bozorni shakllantirish, markazlashgan rejalashtirishni va davlat monopol xukmronligiga chek quyish kabilardir.

S

Sivilizatsiya (цивилизация, sivilized) – Jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarning, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

CH

Chet el investitsiyalari (иностранные инвестиции, foreign investments) – Tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga

chet ellik investorlar qo‘shadigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar majmui.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar (предприятия с иностранными инвестициями, enterprises with foreign investments) – Chet ellik inestorlarning ulushbay ishtirokidagi (qo‘shma korxonalar) yoki butunlay chet ellik investorlarga qarashli korxonalar.

SH

Shartnoma (договор-контракт, contract) – Shartnoma, bitim, huquq va majburiyatlarni belgilash, o‘zgarishi yoki to‘xtatish to‘g‘risida ikki yoki ko‘p tomonlama kelishuv.

Shaxsiy iste’mol (личное употребление, personal use) – Iste’molchilik tavsifidagi ne’matlar va xizmatlardan bevosita foydalanishni, ya’ni ularning individual tarzda iste’mol qilishi.

Shaxsiy mulk (частная собственность, private property) – Fuqarolik mulki bo‘lib, shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi.

Shaxsiy tadbirkorlik (личное предпринимательства, personal businesses) – Shaxsiy mulkka asoslangan, ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki oila a’zolari mehnati asosida tashkil qilish.

E

Ekvivalent (эквивалент, aqequation) – Biror narsaning o‘rnini bosa oladigan yoki uning ifodasi bo‘lib, xizmat qiladigan teng baholi, teng qimmatli narsa yoki miqdor. Masalan: pul.

Eksport (экспорт, export) – Tashqi bozorda sotish uchun tovar-pullarni chet elga chiqarish. Eksport tarkibiga boshqa davlatlarda qayta ishlab chiqarish uchun olib chiqilayotgan mollar, maxsus eksport uchun mo‘ljallangan tovarlar kiradi.

Elastiklik (эластичность, elasticity) – Bir uzgarishning ikkinchi uncha katta bo‘lmagan uzgarishga ta’siri, masalan: eksport qilinayotgan sanoat tovarlariga valyuta kursi yoki narxlarning uzgarishi bilan talablarning ham uzgarishi.

Erkin bozor (свободный рынок, free market) – Mukammal raqobat qonunlari amal qiladigan bozor.

Ehtiyoj (потребность, need) – Organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot foaliyati va taraqqiyoti uchun obyektiv ravishda zarur bo‘lgan narsalar; ehtiyojning turlari; iqtisodiy, madaniy, siyosiy, manaviy, fiziologik va hokazo.

YU

Yuridik shaxs (юридическое лицо, entity) – Muassasa, korxona yoki tashkilot; inson huquqlari va majburiyatlarining mustaqil subyekti sifatida o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajaruvchi muassasa, tashkilot. Yuridik shaxs mulk bo'yicha sudlarga davogar va javobgar bo'lish huquqiga ega. Qonunda, mamuriy aktda yoki o'z ustavida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshiradi, o'z mulkiga va o'z majburiyalariga mustaqil ravishda javobgardir.

YA

Yalpi ijtimoiy mahsulot (совокупный общественный продукт, gross social product) – Yil davomida jamiyat tomonidan moddiy sohada yaratilgan mahsulotlarning pul birligidagi qiymati; ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy statistik ko'rsatkichlaridan biri.

Yalpi ichki mahsulot (валовой внутренний продукт, gross domectic product) – Mamlakt hududida ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovar va xizmatlar bozor baholarining umumiy yig'indisi.

Yalpi milliy mahsulot (валовой национальный продукт, gross national product) – Mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat (bir chorak, bir yil) davomida ishlab chiqarilgan yakuniy tovar va xizmatlarning umumiy hajmining bozor bahosidagi umumiy yig'indisi.

Yalpi foyda (валовой прибыл, gross profit) – Qiymat bilan sotuv narxi o'rtasidagi tafovut.

O'

O'tish davri (переходной период, transitive the period) – Bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga, mavjud iqtisodiy munosabatlardan butunlay boshqa, yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish taqazo qiladigan davr.

Q

Qimmatli qog'oz (ценная бумага, capital) – 1) Konversiya imtiyoziga ko'ra obligatsiya va aksiyani boshqa qimmatli qog'ozga almashtirish. Muayyan mulkiy huquqni ifodalovchi hujjat. Masalan: aksiya, obligatsiya, veksel va hokazo. 2) egasiga daromad keltiradigan, egalik huquqi yoki zayom ko'rinishidagi pul hujjati. Qimmatli qog'ozga aksiya, obligatsiya davlat g'azna majburiyatlari, omonat sertifikatlari va veksellar kiradi. Qo'shilgan qiymat keltiradigan daromadga qarab har xil narxda sotiladi.

Qonun (закон, act) – Konstitutsiyada asosan davlat organi tomonidan qabul qilingan normativ akt.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risida»gi Qonuni. 1990-yil 31-oktyabr. - O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining Vedomostlari, 1990-yil, 31–33-sonlar.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risida»gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘zbekiston Qonuni, 1993-yil 7-may. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993-yil, 5-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni, 1991-yil 19-noyabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 1-son.

4. O‘zbekiston Respublikasining «Monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida»gi Qonuni, 1992-yil 2-iyul. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 10-son.

5. O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni, 1993-yil 28-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil 2-son.

6. O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni, 1993-yil 28-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil. 2-son.

7. O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonuni, 1994-yil 5-may. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, 5-son.

8. O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni, 1996-yil 26-aprel. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1996 yil. 5-6 son.

9. O‘zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatini cheklash va raqobat to'g'risida»gi Qonuni, 1996-yil 27-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997-yil, 2-son.

10. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni, 2012-yil 24-dekabr.

11. O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 24- dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 1-son.

12. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 24-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 1-son.

13. O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 14-aprel. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 5-son.

14. O‘zbekiston Respublikasining «Faoliyatni ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi Qonuni, 2000-yil 25-may. O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 8-son, 2000.

15. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni. 2000-yil 25-may. O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. 8-son. 2000.

16. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxona to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti «parliament gov.uz».

17. O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni (1996, 1997, 1998, 1999, 2001, 2006, 2007, 2008, 2009, 2010-yillarda kiritilgan o‘zgarishlar bilan). O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti «parliament gov.uz».

18. O‘zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi», T.: «Adolat» nashriyoti, 2007.

19. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 2007-yil 25-dekabr.

20. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T.: «O‘zbekiston», 1995.

21. Karimov I.A. O‘zbekiston - bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. T.: «O‘zbekiston», 1995.

22. Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining tamoyillari. T.: «O‘zbekiston», 1995.

23. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2009.

24. Karimov I.A. «Mamalakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir». I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi (27.01.2010).

25. Karimov I.A. «Mamalakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi». I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi (27.01.2010).

26. Karimov I.A. «Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir». I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi (07.12.2011).

27. Karimov I.A. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichiga ko‘taradigan yil bo‘ladi» mavzusidagi ma’ruzasi (12.01.2012).

28. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi, 2013-yil 22-yanvar, 9-son (22.167).

29. «Davlat korxonalari to‘g‘risida»gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabr 215-son Qaroriga 1-ilova.

30. «Инструкция по статистике численности заработной плате работающих по найму» O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligining 1998-yil 26-oktyabr 33-sonli qarori.

31. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik, T.: «Fan», 2005.

32. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik I qism. T.: «Iqtisod va moliya», 2010.

33. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik II qism. T.: «Iqtisod va moliya», 2010.

34. Abdukarimov B.A., Abdukarimov F.B. «Savdo sohasida investitsiyaviy loyihalar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni baholash yo‘llari». Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning nazariy va metodologik muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: «NOSHIRLIK YOG’DUSI» nashriyoti, 2009.

35. Абдукаримов Ф.Б. Научно-теоретические аспекты экономической эффективности торговли в условиях модернизации экономики и повышения благосостояния людей. Реализации антикризисной программы – основа далнейшего развития нацио-

нальной экономики и повышения его конкурентоспособности. Сборник научних трудов М.: МГЕИ, 2010.

36. Abdukarimov I.T., Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2003.

37. Акио Морита. Сделано в Японии. М.: «Знание», 1991.

38. Бизнес план фирмы. Буров В.П. и др. М.: «ЭКМОС», 2000.

39. Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. T.: «O'qituvchi». 1996.

40. Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes-rejaning mohiyati. Ma'ruza matni, Abdukarimov B.A. Samarqand, 1997.

41. Вечный дух предпринимательства. Кадзуми Татенси. Киев. «Укрзакардонвизасервис». 1992.

42. Ворст Й., Ревентлоу П. Экономика фирмы. Учебник. (перевод с датского). М.: «Высшая школа», 1994.

43. Давидяну Д.Б. Показатели и оценка эффективности и экономики в условиях рыночных отношений (Макро и Микроуровни). Ставропол. «Кавказский край», 1998.

44. История менеджмента. М.: «ИНФРА-М». 1997.

45. Как работают японские предприятия. М.: «Экономика», 1989.

46. Киселев А.П. Теория и практика современного бизнеса. Киев «ЛИБРА», 1995.

47. Korxonaning bozor modeli. Ma'ruza matni. Qutbetdinov A.T., Abdukarimov B.A., Samarqand, 2000.

48. Pardayev M.Q., Abdukarimov B.A. Mehnat iqtisodi va sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2002.

49. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma, I-II qism. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2001

50. Pardayev M.Q., Aminov Z.Yu. «Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va uni ta'minlash yo'llari». Samarqand. «Zarafshon», 2008.

51. Parpiyev U., Salomov I. Bozor iqtisodiyoti asoslari va ishlab chiqarishni tashkil etish. T.: «Sharq», 1996.

52. Райзберг Б.А. Основы экономики. Учебное пособие. М.: «ИНФРА-М». 2000.

53. Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник – М.: СВК Маркетинг, 2009.

54. Рубин Ю.Б. Бизнес и экономика. М.: «Знание», 1991.

55. Современная экономика, Учебное пособие. Коллектив авторов. Ростав-на-Дону, «Феникс», 1996.

56. Suleymanov Sh.S. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. O‘sh, 1998.

57. Chjen V.A., va boshqalar. Xususiylashtirish asoslari. I, t., T.: «Iqtisod va huquq uyi», 1996.

58. Chjen V.A., va boshqalar. Pul va moliya bozorlari. II, t., T.: «Biznes katalog», 1996.

59. Chjen V.A., va boshqalar. Bozor qonuniyati asoslari. III, t., T.: «Biznes katalog», 1996.

60. Chjen V.A., va boshqalar. Bozor va ochiq iqtisodiyot IV, t., T.: «Biznes katalog», 1996.

61. Chjen V.A., va boshqalar. Bozor sharoitida mintaqaning tarmoq taraqqiyoti. V, t.. T.: «Biznes katalog», 1997.

62. Ekonomika bo‘yicha terminlarning izohli lugati. Abdukarimov B.A., Qutbetdinov A.T. va boshqalar. T., 1996.

63. Экономика предприятия. Учебник. Под. ред. Пред. В.Я.Горфинкеля, проф. В.А. Швандара. М.: «ЮНИТИ». 2000 г.

64. Экономика предприятя. Учебник. Коллектив авторов. Минск. Экономпресс, под.ред. В.А.Хрипача, 2000.

65. Экономика предприятия. Ф.К. Беа, Е.Дихтла, М.Швейт-сера. Учебник. М.; Издательский дом «ИНФРА-М», 1999.

66. Экономика предприятия. Учебник. Ю.Д.Дадабоев и др. Ферганский научный центр. Т., 1998.

67. Экономика предприятия. Тексты лекций. Махмудов Е.Х., Юлдашева Ш.М.: Каландарова С.Г. ТДИУ, Т., 2000.

68. Экономика предприятия (фирмы). Учебник. Коллектив авторов. М.: ИНФРА – М. 2004.

69. Экономика предприятия. Учебник для вузов. Коллектив авторов, под. редак. акад. В.М.Семенова – СПБ.: Питер, 2007.

70. Экономическая безопасность предприятия и защита коммерческой тайни. Учебное пособийе. Истамов Д.И., Гранаткин Ю.А., Мухаммедов М.М., Ходжаев Е.Н. Самарканд, 1995.

71. Экономическая теория. Учебник. Коллектив авторов. Т.: «Шарқ», 1999.

72. G‘ozibekov D.Ye. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003.

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I BOB. Kursning mazmuni va vazifasi

1.1. Iqtisodiyot jamiyat hayotining asosi..... 8

1.2. Iqtisodiy tuzumning turli modellari..... 10

1.3.«Korxona iqtisodiyoti» kursining iqtisodiyotdagi ahamiyati va iqtisodiy fanlar tizimidagi o‘rni..... 26

1.4.Kursning obyekti, predmeti va vazifalari..... 33

1.5.Korxona iqtisodiyoti fanining usullari..... 40

II BOB. Korxona-mustaqil xo‘jalik yurituvchi bozor subyekti

2.1. Korxona – bozor iqtisodiyotining xo‘jalik subyekti, uning maqsadi va vazifalari..... 49

2.2. Korxona tushunchasi, belgilari, shakllari, turlari va ularning birlashmalari..... 56

2.3. Korxonalar faoliyatini litsenziyalash..... 67

2.4. Davlat korxonalarini isloh qilish..... 70

2.5. Korxona faoliyatini iste’molchilar talabiga yo‘naltirish..... 75

III BOB. Korxonani tashkil etish va uning faoliyatini to‘xtatish

3.1. Korxonani tashkil etish qoidalari..... 80

3.2. Korxonani barpo etish hujjatlari va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi..... 82

3.3. Korxona mulki..... 91
3.4. Korxonaning moliyaviy barqarorligi..... 92
3.5. Korxonaning tashqi iqtisodiy shartnomalari..... 96

IV BOB. Korxona va uning tarkibiy bo'linmalarini boshqarish

4.1. Korxona faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning obyektiv zarurati..... 102
4.2. Korxonani boshqarishning zamonaviy tamoyillari, shakllari va usullari..... 107
4.3. Ishlab chiqarishni va ishlab chiqarish bo'g'inlarini boshqarish..... 115
4.4. Ishlab chiqarishni tashkil qilish va korxonani boshqarishda rahbarning o'rni..... 119

V BOB. Korxona faoliyatini rejalashtirish va prognozlash

5.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning metodologik asoslari..... 124
5.2. Rejalashtirish tamoyillari, metodlari va ko'rsatkichlari..... 133
5.3. Korxonada rejalashtirish tizimi va rejaning turlari..... 135
5.4. Korxona faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar..... 136
5.5. Korxona rejasining bo'limlari va ko'rsatkichlari..... 139
5.6. Biznes-reja tushunchasi, turlari va tarkibi..... 141

VI BOB. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

6.1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko‘rsatkichlari..... 146
6.2. Ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy, absolyut va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi..... 158
6.3. Xarajatlarni qoplash muddati – xarajatlar samaradorligining muhim ko‘rsatkichi..... 163
6.4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari..... 164

VII BOB. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati

7.1 Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o‘rni..... 169
7.2 Asosiy fondlarning turlari va tarkibi..... 172
7.3 Asosiy fondlarni baholash, eskirishi va ta’mirlash..... 176
7.4 Amortizatsiya ajratmalari — asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning muhim manbai..... 181
7.5 Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo‘llari..... 184

VIII BOB. Korxonaning aylanma mablag‘lari

8.1. Aylanma mablag‘larning iqtisodiy mohiyati va korxona faoliyatidagi roli..... 198
8.2. Aylanma fondlarining tarkibi, tuzilishi va shakllanish

manbalari..... 202
8.3. Aylanma mablag'larni normalashtirish..... 206
8.4. Aylanma mablag'lardan foydalanishni yaxshilash va ularning samaradorligini oshirish yo'llari..... 213

IX BOB. Xodimlar va ularning korxona faoliyatidagi o'rni
9.1. Bozor munosabatlari sharoitida xodimlarni tanlash tamoyillari, ularning tarkibi va tasnifi..... 219
9.2. Mehnat unumdorligi konsepsiyasi va uning korxona faoliyatidagi ahamiyati..... 230
9.3. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichlarining tasnifi va tavsifi.. 233
9.4. Mehnatga haq to'lashning qoidalari, shartlari va korxonada ish haqini tartibga solish..... 238

X BOB. Ishlab chiqarish xarajatlari, foydasi va rentabelligi
10.1. Xarajatlar to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi..... 261
10.2. Foyda va uni shakllantirish manbalari, foydani taqsimlash tartibi va uni ko'paytirish yo'llari..... 271
10.3. Rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko'rsatkichlari..... 275
10.4. Foyda va rentabellikga ta'sir qiluvchi omillar..... 277

XI BOB. Korxonaning investitsiyaviy faoliyati
11.1. Investitsiyalarga oid tushunchalar mazmuni, investitsiya tasnifi, ahamiyati, investitsion «portfeli» va siyosati..... 290
11.2. Investitsiya manbalari va ularning korxonaga qo'yish sohalari..... 295

11.3. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi ko‘rsatkichlari, ularni aniqlash, baholash va samaradorligini oshirish yo‘llari ... 297

XII BOB. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri

12.1. Korxona iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi va tasnifi..... 303

12.2. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning maqsadi va vazifalari..... 306

12.3. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi..... 310

12.4. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash tamoyillari, tashkil etish va boshqarish..... 314

12.5. Korxonada iqtisodiy xavfsizlik xizmati, uning funksiyalari va tarkibi..... 317

12.6. Korxonaning tijorat siri mohiyati..... 323

12.7. Korxona tijorat sirini himoya qilish mexanizmi 325

12.8. Raqobatchilar to‘g‘risida axborot olish uslublari..... 327

Glossariy..... 334

Foydalanilgan adabiyotlar 358